


B.F.IZBOSAROV, I.R.KAMOLOV



UMUMIY FIZIKADAN LABORATORIYA ISHLARI



“Voris-nashriyot”

53
Y-27

B. F. Izbosarov, I. R. Kamolov

... 6

... 8

17

19

25

27

30

32

35

37

UMUMIY FIZIKADAN laboratoriya ishlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
omonidan Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan

40

44

48

52

54

57

53

57

0


2

6

9

3

7




«VORIS-NASHRIYOT»
TOSHKENT – 2007

Taqrizchilar: Pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent **T. Rizayev** (Toshkent DPU);
fizika-matematika fanlari nomzodi,
dotsent **A. K. Qutbedinov** (Navoiy DPI);
fizika-matematika fanlari nomzodi
A. A. Axmedov (Navoiy DPI);
fizika-matematika fanlari nomzodi
R. M. Rajabov (Samarqand DU).

Ushbu „Umumiy fizikadan laboratoriya ishlari“ o‘quv qo‘llanmasi Pedagogika Oliy o‘quv yurtlarining „Kimyo-ekologiya“, „Biologiya va inson hayotiy faoliyati xavfsizligi“ hamda „Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari“ ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2006-yilda tasdiqlangan fan dasturi asosida tuzilgan („Fizika-astronomiya“ ta’lim yo‘nalishi uchun tasdiqlangan o‘quv dastur asos qilib olingan). O‘quv qo‘llanmaning asosiy maqsadi talabalar nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash, amaliy ko‘nikma va malakalarini yanada mustahkamlash hamda ularni fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yo‘naltirilgan. O‘quv qo‘llanmada 55 ta laboratoriya ishlari yozilgan bo‘lib, unda 70 dan ortiq laboratoriya topshiriqlari, ko‘plab ilovalar va 500 dan ortiq testlar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanma akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun ham foydalidir.



So‘z boshi	6
------------------	---

I BO‘LIM. MEXANIKA

1. Frontal laboratoriya ishi.....	8
2. Tekis tezlanuvchan harakatda tezlanishni aniqlash	17
3. Gorizontal, vertikal va burchak ostidagi jismning harakatini o‘rganish	19
4. Yer tortishish kuchining tezlanishi „g“ ni matematik mayatnik yordamida aniqlash	25
5. Maxovik g‘ildirakning inersiya momentini aniqlash.....	27
6. Halqa yordamida yer tortishish kuchining tezlanishi „g“ ni aniqlash.....	30
7. Qattiq jismlarning sirpanish-ishqalanish koefitsiyentini aniqlash	32
8. Turli jismlarning sirpanish-ishqalanish koefitsiyentini aniqlash	35
9. Qattiq jismlarning aylanma harakat dinamikasining asosiy qonunlarini tajribada tekshirish	37
10. Atvud mashinasi yordamida ilgarilanma harakat dinamikasi qonunlarini o‘rganish	40
11. Harakat miqdori saqlanish qonunini o‘rganish	44
12. Materialning elastiklik modulini aniqlash	48

II BO‘LIM. MOLEKULYAR FIZIKA

1. Gaz molyar doimiyligini havoni so‘rib olish usuli bilan aniqlash....	52
2. Havo bosimining termik koefitsientini aniqlash	54
3. Gaz molekulasining erkin yugurish yo‘li va effektiv diametrini aniqlash	57
4. Gey-Lyussak qonunini tajribada tasdiqlash	63
5. Havoning nisbiy namligini psixrometr yordamida aniqlash	67
6. Tomchi usuli bilan suyuqlikning sirt taranglik koefitsiyentini aniqlash	70
7. Qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig‘imini aniqlash	72
8. Suyuqlikning solishtirma issiqlik sig‘imini aniqlash	76
9. Tomchi usuli bilan suyuqlikning sirt taranglik koefitsiyentini aniqlash (2-usul)	79
10. Stoks usulida suyuqlikning ichki ishqalanish koefitsiyentini aniqlash	83
11. Gazlarning solishtirma issiqlik sig‘imlari nisbatini Klemon-Dezorma usuli bilan aniqlash	87

III BO'LIM. ELEKTROMAGNETIZM

1. Frontal laboratoriya ishi	92
2. Elektrostatik maydonni o'rganish	97
3. O'tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash	101
4. O'tkazgichlarning solishtirma qarshiligini o'Ichash	104
5. Misning elektrokimyoviy ekvivalentligini hisoblash	107
6. O'tkazgich qarshiligining temperaturaga bog'liqligini o'rganish ...	109
7. Toklar rezonansini o'rganish	113
8. Tok manbaining elektr yurituvchi kuchi va ichki qarshilagini aniqlash	116
9. Uitston ko'prigi yordamida noma'lum qarshilikni aniqlash	118
10. Noma'lum qarshilikni ampermetr va voltmetr yordamida aniqlash	122
11. Cho'g'lanma lampaning quvvati va qarshilagini voltmetr hamda ampermetr yordamida hisoblash	127
12. Issiqlik elektr yurituvchi kuchni aniqlash	132
13. G'altakning induksiya koeffitsiyentini aniqlash	136
14. Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisini aniqlash	139
15. Yarim o'tkazgichli diodning volt-amper xarakteristikasini olish	142
16. Transformatorning foydali ish koeffitsiyentini aniqlash	148
17. Kondensatorning elektr sig'imini aniqlash	152
18. Solenoid o'qidagi magnit maydonni o'rganish	155

IV BO'LIM. OPTIKA

1. Shisha plastinkaning sindirish ko'rsatkichini aniqlash	160
2. Suyuqliklarda yorug'likning yutilish koeffitsiyentini aniqlash	161
3. Yoritilanlik qonunlarini o'rganish	164
4. Difraksion panjara yordamida yorug'likning to'lqin uzunligini aniqlash	169
5. Qand eritmasi konsentratsiyasini saxarimetr yordamida aniqlash...	174
6. Fotoelementning sezgirligini aniqlash	182
7. Tashqi fotoeffekt hodisasini o'rganish	187
8. Plank doimiysini aniqlash	190
9. Refraktometr yordamida suyuqlikning sindirish ko'rsatkichini aniqlash	191
10. Mikroskop yordamida shishaning sindirish ko'rsatkichini va jismlarning o'lchamlarini aniqlash	195

11. Yorug'lik interferensiysi hosil bo'lishini o'rganish	200
12. Stefan-Bolsman doimiyini aniqlash	204
13. Spektroskopni darajalash	208
Testlar	213
Ilovalar.....	269
Foydalanilgan adabiyotlar	285

*Nazariy bilimlar bilan amaliy
bilimlarning umumlashuvi ilm
cho'qqisidir.*

Ibn Sino

SO'Z BOSHI

Mustaqil O'zbekistonimizning jahon hamjamiyatining teng huquqli, suveren davlati sifatidagi yutuqlari qit'alar osha dunyoning turli mintaqalariga yetib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilangan O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining ustivor yo'nalishlarini Respublikamizning har bir fuqarosi qalbiga jo qilib, umidbaxsh tuyg'ular sari bormoqdalar. Hozirgi paytda xalqimiz oldida turgan eng muhim vazifa, mustaqilligimizning iqtisodiy poydevorini mustahkamlab, jahoning eng ilg'or, rivojlangan demokratik davlatlari qatoridan joy olishdir.

Bunday vazifalarni bajarishda ta'lif tizimining Oliy ta'lif bosqichi ta'limining ahamiyati keskin ortishi shubhasizdir. Ta'lif-kishining butun hayot yo'li davomida zarur bo'ladigan ko'nikma va madaniy saviyasini yuksaltirib boradi, bilimga intilish va dunyoqarashni shakllantirishga olib keladi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lif sohasiga ham katta davlat e'tibori qaratildi. Buning natijasi o'laroq Respublikamizda „Ta'lif to'g'risida“gi Qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ qabul qilindi. Hozirgi kunda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ning rivojlanish bosqichidagi asosiy vazifalardan biri ta'lif muassasalarini yangi o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashdir. Ta'lif oluvchining bilim saviyasini oshirishda, dunyoqarashini yanada kengaytirishda, ijtimoiy hayotdagi faolligini yuqori darajada ko'tarishda o'quv adabiyotlarining o'mi muhimdir.

Talabalar hukmiga havola etilayotgan ushbu „Umumiy fizikadan laboratoriya ishlari“ o'quv qo'llanmasi Pedagogika Oliy o'quv yurtlarining „Kimyo-ekologiya“, „Biologiya va inson hayotiy faoliyat xavfsizligi“ hamda „Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari“ ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan 2006-yilda tasdiqlangan fizika fani dasturi asosida tuzilgan („Fizika-

astronomiya“ta’lim yo‘nalishi uchun tasdiqlangan fan dasturi asos qilib olingan). O‘quv qo‘llanmaning •asosiy maqsadi talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, amaliy ko‘nikma va malakalarini yanada mustahkamlash hamda ularni fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yo‘naltirilgan. O‘quv qo‘llanmaga 55 ta laboratoriya ishi kiritilgan bo‘lib, unda 70 dan ortiq laboratoriya topshiriqlari keltirilgan. Talabalarga yengillik bo‘lishi uchun har bir laboratoriya ishida ishning maqsad va vazifalari, kerakli asbob va qurilmalar, qisqacha nazariy qism, ishni bajarish tartibi, sinov savollari va doimiy fizik kattaliklar uchun ilovalar ham berilgan bo‘lib, bular talabalarning mustaqil ishlashi va fanni muvafaqqiyatli o‘zlashtirishlariga amaliy yordam beradi. O‘quv qo‘llanmaning yozilishida mavzular ketma-ketligi va fanlararo bog‘lanishga ham yetarlicha e’tibor qaratilgan. Talabalar Mustaqil tayyorlanishini nazorat qilish maqsadida o‘quv qo‘llanmada 500 dan ortiq test savollari berilgan. O‘quv qo‘llanmada berilgan laboratoriya ishlari asosan Oliy o‘quv yurtlarida mavjud o‘quv asboblari yordamida bajarilishi mumkin.

I BO'LIM
MEXANIKA

1-FRONTAL LABORATORIYA ISHI

FIZIK KATTALIKLARNI O'LCHASH VA
XATOLIKLARNI HISOBBLASH

Ishning maqsadi: Mikrometr va shtangensirkuldan to'g'ri foydalanishni, bilvosita va bevosita o'lhash usulida absolyut va nisbiy xatoliklarni hisoblashni o'rGANISH.

Kerakli asbob va qurilmalar: mikrometr, shtangensirkul, chizg'ich, o'lchanadigan jismilar.

Fizik kattaliklarni o'lhash

Fizika fani bizni o'rab olgan moddiy dunyodagi hodisalar haqidagi ma'lumotlarni tajriba orqali yig'adi. Laboratoriya sharoitida muayyan hodisa u yoki bu faktorning ta'sirini o'rGANISH maqsadida fizikaviy tajriba o'tkaziladi.

Fizikaviy kattalik – biror sifatni miqdoriy xarakterlovchi kattalikdir. Fizikaviy kattaliklar yordamida har qanday jarayonni matematik ifodalash mumkin. Fizikaviy kattalikni o'lhash uni etalon qilib qabul qilingan bir jinsli miqdor bilan o'zaro solishtirish jarayonidan iboratdir. O'lhashlarni ikkiga bo'lish mumkin.

1) bevosita o'lhash;

2) bilvosita o'lhash;

Agar o'lhash asboblari yordamida aniqlash lozim bo'lgan o'lchamga erishsak, bunday o'lhash usuliga bevosita yoki to'g'ridan-to'gri o'lhash deyiladi. Masalan, vaqtini, uzunlikni, tok kuchini va shunga o'xshashlar. Bevosita o'lchangan kattaliklar ustidan biror matematik operatsiya (ko'paytirish, bo'lish, ildiz chiqarish, logarifmlash va h.k.) bajarib aniqlanishi lozim bo'lgan natijaga erishilsa, bilvosita (vositali) o'lhash deyiladi. Masalan, matematik mayatnik tebranish davri $T=2\pi\sqrt{\frac{\ell}{g}}$ hisoblash qonunida erkin tushish tezlanishi $g=4\pi^2 T^2$ orqali „g“ ni hisoblash mumkin. Bu yerda ℓ va T lar bevosita o'lchanadigan kattaliklar bo'lib, g esa bilvosita o'lchanadigan kattaliklar. Har qanday fizik kattaliklarni o'lchaganda turli sabablarga ko'ra

xatoliklarga yo'l qo'yiladi. O'lhash usuli yoki asboblarni mukammallashmaganligi tufayli vujudga keladigan xatoga *sistematik xato* deyiladi. Bunday xatolik boshqa usul bilan o'lchab ko'rib amalgalashiriladi. Har xil sabablarga ko'ra vujudga keladigan xato *tasodifiy xatolik* deyiladi. Masalan: tashqi sharoitni keskin o'zgarishi va shunga o'shashshlar. Tasodifiy xatolikni kamaytirish faqat tajribani ko'p marta takrorlash natijasida hisobga olinishi mumkin.

Eksperimentatorlarning e'tiborsizligi tufayli vujudga keladigan xatoliklar *qo'pol xatoliklar* deyiladi. Masalan, o'lchov asboblarning shkalasidan noto'g'ri yozib olish yoki noto'g'ri bajarish kabilari. Yuqoridagi sabablarga ko'ra tajriba asosida o'lchangan kattalik haqiqiy qiymatdan ma'lum darajada xatolik bilan aniqlanadi. Xato absolyut yoki nisbiy bo'lishi mumkin. O'rtacha arifmetik qiymat \bar{a} va a_0 orasidagi ayirma $\Delta a = \bar{a} - a_0$ absolyut xatolik deyiladi. Nisbiy xatolik $\varepsilon = \frac{\Delta a}{\bar{a}}$ yoki prosentlarda ifodalasak, $\varepsilon = \frac{\Delta a}{\bar{a}} \cdot 100\%$ bo'ladi. Bu yerda:

\bar{a} -absolyut kattalikni o'rtacha qiymati.

I-topshiriq. O'lhashdagi xatolikni bevosita usul bilan aniqlash

Bevosita o'lhash usulida o'lchanadigan kattalikni bir necha bor takror o'lhash faqat toq (3, 5, 7 va h.k.) marta bo'llishi mumkin.

O'lhashning aniqligi hamma hollarda bir xil bo'lishi yoki o'lhashdagi hamma son qiymatlari bir xil razryadli (verguldan keyingi xona soni) bo'lishi lozim. O'rtacha arifmetik qiymat:

$$\bar{a} = \frac{a_1 + a_2 + a_3 + a_4 + a_5}{5}$$

formula orqali hisoblanadi.

$$\Delta a_1 = |\bar{a} - a_1|$$

$$\Delta a_2 = |\bar{a} - a_2|$$

$$\Delta a_3 = |\bar{a} - a_3|$$

Natijaning absolyut xatoligi sifatida alohida o'lhashlar absolyut xatoligi modelining o'rtacha arifmetik qiymati olinadi:

$$\bar{\Delta a} = \frac{|\Delta a_1| + |\Delta a_2| + |\Delta a_3| + |\Delta a_n|}{n} = \frac{1}{n} \sum_{L=1}^n a_L,$$

alohida o'lhashlarning nisbiy xatoligi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{\Delta a_1}{a_1}, \frac{\Delta a_2}{a_2}, \frac{\Delta a_3}{a_3}, \frac{\Delta a_n}{a_n}, \varepsilon = \frac{\overline{\Delta a}}{\overline{a}}, \text{ yoki } \varepsilon = \frac{\overline{\Delta a}}{\overline{a}} * 100\%.$$

Shunday qilib, o'chanadigan kattalikni haqiqiy qiymati:

$$\overline{a} - \overline{\Delta a} < a_{\text{haq}} < \overline{a} + \overline{\Delta a}$$

intervalda bo'ladi. Ko'pchilik hollarda ayrim kattaliklarning son qiymati beriladi.

Bu vaqtida absolyut xatolik uchun eng kichik razryad birligini yarmisini olinadi. Masalan, $m=532,45$ g jism massasi bo'lsin, bu vaqtida absolyut xato $m=0,05$ g bo'ladi.

Demak:

$$m_{\max} = 532,4 + 0,05 / \text{g. ga teng.}$$

O'chanadagi xatolikni bilvosita usul bilan hisoblash

Faraz qilaylik aniqlanishi lozim bo'lgan: x kattalik bevosita o'chanadigan $x=f(a)$ funksiya bo'lsin. Agar bevosita o'chanadigan \overline{a} -kattalik o'rtacha arifmetik qiymati va uning absolyut xatoligini o'rtacha arifmetik qiymati Δa ma'lum bo'lsa, u holda, x -kattalikning absolyut xatoligi:

$$\Delta x = \frac{df(a)}{da} \Delta a \quad (1)$$

bilan hisoblanadi.

Demak: $x=f(a)$; (a) funksiyaning absolyut xatosi shu funksiyadan olingan birinchi tartibli hosila bilan argument xatoligi modulining algebraik yig'indisiga teng:

$$\Delta x = \left| \frac{df}{da} \Delta a \right| + \left| \frac{df}{db} \Delta b \right| + \left| \frac{df}{dc} \Delta c \right|,$$

bu yerda: Δa , va Δb va Δc , bevosita o'chanadigan kattaliklarning xatoligi.

2-topshiriq. Nisbiy xatolikni aniqlash

Agar x bir necha bevosita o'chanadigan kattalikning funksiyasi bo'lsa, u holda nisbiy xato quyidagicha aniqlanadi: $\varepsilon = \frac{\overline{\Delta x}}{\overline{x}}$.

Ma'lumki natural logarifm differensiali:

$$d(\ln x) = \frac{dx}{x}, (\ln x) = \frac{\Delta x}{x}$$

$$\varepsilon = \frac{\Delta x}{x} = \ln(x)$$

Shunday qilib, natijaviy kattalikning nisbiy xatoligi funksiyaning natural logarism differensialiga teng. Masalan, $x=a,b,c,\dots$ bo'lsa, nisbiy xatolik

$$\varepsilon = \left| \left(\frac{d}{da} \ln f \right) a \right| + \left| \left(\frac{d}{db} \ln f \right) b \right| + \left| \left(\frac{d}{dc} \ln f \right) c \right| + \dots,$$

bo'ladi.

Elementar funksiyalarining xatolik jadvali

Ayrim funksiyalarning absolyut xatoligini hisoblashga nisbatan nisbiy xatolikni hisoblash oddiyroq ko'rinishda bo'ladi. Shuning uchun oldin nisbiy xato, so'ngra absolyut xato hisoblanadi. Natijada esa: $x=x+\Delta x$ shaklida ifodalanadi.

$a+\delta$	$\Delta a + \Delta \delta$	$\frac{\Delta a + \Delta \delta}{a + \delta}$
$a-\delta$	$\Delta a - \Delta \delta$	$\frac{\Delta a + \Delta \delta}{a - \delta}$
$a\cdot\delta$	$a \cdot \Delta \delta + \delta \cdot \Delta a$	$\frac{\Delta a}{a} + \frac{\Delta \delta}{\delta}$
$\frac{a}{\delta}$	$\frac{\Delta a}{a} + \frac{a \cdot \Delta \delta}{\delta^2}$	$\frac{\Delta a}{a} + \frac{\Delta \delta}{\delta}$
a^n	$n a^{n-1} \Delta a$	$N \frac{\Delta a}{a}$
$\ln a$	$\frac{\Delta a}{a}$	$\frac{\ln a}{a \ln a}$
$\sin \varphi$	$\cos \varphi \Delta \varphi$	$c \operatorname{tg} \varphi \Delta \varphi$
$\cos \varphi$	$\sin \varphi \Delta \varphi$	$t \operatorname{g} \varphi \Delta \varphi$
$\lg \varphi$	$\frac{1}{\cos^2 \varphi} \Delta \varphi$	$\frac{2\varphi}{\sin^2 \varphi}$

Bevosita o'chashdagi natijaviy kattalikning nisbiy xatoligini aniqlash uchun quyidagi qoidaga amal qilish lozim

1. Aniqlanishi lozim bo'lgan kattalikning matematik ifodasi logarifmlanadi.

2. Olingan natijadagi har bir fizik kattalikni bir-biriga bog'liq emas deb differensiallanadi.

3. Differensial beligisi bilan almashtiriladi va uni modulini algebraik yig'indisi olinadi.

Bevosita o'lhash usulida natijani va xatoni hisoblash qoidalari

1. Tajriba davomida o'lchangان hamma kattaliklarni natijasini asosiy jadvalga yozib boriladi.

2. Natijaning aniq va ishorali bo'lishligi uchun aniqlanishi lozim bo'lgan x-kattalik hisoblanadi.

Bu vaqtida quyidagilarga amal qilish lozim:

a) Bevosita o'lchangان kattaliklarni o'rtacha qiymati topiladi.

b) Natijani hisoblash uchun tajribada o'lchangان kattaliklarni asosiy hisoblash formulasiga faqat SI (Xalqaro) yoki SGS (hosilaviy) birliklar sistemasidagi qiymatlarni qo'yib hisoblanadi.

O'lhash natijalarini grafik usulda tasvirlash

Tajribalarda o'lchangان fizik kattaliklar natijasini nazariy xulosalar bilan yoki orasidagi bog'lanishlarni solishtirish uchun grafikdan foydalanadilar. Grafik tuzishdan avval tajribada o'lchanadigan kattalikni har bir qiymati va unga mos keladigan ikkini kattalik (argument) qiymatlarini jadvali tuziladi. Absissa o'qiga argumentni, ordinata o'qiga funksiyani qiymatlarini qo'yib, uni qanday birliklarda o'lhashni yozib qo'yiladi. Grafikni to'g'ri bo'lishi uchun mashstabni to'g'ri tanlab olish muhim ahamiyatga ega. Masshtab har bir o'q bo'ylab alohida tanlab olinishi ham mumkin.

Uni shunday tanlab olish zarurki, har bir kattalik chegarasiz o'qlarida birday masshtabni (uzunlikni) egallasin.

Odatda masshtab birligi sifatida har bir o'q yo'nalishi uzunligi 2 santimetrali bo'lakchalar olib to'g'risiga unga mos keladigan son yozib qo'yiladi. Masshtab tanlab olingandan so'ng har bir o'q masshtab bilan teng bo'laklara ajratiladi, har bir bo'laklarga mos qiymatlar yozib qo'yiladi. Shundan so'ng jadval asosida nuqtalarning o'rni (koordinatalar) topiladi. Chiziq yordamida tutashtiriladi. Grafik chizish uchun odatda (mm lik) qog'ozdan foydalaniladi.


Tajriba natijasi ma'lum xatoga ega bo'lgani uchun grafik chizig'ini shunday o'tkazish kerakki, eksperimental nuqtalarning ko'pchiligi shu chiziq ustiga tushsin, qolgan qismi uning har ikki tomonida teng bo'lingan bo'lsin. Shu qoida asosida chizilgan grafik o'rtacha qiymatni xarakterlaydi.

Oddiy o'Ichov asboblarida o'Ichash usulini o'rGANISH

Ishninig maqsadi: bevosita, bilvosita o'Ichashdagi absolyut va nisbiy xatoliklarni hisoblashni, shtangensirkul va mikrometrdan to'g'ri toydalanishni o'rGANISH.

Kerakli asbob va qurilmalar: shtangensirkul, mikrometr va o'Ichadanigan jismlar (halqa, parallelepiped).

Oddiy o'Ichov asboblari haqida tushuncha



Shtangensirkul – asosan bir uchida A, B oyoqchasi bo'lgan va eng kichik bo'lakchasini aniqlik darajasi α bo'lgan asosiy shkala, u bo'y lab harakatlana oladigan D, C oyoqchaga ega bo'lgan noniusdan tashkil topgan. Shtangensirkul yordamida jismlarni o'Ichashni 0,1 mm dan, 0,025 mm gacha aniqlikda o'Ichash mumkin. O'chanishi kerak bo'lgan jism M oyoqlar orasiga (1-rasm) E vint yordamida mahkamlanadi. B, D oyoqchalar esa, ichki chiziqli kattaliklar (truba diametrleri) ni o'Ichashda qo'llaniladi.

Hisoblash quyidagicha bajariladi:



$$L = l + \frac{\alpha}{n} k$$

α – asosiy shkalani eng kichik bo'lakchasi qiymati mm hisobida.

l – asosiy shkaladagi bo'lakchalar soni.

n - noniusdagi bo'lakchalarning umumiy soni.

k - asosiy shkaladagi bo'lakchalar bilan ustma-ust tushgan nonius shkalasining raqami.



Mikrometr yordamida 0-25 mm chamasidagi jism 0,01 mm aniqlikda o'lchanadi. Mikrometrning asosiy qismi mikrovint bo'ylab harakatlanuvchi M barabandan iborat. Mikrovintning qadamini qiymatiga qarab, baraban ma'lum bo'laklarga bo'lingan shkalaga ega. Bu shkala bo'limining qiymati 0,01 mm ga teng. O'lchanadigan jism mikrovintning a, oyoqchalari orasiga 2-rasmida ko'rsatilgandek mahkamlanadi. Hisob barabandagi shkalalar orqali quyidagicha hisoblanadi:

$$L = \ell \cdot \alpha + \frac{\alpha}{n} k$$

α - barabanning qirrasigacha bo'lgan masofa;

k- shkaladagi bo'jaklar soni;

ℓ -shkaladagi eng kichik bo'lakchaning qiymati mm hisobida;

n-baraban shkalasining umumiy soni.

3-topshiriq. Ishning bajarilishi

1. O'lchov asboblarining xarakteristikasi bilan tanishish.

a) o'lchov asbobini 0 shkalasini tekshiring.

b) o'lchov asbobini xarakteristikasini 1-jadvalga yozing.

1-jadval.

Azbobning nomi	O'lchash chegarasi	Aniqlik darajasi	Asosiy shk-ni	0 ni tuzatmasi
Shtangensirkul				
Mikrometr				
Chizg'ich				


Hajmni o'ltash

a) halqa shaklidagi plastinkani hajmini hisoblash

$$V = \frac{\pi}{4} (D^2 - d^2) h \quad (1)$$

D-halqaning tashqi diametri, d-halqaning ichki diametri, h-plastinkaning qalinligi.

D, d va h lar shtangensirkul yordamida 0,01 mm. gacha aniqlikda
marta o'lchanadi.



2-jadval

N	D mm	ΔD mm	D mm	Δd mm	h mm	Δh mm	V mm ³	ΔV mm ³	ε %
1									
2									
3									
4									
5									
O'rta									

Natija 2-jadvalga yozib boriladi.

Tajribadan olingan qiymatlarni 1-formulaga qo'yib hajmini hisoblaymiz.

Nisbiy xatolikni 2-formula bilan hisoblaymiz:


$$\varepsilon = \frac{\Delta V}{V} = \frac{\Delta \pi}{\pi} + \frac{\Delta h}{h} + \frac{\Delta D + d}{D + d} + \frac{\Delta D - d}{D - d} \quad (2)$$

b) Paralleliped shaklidagi plastinkani hajmini hisoblash.

$$V = b * d * c \quad (3)$$

(3) formuladagi: b-uzunligi, d-eni, c-balandligi.

b, d, c larni shtangensirkul yordamida yoki mikrometr yordamida 0,01 mm aniqlikda o'lchanib, natijani 3-jadvalga yozamiz.



3-jadval

<i>Nº</i>	<i>d</i> mm	<i>Δd</i> mm	<i>b</i> mm	<i>Δb</i> mm	<i>c</i> mm	<i>Δc</i> mm	<i>V</i> mm ³	<i>ΔV</i> mm ³	<i>ε</i> %
1									
2									
3									
4									
5									
O'rt									

Tajriba natijalaridan foydalanib, hajmni hisoblaymiz.

Xatolikni quyidagicha hisoblaymiz:

$$\varepsilon = \frac{\Delta V}{V} = \frac{\Delta a}{a} + \frac{\Delta b}{b} + \frac{\Delta c}{c} \quad (4)$$

Haqiqiy qiymat $V_{\text{haq}} = V + \Delta V$ shaklda ifodalanadi.

Tajribadan olingan qiymatlarni 3 formulaga qo'yib hajmni hisoblaymiz.

Nisbiy xatolikni (4) formula bilan hisoblaymiz.

Sinov savollari

1. Fizik kattaliklarni o'chahning qanday turlarini bilasiz?
2. Bevosita va bilvosita o'chlarga misollar keltiring.
3. Xatolikni qanday turlarini bilasiz? Ular qanday sabablarga ko'ra vujudga keladi?
4. Absolyut va nisbiy xatoliklar qanday aniqlanadi?
5. Absolyut va nisbiy xatolik deb nimaga aytildi?
6. Haqiqiy va o'rtacha qiymat orasidagi munosabat qanday?
7. Ko'p argument va funksiyalarning absolyut xatoligi qanday hisoblanadi?
8. Qanday hollarda natijani grafik usulida tasvirlash mumkin?
9. Shtangensirkul yoki mikrometrda o'chashni tushuntirib bering?
10. Shtangensirkul va mikrometr orasidagi farq nimada?
11. Hajm deb nimaga aytildi va unung birliklarini yozing.

2-LABORATORIYA ISHI**TEKIS TEZLANUVCHAN HARAKATDA TEZLANISHNI
ANIQLASH**

Ishning maqsadi: 1. Tezlanuvchan harakatda tezlanish tushunchasini tajriba asosida mustahkamlash. 2. Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jismning tezlanishini aniqlashni o‘rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Po‘lat va plastmassa sharchalar. Silindrsimon metallar va yog‘och go‘lachalar. O‘Ichov tasmasi yoki chizg‘ich. Elektron sekundometr. Turli qalinlikdagi brusoklar. Metalldan yoki yog‘ochdan yasalgan qiyalik burchagi rostlanadigan qo‘schnovli qiya tekislik.

Nazariy qism

Vaqt o‘tishi bilan jismning fazodagi vaziyatining boshqa jismga nisbatan o‘zgarishi mexanik harakat deyiladi. Harakat tekis, notejis va tekis o‘zgaruvchan bo‘ladi. Jism teng vaqtlar oralig‘ida bir xil yo‘l bosib o‘tadi. Bunday harakat tekis harakat deyiladi. Aksincha teng vaqtlar oralig‘ida jism har xil yo‘l bosib o‘tsa, bunday harakat notejis harakat deyiladi. Jismning istalgan teng vaqtlar orasidagi tezligi bir xil o‘zgaradigan bo‘lsa, tekis o‘zgaruvchan harakat deb ataladi.

Vaqt birligi ichida tezlikning o‘zgarishiga son qiymat jihatdan teng bo‘lgan kattalik tezlanish deyiladi. Va u tezlik o‘zgarishining shu tezlik o‘zgarishi uchun ketgan vaqtga nisbatli shaklida ifodalanadi:

$$a = \frac{v - v_0}{t} \quad (1)$$

Jismning harakat oxiridagi tezligi (1) ifodadan topiladi.

$$v = v_0 + at \quad (2)$$

Boshlang‘ich tezlik, tezlanish va harakatlanish vaqt ma’lum bo‘lsa, jismning bosib o‘tgan yo‘li quyidagicha bo‘ladi:

$$s = v_0 t + \frac{at^2}{2} \quad (3)$$

agar jism boshlang‘ich teziksiz (2) harakat qilgan bo‘lsa u holda (3) tezliklama quyidagi shaklga keladi. Ya’ni,

$$s = \frac{at^2}{2} \quad (4)$$

Demak, jismning olgan tezlanishi (4) dan topiladi.

$$s = \frac{2x}{t^2}$$


РИПК УРХТВ

38 93 31

17

Toshkent viloyati
Davlat pedagogika instituti
Buyum N. № 277-6
KUTUBXONASI
Angren sh.

Ko‘rinib turibdiki, jismning bosib o‘tgan yo‘li va uni o‘tish uchun ketgan vaqt ma’lum bo‘lsa, u holda shu jismning harakat tezlanishini topish mumkin.



1-rasm

Ishni bajarish tartibi

1. Novni qiyalikni rostlash sistemasi yordamida yoki uning tagiga yog‘och brusoklar qo‘yib gorizontga nisbatan qiya qilib o‘rnating.
2. Novning quyi uchiga metal yoki yog‘och silindr o‘rnating.
3. Novning yuqori uchidan sharchani qo‘yib yuboradigan nuqtani belgilang.
4. O‘lchov tasmasi yoki chizg‘ich yordamida sharcha dumalatilib qiya tekislikdan o‘tishi kerak bo‘lgan s masofani o‘lchang.
5. Sharni qiya tekislik yoki novda dumalatib sekundomer yordamida uning s masofani bosib o‘tish vaqtini aniqlang.
6. Formula (5) dan foydalanib tezlanishni hisoblab toping.
7. Formula (2) dan foydalanib tezlikni aniqlang.
8. $s=f(t)$ funksiya koordinatalarida s yo‘lning vaqtga bog‘lanish grafigini chizing.
9. Xatolikni hisoblang.
10. Tajriba natijalarini quyidagi jadvalga kriting:

<i>O‘lchash tartibi</i>							
1							
2							
3							
4							
5							
O‘rt							

11. Tezlanish qiymatini yozib qo‘ying.
12. Novning qiyaligini o‘zgartirib, uch marta takrorlang.

Sinov savollari

1. Jism qachon tezlikka ega bo‘ladi?
2. Jism qachon tezlanishga ega bo‘ladi?
3. Nima uchun jism tekis aylanma harakatda tezlanishga ega bo‘ladi?
4. Jism boshlang‘ich tezliksiz harakatlanganda yo‘l qanday topiladi?
5. Trayektoriya, yo‘l va ko‘chish ta’riflarini bering.
6. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
7. Ishga xulosa qiling.

3-LABORATORIYA ISHI

GORIZONTAL, VERTIKAL VA BURCHAK OSTIDA OTILGAN JISMNING HARAKATINI O‘RGANISH


Ishning maqsadi: 1. Jismning harakat trayektoriyasi uning gorizontga nisbatan harakatining boshlang‘ich momentida qanday burchak ostida harakatlana boshlariganiga bog‘liqligini o‘rganish. 2. Harakatlarning mustaqillik prinsipiiga asoslanib egri chiziqli harakatlarni o‘rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Ballistik to‘pponcha, o‘lchov tasmasi, laboratoriya shtativi va boshqa aslahalar.

Nazariy qism

Jismilar gorizontal vertikal va ma‘lum burchak ostida otilishi mumkin. Ularning bunday harakatlari vaqtida jismga ta’sir etadigan kuchlar va ularning teng tashkil etuvchisining yo‘nalishi turlicha bo‘lishi mumkin. Burchak ostida otilgan jism harakatini murakkab deb qarab uni AC chiziq bo‘yicha v_0 tezlik bilan harakatlanuvchi tekis harakatga BC chiziq bo‘ylab harakatlanuvchi tekis tezlanuvchan harakatga ajratish mumkin. Demak yuqoridagi mulohazalarimizdan quyidagini hosil qilish mumkin:

$$h = BC = \frac{gt^2}{2}$$



$$AB = v_0 t = \sqrt{2s}, \text{ chunki burchak } \alpha = 45^\circ. \text{ U holda } v_0 = \frac{\sqrt{2s}}{t} \text{ va } t = \frac{\sqrt{2s}}{g}.$$

Demak,

$$v_0 = \sqrt{\frac{2s^2 g}{2s}} = \sqrt{sg}$$

Shunday qilib, o'rganilayotgan holatda jismning boshlang'ich tezligi yuqoridagi ifodadan topiladi.


Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, jism turli xil burchak ostida otilganida uning ko'tarilish balandligi va harakatlanish yo'li ham turlich bo'lishi mumkin. Shularni tajribada qarab o'tamiz.

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Tajriba o'tkaziladiga qurilmaning sxematik ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan. Rasmda ko'rsatilgan ballistik to'pponcha qurilmaning asosi hisoblanadi. To'pponcha a spiral shaklidagi prujinadan iborat bo'lib uning ichidan tepki vazifasini bajaruvchi b sterjen o'tgan. Jismning otilish burchagini ko'rsatuvchi taxtacha to'pponcha korpusining bosh qismiga qotirilgan. To'pponchaga yana qisqich orqali jismning otilish burchagini rostlashga mo'ljallangan o'niq kanalli metall o'zak ham mahkamlangan.

Otiladigan jism to'pponcha stvoliga tushiriladi va tepki vazifasini o'tivchi ilgak yordamida prujina siqliladi. Ilgakni 90° burchakka burib kesikka tushiriladi. To'pponchaning ustiga o'z o'qida erkin 45° burchakka burial oladigan kesikli tepki o'rnatilgan. Tepki chap tomonga burilganida uning kesigida joylashgan ilgakni surib, to'pponcha kesigidan chiqaradi. Shunda erkin sterjen uchi prujinaning elastiklik kuchi hisobiga oldinga qarab keskin harakatlanadi va sharchani zarb bilan tortadi. Shar shu kuch hisobiga otiladi. Shar borib tushadigan stol yuziga bir varaq oq qog'oz quyiladi va yuzi nusxalovchi qog'oz bilan qoplanadi. Bu esa sharcha tushgan joyida qog'ozda belgi qoldirishiga imkon beradi. To'pponcha qisqichga shunday mahkamlanganki, bunda u


turli burchaklarda o'rnatilganida ham sharchaning markazi siljimay qoladi. Shunday qilib uchish masofasini o'lhashda hisob boshi hamma vatq o'zgarmaydi.



1-rasm

Sharning uchish balandligi va uzoqligini o'lhashda ikki tomoni santimetrlarga bo'lib qo'yilgan uzunlikdagi 150 sm bo'lgan o'lchov tasmasidan foydalilanadi.

Ballistik to'pponchali qisqich stolning chetiga vint yordamida mahkamlanadi va to'pponcha sterjeni stol bo'yicha yo'nalgan holda o'rnatiladi. To'pponcha burchak o'lchagich yordamida 45° burchak ostida o'rnatiladi. Uning kanaliga shar tushiriladi va prujina siqiladi. Asbobni tekshirib ko'rish uchun sinov o'tkaziladi. Shar tushgan joy belgilab olinadi va shu joyga oq qog'oz quyilib uning usti nusxalovchi qog'oz bilan qoplanadi.



2-rasm

Sharni bir necha marta otgandan keyin nusxalovchi qog'oz olinadi va oq qog'oz sharning tushgan joylari aniqlanadi. Asboblar to'g'ri o'rnatilganda sharning tushgan joylari uncha tarqoq bo'lmaydi. Shuning uchun tajribani juda aniqlikda bajarish zarur bo'ladi.

Eslatma: 1. Tajriba o'tkazishda to'pponchadan o'ta ehtiyyotkorlik bilan foydalanish kerak. 2. To'pponchaga shar joylashganida ko'z bilan qarash mutlaqo man etiladi!

Ishni bajarish tartibi

1-topshiriq. Shar uchish uzoqligining otish burchagiga bog'lilagini o'rganish

1. To'pponchani turli burchak ostida o'rnatning va har bir holatda uch, to'rt marta otib ko'ring.
2. Shar tushgan nuqtalarni qalam bilan belgilang va o'rtacha tushish nuqtasini aniqlang. O'lchov tasmasi bilan sharning uzoqliklarini o'lchang va natijalarini jadvalga kiring.

Burchak gradus hisobida	20	25	30	35	40	45	50	55	60	65	70
Masofa sm. Hisobida											


3. Tajribada topilgan natijalar asosida xulosa chiqaring.

2-topshiriq. Boshlang'ich tezlikni aniqlash

1. Sharning boshlang'ich tezligini aniqlash uchun yuqorida o'tkazilgan tajriba natijalaridan foydalanish.
2. To'pponcha gorizontga nisbatan 45° burchak ostida o'rnatning va uni uch marta o'qlab oting hamda uchish uzoqligining o'rtacha qiymatini aniqlang.
3. Aniqlangan natijalar asosida sharning boshlang'ich tezligi hisoblang.

3-topshiriq. Shar ko'tarilgan balandligining otilish burchagiga bog'liqligini o'rganish

Gorizontga nisbatan 45° burchak ostida o'rnatilgan sharning boshlang'ich tezligi v_0 murakkab tezlik bo'lib uni gorizontal yo'nalgan tekis harakat tezligi v_1 va vertikal yo'nalgan tekis sekinlanuvchan harakatning boshlang'ich tezligi v_2 dan iborat tashkil etuvchilarga ajratsih mumkin.



3-rasm

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, uchburchak teng yonli shunga ko‘ra $v_1^2 = v_0^2$ va Pifogor teoremasiga ko‘ra $v_0^2 = v_1^2 + v_2^2$ bo‘ladi. Sharning ko‘tarilish balandligi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$h = \frac{v_2^2}{2g} = \frac{v_0^2}{4g}$$

Biz tekshirayotgan vertikal yo‘nalgan tezlik gorizontal tezlikkka teng. Shunga ko‘ra teng vaqt oraliqlarida yuqoriga vertikal ko‘tarilish balandligi sharning gorizontal yo‘nalishda uchib o‘tgan masofasining yarmidan ikki marta kichik bo‘lishi kerak. Ya’ni:

$$h = \frac{s}{4}.$$

Ishni bajarish tartibi

1. Hisoblash yo‘li bilan topilgan natijani tajribada tekshiring.
2. Laboratoriya shtativini shar otilgan nuqtadan $s/2$ masofada o‘rnating.
3. Shtativga mahkamlangan va vertikal tekislikda joylashgan halqa markazini $33,3$ sm balandlikda o‘rnating.

Eslatma: Shar 45° burchak ostida o‘rnatilganida va masofa to‘g‘ri tanlanganida u halqa ichidan o‘tadi.

4-topshiriq. Gorizontal otilgan sharning uchish uzoqligini aniqlash

1. Stol oxiriga shtativ o‘rnatib, unga balandroq qilib gorizontal holda to‘pponchaga mahkamlang.
2. O‘lchov tasmasi yordamida to‘pponchaning yuzasidan balandligini o‘lchang.

3. Sharning avval topilgan boshlang'ich tezligi va to'pponcha balandligidan foydalanib quyidagi formulalar asosida sharning uchish uzoqligini hisoblab toping.

$$s = v_0 t \text{ va } t = \sqrt{\frac{2h}{g}}$$

shunga ko'ra

$$s = \sqrt{\frac{2v_0^2 h}{g}}$$

4. Shar bilan o'qlangan to'pponchanani otib shar tushgan joygacha bo'lgan masofani o'lchang va uni hisoblab topilgan masofa bilan solishtiring.

Eslatma: Bu yerda 4-5 sm farq bo'lismiga erishish uchun to'pponchaning gorizontal holda o'rnatilganligi burchak o'lchagich asbobi, transporter yoki shayton bilan tekshirilishi lozim.

5-topshiriq. Yuqoriga tik otishda sharning ko'tarilish balandligini aniqlash

1. Sharning boshlang'ich tezligini bilgan holda uning ko'tarilish balandligini nazariy yo'l bilan quyidagi formula yordamida hisoblang.

$$h = \frac{v_0^2}{2g}$$

2. To'pponchanani vertikal otish uchun o'rnatning va bir necha marta otib sharning ko'tarilish balandligini aniqlang.

3. Tajribada topilgan natijani nazariy hisoblangan natija bilan taqqoslang.

Eslatma: Odatda farq 1,2 sm.dan oshmaydi.

Ogohlantirish. Talaba bayon qilingan 5 ta ishni ikki soatda bajarib ulgurmasligi mumkin. Ulgurmagan qism darsdan tashqari vaqttagi mashqlarda mustaqil bajariladi.

Sinov savollari

1. Burcak ostida otilgan jism tezligi va uchish uzoqligi qanday aniqlanadi?

2. Burchak ostida otilgan jismning uchish uzoqligi nimalarga bog'liq bo'ladi?

3. Vertikal otilgan jismning boshlang'ich tezligi va ko'tarilish balandligi qanday topiladi?

4. Erkin tushish tezlanishining fizik ma'nosini aytинг?

5. Erkin tushish tezlanishi nimalarga bog'liq bo'ladi?
6. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
7. Bajarilgan ishga xulosa qiling.

4-LABORATORIYA ISHI

YER TORTISH KUCHINING TEZLANISHI 'g' NI MATEMATIK MAYATNIK YORDAMIDA ANIQLASH

Ishning maqsadi: „g“ ning qiymatini tajribada aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Matematik mayatnik, sekundomer, shizg'ich va shtangensirkul.

Nazariy qism

Matematik mayatnik deb, vaznsiz va cho'zilmaydigan ipga osilgan moddiy nuqtaga aytildi. Mayatnik bilan tanishishda uni uzunligi ℓ , massasi m bo'lgan moddiy nuqtadan iborat (1 -rasm) matematik mayatnik tushiniladi. Muvozanat holatidan α burchakka (2 -rasm) og'dirilgan moddiy nuqtaga ikkita kuch: 1) og'irlilik kuchi $\vec{p} = m \cdot \vec{g}$; 2) ipning taranglik kuchi \vec{F} ta'sir qiladi. Bizga ma'lumki, matematik mayatnikning α - og'ish burchagi juda kichik bo'lsa, tebranish davri T ning qiymatini quyidagi formuladan topamiz;

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}} \quad (1)$$

bunda: l - matematik mayatnik ipining uzunligi.

g - og'irlilik kuchining tezlanishi.

Agar tajriba natijasida T va ℓ ni aniqlab olsak: g ning qiymatini (1) formuladan topishimiz mumkin. (1) ning ikkila tomonini kvadratga ko'taramiz:

$$T^2 = 4\pi^2 \frac{l}{g} \quad (2)$$

Bundan,


$$g = \frac{4l}{T^2} \pi^2, \quad (3)$$

bu yerda:


$$T = \frac{l}{n}. \quad (4)$$

(3) formulaga (4) ni qo'yamiz, natijada „g“ ni hisoblash uchun asosiy formula:

$$g = \frac{4\pi^2 \ell n^2}{t^2} \quad (5)$$



1-rasm



2-rasm

Ishni bajarish tartibi

1. Avvalo millimetrlri chizg'ich bilan mayatnik ipining OB orasidagi ℓ uzunligini o'lchab, 1-rasmdagidek qurilma yig'iladi.

2. Sharchaning diametri shtangensirkul yordamida qayta-qayta o'lchanib, o'rtacha qiymati topiladi va radiusi aniqlanadi. U vaqtida mayatnik uzunligi quyidagicha hisoblanadi: $L = \ell + \frac{d}{2}$ yoki $L = \ell + r$ (6).

3. Mayatnik tebranish davrini topish uchun, sharchani bir tomonga taxminan $5-6^0$ burchakka og'dirib, sekingina qo'yib yuborilib tebrantiriladi. Shu paytning o'zida sekundomerni ham ishlatib yuboramiz. Tebranish uchun ketgan vaqt aniqlanadi.

4. Mayatnikning tebranish davrini topish uchun, mayatnik tebranishini kamida uch marta takrorlash kerak. Hisoblashlar (4) formula bo'yicha amalga oshiriladi.

Bu uch galgi ma'lumotlarning o'rtachasini jadvalga kiritamiz:

Nº	ℓ	N	t	T	g	Δg	ε
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
O'rt							

Sinov savollari

1. Fizik va matematik mayatnik nima?
2. g ning fizik ma'nosi?
3. Erkin tushish tezlanishi nima va u nimalarga bog'liq?
4. Davr, chastota va amplituda haqida tushuncha bering?
5. Ishni bajarish tartibi aytib bering?
6. Ishchi formulani keltirib chiqaring?

5-LABORATORIYA ISHI***MAXOVIK G'ILDIRAKNING INERSIYA MOMENTINI ANIQLASH***

Ishning maqsadi: Aylanayotgan qattiq jismning inersiya momentini tajribada aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Masshtabli chizg'ich o'rnatilgan qurilma, og'irligi 2 kg va 3 kg. li bir necha tosh, sekundomer, shtangensirkul.

Nazariy qism

Agar o'qqa osilgan jismga navbatma-navbat $M_1, M_2, M_3, \dots, M_n$ momentlar qo'yilsa, jism har xil burchakli tezlanishlar $\varepsilon_1, \varepsilon_2, \varepsilon_3, \varepsilon_n$ oladi. Har bir kuch momentining burchakli tezlanishiga nisbatli berilgan jism uchun o'zgarmas miqdorga teng, ya'ni:

$$\frac{M_1}{\varepsilon_1} = \frac{M_2}{\varepsilon_2} = \frac{M_3}{\varepsilon_3} = \dots = \frac{M_n}{\varepsilon_n}. \quad (1)$$

Bu nisbatlar bilan aniqlanuvchi kattalik aylanuvchi jismni xarakterlaydi va u jismning inersiya momenti deb ataladi. (1) tenglamani quyidagi qurilmada tekshirib ko'rish mumkin (1- rasmga qarang). Gorizontal o'qqa val o'rnatilgan bo'lib, u o'qqa S_1, S_2 sharikli podshibnik kiyigizilgan. Massasi m_1 maydoncha ipga bog'langan bo'lib, u o'qqa o'raladigan qilib tayyorlangan. Ipni o'qqa o'rak so'ng maydonchaga yuk qo'ysak, og'irlik kuchi ta'sirida jism harakatga keladi.

Agar maydoncha qandaydir h_1 balandlikka ko'tarilgan bo'lsa, bu dastlabki momentda $E_{n1}=mgh_1$ potensial energiyaga ega bo'ladi. Harakat davomida bu energiya ishqalanish kuchini yengish uchun va sistemaning kinetik energiyasining ortishi uchun sarf bo'ladi, ya'ni:


$$mgh_I = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2} + F_{ishq} \cdot h_I \quad (2)$$

$F_{ishq}h_I$ ishqalanish kuchini yengish uchun bajarilgan ish.

$\frac{m\vartheta^2}{2}$ harakatdagi massaning taglikka yetib kelgandagi kinetik energiyasi, $\frac{J\omega^2}{2}$ - aylanayotgan sistemaning kinetik energiyasi.

Ishqalanish kuchini yengish uchun bajarilgan ishni quyidagicha mulohaza yuritib topish mumkin.

Umumiy o'qqa 0 chig'iriq o'rnatilgan bo'lib, chig'iriqdagi o'qqa o'ralgan ipning ikkinchi uchiga R yuk bog'langan.



1-rasm

Yukning og'irligi chig'iriqdagi ipga ta'sir qilib, ipni tortadi, bunda maxovik tekis tezlanuvchan aylanma harakatga keladi. Maxovikka yuklarni qo'yib, ip uchidagi yukning dastlabki turish holatini belgilaymiz. Agar yukning tik shkala bo'yicha tushish balandligi va tushish vaqtini bilsak, yukning harakat tezlanishi quyidagicha topiladi:

$$\alpha = \frac{2h}{t^2}. \quad (3)$$

Maxovikning o'qqa o'rnatilgan 0 chig'iriqning radiusini o'lchab, uning burchak tezlanishini topish mumkin:

$$\varepsilon = \frac{\alpha}{r} \quad (4)$$

Kuch momenti quyidagicha topiladi: $M=p \cdot r$.

Tushuvchi jismning og'irligi $p=m \cdot g$ ga teng.

Tekis tezlanuvchan harakat bilan tushganda ipning tarangligi $p_I = m(g-a)$ topilgan chiziqli tezlanish. Demak yukning tushish vaqtidagi kuch momenti quyidagicha ifodalanadi:

$$M_I = p_I \cdot r = m(g-a) \cdot r \quad (5)$$

Yuk qandaydir $h_1 > h_2$ balandlikka ko'tariladi. Bunda sistema $E_p = mgh_2$ potensial energiyaga ega bo'ladi.

Sistemaning yo'qotgan potensial energiyasi ishqalanish kuchini yengish uchun bajarilgan ishga teng bo'ladi, ya'ni:

$$mgh_1 - mgh_2 = F_{ishq} (h_1 + h_2); F_{ishq} = mg \frac{h_1 - h_2}{h_1 + h_2} \quad (6)$$

Harakat tekis tezlanuvchan bo'lgani uchun:

$$\vartheta_0 = a \cdot t; h = \frac{at^2}{2} \quad (7)$$

$$\vartheta = \frac{2h_1}{t}; \omega = \frac{2h_1}{2t} \quad (8)$$

bo'lib, (6), (7), (8) formulalarni (2) ga qo'yib quyidagini hosil qilamiz:

$$J = mr^2 (g^2 t^2 \frac{h_1}{h_1(h_1 + h_2)} - 1). \quad (9)$$

(9) formula inersiya momentining hisoblash formulasi.

Ishni bajarish tartibi

1. Shkifning diametri o'lchanadi va uning radiusi hisoblanadi.
2. Ipnin shkifga o'rab, yuk qo'yilgan maydoncha h_1 balandlikka (150 sm) ko'tariladi.
3. Maydonchaga m yuk qo'yan holda harakatga keltiriladi va tushish vaqtini aniqlanadi.
4. Yuk taglikka urilib qaytgandan so'ng, qaytib chiqish h_2 balandligi aniqlanadi va olingan ma'lumotlar jadvalga yozilib boriladi.
5. m yukchani boshqa balandlikka ko'tarib (170-180 sm), yana tajriba takrorlanadi.
6. Maydonchaga m_2 yuk qo'yilgan holda tajriba ikkala balandlik uchun ham qaytariladi, har bir hol uchun olingan natijalar jadvalga yozilib, (9) formula bo'yicha sistemaning inersiya momenti hisoblanadi.
7. O'lhashning absolyut xatoligi aniqlanadi.
8. Olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalga kiritiladi.

<i>Nº</i>	<i>m</i>	<i>R</i>	<i>T</i>	<i>h</i> ₁	<i>h</i> ₂	<i>J</i>	<i>ΔJ</i>	<i>ε</i>
1								
2								
3								
4								
5								
O'rt								

Sinov savollari

1. Inersiya momenti va kuch momenti haqida tushuncha bering.
2. Aylanayotgan qattiq jism uchun dinamikaning asosiy qonunini tushuntiring.
3. Energiyaning balans formulasini yozing.
4. Aylanayotgan qattiq jismning kinetik energiyasi.
5. Hisoblash formulasini chiqarish.


6-LABORATORIYA ISHI***HALQA YORDAMIDA YER TORTISH KUCHINING TEZLANISHI „g“- NI HISOBLASH***

Ishning maqsadi: halqa yordamida tortish kuchi tezlanishini aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: halqa, shtangensirkul, sekundomer.

Nazariy qism

Agar har qanday jism og'irlik markazidan o'tmagan gorizontal o'qqa osib qo'yilsa, og'irlik markaziga qo'yilgan *M* moment ta'sirida tebranma harakat qiladi.



Yuqorida ko'rsatilgandek, mahkamlangan „*M*“ moment ta'sirida tebrana oладиган qattiq jism fizik mayatnik deyiladi:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{K}{mg}} . \quad (1)$$

Bu yerda K-inersiya momenti, ℓ -og'irlik markazi bilan jism osilgan o'q orasidagi masofa, m-mayatnik massasi, g-og'irlik kuchi tezlanishi. (1) dan g ni topaylik

$$g = \frac{4\pi^2 K}{mT^2} \quad (2)$$

Tebranayotgan jism halqlardan iborat bo'lsa, R_1 -ichki radius, R_2 -tashqi radius. Yassi halqaning og'irlik markaziga nisbatan inersiya momenti

$$K_C = \frac{1}{2} m(R_1^2 + R_2^2) + mR_1^2 = \frac{1}{2} m(3R_1^2 + R_2^2). \quad (3)$$

bo'ladi.

Shteyner teoremasiga muvofiq ixtiyoriy tebranish o'qiga nisbatan olingan inersiya momenti „K“ bilan jism massasi og'irlik markazidan tebranish o'qigacha bo'lgan masofa kvadratining yig'indisiga teng:

$$K = K_C + mR_i^2$$

„K“ ning qiymatini (2) ga qo'yib,

$$g = \frac{2\pi^2(R_1^2 + R_2^2)}{R_i T^2} \quad (4)$$

Tebranish davri T , halqaning ichki va tashqi radiuslari R_1 va R_2 ni bilgan holda g ni hisoblash mumkin.

Ishni bajarish tartibi

1. Shtangensirkul bilan ichki va tashqi radiuslar (R_1 va R_2) o'lchanadi.
2. O'qituvchi tomonidan berilgan tebranishlar soni uchun ketgan vaqt o'lchab olinadi va davr $T=t/n$ formula bilan hisoblanadi.
3. O'lhashlar kamida uch marta takrorlanadi.
4. Tajriba ikki halqa uchun alohida-alohida bajariladi.
5. Xatoliklar hisoblanadi.

Quyidagi jadval to'ldiriladi:

<i>Nº</i>	$d_1 R_1$	$d_2 R_2$	N	t	T	g	Δg	$\varepsilon = \frac{\Delta g}{g} \cdot 100 \%$
1								
2								
3								
4								
5								
O'rt								

Sinov savollari

1. Fizik mayatnik deb nimaga aytildi?
2. Fizik mayatnikning tebranish davrini topish formulasini yozing.
3. Mayatnik deb nimaga aytildi?
4. „g“ nimalarga bog‘liq?
5. Oxirgi (4) formulani keltirib chiqaring.
6. Inersiya momenti nima?
7. Shteyner teoremasini tushuntiring.
8. Inersiya momenti jism shakliga bog‘liqmi?
9. Nima uchun Yerning turli nuqtalarida „g“ ning qiymati har xil bo‘ladi?
10. Bajarilgan ishga xulosa qiling.

7-LABORATORIYA ISHI

QATTIQ JISMLARNING SIRPANISH ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: tribometr yordamida turli xil qattiq jismlar orasidagi sirpanish ishqalanish koefitsiyentini aniqlashni o‘rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Tribometr, ishqalanish koefitsiyenti aniqlanadigan yog‘och va metall taxtalar, tarozi toshlari, shayton, shtangensirkul.

Nazariy qism

Jismlarning o‘zaro tegib turgan sirtlari orasida paydo bo‘ladigan va ularning harakatlanishiga qarshilik ko‘rsatuvchi kuch ishqalanish kuchi deb ataladi. Bu kuch jismlar sirtlari bo‘ylab yo‘nalgan harakatga qarshi bo‘ladi. Ishqalanish ikki xil bo‘ladi. Tashqi va ichki ishqalanish. Tashqi ishqalanish ikki qattiq jism sirtlari o‘zaro tegib turgan nuqtalarda bo‘ladi. Jismlar o‘zaro bir-biriga nisbatan qo‘zg‘almas bo‘lganida ular orasidagi ishqalanish tinch ishqalanish bo‘ladi. Jismlar harakatlanganda sirpanish ishqalanish paydo bo‘ladi. Qattiq jismlarning biri tinch turib uning ustida ikkinchi dumalaganda hosil bo‘ladigan ishqalanish dumalanish ishqalanish deyiladi. Suyuqlik va gazlarning o‘zaro harakatida ichki ishqalanish (qovushqoqlik) paydo bo‘ladi. Jism tekis harakatlanganida ishqalanish jismning tortish kuchiga teng bo‘ladi. ya’ni:

$$F=F_i$$

U holda dinamikaning asosiy qonunini quyidagicha yozish mumkin:

$$F+F_i=ma.$$

Bunda F jismni tortish kuchi; F_i ishqalanish kuchi; a tezlanish; m jism massasi.

Eng katta ishqalanish kuchi jism tinch turganda bo'ladi. sirpanish ishqalanish o'rinli bo'lganida ishqalanish kuchi tortish kuchiga proporsional bo'ladi va jism tekis tezlanishisiz harakatlanadi ya'ni,

$$F_i=\mu N,$$

bunda μ ishqalanish koeffitsiyenti.

Agar tribometr ustidagi taxtachani harakatlantiruvchi F kuch F_i , sirpanish ishqalanish kuchidan katta bo'lsa taxtacha tezlanishga ega bo'ladi. Agar $|F_i| > F$ bo'lsa, u vaqtda harakat sekinlanuvchan bo'lib jism asta sekin to'xtab qoladi. Agar $|F_i|=|F|$ bo'lsa, u holda taxtacha tekis harakat qiladi. Demak, taxtachani tekis harakatga keltirib, sirpanish ishqalanish kuchini aniqlash mumkin. Buning uchun taxtani sekin tortib yuborilganda u tekis harakatga kelguncha pallachaga tarozi toshlaridan qo'yib borish kerak. Bu vaqtda taxtachani harakatlantiruvchi F kuch tarozi toshlari bilan pallacha og'irligining yig'indisiga teng bo'ladi, ya'ni;

$$F=P_T+P_n$$

Bunda P_T tarozi toshlarining og'riligi; P_n pallachaning og'irligi.

Ishqalanish kuchi son qiymati jihatidan harakatlantiruvchi kuchga teng bo'lgani uchun $F_u=P_T+P_n$ deb yoza olamiz. $P_T=m_Tg$, $P_n=m_ng$ ekanligini nazarga olsak (bu yerda m_T toshlarining massasi mn pallachaning massasi) u holda $F_u=(m_T+m_n)g$ bo'ladi.

Binobarin sirpanish ishqalanish koeffitsiyentining ifodasini quyidagicha ko'rinishda yozish mumkin.


$$k = \frac{(m_T + m_n)g}{mg} = \frac{m_T + m_n}{m},$$

bu yerda m taxtachaning massasi, $P=mg$ taxtachaning og'irligi.

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Sirpanish ishqalanish kuchini tribometr deb ataladigan asbob yordamida o'tkazilgan tajribalar asosida aniqlash mumkin. Tribometrning tuzilishi rasmida keltirilgan. Uzunligi 60-50 sm va kengligi 10-15 sm bo'lgan A stolcha ustiga bir-biriga parallel holda B

taxtacha va silliq sirtli M metall yotqizilgan. B taxtachaning chetiga deyarli ishqalanishsiz harakatlanadigan V blok mahkamlangan. Silliq sirt ustida yog'och yoki metal taxtacha (yuk) ni harakatga keltirish uchun unga bog'lanagan ip blok orqali o'tkazilib uning ikkinchi uchidagi P pallachaga toshlar qo'yiladi va og'irlik kuchi ta'sirida taxtacha harakatga keladi.



1-rasm

Bunda og'irlik kuchi ta'sirida ipning tarangligi ortadi va bu kuch hisobiga silliq tekislik ustidagi taxtacha harakatga keladi. Og'irlik kuchining kattaligiga mos ravishda taxtacha tez yoki sekin harakatlanishi mumkin. Bu tajribani o'tkazish jarayonida tanlanadi.

Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'rganing.
2. Tribometrni gorizontal holatda o'rnatting va M metall silliq sirt ustiga shaytonni joylashtirib uning gorontallgini tekshiring.
3. Yog'och va metal taxtachaning m_n massalarini (alohida alohida) hamda pallachaning m_n massasini tarozida 3-4 marta tortib aniqlang. Va ularning o'rtacha arifmetik qiymatini aniqlang.
4. Taxtachalardan birini masalan yog'och taxtachani tribometr ustiga qo'ying va uning ilgagiga ipni ilib blok orqali o'tkazing. Va ipning ikkinchi uchiga pallachani bog'lang.
5. Pallachaga tarozi toshlaridan qo'yib jismni yuqorida aytilganidek tekis harakatga keltiring. U tekis harakatga kelgan holatda pallachaga qo'yilgan tarozi toshlarining m_T massasini aniqlang.
6. Yog'och bilan temir orasidagi ishqalanish koefitsiyentini (1) formuladan foydalanib hisoblang.

7. Tajrbani kamida 4-5 marta takrorlang. Yog‘och taxtacha ustiga alyuminiy taxtachani qo‘yib tajriba 4 banddagidek takrorlanadi.
8. Tribometr ustidagi silliq temir ustiga alyuminiy taxtachani quyib (tajriba 4 banddagidek takrorlanadi) alyuminiy bilan temir orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti hisoblab topiladi.
9. Temir taxtacha o‘rniga alyuminiy taxtacha olib, uning ustiga yog‘och taxtachani qo‘yib (tajriba 4 banddagidek takrorlanadi) va alyuminiy bilan yog‘och orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini aniqlang.
10. Har bir holat (yog‘och temir, alyuminiy va temir) uchun ishqalanish koeffitsiyentlarining o‘rtacha qiymatlarini hisoblang.
11. Absolyut va nisbiy xatoliklarini hisoblang.

Sinov savollari

1. Ishqalanish kuchi deb nimaga aytildi va bu kuch qachon paydo bo‘ladi?
2. Amonton-Kulon qonuning matematik ifodasini yozing.
3. Ishqalanish koeffitsiyenti nima va birligi qanday?
4. Tashqi ishqalanish turlarini aytинг va qaysi ishqalanish turida ishqalanish koeffitsiyenti katta bo‘ladi?
5. Ichki ishqalanish deb nimaga aytildi?
6. Ishqalanish koeffitsiyenti qanday fizik kattaliklarga bog‘liq bo‘ladi?
7. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
8. Bajarilgan ishdan xulosa chiqaring.

8-LABORATORIYA ISHI

TURLI JISMLAR SIRPANISH-ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH (2-USUL)

Ishning maqsadi: Sirpanish-ishqalanish koeffitsiyentini tajribada aniqlash.

Kerakli asbob va qurilma: Sirpanish-ishqalanish koeffitsiyentini tekshiradigan jism (yog‘och, metall, rezina), chizg‘ich

Nazariy qism


Sirpanish-ishqalanish koeffitsiyentining Amonton-Kulon qonuni quyidagicha:

$$F_{ishq} = K \cdot N \quad (1)$$

Formula orqali ifodalanadi, bu yerda, K-ishqalanish koefitsiyenti, N-normal bosim kuchi.

Bu ishda sirpanish-ishqalanish koefitsiyenti energiyaning saqlanish qonuni orqali topiladi. Agar m massali jismni h balandlikdan qo'yib yuborsak, u sirpanib 3 nuqtaga keladi. U holda energiyaning saqlanish qonuniga asosan:

$$mgh = A_{1,2} + A_{2,3} \quad (2)$$



Bu yerda $A_{1,2}$ -qiyalikda ishqalanish kuchini bajargan ishi bo'lib, $A_{1,2}=k \cdot m$ ga ga teng. $A_{2,3}$ -gorizontal qiyadagi ishqalanish kuchini bajargan ishi bo'lib, $A_{2,3}=k \cdot m \cdot g \cdot b$ ga teng. Bunda a-qiyalik proyektsiyasining uzunligi. $A_{1,2}+A_{2,3}$ ifodalarini (2) ga qo'yib,

$mgh=kmga+kmgb$ ni topamiz va bundan:

$$K = \frac{h}{a+b}$$

Ishni bajarish tartibi

Har xil balandlikdan jismni tushurib, a va b masofalar o'lchab olinib, jadvalga yoziladi.

1. Metall va yog'och uchun

Nº	H	a	b	K	ΔK	ε
1						
2						
3						
O'r						

2. Metall va metall uchun

Nº	h	a	B	K	ΔK	ε
1						
2						
3						
O'r						

3. Metall va rezina uchun

<i>No</i>	<i>h</i>	<i>a</i>	<i>B</i>	<i>K</i>	ΔK	ε
1						
2						
3						
O'rt						

Sinov savollari

1. Ishqalanish turlari, ishqalanish hosil bo'lishi uchun fizik sabablarini tushuntiring.
2. Statik ishqalanish koeffitsiyenti nimalarga bog'liq?
3. Statik va kinematik ishqalanish orasidagi bog'lanish qanday.
4. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
5. Ishchi formulani keltirib chiqaring.
6. Berilgan qaysi jism uchun ishqalanish koeffitsiyenti katta, nima uchun?
7. Bajarigan ishga xulosa qiling.

9-LABORATORIYA ISHI

*QATTIQ JISMLAR AYLANMA HARAKATI
DINAMIKASINING ASOSIY QONUNLARINI TAJRIBADA
TEKSHIRISH*

Ishning maqsadi: Oberbek mayatnigi yordamida qattiq jismlar aylanma harakati dinamikasining asosiy qonunlarini tekshirish.

Kerakli asbob va materiallar: Oberbek mayatnigi, uzunligi 2 metr keladigan masshtabli chizg'ich, bir necha dona 100-200 grammlik yuklar, shtangensirkul, sekundomer

Nazariy qism

Aylanma harakatdagi jismning asosiy qonuni quyidagicha ifodalanadi:

$$M = J \cdot \varepsilon \quad (1)$$


$$J = m \cdot r^2 \quad (2)$$

Bunda *M*-jismga ta'sir etuvchi kuchlarning aylanish o'qiga nisbatan olingan momenti, *J*-jismning inersiya momenti, ε -jismning burchak tezlanishi. ε (1) ifodani quyidagicha yozish ham mumkin:

$$\varepsilon = \frac{M}{J} \quad (3)$$

Bu formulada zanjirning o'zaro bog'lanishini Oberbek mayatnigi yordamida tekshiramiz. Oberbek mayatnigi bir burchakka kirgizilgan to'rtta A, A₁, B, B₁ sterjenden iborat bo'lib, qo'shni sterjenlar bir-biriga perpendikulyar.

Mayatnikning inersiya momenti, sterjenlar bo'yicha siljtiladigan yuklar bilan o'zgartiriladi. Umumiy o'qqa O chig'iriq o'rnatilgan bo'lib, chig'iriqqa ip o'ralgan ipning ikkinchi uchi P yukka bog'langan.



1-rasm

Yukning og'irligi chig'iriqdagi ipga ta'sir qilib, ipni tortadi, bunda maxovik tekis tezlanuvchan aylanma harakatga keladi. Maxovik sterjenlaridagi yukning dastlabki turish holatini belgilaymiz. Agar yukning tik shkala bo'yicha tushish balandligi h va tushish vaqtini t bo'lsa, yukning harakat tezlanishi quyidagicha topiladi: $a = \frac{2h}{l^2}$

Maxovikning o'qqa o'rnatilgan O chig'iriqning radiusini o'lchab, uning burchak tezlanishini va kuch momentini topish mumkin:

$$\varepsilon = \frac{a}{r} \quad (4)$$

$$P = m^*(g-a) : M = P^* r = m(g-a)r \quad (5)$$

Aylanuvchi sistema inersiyasi bo'yicha (4) va (5) formulalar yordamida ε va M ni topgandan keyin sistemaning inertsiya momenti quyidagicha topiladi:

$$J = \frac{M}{\varepsilon}$$

Sistemaning inersiya momentini o'zgartirmasdan turib, tik tushuvchi yukning kattaligini o'zgartirish bilan sistemadagi kuch momentini o'zgartirish mumkin. So'ngra maxovik sterjenlarga 2 ta yoki 4 ta yuk o'rnatib, uning kuch momentlarini bir hilda saqlagan holda, yuqlarni aylanish o'qigacha momentini oshirish yoki kamaytirish mumkin.

Ishni bajarish tartibi

1. Shtangentsirkul yordami bilan chig'riq diametri D ni o'lchab, uning radiusi $r = \frac{D}{2}$ aniqlanadi.

2. Mayatnikning tekis aylanishi va ipning uzunligi yetarlicha ekanligi tekshiriladi. Mayatnik aylantirilib, yuk joylashtirilgan moslamani h balandlikka ko'tariladi va h masofa chizg'ich yordamida o'lchanadi.

3. Mayatnik sterjenlari yukchalarsiz bo'lgan holda moslamaga m_1 , m_2 massali toshlar qo'yilib, uning tushish vaqtি hisoblanadi.

4. Har bir holat uchun ε, M va J kattaliklar aniqlanadi. Cterenlardagi yuqlarni olib, ya'ni sistemaning inersiya momentini o'zgarmas qilib, ip uchiga bog'lanadigan ikki xil yuk uchun (5) va (4) formulalardan, maxovikning $\varepsilon_1, \varepsilon_2$ burchak tezlanishlarini topamiz, so'ngra M_1, M_2 kuch momentlarini topamiz.

5. Topilgan miqdorlar quyidagicha proporsiyani qanoatlantirishi kerak.

$$\frac{\varepsilon_1}{\varepsilon_2} = \frac{M_1}{M_2}$$

Kuch momentini o'zgartirmay saqlab ip uchidagi yuk og'irligini o'zgartirmay turib, maxovikdagi siljtitish yo'li bilan bularning ikki holati uchun (3) va (4) formulalar yordamida $\varepsilon_1, \varepsilon_2$ burchak tezlanishlarini topamiz. Topilgan natijalar quyidagi proporsiyani qanoatlantirishi kerak:

$$\frac{\varepsilon_1}{\varepsilon_2} = \frac{J_1}{J_2}$$

6. O'lchangan va hisoblangan kattaliklar quyidagi jadvalga yoziladi

7. Aylanma harakat dinamikasi asosiy qonunini tekshirishdagi nisbiy xatolik: $\varepsilon = \pm \frac{x - y}{y} \cdot 100\%$ ifoda bilan hisoblanadi, bu yerda:

$$x = \frac{\varepsilon_1}{\varepsilon_2}, \quad y = \frac{M_1}{M_2}$$

<i>N</i>	<i>m, kg</i>	<i>t, S</i>	<i>h, m</i>	<i>ε, rad·c⁻²</i>	<i>M, n·m</i>	<i>J, kg·m²</i>	<i>ε, %</i>
1							
2							
3.							
4.							
5.							
O'rt							

Sinov savollari

1. Inersiya momenti va kuch momenti haqida tushuncha bering.
2. Chiziqli va burchakli kattaliklar orasidagi munosabatlarni tushuntiring.
3. Aylanayotgan qattiq jism uchun dinamikaning asosiy qonunining matemetik ifodasini yozing.
4. Energiyaning balans formulasini yozing.
5. Aylanayotgan qattiq jismning kinetik energiyasi nimaga teng?
6. Burchak tezlik va burchak tezlanishning ta'rifini berib, formulasini yozing.
7. Burchak tezlik va burchak tezlanishning birliklarini aytинг.
8. Inersiya momenti va kuch momenti qanday birliklarda o'chaniladi?
9. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
10. Bajarilgan ishga xulosa qiling.

10-LABORATORIYA ISHI

ATVUD MASHINASI YORDAMIDA ILGARILANMA HARAKAT DINAMIKASI QONUNLARINI O'RGANISH


Ishning maqsadi: Ilgarilanma harakat kinematikasi va dinamikasining qonunlarini Atvud mashinasida tekshirish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Atvud mashinasi, yukchalar to'plami, sekundomer.

Nazariy qism

Atvud mashinasi vertikal holatda o'rnatilgan va santimetrlarga bo'lingan taxtadan iborat (1-rasm). Uning yuqorisidagi A blok orqali ip o'tkazilib, ipning ikki uchiga massalari bir-biriga teng bo'lgan G va G_1 yukchalar osiladi. G yukcha ustiga 1-rasmida ko'rsatilgan V yoki G_1 yukchalardan biri qo'yilsa, sistema tekis tezlanishli harakatga keladi.

Sistemaning harakatdan to'xtatish uchun yoki V qo'shimcha yukni harakat vaqtida tushirib qoldirish uchun mahkamlagichlardan foydalaniladi. Bu mahkamlagichlar mashina ustunining istalgan yeriga mahkamlanishi mumkin. Sistemaning harakat qilishiga ketgan vaqtini o'lchash uchun sekundomerdan foydalaniladi.



Massalari M va $M+m$ bo'lgan yuklardan iborat hamda r radiusli J inersiya momentiga ega bo'lgan sistemaning harakatini ko'raylik. Agar yuklarning massalari bir hil bo'lsa, bir yuk potensial energiyasining boshqa yuk potensial energiyasining ortishi orqali yuz beradi. Shuning uchun sistemaning potensial energiyasi yuklarning joylashish balandligiga bog'liq emas. Shu sababli yuklarning massalari har xil bo'lsa, sistema potensial energiyasining o'zgarishi qo'shimcha yukning holati orqali aniqlanadi.

Agar yuklardan biri pastga tomon h masofani o'tsa, sistema potensial energiyasining o'zgarishini quyidagicha yozish mumkin:

$$\Delta E = mgh \quad (1)$$

Harakat davomida bu potensial energiya ilgarilanma va aylanma harakat kinetik energiyalariga aylanadi (ishqalanish kuchlariga qarshi bajarilgan ishni hisobga olmasa ham bo'ladi):

$$mgh = \frac{Jw^2}{2} + \frac{(M+m)v^2}{2} + \frac{MV^2}{2} \quad (2)$$

Bu tenglamada $h = \frac{ar^2}{2}$, $w = \frac{v}{r}$ aylanma harakatdagи burchak tezlik, $v = at$ chiziqli tezlik ekanligini hisobga olsak, (2) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$a = \frac{mg}{2M + m + J/r^2}$$

Agar ip o'tkazilgan g'ildirakning inersiya momenti hisobga olinmasa,

$$a = \frac{mg}{2M + m} \quad (3)$$

topiladi. (3) ifoda yordamida yuklarning olgan tezlanishi topiladi.

I-topshiriq

1. Yo'llar qonuni $S = \frac{at^2}{2}$ ni tekshirish. O'ng tomonga qo'shimcha yuk qo'yilib, chap tomondagi yuk elektromagnit bilan qo'zg'almas holatga keltiriladi. Elektromagnit o'chirilib, sekundomer bilan yukning mahkamlagichga urilishi uchun ketgan vaqt o'lchab olinadi. Mahkamlagich turli masofalarga qo'yilib, tajriba uch martadan takrorlanadi.

Sistemadagi tezlanishlar bir xilligini hisobga olib,

$$a = \frac{2S_1}{t_1^2} = \frac{2S_2}{t_2^2} = \frac{2S_n}{t_n^2} \quad (1)$$

O'lchanigan natijalarни (1) ifodaga qo'yib, uning to'g'riliги tekshiriladi.

Tajribada $a_1 \approx a_2 \approx a_3 \dots$ bo'lishi sistemaning tekis tezlanuvchan harakat qilayotganligini isbotlaydi.

2-topshiriq. Jismning tekis harakatini o'rganish

Qo'shimcha m va R halqada tutib olingan daqiqadan boshlab M yuklar tekis harakat qila boshlaydi ($a = 0$). Bunday harakat uchun jismning tezligi doimiy bo'lib,

$$\frac{S_1}{t_1} = \frac{S_2}{t_2} = \frac{S_3}{t_3} = \dots = \frac{S_n}{t_n} = v = \text{const} \quad (6)$$

ifoda o'rinli bo'ladi.

Buni amalda tekshirish uchun quyidagicha o'Ichashlar bajariladi.

1. O'ng tomondagi yukning ustiga qo'shimcha yuk qo'yiladi.
2. Chap tomondagi yuk, pastdagi yuk elektromagnit yordamida ushslash orqali saqlab turiladi.
3. O'rtadagi va pastdagi mahkamlagichlarni ustunning yuqorisidan boshlab mos ravishda 20 sm va 60 sm masofalarda o'rnatiladi.
4. Elektromagnitni o'chirib, qo'shimcha yuk o'rtadagi halqada tutib qolningan daqiqadan boshlab, sekundomerni yurgizib yuboring.
5. Sekundomer orqali yuklarning S masofani o'tishi uchun ketgan vaqt hisoblanadi.
6. S masofa sifatida pastdagi va o'rtadagi mahkamlagichlarning shkala bo'yicha ko'rsatgichlari orasidagi farqni oling.
7. O'rtadagi maxkamlagichning holatini o'zgartirmasdan, pastdagisini surib, tajribani kamida 5 marta takrorlang.
8. O'lchangan natijalarini (6) ifodaga qo'yib uning to'g'riligini tekshiring.

3. Nyutonning II qonunini tekshirish

Agar qo'shimcha qo'yilgan yuklarni bir tomondan ikkinchisiga olsak, sistemaning massasi o'zgarmaydi.

Ushbu holatlarni quyidagicha ifodalaymiz.

$$F_1 = ma_1$$

$$F_2 = ma_2$$

$$S_1 = \frac{1}{2} a_1 t_1^2$$

$$S_2 = \frac{1}{2} a_2 t_2^2$$

ni yozish mumkin. Bundan esa;

$$\frac{F_1}{F_2} = \frac{a_1}{a_2}$$

$$\frac{S_1}{S_2} = \frac{a_1 t_1^2}{a_2 t_2^2};$$

$$\frac{a_1}{a_2} = \frac{S_1 t_2^2}{S_2 t_1^2}$$

Demak,

$$\frac{F_1}{F} = \frac{S_1 t_2^2}{S_2 t_1^2}$$

I-mashqdagagi singari oxirgi ifoda tajriba yordamida tekshirilishi zarur.

Blokdagi yuklarning bir tomoniga qo'shimcha yuk (masalan, 10 gramm) qo'yildi, ikkinchi tomoniga 30 grammligina qo'yildi. Bunda: $F_1 = 20$ gramm bo'ladi. Mahkamlagichning turli holatidagi S, t o'lchab olinadi. So'ngra 40g ($F_2 = 40$ gramm) yuk qo'yib, S_2 , t_2 aniqlanadi va

$$\frac{F_1}{F_2} = \frac{S_1 t_2^2}{S_2 t_1^2}$$

to'g'riliği tekshiriladi.

Sinov savollari

1. Atvud mashinasida harakatdagi yukchalar uchun energiyaning saqlanish qonuni qanday bajarilayotganligini tushuntirib bering.
2. Tezlanish deb nimaga aytishini, nima uchun I-mashqda tezlanishlar bir xil bo'lishi lozimligini tushuntiring?
3. Atvud mashinasida tekis harakatning hosil bo'lish sababini aytib bering.
4. Nyutronning II qonunini Atvud mashinasida qanday tekshiriladi?

II-LABORATORIYA ISHI

HARAKAT MIQDORI SAQLANISH QONUNINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: Harakat miqdorining saqlanish qonunini o'rGANISH. Sharlarning absolyut elastik va noelastik to'qnashishdan oldingi va keyingi harakat miqdorlarini aniqlash, olingan natijalarni taqqoslash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Sharchalar, chizg'ich va sekundomer.

Nazariy qism

Harakat miqdorining saqlanish qonunini real fizik masalalarni yechishda qo'llanilishiga misol qilib, sharchalarning absolyut elastik va noelastik to'qnashishlarini olish mumkin.

To'qnashish ikki yoki ko'proq jismlarning juda ham qisqa vaqt ichidagi o'zaro ta'siridir. Jismlar to'qnashganda shunchalik katta miqdordagi ichki kuchlar paydo bo'ladi, bu holda tashqi kuchlar ta'sirini hisobga olmasa ham bo'ladi. Bunday hol to'qnashayotgan

jismalarning yopiq sistema deb qaralishiga imkon berib, ular uchun saqlanish qonunlari qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Mazkur ish sharchalarning absolyut elastik va noelastik to'qnashishidan oldingi va keyingi harakat miqdorlarini aniqlash hamda ularni taqqoslashni talab etadi.

Massalari m_1 va m_2 bo'lgan sharchalarning to'qnashishidan oldingi tezliklarini v_1 va v_2 , to'qnashishdan keyingisini esa ϑ_1 va ϑ_2 bilan belgilab, 2 ta sharchadan iborat yopiq sistema uchun harakat miqdorining saqlanish qonunini quyidagicha yozish mumkin:

$$m_1 v_1 + m_2 v_2 = m_1 \vartheta_1 + m_2 \vartheta_2 \quad (1)$$

Harakat miqdorining saqlanishini absolyut elastik to'qnashgan sharchalar uchun ko'rib chiqaylik. Massasi m_1 va tezligi v_1 ga teng bo'lgan sharcha elastik to'qnashsin. Sharchalarning to'qnashishidan oldingi harakat miqdorlari quyidagicha:

$$P_1 = 0$$

$$P_2 = m_2 \cdot v_1 \quad (2)$$

bo'ladi.

Urilayotgan sharchaning tezligini quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\vartheta_2 = 2\sqrt{gl} \sin \frac{\alpha_2}{2} \quad (3)$$

Bu yerda: g -erkin tushish tezlanishi, l -mayatnikning (ip) uzunligi, α_2 -urilayotgan sharchaning burchak kattaligi.

$$h = l(1 - \cos \alpha) = 2l \sin^2 \left(\frac{\alpha}{2} \right)$$

Demak:

$$v = 2 \frac{M+m}{m} \sqrt{gl} \sin \frac{\alpha}{2}$$

bu yerda:


α -mayatnikning muvozanat holatdan og'ish burchagi.

$$h = \frac{\vartheta^2}{2g}$$

$$\vartheta = \frac{m}{M+m} \cdot v$$

$$h = \frac{1}{2g} \left(\frac{m}{M+m} \right)^2 \cdot v^2;$$

bu yerda:



1-rasm

ϑ - urilganga qadar bo'lgan tezligi, ϑ - urilishidan keyingi tezligi.

Sharchalarning elastik to'qnashishidan keyingi harakat miqdorining yig'indisi (1) ga asosan quyidagicha bo'ladi.

$$P_I = m_1 \vartheta_1 + m_2 \vartheta_2 \quad (4)$$

Bu yerda ϑ_1 -tinch holatda bo'lgan sharchaning to'qnashishidan keyingi tezligi, ϑ_2 -urilayotgan sharchaning to'qnashishidan keyingi tezligi, ϑ_1 va ϑ_2 -tezliklar o'z navbatida quyidagi formulalar yordamida topiladi:

$$\vartheta_1 = 2\sqrt{gl} \sin \frac{\alpha_1}{2} \quad (5)$$

$$\vartheta_2 = 2\sqrt{gl} \sin \frac{\alpha_2}{2} \quad (6)$$

Bu yerda α_1 -tinch holatda turgan sharning to'qnashishidan keyingi og'ish burchagi, α_2 -urilayotgan sharning to'qnashishidan keyingi og'ish burchagi.

Endi massasi m_2 , tezligi $\vartheta_1=0$ ya'ni tinch holatda bo'lgan sharcha bilan massasi m_2 va tezligi ϑ_1 ga teng bulgan sharcha noelastik to'qnashsin. (1) ga asosan mazkur hol uchun harakat miqdorining saqlanish qonuni quyidagicha bo'ladi:

$$P = (m_1 + m_2) \vartheta_2 \quad (7)$$

Bu yerda ϑ_2 -sharchalarning noelastik to‘qnashishdan keyingi umumiyligi bo‘lib, bu yerda α_2 -noelastik to‘qnashishdan keyingi sharchalarning birgalikdagi og‘ish burchagi.

Ishni bajarish tartibi

1-topshiriq. Absolut elastik to‘qnashishni o‘rganish

1. Ip uzunligini belgilab, o‘ng va chap burchak shkalasi „nol“ nuqtalarini sharchalarning strelkalarini to‘g‘rilang (1-rasm).
2. Chap tomondagi sharchani tinch holatda qoldirib, o‘ng tomondagi sharchani elektromagnitga yopishtiring.
3. Shu holga mos keluvchi, α_2 -burchak kattaligini burchak shkalasidan yozib oling.
4. SBROS tugmasini bosing.
5. PUSK tugmasini bosing.
6. To‘qnashishdan keyingi α_2 –og‘ish burchak kattaligini burchak shkalasidan yozib oling.
7. Mikrosekundomerdan sharchalarning to‘qnashish vaqtini doimiyligi T yozib oling.
8. O‘lhashlarni 8-11 marta o‘tkazing.
9. Sharlarni to‘qnashishdan oldingi v_1, v_2 va keyingi ϑ_1, ϑ_2 tezliklarini natijalarini (3), (5), (6) lardan topib (2), (4) formulaga qo‘yib hisoblang. Olingen natijalar ya‘ni to‘qnashishdan oldingi va keyingi harakat miqdorlarini taqqoslang.

2-Topshiriq. Absolut noelastik to‘qnashishni o‘rganish

1. Qolip yordamida plastilindan sharchalar yasab ipga osing (1-rasm)
2. Bu hol uchun ham 1- mashqdagi 1,2,3,4,5 ko‘rsatmalarini takrorlang.
3. To‘qnashgandan so‘ng tinch turgan sharcha bilan urilgan sharcha birgalikda qanday α_2 - burchakka og‘ganligini aniqlang .
4. O‘lhashlarni 8-11 marta o‘tkazing.
5. Sharchalarning massasini tarozida o‘lchang .
6. (3) dan foydalanimur urilayotgan sharchanening to‘qnashishidan oldingi tezligi v_1 ni (5) va (8) dan esa sharchalarning to‘qnashishidan keyingi umumiyligi tezligini toping. (2) va (7) lar yordamida sharchalarning

to‘qnashishdan oldingi va keyingi harakat miqdorlarini hisoblab, taqqoslang.

Sinov savollari

1. Jismning impulsi deb nimaga aytildi va matematik ifodasini yozing.
2. Impulsning saqlanish qonunini tushuntiring.
3. Absolut elastik va noelastik urilishlar nima?
4. Absolut elastik va noelastik urilishlarga misol keltiring.
5. Jism hamma vaqt impulsiga ega bo‘la oladimi?
6. Jism impulsi nimalarga bog‘liq?
7. Zarra hamma vaqt harakat miqdoriga ega bo‘la oladimi? Javobingizni asoslab bering.
8. Ishni maqsadi va bajarish tartibini tushuntiring.
9. Bajarilgan ishga xulosa qiling.

12-LABORATORIYA ISHI

MATERIALNING ELASTIKLIK MODULINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Guk qonunini tajribada o‘rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Tarozi (toshlari bilan) shtangensirkul yoki millimetrli metall chizg‘ich, shtativ, uzunligi 30-40 sm bo‘lgan rezina tasma va yordamchi aslahalar.

Nazariy qism

Tashqi kuch ta’sirida jism shakli va o‘lchamlarining o‘zgarishiga deformatsiya deyiladi. Tashqi tas’ir kuchi jismdan olingandan so‘ng shu jism o‘zining avvalgi shakliga qaytsa bunday deformatsiya elastiklik deformatsiyasi deyiladi.

Deformatsiyalangan jismning istalgan kesimida uning shakli va o‘lchamining o‘zgarishiga qarshilik qiladigan elastiklik kuchlari ta’sir qiladi. Plastik deformatsiyalangan jismning kristall tuzilishi mutlaqo o‘zgarib avvalgi holatiga qaytmaydigan holatga o‘tadi. Bu jarayon qaytmas bo‘ladi. Biror yo‘nalish bo‘yicha deformatsiya o‘lchami absolut deformatsiya qiymatining jismning shu yo‘nalish bo‘yicha birlamchi o‘lchamiga nisbati nisbiy deformatsiya deyiladi.

Deformatsiyalangan jismning holati kuchlanish deb ataladigan maxsus kattalik bilan tavsiflanadi. Son qiymati jihatidan F elastiklik kuchi modulining shu jism ko'ndalang kesimi yuzi S ga nisbatiga teng fizik kattalik kuchlanish deyiladi va uni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\sigma = \frac{F}{S}. \quad (1)$$

Xalqaro o'Ichov birliklar sistemasi (SI) da mexanik kuchlanish birligi sifatida $1 \text{ Pa} = 1 \text{ N/m}^2$ qabul qilingan. Elastiklik kuchi S yuzaga tik yoki urinma holatida yo'nalgan bo'lishiga qarab uni normal yoki urinma kuchlanish deb yuritiladi.

Deformatsiyalanish diogrammasi deyilganda kuchlanishlar yoki nagruzka (yuklama) bilan materialning deformatsiyalanishi orasidagi bog'lanish grafigi tushuniladi.

Cho'zilish diagrammasi. Cho'zilish deformatsiyasini tadqiq etish uchun tadqiq etiladigan materialdan yasalgan sterjen maxsus qurilmalar yordamida cho'zib ko'rildi. Bunda namunaning uzayishi va unda paydo bo'ladigan kuchlanish o'chaniladi. Tajriba natijalariga asoslanib σ kuchlanishning ε nisbiy uzayishiga bog'lanish grafigi chiziladi. Bu grafik cho'zilish diagrammasi hamma jismlar uchun doim bir xil ko'rinishda bo'lmashligi mumkin:

Guk qonuni. Tajribaning ko'rsatishicha deformatsiyalar juda kichik bo'lganda σ kuchlanish ε nisbiy uzayishga to'g'ri proporsional. Bu bog'lanishni quyidagicha yozish mumkin:

$$\sigma = E|\varepsilon|. \quad (2)$$

Bu formulada ε nisbiy uzayishning moduli olingan chunki Guk qonuni cho'zilish deformatsiyasini ham $\varepsilon < 0$ bo'ladigan siqilish deformatsiyasini ham qoniqtiradi. Guk qonuning ifodasida qatnashadigan E proporsionallik koefitsiyenti elastiklik moduli yoki Yung moduli deb ataladi. Deformatsiyalar juda kichik bo'lganda σ kuchlanish va ε nisbiy uzayishni o'chab, Yung moduli (2) formuladan aniqlanadi.

Ko'p ishlataladigan materiallar uchun Yung moduli tajribada aniqlangan masalan, xrom nikelli po'lat uchun $E=2,1 \cdot 10^{11} \text{ Pa}$, alyuminiy uchun $E=7 \cdot 10^{10} \text{ Pa}$ E qanchalik katta bo'lsa boshqa parametrlar bir xil bo'lganda sterjen shunchalik kam deformatsiyalandi. Yung moduli materialning elastik cho'zilish deformatsiysiga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini ifoda qiladi.

(2) formula shaklida yozilgan Guk qonunini boshqacharoq ko'rinishga keltirish mumkin. Buning uchun (2) formulaga $\sigma = \frac{F}{S}$

va $\sigma = \frac{|\Delta l|}{l_0}$ ifodalarini qo'yib quyidagi tenglik hosil qilinadi:

$$\frac{F}{S} = E \frac{|\Delta l|}{l_0}$$

bunda $F = \frac{|\Delta l|SE}{l_0}$ namunaga ta'sir etayotgan kuch $SE/l_0 = k$


o'r ganilayotgan jism bikrligi. U holda yuqorida keltirilganlar asosida quyidagini yozish mumkin.

$$F = k|\Delta l|$$

Shunday qilib, sterjenning k bikrligi Yung moduli bilan sterjen ko'ndalang kesimi yuzasining ko'paytmasiga to'g'ri va sterjenning uzunligiga teskari proporsionaldir.

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Mazkur qurilma shtativ, ilgak, rezina tasma, millimetrlı metall chizg'ich va h.k. lardan iborat. Qurilmani ishlatalish uchun oddiy chizg'ich olinadi va unga rezina tasma zinch qilib o'raladi. Keyin chizg'ichga o'ralgan rezina tasmaning eni (A) o'lchanadi. Xuddi shunday g'o'лага ustma-ust o'ralgan rezina tasmaning qalinligi ham chizg'ich yordamida o'lchanadi. Ihni bajarishda ingichka rezina namunalaridan qo'llanilganda unga bog'langan maxsus qutichaga toshlar solinadi. Har xil og'irlilikdfagi toshlarni qutichaga solib ingichka rezina tasmaning cho'zilishi topiladi.



Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo‘riqnomasini o‘qib o‘rganing
2. Shtativga qisqichli sterjen o‘rnating
3. Variant bo‘yicha berilgan rezina namunaning o‘lchamlarini aniqlang. To‘g‘ri to‘rtburchakli rezina tasma o‘lchamlarini aniqlang. Buning uchun namunaning $b=B/N$ va enini $a=A/N$ dan foydalaning.
4. Namunani rasmdagidek o‘rnating va har xil yuklarni osib boshlang‘ich va oxirgi holatlarini tayanchdagi chizg‘ichda belgilang. Uzunliklarini aniqlang. Topilgan natijalardan Δl ni aniqlang. Natijalarni quyidagi jadvalga kriting.

<i>O‘lhash tartibi</i>	<i>Namunaning boshlang‘ich uzunligi l_0</i>	<i>Namunaning qalinligi va eni a/b</i>	<i>Yuklar massalari m, kg.</i>	$\Delta l=l-l_0$	<i>Namunaning yuk osilgandan keyingi uzunligi l</i>	<i>S=ab</i>
1						
2						
3						
4						
5						
O‘rt						

5. Natijalar asosida σ va E ni hisoblab toping.
6. O‘lhashlarning absolut va nisbiy xatoliklarini natijalar asosida toping.

Sinov savollari

1. Deformatsiya deb nimaga aytildi?
2. Deformatsiya qachon paydo bo‘ladi?
3. Deformatsiya turlarini aytинг.
4. Yung modulini tushuntiring.
5. Guk qonunini tushuntiring.
6. Materialning elastiklik moduli nimalarga bog‘liq?
7. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
8. Bajarilgan ishga xulosa qiling.

II BO'LIM

MOLEKULYAR FIZIKA

1-LABORATORIYA ISHI

GAZ MOLYAR DOIMIYLIGINI HAVONI SO'RIB OLİSH METODI BILAN ANIQLASH

Ishning maqsadi: Gazning molyar (universal) doimiyligi R ni barcha tezlik uchun bir xil bo'lgan ideal gaz holati konstansini aniqlashdan iborat.

Kerakli asbob va qurilmalar: Shisha kolba, kamov nasosi, manometr, analitik tarozi.

Nazariy qism

Molyar gaz doimiyligini Mendeleyev-Klapeyron tenglamasi,

$$pV = \frac{\mu}{\mu} RT \quad (1)$$

dan aniqlash mumkin. Bu yerda P bosim, V gaz hajmi m , gaz massasi, μ shu gaz bir molining massasi, T gazning absolut temperaturasi. Gazning (1) tenglamaga kirgan massasidan boshqa parametrlarini bevosita o'lchash mumkin.

Chunki gaz massasini faqat u bilan to'ldirilgan idish bilangina tortib o'lchash mumkin bo'ladi. Shuning uchun (1) tenglikdan R ni aniqlashda idish massasini hisobdan chiqarish lozim bo'ladi. Buning uchun bir xil gazning m_1 va m_2 massasiga tegishli o'zgarmas T temperatura va V hajmdagi (1) holat tenglamasini yozishga to'g'ri keladi. (1) holat tenglamasini gaz massasining ikki xil qiymati uchun yozish mol gaz doimiyligi uchun:


$$R = \frac{\mu(p_1 - p_2)V}{(m_1 - m_2)T} \quad (2)$$

ni beradi.

Demak, agar V hajmli idishga kiritilgan biror m massali gazning P bosim, T temperaturasini aniqlab turib gazning massasini shu idishning o'zida m_2 gacha o'zgartirib olib (masalan, havoni idishdan so'rrib olish yo'li bilan) va yana qaytadan o'sha T_1 temperaturada P_2 bosimini aniqlasak (2) formulaga asosan molyar gaz doimiysini hisoblash topish qiyin emas.

Qurilmaning tuzilishi

Qurilmaning umumiy ko'rinish 1-rasinda ko'rsatilgan. Qurilma ikkita uchiga yaxshilab ishqalab tayyorlangan 1 va 3 kranlar ulangan shisha kolba 2 dan iborat. Kolba uchlariga rezina naylar kiygiziladi. Naylardan biri kolbani 6 manometr bilan birlashtirilgan. Shisha kolbagaga ip osib qo'yilgan bo'lib (chizmada ko'rsatilmagan), ip yordamida kolba analitik tarozi yelkasiga osib qo'yiladi. Manometr tepasiga 5 tutib turgich quyiladi. U kolbani mustahkam qilib qo'yishga mo'ljallangan.



I-rasm

Ishni bajarish tartibi

1. Kranni ochib, qo'ygan holda kolbani rezina naylarsiz analitik tarozida tortib, kolbaning m_0 massasi bilan undagi m_1 havo massasining yig'indi (m_0+m_1) massasini aniqlang.

2. Kolbani manometr va nasos bilan rezina naylar orqali birlashtiring. va havoni biror P_2 bosimiga so'rdirib oling. Shu vaqtida manometr P_1 atmosfera bosimi bilan kolbadagi P_2 havo bosimi farqini ko'rsatadi.

3. Kralnarni berkitgan holda analitik tarozida kolbaning massasi bilan undagi m_2 havo massasining yig'indi (m_0+m_1) qiymatini aniqlang.

4. So'rib olingan havo massasini $(m_0+m_1)-(m_0+m_2)=m_1+m_2$ ayirmadan toping.

5. Xonadagi havo temperaturasini toping.

6. (2) formuladan R gaz doimiysini hisoblab toping.

7. Tajribani kamida 4-5 marta takroqlang.

8. R ning o'rtacha arifmetik qiymatini va ehtimol xatoliklarini toping.

9. R ning tajribada topilgan qiymatini uning nazariy hisoblab chiqilgan son qiymati bilan solishtirib ko'ring.

10. O'lichashdagi xatolikning asosiy manbalarini aniqlang va R ni hisoblang.

Sinov savollari

1. Ideal gaz holat tenglamasi bilan Mendeleyev-Klapeyron tenglamasi orasidagi farq qanday?
2. Izotermik va izobarik jarayonlarni tushuntirib bering. Turli sharoitlar uchun izoterma va izobarlar garfigini chizing va chizmalarni tushuntirib bering.
3. Qanday jarayonlar adiabatik jarayon deyiladi? Nima uchun adiabata chizig'i izotermaga nisbatan tikroq?
4. Gaz universal doimiysi R ning fizik ma'nosini tushuntiring.
5. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
6. Bajarilgan ishga xulosa qiling.

2-LABORATORIYA ISHI

HAVO BOSIMINING TERMIK KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Gaz termometrining tuzilishi va ishlash prinsipi bilan tanishish va undan foydalanib, o'zgarmas hajmda havo bosimining termik koeffitsiyentini aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Gaz termometri, Kamov nasosi, tok manbai, shisha nay solingan namlikni yutuvchi modda, rezina nay, barometr, suvli idish, varonka.

Nazariy qism

Molekulalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir e'tiborga olinmaydigan darajada kichik bo'lgan va molekulalar orasidagi o'rtacha masofa molekulalarning o'z o'lchamlaridan ko'p marta katta bo'lgan gaz molekulyar kinetik nazariyaga asosan ***ideal gaz*** hisoblanadi. Ideal gaz molekulalarining to'qnashishi elastik sharlarning to'qnashishi kabi bo'lib, ularda harakat miqdorining na mexanik energiyaning saqlanish qonuni bajaradi. Molekula harakatlarining mexanik shakli boshqa harakat formulalariga aylanmaydi. Molekulalarning o'lchami shu qadar kichikki idish hajmiga nisbatan ularning umumiy hajmi hisobga olimmasa ham bo'ladi.

Ideal gaz molekulalari, asosan, tartibsiz harakatlanadilar, ular goh qo'shni molekulalar bilan, goh idish devorlari bilan to'qnashib turadilar.

Berilgan gaz massasining holati uning egallagan V hajmi idish devoriga ko'rsatadigan P bosim va T temperaturasi bilan xarakterlanadi. Bu parametrlarni holat parametrлari deb yuritamiz.

Gaz hajmi o'zgarmas bo'lganida temperatura o'zgarishi natijasida gaz bosimining o'zgarish jarayoni izoxorik jarayon deb ataladi. Bunda ideal gazning bosimi temperatura ortishi bilan chiziqli ortadi, ya'ni

$$P = P_0(1+at) \quad (1)$$

Bu yerda P_0 temperatura 0°C bo'lganidagi gazning bosimi, P temperatura $t^{\circ}\text{C}$ bo'lgandagi gazning bosimi, a proporsionallik koefitsiyenti bo'lib, uni gaz bosimining termik koefitsiyenti deyiladi.

(1) formuladan a ni topsak;

$$\alpha = \frac{P - P_0}{P_0 t}$$

Barcha ideal gazlar uchun bosimning termik koefitsiyenti bir xil va $\alpha = \frac{1}{273} \left(\frac{1}{K}\right)$ ga teng. Bosimning termik koefitsiyenti (hajmi o'zgarmas bo'lganida) temperatura bir gradusga o'zgarganda ideal gazning bosimi 0°C temperaturadagi bosimning taxminan $1/273$ qismi qadar ortishini bildiradi. Real gazlarda a ning kattaligi temperaturaga va gazning tabiatiga bog'liq.

Normal bosim va xona temperaturasiga yaqin temperaturadagi havoni ideal gaz deb hisoblash mumkin. Xona temperaturasini 0°C da saqlab turish qiyin. Shuning uchun α ni tubandagidek hisoblash mumkin. Buning uchun (1) formulani bir xil hajmdagi havoning $P_1 t_1$ va $P_2 t_2$ parametrlar bilan xarakterlanadigan ikki holati uchun yozaylik:

$$P_1 = P_0(1+at_1)$$

$$P_2 = P_0(1-at_2)$$

Birinchi tenglikni ikkinchisiga bo'lib, hosil bo'lgan munosabatdan quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\alpha = \frac{P_2 - P_1}{P_1 t_1 - P_2 t_2} \quad (2)$$


Gaz termometrini qo'llab (2) formula yordamida a ning qiymatini topish mumkin. Buning uchun havoning P_1 va P_2 bosimlarini turli temperaturalarda o'lhash kerak.

Qurilmaning tuzilishi

Gaz termometri ingichka shisha nay bilan M manometrning bir tirsagiga ulangan biror hajmli A balondan iborat (1-rasm) Ballon setkali taglikka ega bo'lgan metall C silindr ichiga joylashtirilgan. Bu ham o'z

navbatida undan kattaroq idish *B* bachok ichiga tushirilgan *O* tirqish orqali bachokka kerakli miqdorda suv quyiladi. Bachok qopqog‘iga o‘rnatilgan *T* termometr orqali temperaturani aniqlash mumkin. Bachokdagi suvni uning ichidagi spiralni tok manbaiga ulab isitish mumkin. *M* manometrning ikkinchi tirsagi nam yutadigan modda (kalsiy xlor tuzi) solingen *B* shisha nay rezina orqali Kamov nasosiga ulangan.

Ballonning hajmi ularda ishlataladigan barcha naylar hajmidan katta bo‘lmog‘i lozim. Chunki ballon ichidagi havoning t temperaturasi o‘lchanadi. Naylardagi havoning temperaturasi o‘lchanadi. Naylardagi havoning temperaturasi esa ballondagidan past bo‘ladi.



1-rasm

Ishni bajarish tartibi

1. Bachokka suv quyilgan yoki quyilmaganligini tekshiring. Suv quyilmagan bo‘lsa voronka yordamida *O* tirqishdan kerakli miqdorda suv quying. (bunda bachokdagi spiral suvga botgan bo‘lishi lozim)
2. Manometrning *K*₁ va *K*₂ jo‘mraklarini ochiq holatga quying.
3. Bachokdagi maxsus teshikka termometri o‘rnating. Bir necha minutdan so‘ng termometr ko‘rsatishi o‘zgarishdan to‘xtaydi, shu vaqtgagi havoning boshlang‘ich *t*₁ temperaturasini yozib oling.
4. Kamov nasosi yordamida ballonda 30-40 mm simob ustuniga teng bo‘lgan qo‘sishmcha *P*₁ bosimi hosil qiling va *K*₁ jo‘mrakni berk holatga o‘tkazing.
5. Bachok ichidagi suvni qaynatish uchun asbobni tok manbaiga ulang. Suv isib borishi bilan ballondagi bosim ham ortib boradi.
6. Suv qaynagandan keyin ballondagi bosimning ortishi to‘xtagach manometr shkalasidan *P*₂ bosimini yozib oling.

7. Barometr ko'rsatishidan atmosfera bosimi H ni aniqlang va shu bosim ostida suvning qaynash temperaturasini ya'ni ballondagi havoning isitilgandan keyingi t_2 temperaturasini jadvaldan yozib oling.

8. $P_1 = P_1 + H$ va $P_2 = P_2 + H$ bosimlarni hisoblang.

9. (2) formula yordamida havo bosimining termik koeffitsiyentini hisoblab toping.

10. Tajribadan so'ng bachokdag'i issiq suvni K kran orqali to'kib, qayta suv soling va tajribani takrorlang.

11. Bosimning termik koeffitsiyentining o'rtacha qiymatini va absolut hamda nisbiy xatoliklarini aniqlang.

Sinov savollari

1. Ideal gaz deb qanday gazga aytildi?
2. Ideal gaz qonunlarini aytинг.
3. Termik koeffitsiyent hamma gazlar uchun bir xilmi?
4. Gaz termometri va temperatura shkalalarini tushuntiring.
5. Bosimni molekulyar-kinetik nazariya asosida tushuntiring.

3-LABORATORIYA ISHI

GAZ MOLEKULASINING ERKIN YUGURISH YO'LI UZUNLIGINI VA EFFEKTIV DIAMETRINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Maxsus qurilma va usul orqali havo molekulalarining erkin yugurish yo'lining uzunligini va effektiv diametrini aniqlashdan iborat.

Kerakli asbob va qurilmalar: Maxsus shtativga o'rnatilgan qurilma, sekundomer, darajalangan shisha stakan, tarozi, termometr va barometr.


Nazariy qism

Molekulyar kinetik nazariya sistemaning holatini aniqlaydigan termodinamik (mikroskopik) parametrlar P -bosim, T -temperatura, V -hajm bilan mikroskopik parametrlar (molekulaning o'lchami (diametri), massasi va o'rtacha yugurish yo'li, tezligi va h.k.) ning o'zaro munosabatini (bog'lanishini) ko'rsatuvchi analitik ifodani hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.


Gaz molekulalari tartibsiz harakatlari va o‘zaro to‘qnashuvlari tufayli ular bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishda biror kesim yuzi orqali u yoki bu kattalikning qismlarida (qatlamlarida) turlicha bo‘lishi, ya’ni bu kattaliklarning gradientlari mavjud bo‘lishi lozim.

Gazlardan iborat sistemadagi biror hajmda temperatura muvozanatining yuzaga kelishi yoki shu fazoning turli qismlarida konsentratsiyalarning tenglashuvi, ya’ni ikki xil gaz molekulalarining aralashib bir jinsli muhitga aylanishi, gaz qatlamlaridagi turli xil tezliklarning tenglashuvi jarayonlarning hammasi molekulalarning uzlusiz o‘zaro to‘qnashuvi va tartibsiz harakatining natijasidir. Bu yerda quyidagini qayd qilish lozim. Molekulalarning tartibsiz harakatidagi tezligi juda katta bo‘lishiga qaramay tajribalardan ma’lum bo‘lishicha molekularning o‘zaro to‘qnashishi va tartibsiz harakati tufayli gaz bosimi taxminan bir atmosfera bo‘lganda diffuziya hamda, shuningdek, boshqa ko‘chish hodisalari juda sekin ro‘y beradi.

Molekulalar harakati davomida biror oraliqni o‘zaro to‘qnashmasdan erkin bosib o‘tadi. Bu oraliq molekulalarning soni nihoyat darajada ko‘p va tartibsiz harakat qilib turganligi tufayli har xil bo‘ladi va u tartib (P , T va h.k.) ga qarab o‘zgarib turishi ham mumkin. Shu sabali erkin yo‘lining haqiqiy qiymati emas, balki uning o‘rtacha qiymati λ haqida gapirish o‘rnildir. Xuddi shuningdek vaqt birligi ichida molekulalarning o‘rtacha to‘qnashishlari soni λ haqida ham mulohaza yuritish mumkin. Gaz molekulalarining o‘zaro ta’siri jarayonini birlarlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan λ lar gaz molekulalarining o‘zaro ta’sirini xarakterlashda muhim rol o‘ynaydi. Gaz hajmidagi molekulalarning ikki A va B nuqta oralig‘ini o‘tishdagidan to‘g‘ri chiziqdandan iborat bo‘lgan masofa molekulaning haqiqiy siniq chiziqdandan iborat bo‘lgan yo‘lidan bir necha marotaba kichik bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm



1-rasmdagi AB yo‘nalishlar molekula tezligining yo‘nalishini va o‘zaro ta’sir tufayli uning miqdor jihatdan o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Agar t vaqt orasida hamma o‘tilgan yo‘l U·t, to‘qnashishlar soni z·t bo‘lsa, u holda o‘rtacha erkin yugurish yo‘li

$$\lambda = \frac{U \cdot t}{Z \cdot t} = \frac{U}{Z} \quad (1)$$

ga teng bo‘ladi. z ning $4\sqrt{2}\pi r^2 Un$ ga tengligi e’tiborga olinsa (1) quyidagicha yoziladi.

$$\lambda = \frac{1}{4\sqrt{2}\pi r^2 n} \quad (2)$$

Agar molekula radiusi o‘rniga $\frac{\sigma}{2}$ ifodani, (σ -molekulani effektiv diametri) πr^2 -esa effektiv kesim qo‘ysak λ ning effektiv diametriga va birlik hajmdagi molekularning soni n ga bog‘liqligi.

$$\lambda = \frac{1}{\sqrt{2}\pi r^2 n} \quad (3)$$

bo‘ladi. (3) dan ko‘rinadiki, λ ning tajribadan aniqlangan qiymatlari ma’lum bo‘lganda σ ni aniqlash qiyin emas. Lekin bu aniqlangan qiymat taqribiy xarakterga ega. Chunki molekulyar kinetik nazariyaga ko‘ra ü va z larni va boshqa makroparametrlarni aniqlashda juda ko‘p taxminlar qilingan. Molekulani muntazam shar, ikki molekulaning o‘zaro to‘qnashuvini esa elastik to‘qnashuvdan iborat deb qaralgan.

Aslida esa shar muntazam shar emas, to'qnashish elastiklik ham bo'lmaydi. Molekulalar atom yadrolari va elektronlardan tashkil topgan murakkab sistemadir. Molekulalar bir-biriga juda yaqin kelganda ($\sigma = 2 \cdot 10^{-10}$ m) o'zaro ta'sir kuchlarining xarakteri ham o'zgaradi. Itarish kuchi tortishish kuchiga qaraganda ortib ketadi; natijada molekula tezligining yo'nalishi o'zgaradi.

Molekulalar bir-biriga urilganda ularning markazlari yaqinlashishi mumkin bo'lgan minimal $\sigma = 2r$ masofani molekulaning effektiv diametri deb ataladi. U umuman olganda to'qnashuvchi molekularning to'liq energiyasiga, harakatdagi molekulaning kinetik energiyasiga va binobarin temperaturaga bog'liq bo'ladi.

Tajribada λ ni aniqlash uchun muhit ichki ishqalanish koefitsiyenti η ning gaz zichligi ρ o'rtacha arifmetik tezligi \bar{U} va erkin yugurish yo'li λ ga bog'liq bo'lgan.

$$\eta = 0,5\rho\lambda U \quad (4)$$

ifodasidan foydalanamiz (4) ga

$$\rho = \frac{\mu P}{RT} \text{ va } U = \left(\frac{8RT}{\pi\mu} \right)^{\frac{1}{2}} \text{ ifodalarni qo'ysak,}$$

$$\eta = 0,5 \frac{\mu P}{RT} \cdot \lambda = \left(\frac{8RT}{\pi\mu} \right)^{\frac{1}{2}} \quad (5)$$

munosabatni hosil qilamiz, bu yerda R-gaz universal doimiysi, μ -molyar massa va T-absolut temperaturasi.

(5) dan η ni aniqlashda uzunligi l va radiusi r bo'lgan kapillyar naychadan oqib o'tgan gaz hajmining kapillyar nay uchlaridagi ΔP bosim farqiga shu hajmi oqib o'tish uchun ketgan t vaqtga bog'liq bo'lgan Puazeyl formulasidan foydalanamiz.

$$\eta = \frac{\pi r^4 \Delta p}{8Vl} \cdot \tau \quad (6)$$

(6) formula oqim faqat Laminar bo'lgandagina (lotincha „lamina“ qatlamlili) to'g'ri bo'ladi.

Umuman suyuqliklarda ikki xil oqim mavjud: Laminar va turbulent. Agar oqimning tezligi yoki uning ko'ndalang kesimi ortsu suyuqlik tezligining oqim yo'nalishiga tik bo'lgan tashkil etuvchilar paydo bo'ladi. Bu vaqtida suyuqlik oqimining har bir nuqtasida zarralar tezligi tartibsiz o'zgarib turadi. Angliyalik olim Reynolds oqim tezligining xarakterini ko'rsatadigan

$$R_t = \frac{\rho v l}{\eta}$$

ga teng bo'lgan o'lchamsiz son (Reynolds soni) kiritdi. Agarda $\frac{\rho v l}{\eta}$ shart bajarilsa, suyuqlikning harakatida ishqalanishning roli juda ham kichik bo'ladi. Yopishqoq suyuqlikning oqimi shuncha ko'proq „ideal“ suyuqlik oqimiga yaqin bo'ladi. $\frac{\rho v l}{\eta} \ll 1$ bo'lganligi bu oqimda ishqalanish kuchining katta ekanligini bildiradi.

(5) va (6) munosabatdan foydalananib λ uchun ushbu ifodani hosil qilamiz.

$$\lambda = \frac{\pi r^2 (\pi R T)^{\frac{1}{2}}}{8 l p (2 \mu)^2} \cdot \frac{\Delta p}{V} \cdot \tau = const \cdot \frac{\Delta p}{V} \cdot \tau \quad (7)$$

bu yerda

$$const = \frac{\pi r^2 (\pi R T)^{\frac{1}{2}}}{8 l p (2 \mu)^2} \quad (8)$$

Qurilmaning tuzilishi va ishni bajarilish tartibi

Bu ishda foydalanimadigan qurilmaning prinsipial sxemasi 2-rasmda ko'rsatilgan. Qurilma M taxta ustunchaga maxsus Q ilgaklar yordamida mahkamlangan A shisha ballondan iborat bo'lib, uning oqimiga esa B kranli shisha naycha ulangan.

1. A balloonning $\frac{3}{4}$ qismini suv bilan to'ldirib uning sathi h_1 belgilab olinadi.

2. Kran B ochilsa dastlab suv uzlusiz oqib so'ngra tomchilay boshalydi. Bunga sabab C kapillyar nayning tashqi va ichki uchlariда yuzaga kelgan ΔP bosim farqi tufayli kapillyarda havo oqimining vujudga kelishidir. Suv tomchilay boshlamgandan boshlab massasi oldindan tarozida o'lchab olingan stakanni B kran tagida qo'yib, shu ondayoq sekundomerni yurgizamiz.

3. Stakandagi suvning hajmi taxminan $50-80 \text{ sm}^3$ bo'lganda kran B yopiladi sekundomer to'xtatiladi va ballondagi suvning satxi h_2 o'lchab olinadi.

4. Suvli stakanni tarozida tortib oqib tushgan suvning sof massasi $m_2 = m_1 - m_0$ o'lchanadi. Bu yerda m_1 suvli stakanning, m_0 sof stakanning massasidir.

5. Suvning massasiga m_2 ga ko'ra uning hajmi V topiladi. Ana shu hajm kran B ochilganda C naycha orqali ballonga kirgan havoning ham hajmidir. V hajmni oqib o'tishi uchun ketgan vaqt ham yozib olinadi.

6. ΔP bosim quyidagi mulohazaga ko'ra hisoblaniladi:

I uzunlikda C kapillyar nayning yuqori uchidagi bosim atmosfera bosimidan iborat bo'lib, pastki uchidagi bosim undan kichik bo'ladi. natijada tor kapillyar orqali havo sekin sizib o'tadi.

B kran ochilganda oqib chiqaytogan suyuqlik ustidagi havo hajmi ortadi. Shu tufayli bosim atmosfera bosimi P dan biror miqdorda(P_1) kam bo'ladi.

Naychalar uchlari orasidagi yuzaga kelgan $P-P_1$ bosim farqli gidrostatik bosim pg₁ bilan o'zaro muvozanatda bo'lganda

$$\Delta P_1 = P - P_1 = pg_{h_1} \text{ yoki } P = P_1 + pg_{h_1} \quad (9)$$

bo'ladi.

Suyuqlik ustuni h_2 gacha kamayganda uning ustidagi havo bosimi P_2 bo'lib u nayning yuqori uchidagi atmosfera bosimi P dan kam bo'ladi. Bu bosimlar farqi $P - P_2$, h_2 ustunli suyuqlikning gidrostatik bosimiga teng bo'lganda muvozanat ro'y beradi. ya'ni

$$\Delta P_2 = P - P_2 = pg_{h_2} \quad (10)$$

bo'ladi. Havo oqimi idishga uzlusiz ravishda kirib turganligi protsess kvazistatistik bo'lganligi sababli ΔP_1 va ΔP_2 lar bir-biridan unchalik katta farq qilamydi. Bunday holda ΔP ni ΔP_1 va ΔP_2 larning o'rtacha arifmetik qiymatiga teng deb olish mumkin.

$$\Delta p = \frac{\Delta p_1 + \Delta p_2}{2} = \frac{h_1 + h_2}{2} \rho g \quad (11)$$

Bu yerda ρ -T temperaturadagi suyuqlikning zichligi. V va T larni bilgan holda (11) dan hisoblab topilgan ΔP ning qiymatini (7) ga qo'yib λ hisoblab topiladi.

7. Tajriba 3-4 marta takrorlanadi.

$P_0 = n_0 k T_0$ va $P = nkT$ (12) munosabat tenglashtirib, n ni topamiz va

$$\sigma = \sqrt{\frac{1}{\sqrt{2\pi n \lambda}}}$$

ifodani hosil qilinadi. Bu ifodani (12) ga qo'yib, molekulaning effektiv diametri aniqlanadi. Uning ifodasi

$$\sigma = \sqrt{\frac{T p_0}{\sqrt{2\pi m_n p T_0 \lambda}}}$$

bo'lishini ko'rish qiyin emas.

Bu formulada n_0 Loshmit soni, P_0, T_0 lar mos ravishda normal sharoitdagi bosim va temperaturadir. Ular laboratoriyanadagi barometr va termometr ko'rsatishidan yozib olinadi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

<i>N</i>	<i>T</i>	<i>h_t</i>	<i>H₂</i>	<i>Δp</i>	<i>V</i>	<i>λ</i>	<i>Δλ</i>	<i>σ</i>	<i>Δσ</i>	<i>ε</i>
1										
2										
3										
4										
5										
O'rt										

8. Oxirgi natijalarni quyidagicha ifodalang.

$$\lambda = \lambda \pm \Delta \lambda \quad \sigma = \sigma \pm \Delta \sigma$$

10. Olingan natijalarni λ va σ ning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslang.

Ba'zi doimiylar va naycha xarakteristikalar quiyida berilgan:

$$r = 0,1784 \cdot 10^{-3} \text{ m}$$

$$T = (273 + t) \text{ K}, T_0 = 273 \text{ K}$$

$$l = 6,05 \cdot 10^{-2} P_0 = 1 \text{ atm}$$

$$\mu = 29 \text{ kg/mol}$$

$$n_0 = 3 \cdot 10^{19} \text{ m}^{-3}$$

$$R = 8,31 \text{ J/K} \cdot \text{mol}$$

Sinov savollari

1. Erkin yugurish yo'lining uzunligi nima va u qanday fizik kattaliklarga bog'liq.

2. Molekulaning effektiv diametri temperaturaga bog'liqmi? Nima uchun?

3. Erkin yugurish yo'lining o'rtacha qiymati qanday kattaliklarga bog'liq bo'ladi?

4. Havoning kapillyar orqali sizib o'tish jarayonini tushuntiring.

4-LABORATORIYA ISHI

GEY-LYUSSAK QONUNINI TAJRIBADA TASDIQLASH

Ishning maqsadi: Gey-Lyussak qonunini tajribada tekshirib ko'rish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Termometr, chizg'ich, diametri 8-10 mm va uzunligi 0,6 m bo'lgan ingichka shisha idish, diametri 40-50 mm va uzunligi 0,6 m bo'lgan silindrik idish, 2 ta stakan va plastilin.

Nazariy qism

Molekulalari o'zaro to'qnashmaydigan yoki molekulalari orasidagi masofa molekula o'lchamidan katta bo'lgan gazlar ideal gazlar deb atyiladi.

Berilgan m massali gazning holati uning P bosimi T temperaturasi V hajmi bilan xarakterlanadi. Ular orasidagi bog'lanish gaz holat tenglamasi yordamida topiladi. Molekulyar kinetik nazariyaga asosan gazning bosimi

$$p = nkT$$

bu yerda n hajm birligidagi molekulalar soni k Boltsmon doimiysi bo'lib, uning qiymati $k=1,38 \times 10^{-23}$ J/K ga teng. Agar V hajmda N ta molekula bo'lsa, $n = \frac{N}{V}$ bo'lib ifoda quyidagicha yoziladi.

$$pV = NkT$$

berilgan gaz molekulasining massasi m_0 orqali V hajmdagi gaz massasini topish mumkin.

$$M = m_0 N$$

Gaz molekulyar masasining kg bilan ifodalangan miqdori kilomol deyliladi. Bu massadagi molekulalar soni $N_0 = 6,02 \cdot 10^{26}$ ga teng. U avagadro soni deb ataladi. Ifodaga asosan 1 kilomol gazning massasi

$$\mu = m_0 N_0$$

bu oxirgi ikki ifodadan foydalanib

$$N = \frac{M}{\mu} N_0$$

ni yozish mumkin. Uni formulaga qo'yib quyidagi munosabat hosil qilinadi.

$$pV = \frac{M}{\mu} N_0 kT$$

ikki o'zgarmas kattalikning ko'paytmasi ham o'zgarmas kattaliklar ya'ni $N_0 k = R = 8,31 \cdot 10^{-3}$ J/Kmol·K, bunda R gazning universal doimiysi bu kattaliklara asida gazning holat tenglamasi

$$bV = \frac{M}{\mu} RT$$

ko'rinishda yoziladi va Mendeleev Klapeyron tenglamasi deb yuritiladi. Agar massasi $M = \mu$ bo'lsa, u holda tenglama

$$pV_{kmol} = RT$$

shaklda yoziladi bunda $V_{kmol} - 1$ kmol gaz hajmi.

Gaz holatini xarakterlovchi parametrlardan biri T temperaurada o'zgarmas bo'lsa tenglamaning o'ng tomoni o'zgarmas bo'lib, Boyl-Mariott qonuni ifodasi hosil qilinadi.

$$pV=const$$

o'zgarmas temperaturada gaz kengaysa yoki siqilsa uning bosimi hajmga teskari proporsional ravishda o'zgaradi. U paytda ularning ko'paytmasi berilgan gazning har xil holatlari uchun o'zgarmas bo'lib qolaveradi.

$$pV=p_1V_1=p_2V_2=p_3V_3=\dots$$

temperatura o'zgarmas bo'lganida o'tkazadigan jarayon izotermik jarayon deyiladi. Izotermik jarayonda gaz holatini tasvirlovchi egrи chiziq izoterma deyiladi.

Agar bosim o'zgarmas bo'lsa u holda tenglama

$$\frac{V}{T}=const$$

ko'rinishida yoziladi. Temperatura Selziy shkalasi bo'yicha hisoblansa tenglama quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$V=V_0(1+\alpha t)$$

Hajm o'zgarmas bo'lganda bosim bilan temperature orasida quyidagi ko'rinishda bog'lanish hosil bo'ladi:

$$\frac{P}{T}=const$$

$$\text{yoki } p=p_0(1+\alpha t)$$

Bu tenglamalarda t – Selsiy shkalasi bo'yicha hisoblanagan temperature $V_0-0^{\circ}\text{C}$ dagi hajm $p_0-0^{\circ}\text{C}$ dagi bosim $\alpha = \frac{1}{273} \cdot \text{grad}^{-1}$.

O'zgarmas bosimda yuz beradigan jarayon izobarik jarayon deb ataladi.

Yuqorida tavsif etilgan jihozlarni ishlatib izobarik jarayonni tajribada o'rganish mumkin. Bunda bosim o'zgarmas bo'lgan sharoitdagi gaz hajmlari nisbati temperaturalar nisbatiga solishtiriladi.

Ishni bajarishga doir ko'rsatmalar:


1. Ingichka naychaning L , uzunligini o'lchash.
2. Shtativga o'rnatilgan silindrlik idishga suv qo'ying (temperaturasi 60°C dan oshmasin).
3. Issiq suvning qo'yilgan idishga kavsharlangan uchini pastga qarab ingichka naychani 3-5 min botirib turing (la-rasm).
4. Issiq suvning T , temperaturasini o'lchang naychaning ochiq uchini plastilin bilan zich qilib berkiting. Naychani issiq suv idishdan chiqarib olib shu xamona ichida uy temperaturasidagi suv bo'lgan

kalorimetr stakaniga yopiq uchini pastga qaratib tushiring. Plastilin oling (1b-rasm). Naychadagi havo sovigani sari undagi suv ko'tariladi.

5. Suv ko'tarilishdan to'xtagach naychaning undagi suv sathi stakandagi suv sathi bilan tenglashguncha suvgaga botirib turing. Naychaning suvgaga botgan qismining L uzunligini o'lchang (v-rasm).

6. Uydagisi havoning T_2 temperaturasini o'lchang.

7. O'lhash natijalarini quyidagi jadvalga yozing.



Naychaning uzunligi L_1 mm.	Issiq suvning temperaturasi		Naychaga kirgan suv ustunining L uzunligi mm	Naychaning suv kirmagan qismining uzunligi $L_2=L_1-L_{mm}$	Havoning temperaturasi	
	T_1 , °C	T_2 , °C			T_2 , °C	T_2 , °C

8. $\frac{T_1}{T_2}$ va $\frac{V_1}{V_2}$ nisbatni solishtiring $V_1=SL_1$ va $V_2=SL_2$ bo'lgani uchun (bu yerda S naychaning kesim yuzi) $\frac{V_1}{V_2}$ nisbat $\frac{L_1}{L_2}$ nisbatga teng.

9. Gey-Lyussak qonuniga asosan nazariy ravishda $\frac{T_1 \cdot V_1}{T_2 \cdot V_2}$ yoki $\frac{T_1}{T_2} \cdot \frac{V_1}{V_2}$. Bu ifodaga tajribada topilgan T_1 , T_2 , L_1 va L_2 miqdorlarni qo'syak birdan farq qilishi mumkin. Bu hol Gey-Lyussak qonuni tajribada tekshirib ko'rinishning nisbiy xatosini topishga imkon beradi, buning uchun $\frac{\frac{T_1}{T_2} \cdot \frac{V_1}{V_2} - 1}{1}$ 100% nisbatni hisoblab chiqish kerak.

Sinov savollari

1. Izojarayon deb nimaga aytildi?
2. Izobarik jarayon deb nimaga aytildi?
3. Izobara chziqlarini turli grafiklar ko'rinishida ifodalang.
4. Umumlashgan gaz qonuni formulasini yozing.
5. Ishni bajarish tartibini tushuntirihg.
6. Ishga xulosa qiling.

5-LABORATORIYA ISHI

HAVONING NISBIY NAMLIGINI PSIXROMETR YORDAMIDA ANIQLASH

Ishning maqsadi: 1. Havo namligini tajribada aniqlashni o'rganish.
 2. Havodagi suv bug'ining miqdorini aniqlash usulini o'rganish. 3. Avgust psixrometrining tuzilishini o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Avgust psixrometri (yoki qo'lida yasalgan moslama), stakan suvlid

Nazariy qism

Yer atmosferasi tarkibiga suv bug'larining miqdori bilan tavsiflanadigan fizik kattalik havoning namligi deyiladi.

1 m^3 havodagi suv bug'ining massasi absolyut namlik deyiladi. Absolut namlikni bilgan holda u sharoitda suv bug'ining to'yinish darajasidan qanchalik uzoq ekanligini binobarin svuning bug'lanish yoki kondensatsiyalanish intensivligi to'g'risida biror fikr aytib bo'lmaydi. Buning uchun nisbiy namlik degan kattalikni bilish kerak.

Muayyan bir temperaturada havo absolut namligining shu tempereturada 1 m^3 havoni to'yintirish uchun zarur bo'lgan suv bug'i

massasiga nisbati bilan aniqlanadigan f kattalik nisbiy namlik deyiladi. Nisbiy namlikni yana suv bug'i elastikligi orqali ham ta'riflash mumkin. Havo tarkibidagi suv bug'larining elastikligi aynan shu temperaturadagi to'yingan suv bug'i elastikligiga nisbati bilan ifodalanadigan kattalik nisbiy namlik deyiladi. U quyidagicha ifodalaniladi:


$$f = \frac{\rho}{\rho_0} \text{ yoki foizlarda } f = \frac{\rho}{\rho_0} \cdot 100\% \quad (1)$$

Havodagi suv bug'i elastikligi deyilganda havodagi suv bug'inинг parsial bosimi tushuniladi.

Tirik organizmlarning tuproqning namlik yo'qotishi nisbiy namlikka bog'liq. Inson o'zini yaxshi his qilishi uchun nisbiy namlik 60-70% atrofida bo'lishi kerak.

Namlikni aniqlash uchun Avgust psixrometridan foydalanish mumkin. Psixrometr ikkita bir xil termometrdan iborat bo'lib ulardan birining uchiga rezervuardagi suvgaga botirib qo'yilgan mato o'ralgan. Havo suv bug'lari bilan to'yinmagan bo'lsa, matodagi suv bug'lanadi. Va termometrning rezervuari soviydi. Natijada termometr past temperaturani ko'rsatadi. Chunki nisbiy namlik kichik bo'lganda suv bug'i to'yinishidan uzoq bo'lgani uchun ho'l temperaturani ko'rsatadi.

Nisbiy namlik oshib borgani sari bug'lanish kamayadi va ho'l termometrning ko'rsatishi quruq termometrnikiga yaqinlashadi. Nisbiy namlik 100 % bo'lganda suv umuman bug'lanmaydi. Va xo'l termometrning ko'rsatishi quruq termometrniki bilan bir xil bo'ladi. Ikkala termometr ko'rsatishlarining ayirmasiga qarab psixrometrik jadval yordamida havoning nisbiy namligini aniqlash mumkin.



1-rasm

(1) ifodaga ko‘ra absolyut namlik quyidagicha aniqlanadi, ya’ni:

$$\rho = f\rho_0 \frac{1}{100\%}, \quad (2)$$

bu yerda ρ_0 ma’lum temperaturadagi 1 m^3 hajmini to‘yintirish uchun zarur bo‘lgan suv bug‘ining massasi. Uning qiymati ilovadagi jadvaldan olinadi.

Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo‘riqnomasini o‘qib o‘rganing.
2. Psixrometr stakanchasiga suv soling va 5-10 minut kuting.
3. Quruq va ho‘l termometrning t va t_x ko‘rsatishlarini yozib oling.
4. Quruq va ho‘l termometrlar farqini hisoblang.
5. Psixrometrik jadvaldan t ga va t_x temperaturasi (quruq termometrning ko‘rsatishiga) mos kelgan nisbiy namlikni belgilang.
6. (2) ifodadan va jadvaldan foydalanib, havoning absolut namligini hisoblang.
7. Tajribani ertalab, o‘qish yoki ishga ketish oldidan tushda o‘qishdan keyin takrorlang. Kechqurun va kechasi takrorlang. Tajriba o‘tkazilayotgan kunning vaqtini (T) belgilab qo‘ying.
8. Havoning nisbiy va absolyut namligining temperaturaga bog‘lanish grafigini millimeter qog‘ozga chizing.
9. Havoning nisbiy, absolut namligini, kunning vaqtga bog‘lanish grafigini chizing.
10. Asbobning o‘lhash aniqligini hisobga olib xatolikni baholang.
11. Tajribada aniqlangan natijalarни jadvalga kiriting.

<i>N</i>	t_I	t_x	Δt	<i>f</i>	Δf	Δf	ρ_0	<i>T</i>	<i>p</i>
1.									
2.									
3.									
4.									
5.									
O‘rt									

Eslatma: Ixtiyorningizda Avgust psixrometri bo‘lmay faqat termometrlar bo‘lsa, ulardan psixrometr yig‘ish mumkin. Agar ixtiyorningizda bitta psixrometr bo‘lsa, u holda xona havosining t temperaturasini o‘lchaysiz. So‘ngra shu termometrning rezurvuarini ho‘l

mato bilan o‘rab matoning bir qismini stakandagi suvgaga tashirasiz. 10-15 minut o‘tgach termometrning t_1 ko‘rsatishini yozib olasiz. Shu natijalar asosida aniqligi juda yuqori bo‘lmagan natijalar olish mumkin. 1 m³ havodagi to‘yingan suv bug‘ining massasi 10⁻³ kg/m³ ga teng. Psixrometrik jadval ilovada keltirilgan.

6-LABORATORIYA ISHI

TOMCHI USULI BILAN SIRT TARANGLIK KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini aniqlashni o‘rganish. Sirt taranglik koeffitsiyentini hamma suyuqliklarda bir xil emasligini tajribada aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Elektron (JW-1) tarozi, stakan, ingichka uchli idish, shtativ, har xil turdagи suyuqliklar va yordamchi aslahalar.

Nazariy qism

Suyuqlik sirtidagi molekulalarga ichki molekulalar tomonidan suyuqlik ichiga yo‘nlagan kuch ta’sir qiladi. Shuning uchun suyuqlik sirtida sirt tarangligi hosil bo‘lib u doim suyuqlik yuzasini qisqartirishga intiladi. Ayni paytda suyuqlikka shu sirtni saqlab turuvchi sirt taranglik kuchi ta’sir qiladi. Bu kuchning kattaligini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$F = \alpha \cdot L \quad (1)$$

Bunda L sirt peremetri; α sirt taranglik koeffitsiyenti. Sirt taranglik koeffitsiyenti deb sirtning birlik chegarasiga to‘g‘ri keladigan kuchga aytildi va u N/m da o‘lchanadi.

Faqat bitta tomchi uchun sirt taranglik koeffitsiyentini topishda $\alpha \cdot L$ kuch bitta tomchining og‘irlik kuchiga tenglashadi.

$$\alpha \cdot L = m_0 g \quad (2)$$

Bunda m_0 bitta tomchining massasi L suyuqlik tomadigan kapilyar nay uchining ichki aylanasi uzunligi. Ya’ni parametri.

Bitta tomchining massasi m_0 ni topish uchun n ta tomchining massasi tomcilar soniga bo‘linadi.

$$m_0 = \frac{m}{n} \quad (3)$$

Shunday qilibkapilyarlarning ichki peremetri $L=\pi d$ ekanligini hisobga olsak (2) ni quyidagicha yozish mumkin:


$$\alpha\pi d = \frac{m}{n} g \quad (4)$$

Bunda suyuqlikning sirt taranglik koefitsiyenti α topiladi.

$$\alpha = \frac{mg}{\pi nd} \quad (5)$$

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Qurilma og'ir taglik (5) ning vertikal ustunchasiga (4) tik mahkamlangan ventilli kapillyar idish (1) va stakan yoki menzurkadan (3) tashkil topgan. Ventil (2) ochilganida suyuqlik stakanga tomchilab tushadi. Tomchilar soni sanaladi. So'ngra stakandagi suv elektorn tarozida o'lchanadi. Tarozi ko'rsatishidan stakan massasini ayirib tashlab oqib tushgan suyuqlik massasi topiladi. Yuqoridagi o'lchashlar har xil turdag'i suyuqliklar bilan takrorlanadi. Tajribada topilgan natijalar asosida suyuqliklarning sirt taranglik koefitsiyenti hisoblanadi.



Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'rqnomasini o'qib o'rganining.
2. Shisha idish uchining ichki perimetrini va diametrini aniqlang.
3. Quruq stakan massasini tarozida tortib aniqlang.
4. Suyuqlik solinadigan idishga o'r ganiladigan suyuqlikni qo'ying.
5. Shisha idishdan stakanga suyuqlikning sekin kapillyarlar orqali tomchilab oqishini ta'minlang va tomchilar sonini sanag.

6. Yuqoridagi 6 va 3 banddag'i massalar ayirmasini toping.
7. Sirt taranglik koeffitsiyentini (5) formuladan toping.
8. Suyuqlik massasini elektron yoki shayinli tarozida o'chang.
9. Aniqlangan natijalarni boshqa adabiyotlarga keltirilgan natijalar bilan solishtiring.

7-LABORATORIYA ISHI

QATTIQ JISMNING SOLISHTIRMA ISSIQLIK SIG'IMINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: 1. Qattiq jismarning solishtirma issiqlik sig'imlari turlicha bo'lishini o'rganish. 2. Qattiq jismning solishtirma issiqlik sig'imi uning geometrik shakliga bog'liq emasligini o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Kalorimetr, har xil geometrik shakldagi mis, aluminiy, po'lat, cho'yan, shisha jismilar. Menzurka, termometr. Sharnirli tarozi yoki elektron tarozi, ip, sovuq va qaynoq suv, Mufel pechi.

Nazariy qism

Jismlar atomlardan tashkil topgan bo'lib bu zarralar bir-biri bilan nisbatan ma'lum masofada kristall panjara tugunlarida joylashadi. Va ularning zinch yoki siyrak joylashuviga qarab mos ravishda jismarning zinchliklari ham turlicha bo'ladi. Atomlari zinch joylashgan kristallarning ham shakli murakkab bo'lishi bilan birga ulardan tashkil topgan jismarning zinchliklari ham katta bo'ladi. Bunda jism zarralarining o'zarotutinish kuchlari ham katta bo'ladi va ularning muvozanat holatidan chiqarish uchun ko'proq energiya sarflash kerak bo'ladi.

Jismlar tashqaridan issiqlik energiyasi yutishi yoki qandaydir biror tashqi ta'sir natijasida ichki energiyasi ortishi hisobiga isiydi. Natijada uning temperaturasi ortadi aksincha jism soviganida atrof-muhitga issiqlik energiyasi chiqaradi va temperaturasi yo'qotilgan energiya qiymatiga teng miqdorda pasayadi.

Demak, moddaning ichki energiyasi tashqi ta'sir natijasida ortishi yoki kamayishi mumkin. Bunday holat o'rinni bo'lganida moddalar bir-biriga issiqlik uzatadi yoki ulardan issiqlik oladi. Bunday hodisa issiqlik almashinuvni deb yuritiladi.

Bir jismdan boshqa jismga ish bajarmasdan o'z-o'zidan issiqlik energiyasining o'tishi issiqlik almashinuvni yoki issiqlik uzatish deyiladi.

Issiqlik uzatishga ichki energiya o'zgarishiga teng bo'lgan jism olgan yoki yo'qtgan energiya issiqlik miqdori deb ataladi. Jismning massasi qancha kichik bo'lsa shuncha kam issiqlik miqdori zarur bo'ladi. issiqlik miqdori SI o'Ichov birliklarida „Joul“ da o'chanadi. Texnik o'Ichov sistemasida issiqlik miqdori koloriyada o'chanadi. Koloriyadan Joulga qo'yilgan munosabat orqali o'tiladi:

$$1 \text{ kal} = 4,18 \text{ J}$$

$$1 \text{ kkal} = 4,18 \text{ kJ}$$

Har xil massali bir xil jismlarning yoki bir xil massali jismlarni isitishda turlicha miqdordagi issiqlik miqdori kerak bo'ladi. bir kilogram massali turli xil jismlarni 1 kelvin isitish uchun turlicha miqdorda issiqlik energiyasi kerak bo'ladi.

1 kg moddaning temperaturasini 1 K ga orttirish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdorini tasvirlovchi fizik kattalik shu moddaning solishtirma issiqlik sig'imi deyiladi.

Solishtirma issiqlik sig'imi SI o'Ichov birliklari sistemasida $1 \text{ J/kg} \cdot \text{K}$ bilan o'chanadi. Yuqoridaq fikrlardan 1 kg temirning temperaturasini 1 K ga orttirish uchun 460 J issiqlik kerak bo'lsa 20 kg uchun 9200 J issiqlik miqdori kerak bo'lishi kelib chiqadi.

Jismlarni isitish uchun zarur bo'lgan yoki ular sovganida yo'qoladigan issiqlik miqdori jismning massasi solishtirma issiqlik sig'imi va temperaturalari farqi bilan quyidagicha bog'lanadi:

$$Q = cm(T_2 - T_1) \quad (1)$$

Bunda Q jism olgan issiqlik miqdori. J m jism massasi, kg c jismning solishtirma issiqlik sig'imi, $\text{J/kg} \cdot \text{K}$; $\Delta T = T_2 - T_1$ oxirgi vaboshlang'ich holatlardagi temperaturalar farqi.

Moddalarning solishtirma issiqlik sig'implari kilometr asbobi yordamida anioqlanadi. Buning uchun kalorimetrik quyilgan modda (suv) ning massalarini o'Ichash aniqligi yuqori bo'lgan tarozida tortib aniqlanadi.

Demak no'malum jismning issiqlik sig'imi (1) dan foydalanib ayrim o'Ichov natijalari asosida hisoblash mumkin ekan. Buning uchun kalorimetrik massasi m_k kalorimetrga qo'yilgan suvning massasi m_c va temperaturasi T_c o'rganilayorgan qizdirilgan jismning temperaturasi T_j va massasi m hamda aralashma temperaturasi T_m deb belgilab olinadi.

6. Yuqoridagi 6 va 3 banddagi massalar ayirmasini toping.
7. Sirt taranglik koefitsiyentini (5) formuladan toping.
8. Suyuqlik massasini elektron yoki shayinli tarozida o'chchang.
9. Aniqlangan natijalarni boshqa adabiyotlarga keltirilgan natijalar bilan solishtiring.

7-LABORATORIYA ISHI

QATTIQ JISMNING SOLISHTIRMA ISSIQLIK SIG'IMINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: 1. Qattiq jismarning solishtirma issiqlik sig'imi turlicha bo'lishini o'rganish. 2. Qattiq jismning solishtirma issiqlik sig'imi uning geometrik shakliga bog'liq emasligini o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Kalorimetrik, har xil geometrik shakldagi mis, aluminiy, po'lat, cho'yan, shisha jismlar. Menzurka, termometr. Sharnirli tarozi yoki elektron tarozi, ip, sovuq va qaynoq suv, Mufel pechi.

Nazariy qism

Jismlar atomlardan tashkil topgan bo'lib bu zarralar bir-biri bilan nisbatan ma'lum masofada kristall panjara tugunlarida joylashadi. Va ularning zinch yoki siyrak joylashuviga qarab mos ravishda jismlarning zinchliklari ham turlicha bo'ladi. Atomlari zinch joylashgan kristallarning ham shakli murakkab bo'lishi bilan birga ulardan tashkil topgan jismlarning zinchliklari ham katta bo'ladi. Bunda jism zarralarining o'zarotutinish kuchlari ham katta bo'ladi va ularning muvozanat holatidan chiqarish uchun ko'proq energiya sarflash kerak bo'ladi.

Jismlar tashqaridan issiqlik energiyasi yutishi yoki qandaydir biror tashqi ta'sir natijasida ichki energiyasi ortishi hisobiga isiydi. Natijada uning temperaturasi ortadi aksincha jism sovganida atrof-muhitga issiqlik energiyasi chiqaradi va temperaturasi yo'qotilgan energiya qiymatiga teng miqdorda pasayadi.

Demak, moddaning ichki energiyasi tashqi ta'sir natijasida ortishi yoki kamayishi mumkin. Bunday holat o'rinni bo'lganida moddalar bir-biriga issiqlik uzatadi yoki ulardan issiqlik oladi. Bunday hodisa issiqlik almashinuvi deb yuritiladi.

Bir jismdan boshqa jismga ish bajarmasdan o'z-o'zidan issiqlik energiyasining o'tishi issiqlik almashinuvni yoki issiqlik uzatish deyiladi.

Issiqlik uzatishga ichki energiya o'zgarishiga teng bo'lgan jism olgan yoki yo'qotgan energiya issiqlik miqdori deb ataladi. Jismning massasi qancha kichik bo'lsa shuncha kam issiqlik miqdori zarur bo'ladi. issiqlik miqdori SI o'Ichov birliklarida „Joul“ da o'lchanadi. Texnik o'Ichov sistemasida issiqlik miqdori koloriyada o'lchanadi. Koloriyadan Joulga qo'yilgan munosabat orqali o'tiladi:

$$1 \text{ kal} \equiv 4,18 \text{ J}$$

$$1 \text{ kkal} \equiv 4,18 \text{ kJ}$$

Har xil massali bir xil jismlarning yoki bir xil massali jismlarni isitishda turlicha miqdordagi issiqlik miqdori kerak bo'ladi. bir kilogram massali turli xil jismlarni 1 kelvin isitish uchun turlicha miqdorda issiqlik energiyasi kerak bo'ladi.

1 kg moddaning temperaturasini 1 K ga orttirish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdorini tasvirlovchi fizik kattalik shu moddaning solishtirma issiqlik sig'imi deyiladi.

Solishtirma issiqlik sig'imi SI o'Ichov birliklari sistemasida $J/kg \cdot K$ bilan o'lchanadi. Yuqorida fikrlardan 1 kg temirning temperurasini 1 K ga orttirish uchun 460 J issiqlik kerak bo'lsa 20 kg uchun 9200 J issiqlik miqdori kerak bo'lishi kelib chiqadi.

Jismlarni isitish uchun zarur bo'lgan yoki ular sovganida yo'qoladigan issiqlik miqdori jismning massasi solishtirma issiqlik sig'imi va temperaturalari farqi bilan quyidagicha bog'lanadi:

$$Q = cm(T_2 - T_1) \quad (1)$$

Bunda Q jism olgan issiqlik miqdori. J m jism massasi, kg c jismning solishtirma issiqlik sig'imi, $J/kg \cdot K$; $\Delta T = T_2 - T_1$ oxirgi vaboshlang'ich holatlardagi temperaturalar farqi.

Moddalarning solishtirma issiqlik sig'imgani kilometr asbobi yordamida anioqlanadi. Buning uchun kalorimetri quyilgan modda (suv) ning massalarini o'Ichash aniqligi yuqori bo'lgan tarozida tortib anioqlanadi.

Demak no'malum jismning issiqlik sig'imini (1) dan foydalanib ayrim o'Ichov natijalari asosida hisoblash mumkin ekan. Buning uchun kalorimetri massasi mk kalorimetrga qo'yilgan suvning massasi mc va temperaturasi T_c o'rganilayorgan qizdirilgan jismning temperaturasi T_1 va massasi m hamda aralashma temperaturasi T_m deb belgilab olinadi.

Sinov savollari

1. Energiya deb nimaga aytildi?
2. Ichki energiya deganda nimani tushunasiz.
3. Temperatura deb nimaga aytildi va uning o'chov birliklarini aytning.
4. Issiqlik sig'mi va solishtirma issiqlik sig'mi deb nimaga aytildi?
5. Issiqlik sig'mi va solishtirma issiqlik sig'mi birliklarini aytning.
6. Ishni bajarilish tartibini tushuntiring.
7. Ishga xulosa qiling.

8-LABORATORIYA ISHI

SUYUQLIKNING SOLISHTIRMA ISSIQLIK SIG'IMINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: 1. Issiqlik sig'imi tushunchalari bilan yaqindan tanishish. 2. Suyuqlikning issiqlik sig'imini tajribada aniqlashni o'rghanish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Kalorimetr, isitgich, solishtirma issiqlik sig'imi ma'lum bo'lgan suyuqliklar, tekshiriladigan suyuqliklar, o'zgarmas tok manbai.

Nazariy qism

Suyuqlik molekulalari qattiq jismlarga nisbatan ancha zinch joylashadi. Shunday bo'lsada, suyuqliklarning molekulalari o'rtasida mavjud bo'lgan tutinish kuchlari tufayli ular bir-birini tortib va itarib turadi. Suyuqlikning temperaturasi ortganda molekulalarning xaotik harakati jadallahashi va bunda molekulalar aro tutinish kuchlari susayadi. Ushbu jarayon hamma suyuqliklarda ham bir xil kechmaydi. Bunday holat faqat modda miqdoriga bog'liq bo'lmasdan, ularning solishtirma issiqlik sig'imlariga ham bog'liq. Agar issiq jismni sovuq suyuqlikka tushirsak suyuqlik isiydi. Qattiq jism esa soviydi. Issiq jism o'rniga elektr qarshiliklari o'zaro teng bo'lgan ikkita elektr issiqlik ajratgich elementidan foydalanib, tekshirayotgan suyuqlikning solishtirma issiqlik sig'imini tajribada topilgan natijalar asosida aniqlash mumkin. Buning uchun ikkita bir xil kalorimetr va qarshiliklari o'zaro teng bo'lgan ikkita elektr issiqlik ajratgich elementi olinadi. Ular solishtirma

issiqlik sig‘imi aniq va noma’lum suyuqliklar qo‘yilgan kalorimetrlarga tushiriladi so‘ngra elektr zanjirga ularadi. Hamda ulardan o‘zgarmas elektr toki o‘tkaziladi. Ma’lumki, Joul Lens qonuniga muvofiq issiqlik ajratgich element vaqt birligi ichida bir xil miqdorda issiqlik energiyasi chiqaradi. Shuning uchun bиринчи kalorimetрning massasini (stakani va ralashirgichi bilan birgalikda) m_{kl} solishtirma issiqlik sig‘imini c_{kl} va unga qo‘yilgan suyuqlik m_{cl} solishtirma issiqlik sig‘imini c_{cl} hamda shu suyuqlikning oxirgi va boshlang‘ich temperaturalari farqini ΔT_1 deb belgilab issiqlik ajratgichdan tok o‘tganida ajralib chiqadigan miqdori ifodasini quyidagicha yozish mumkin

$$Q_1 = (c_{kl}m_{kl} + c_{cl}m_{cl})\Delta T_1 \quad (1)$$

Ikkinci kalorimetrga tekshiriladigan suyuqlik quyib va unga ham issiqlik ajratgich elementini tushirib tok manbaiga ulaganimizda issiqlik ajratgich o‘rganilayotgan suyuqlikka ma’lum miqdorda issiqlik miqdori uzatadi. Tekshirilayotgan suyuqlik olgan issiqlik miqdorini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Q_2 = (c_{k2} + c_{c2}m_{c2})\Delta T_2 \quad (2)$$

bunda c_{k2} va c_{c2} mos ravishda ikkinchi kalorimet va unga qo‘yilgan tekshirilayotgan suyuqlikning solishtirma issiqlik sig‘imlari m_{k2} va m_{c2} mos ravishda kalorimet (stakani va aralashirgichi bilan birgalikda) va tekshirilayotgan suyuqlik massalari ΔT_2 tekshirilayotgan suyuqlikning boshlang‘ich va oxirgi temperaturalari farqi.

Ikkala kalorimetrlardagi suyuqliklarga uzatilgan issiqlik miqdorlari tenglidan (1) va (2) ifodalarning o‘ng tomonlari ham teng bo‘ladi. Bu tenglikgan tekshirilayotgan suyuqlikning solishtirma issiqlik sig‘imi topiladi. Ya’ni


$$c_{c2} = [(c_{kl}m_{kl} + c_{cl}m_{cl})\Delta T_1 - c_{k2}m_{k2}\Delta T_2] / m_{c2}\Delta T_2 \quad (3)$$

Tajribani har bir turdagи namuna uchun eng kamida uch marta takrorlash kerak. Namuna va tekshirilayotgan suyuqliklar massalarini har bir tajribada turlicha miqdorda (50, 100, 150 g) olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. tajriba uch marta o‘tkaziladi va natijalarning o‘rtacha qiymati aniqlanadi va xatoligi ko‘rsatiladi.

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Suyuqlikning solishtirma issiqlik sig‘imini aniqlash uchun solishtirma issiqlik sig‘imi ma’lum bo‘lgan suyuqliklar masalan suv va sh. K. olinadi. Berilgan suyuqlikning massasi tarozida 0,1 g anqlikkacha o‘lchanadi. So‘ngra ikkala kalorimetrga suyuqliklar qo‘yiladi va ularga

elektr issiqlik ajratgich elementlari tushiriladi. Elektr zanjir yig'iladi vat ok mabaiga ulashdan oldin kalorimetrlardagi suyuqliklarning har biri aralashtirgich bilan aralashtiriladi va ularga termometrlarga tushiriladi. Ma'lum vatqdan so'ng suyuqliklar temperaturalarini termometrlarning ko'rsatishlari bo'yicha yozib olinib zanjir tok manbaiga ulanadi va 5-10 minutdan keyin termometrlarning ko'rsatishlari yana yozib olinadi.



Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'rqnomasini o'qib o'rgananing.
2. Kalorimetrlarga ma'lum miqdorda suyuqliklar quying.
3. Issiqlik sig'imlari aniq va noma'lum bo'lgan suyuqliklar qo'yilgan kalorimetrlardagi suyuqliklarni aralashtiricig bilan aralashtiring.
4. Termometrlarni kalorimetr stakanlaridagi suyuqliklarga tushirib ularning temperaturalarini o'lchang.
5. Tuzilgan elektr zanjirini elektr manbaiga ulang va 5-10 minutdan so'ng elektr zanjirni tok manbaidan uzib termometrlarning ko'rsatishlarini yozib oling.
6. Aniqlangan natijalar asosida o'rganilayotgan suyuqlikning solishtirma issiqlik sig'imi hisoblang va ularni jadvalga kriting.
7. Absolyut hamda nisbiy xatoliklarni hisoblang.

Sinov savollari

1. Moddalar agregat holatlari bir-biridan nimalar bilan farq qiladi?
2. Kalorimetrning tuzilishi va ish prinsipini tushuntirihs.
3. Energiya deb nimaga aytildi?

4. Ichki energiya deganda nimani tushunasiz.
5. Temperatura deb nimaga aytildi va uning o'lchov birliklarini aytинг.
6. Issiqlik sig'mi va solishtirma issiqlik sig'mi deb nimaga aytildi?
7. Issiqlik sig'mi va solishtirma issiqlik sig'mi birliklarini aytинг.
8. Ishni bajarilish tartibini tushuntiring.
9. Ishga xulosa qiling.

9-LABORATORIYA ISHI

TOMCHI USULIDA SIRT TARANGLIK KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH (2-USUL)

Ishdan maqsad: Suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini turli xil usullar bilan laboratoriya sharoitida aniqlab, suyuqlikning tuzilishi, uning sirtida sodir bo'luvchi hodisalar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Kerakli asboblar va qurilmalar: Jo'mrakli byuretka – 2 ta, stakancha 2 ta tekshiriladigan suyuqlik: glitserin va suv.

Nazariy qism

Suyuqliklarning tuzilishi shuni ko'rsatadiki, molekulalar orasidagi o'rtacha masofa $3 \cdot 10^{-10}$ - $8 \cdot 10^{-10}$ m orasida bo'lib, ularning molekulyar ta'sir radiusi $\sim 10^{-10}$ m ga teng. Suyuqlik ichidagi molekula hamma tomondan boshqa molekulalar bilan o'rالgan bo'lib chekli vaqt oralig'in olib qaralganda, u holda yo'nalishlar bo'ylab deyarli bir xil ta'sirga uchraydi. Suyuqlik sirtidagi molekulalarga esa o'zidan chuqurroqda va yon tomonlarida yotgan molekulalargina ta'sir qiladi. Shuning uchun bunday molekulalarga ularni ichkariga normal yo'nalgan kuch ta'sir qilib turadi. Bundan ko'rindaniki, suyuqlikning taxminan 10^{-9} m qalinlikdagi sirt qatlami alohida holatda turar ekan. Molekulalar bu qatlamda qattiq jismdagiga o'xshab ma'lum tartib bilan joylashgan bo'lib, xuddi shu qatlamda sirt tarangligi vujudga keladi. Sirt taranglik kuchi hamma vaqt suyuqlik yuzasiga urinma bo'lgan tekislikda yotadi va uning erkin yuzasini chegaralovchi chiziqqa tik yo'nalgan bo'lib, suyuqlik yuzasini qisqartirishga majbur etadi. Suyuqlik sirtini chegaralovchi chiziqning uzunlik birligiga ta'sir etuvchi kuch sirt taranglik koeffitsiyenti deyiladi.

Agar sirt taranglik kuchini F , suyukliq yuzasini chegaralovchi chiziqning uzunligini ℓ desak, sirt taranglik koefitsiyenti

$$\alpha = \frac{F}{l} \quad (1)$$

formula bilan ifodalanadi. (1) bilan chegaralangan sirtni molekulalar orasidagi bog'lanish energiyasi tarang xolda saqlab turadi. Bu sirtning yuza birligiga mos kelgan energiya son jihatdan sirt taranglik koefitsiyentiga tengdir. Turli suyukliqlarning tuzilishi bir-biridan farqli ekanlididan ularning sirt taranglik koefitsiyentlari ham turlicha bo'ladi. Sirt taranglik suyuqlik va uning to'yingan bug'ning zichliklari ayirmasining to'rtinchi darajasiga proporsional ekanligi aniqlangan, ya'ni:

$$\alpha = c(\rho_s - \rho_{hng})^n \quad (2)$$

bu yerda c -proporsionallik koefitsiyenti. Turli suyuqliklarning sirt tarangligi temperatura ortganda quyidagi qonun bo'yicha kamayadi:

$$\alpha = \frac{\kappa}{V^{\frac{n}{3}}} (T_{kr} - T) \quad (3)$$

bu yerda V -suyuqliknинг molekulyar hajmi. T_{kr} -kritik temperatura, κ -doimiy kattalik bo'lib belgilanadi.

Tajribada tomchi ajralib tushish vaqtida uni ajralib tushishga majbur etgan kuchni aniqlashdan iboratdir. Bu kuch tomchini ushlab turgan kuch bilan qarama-qarshi yo'naliishda bo'lib son jihatidan unga teng bo'ladi. Tomchi ushlab turgan va uni uzilib tushishiga majbur etgan kuchlarni bilgan holda suyuqliknинг sirt taranglik koefitsiyentini aniqlasa bo'ladi.

$$P=F=2\pi r\alpha \quad (4)$$

Bunda: α -sirt taranglik koefitsiyenti, r -tomchini uzilish joyidagi bo'yining radiusi.

Amalda 40-50 tomchining og'irligini tarozida tortib, so'ngra bitta tomchi uchun P ning qiymatini aniqlash maqsadga muvofiqdir, u holda

$$P=2\pi r\alpha \quad (5)$$

$$P=mg=np$$

n -tomchilar soni, p -ta tomchining og'irligi.

Tomchi bo'yining radiusini aniqlash qiy'in bo'lganlididan uni o'lchamasdanoq sirt taranglik koefitsiyentini hisoblash mumkin. Bu holda taqqoslash metodidan foydalilanadi. Buning uchun ikki xil

suyuqlik olamiz. Ulardan birining zichligi ρ_1 sirt taranglik koeffitsiyenti α_1 , ikkinchi suyuqlikning zichligi ρ_2 va sirt taranglik koeffitsiyenti α_2 bo'lsin, Ikkala suyuqlikdan bir xil koeffitsiyenti V hajmda olib, birinchi suyuqlikdan n_1 ta tomchi va ikkinchi suyuqlikdan n_2 ta tomchi sanaladi. U holda birinchi suyuqlik uchun;

$$2\pi r \alpha_1 = 1/n_1 \rho_1 v g \quad (6)$$

Ikkinci suyuqlik uchun esa;

$$2\pi r \alpha_1 = 1/n_2 v \rho_2 g \quad (7)$$

tenglik o'rinni.

Hadma-had bo'lsak (6) va (7) ni

$$\frac{\alpha_1}{\alpha_2} = \frac{n_2}{n_1} \cdot \frac{\rho_1}{\rho_2}$$

nisbatini hosil qilamiz.

Bundan sirt taranglik koeffitsiyenti α_1 va α_2 ni topamiz:

$$\alpha_1 = \alpha_2 \frac{n_2}{n_1} \cdot \frac{\rho_1}{\rho_2} \quad (8)$$

$$\rho_{suv} = 1 \cdot 10^3 \frac{\kappa^2}{M^3}$$

$$\alpha_2 = \alpha_1 \frac{n_1 \rho_2}{n_2 \rho_1} \quad (9)$$

$$\rho = 1,2 \cdot 10^3 \frac{\kappa^2}{M^3}$$


$$\alpha_1 = 0,073 \frac{H}{M}.$$

bu tengliklardan ko'rindiki, suyuqliklarning zichligi va suyuqliklardan birining sirt taranglik koeffitsiyenti ma'lum bo'lsa, ikkinchi suyuqlikning sirt taranglik koeffitsiyentini aniqlash mumkin bo'ladi.


Asbobning tuzilishi

Asbob oddiy tuzilishga ega bo'lib, bir uchiga K jo'mrak o'rnatilgan, sirt darajalangan A byuretkadan iborat. Byuretkanining jo'mrak o'rnatilgan uchi konussimon kichrayib borgan bo'lib, asosning ichki radiusi 1-3 mm ni tashkil etadi. Suyuklikning hajmi idishga qarab aniqlanadi. Asbob shtativga mahkamlanib, SH shovin yordamida vertikal

o'rnatiladi. Suyuqlikni tomchilatish uchun idish ostiga C stakan qo'yiladi. D qopqoq idish ichiga chang tushishdan saqlaydi.



1-rasm



2-rasm

Ishni bajarish tartibi

1. Idishlarga tekshiriladigan suyuqliklar quyiladi. Asbob shtativga vertikal joylashtiriladi.

2. Byuretkalardan biriga α_2 sirt taranglik koeffitsiyenti suyuqlikdan ma'lum V hajmda qo'yiladi. Jo'mrakni ohib, suyuqlik nechta tomchi bo'lishi sanaladi.

3. 1-2 punktda aytilgan gaplar sirt taranglik koeffitsiyenti noma'lum bo'lgan suyuqlik uchun 2-byuretkada bajariladi.

4. Qo'llanma oxirida keltirilgan jadvallardan foydalaniib α_2 , ρ_1 va ρ_2 lar yozib olinadi. So'ngra (8) formula yordamida hisoblanadi.

N	n_1	n_2	Δn_1	Δn_2	α_2 $n m$	α_1 $n m$	$\Delta \alpha$ $n m$	$\varepsilon = \frac{\Delta \alpha}{\alpha} \cdot 100\%$
1								
2								
3								
4								
5								
O'rt								

Sinov savollari

1. Suyuqlikda molekulalarning harakati qanday bo'ladi?
2. Tashqi kuchlar bo'lmaganda suyuqlikning shakli qanday bo'ladi?
3. Sirt taranglikni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushuntiring?

4. Sirt taranglik koeffitsiyenti nima? Uning birligi.
5. Halqaning suyuqlik yuziga tegib turgan sirtiga qanday kuchlar ta'sir qiladi?

10-LABORATORIYA ISHI

STOKS USULIDA SUYUQLIKNING ICHKI ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Suyuqlikning qovushqoqlik koeffitsiyentini tajriba yo'li bilan aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Uzunligi 1–1,5 m, diametri 3–4 sm bo'lgan 2 ta silindrik shisha idish, sekundomer, mikrometr, paxta moyi va glitserin, diametri 0,3 – 0,4 sm bo'lgan po'lat yoki qo'rg'oshin sharchalar.

Nazariy qism

Suyuqlikning tarkibi va molekulalar tuzilishiga bog'liq bo'lgan asosiy xossalardan biri qovushqoqlikdir. Qovushqoqlikning molekulalar mexanizmini o'rganishda qo'yidagi manzarani fikran ko'z oldimizga keltiraylik. Bizga katta qatlamlardan tashkil topgan suyuqlik berilgan bo'lib, uning biror qatlamini sirtiga parallel u tezlik bilan siljityalik. Bu holda harakatlanuvchi qatlama tegib turgan qatlam ham unga ergashib, u tezlik bilan ko'chadi. Ammo bu u tezlik birinchi qatlamning tezligi u dan kichik bo'ladi. Sabab, ikkinchi qatlamning ko'chishiga unga yondoshgan uchinchi qatlam to'sqinlik qiladi.

$$m \frac{d^2 x}{dt^2} + m d l \varphi = 0$$

Boshqacha qilib aytganda, qatlamlar molekulalari orasida tutinish kuchi bo'lganligi uchun, ular bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashadilar, ya'ni yuqoridagi qatlama joylashgan molekula quyi qatlamdagagi molekulani o'ziga tortib ergashtirib ketsa, pastdagи qatlama joylashgan molekula uni o'ziga qoldirishga harakat qiladi. Aytilganlardan, harakatlanuvchi qatlamdan eng quyida joylashgan qatlamgina harakatsiz qoladi. Shu bilan birga qatlamlarning bir-biriga nisbatan ko'chishida biz yuqorida qayd qilgan hodisa, suyuqlik molekulalarining qatlamlaridagi betartib ko'chishidan tashqari, ularning qatlamlararo betartib o'tishlari ham sodir bo'ladi. Buning natijasida m massaga ega bo'lgan har bir

molekula bir qatlardan ikkinchi qatlarga o'tishda o'zining harakat miqdori $m \cdot \Delta v$ ga o'zgaradi.

Suyuqlikning barcha molekulalarini bir xil massaga ega deb qarab qo'shni qatlamlarga o'tishdagi $m \cdot \Delta v$ ni bir sekund davomida yondosh qatlamlarning biridan ikkinchisiga o'tgan molekulalar soniga ko'paytirib, 1 sekundagi harakat miqdori o'zgarishining yig'indisini topamiz. Bu esa qatlamlarni ko'chishga majbur etuvchi tashqi kuchga tengdir. Bu kattaliklar orasidagi bog'lanishni Nyuton quyidagi ko'rinishda ifodalagan.

$$F = \eta \frac{d\mathbf{v}}{dt} \cdot S \quad (1)$$

va uni ichki ishqalanish qonuni deb atagan. Bu yerda tezlik gradiyenti suyuqlik harakati yo'nalishiga perpendikulyar yo'nalgan. Agar tezlik gradiyenti $\frac{dv}{dz} = 1$ va $S=1$ ga teng desak, (1) dan ichki ishqalanish koeffitsiyenti son jihatdan qatlamlar orasidagi tezlik gradiyenti 1 birlikka teng bo'lгanda ularning 1 birlik yuzasiga ta'sir etuvchi ishqalanish kuchini xarakterlaydi SGS sistemasida qovushqoqlik birligi $\eta=1$ dina 1 sek/1 sm²=Puaz (Pz) olinadi. ρ -zichlik, η -dinamik qovushqoqlik, v -kinematik qovushqoqlik orasida kuyidagi bog'lanish mavjud.

$$v = \frac{\eta}{\rho} \quad (2)$$

SI birliklar sistemasida kinematik qovushqoqlikning birligi $v = M^2 / s$

Gazlarda qovushqoqlik temperatura ortishi bilan ortsa, suyuqlikda esa aksincha kamayadi. Stoks usuli suyuqlikning qovushqoqligini uning ichidagi biror jismning harakatini kuzatish orqali aniqlashga asoslangandir.

Shunga ko'ra, biror suyuqlik ichidan m massali va r radiusli metall sharchaning P og'irlilik kuchi ta'siridagi harakatini olib qaraylik. Bu holda sharchaga og'irlilik kuchidan tashqari, yana ikkita kuch ta'sir etadi. Ulardan biri sharchaga suyuqlikning ichki ishqalanish kuchi F_η ikkinchisi suyuqlikka botirilgan sharchani yuqoriga itaruvchi F_A .

Arximed kuchi. F_η ichki ishqalanish kuchi Stoks qonuniga ko'ra suyuqlik ichida harakatlanayotgan jism o'lchamiga, uning ϑ tezligiga va suyuqlikning qovushqoqligiga proporsional bo'lib, uning son qiymati quyidagicha tenglikdan topiladi:

$$F_\eta = 6\pi r \vartheta \eta \quad (3)$$

Agar sharchaga qo'yilgan kuchlarning teng ta'sir etuvchisi nolga teng bo'lsa, sharchaning suyuqlik ichidagi harakati tekis bo'lib, unga nisbatan suyuqlikning harakati laminar bo'ladi.

Hozirgi misolda sharchaning harakati vertikal yo'nalishda bo'lganligidan unga qo'yilgan barcha kuchlar uning markazidan o'tuvchi to'gri chiziq bo'ylab joylashgan. Tekis harakat shartiga ko'ra, ularning vektor yig'indisi nolga teng bo'ladi, ya'ni:

$$P + F_A + F_\eta = 0 \quad (4)$$

yoki P og'irlilik kuchi yo'nalishiga proyeksiyalarda

$$P - F_A - F_\eta = 0 \quad (5)$$


(5) dagi Arximed kuchi:

$$F_A = 4/3\pi r^3 \rho_0 g \quad (6)$$

tenglikdan, og'irlilik kuchi

$$P = mg = 4/3\pi r^2 \rho_0 g \quad (7)$$

tenglikdan topiladi. Bu yerda $m = 4/3\pi r^3 \rho_0$ sharcha hajmida siqib chiqarilgan suyuqlikning massasi, ρ_0 -suyuqlikning zichligi g-og'irlilik kuchi tezlanishi.



(3) va (5), (6), (7) tengliklar kombinatsiyalaridan qovushqoqlikni

$$\eta = \frac{2r^2(\rho - \rho_0)}{9g} \cdot g \quad (8)$$

hisoblashning formulasini topamiz. Bu yerda ρ -metall sharchaning zichligi, ϑ -uning suyuqlikda tushish tezligi.

Laboratoriya sharoitida (8) bo'yicha qovushqoqlik koefitsiyenti η ni hisoblashda ϑ tezlikni aniq o'lchash mumkin emas. Shuning uchun

birining qovushqoqligi ma'lum, ikkinchisini ki esa noma'lum $\vartheta = l/t$ munosabatdan foydalani b

$$\eta_{\text{ch}} = \eta_0 \frac{\rho - \rho_a \cdot t_x}{\rho - \rho_a \cdot t_j} \quad (9)$$

ifoda olinadi. Bu yerdagи η_{ch} qovushqoqligi aniqlanish kerak bo'lgan suyuqlikning ρ_x zichligi. Etalon suyuqlikning η_0 qovushqoqligi va ρ_0 zichligi qo'llanma oxiridagi tegishli jadvaldan olinadi. Qovushqoqligi noma'lum suyuqlikda ρ zichlikka ega bo'lgan sharchaning tushish vaqtiga t_{x1} va uning etalon suyuqlikda tushish vaqtiga t_0 lar sekundomerlarda o'chanadi. Tajriba davomida bosim va temperatura o'zgarmas deb qaraladi.

(8) formulaga $\vartheta = \frac{l}{t}$ ni qo'sysak:

$$\eta = \frac{2r^2(\rho_c - \rho_{xc}) \cdot g \cdot t}{9l} \quad (10)$$

Bu yerda: $\eta = \frac{2r^2(\rho_c - \rho_{xc}) \cdot g \cdot t}{9l}$ o'zgarmas kattalik. Shuning uchun

(10) formula ko'rinishi:

$$\eta = Cr^2 t \quad (11)$$

Asbobning tuzilishi

Uzunligi 100 sm dan kam bo'lmagan va diametri 3 sm silindrik shisha idishning A ip B sathiga belgilari qo'yiladi. Bu silindrik idish taglikka mahkamlanib, uni taglik vintlari va shovun yordamida vertikal o'rnatiladi. Silindr ichiga sig'adigan uzun S ilgak ish bajarilayotganda idish ichiga tushirib qo'yiladi, u sharchalarini qaytarib olishga mo'ljallangan.

Ishni bajarish tartibi

1. Tajriba etalon suyuqlik uchun bajariladi.
2. Silindrik shisha idishga tekshirilayotgan suyuqlik sathi yuqoridagi belgidan kamida 5–8 sm baland qilib qo'yiladi. Chunki suyuqlikka tashlangan sharchalar kamida shuncha masofadan so'ng tekis harakat qila boshlaydi.

3. Termometrдан uy temperapturasi aniqlanadi. Ushbu qo'llanmadagi jadvaldan suyuqlikning uy temperaturasiga mos kelgan zichligi ρ_0 yozib olinadi.

4. Chizg'ich bilan $AB = \ell$ o'lchanadi.

5. Mikrometrda sharchaning r radiusi o'lchanadi.

6. Sekundomerni qo'rga olib, sharcha suyuqlik sathining o'rtasiga tashlanadi, ko'zni esa yuqori belgi ro'parasida tutib turiladi. Sharcha yuqorigi belgidan o'tayotgan paytda sekundomer yurgiziladi. Darhol diqqat pastgi belgiga qaratiladi. Sharcha bu belgidan o'tayotganda sekundomer to'xtatiladi. Sekundomerning ko'rsatishi sharchaning masofani bosib o'tishi uchun sarflangan vaqtini xarakterlaydi.

7. Qovushqoqligi noma'lum suyuqlik uchun ρ_x qo'llanma oxiridagi jadvaldan olinadi, t_x vaqt sekundomerde o'lchanadi.

(9) formula yordamida glitserinning qovushqoqlik koeffitsiyenti hisoblanadi.

Sinov savollari

1. Arximed qonunini ta'riflab bering.

2. Stoks formulasini yozing. Bu formulaga kirgan kattaliklarni tushuntiring.

3. Suyuqlikning ichida harakatlanayotgan jismga qanday kuchlar ta'sir qiladi?

4. Ko'chirilish protsesslarini aytib bering.

5. Ishni bajarish tartibini gapirib bering.

6. Ishqalanish koeffitsiyenti qanday birlikda o'lchanadi?

7. Dinamik va kinematik yopishqoqlik to'g'risida tushuncha bering

11-LABORATORIYA ISHI


GAZLARNING SOLISHTIRMA ISSIQLIK SIG'IMLARI NISBATINI KLEMON-KEZORMA USULI BILAN ANIQLASH

Ishning maqsadi: Gazlarning solishtirma issiqlik sig'imlari nisbatini aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Katta shisha idish, manometr, nasos.

Nazariy qism

Gazlarning o'zgarmas bosimdagи C_p solishtirma issiqlik sig'imining o'zgarmas hajmdagi C_v solishtirma issiqlik sig'imiga nisbatini adiabatik protsesslarda aniqlash mumkin. $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ ni aniqlash uchun, 12 – 20 litrli katta shisha A idishning og'zini uch joyidan teshilgan va bu teshiklarga n_1 , n_2 va n_3 naychalar o'tkazilgan tiqin bilan berkitamiz. (1-rasm) n_3 naychaning jo'mragi bor naycha, A idishni manometrga ulaydi, n_2 naychaning jo'mragi bor, bu nay nasosga ulanadi



1-rasm

Manometrغا rangli suv quyilgan.

n_1 jo'mrak yopiq holda n_2 jumrakni oolib, A idishga manometrdagi suyuqlik ustunlarining farqi 5–8 sm bo'lгanga qadar B nasos bilan havo damlanadi. So'ngra n_2 jo'mrak yopib qo'yiladi. Bunda damlangan havoning zichlanishi natijasida A idishdagi havoning temperaturasi va binobarin manometrning chap tarmog'ida suyuqlik ko'tariladi. Bir ozdan so'ng esa idishdagi havo bilan tashqi havoning temperaturasi yana tenglashadi va manometrdagi suyuqlik ustuni bir oz pasayib, tarmoqlardagi suyuqlik sathlari farqi h_1 bo'ladi. Buni yozib olamiz. So'ngra n_1 jo'mrakni oolib, A idishdagi havoni butunlay chiqib bo'lmasdan jo'mrakni yana tez yopamiz. Bunda A idishdagi havo birdaniga kengayishi natijasida temperaturasi pasayib, bir oz vaqt o'tgandan keyin temperaturasi yana tashqaridagi havo temperaturasi bilan tenglashadi.

Natija manometr naychalaridagi suyuqlik ustunining farqi h_2 mm bo'lib qoladi. Lekin $h_2 > h_1$ bo'ladi (1-rasm).

A idishga havo damlangan vaqtida havoning hajmi V, bosim p, temperatura T bo'lsin.

n_1 -jo'mrakni ochganda gazning hajmi V_0 , bosimi P_0 (atmosfera bosimi) temperaturasi T_1 bo'lsin.

n_1 -ni qisqa vaqtga ochib yopgandan so'ng esa gazning hajmi V_1 , bosimi p_1 , temperaturasi T_1 bo'lsin.

n_1 -jo'mrakni ochganda gazni hajmi V_2 , bosimi P_2 (atmosfera bosimi), temperaturasi T_2 bo'lsin.

n_1 -ni qisqa vaqtga ochib yopgandan so'ng esa gazning hajmi V_2 bosmi $p_2=p_0+h_2$ temperaturasi T_1 (tashqi havo temperaturasiga tenglashadi) bo'lsin.

n_1 jo'mrakni ochganda A idishdagi siqilgan havo adiabitik kengayadi. Bu o'zgarish Puasson tenglamasi bo'yicha ro'y beradi:

$$PV^\gamma = \text{const}$$

Demak, n_1 jo'mrakni ochgan paytdagi o'zgarish quyidagicha ifodalanadi:

$$P_1 V_1^\gamma = P_2 V_2^\gamma \quad (1)$$

Tajriba vaqtida A idishdagi siqilgan havoning temperaturasi jo'mrak ochilib yopilgandan so'ng, uning kengaygan vaqtidagi temperaturasi tashqi temperaturaga teng qilib olingan edi. Shuning uchun bu yerda gaz holati izotermik o'zgargan bo'lib, bu holat Boyle-Mariott qonuni bilan ifodalanadi:

$$P_1 V_1 = P_2 V_2 \quad (2)$$

(1) tenglamadan:

$$\left(\frac{V_1}{V_0} \right)^\gamma = \frac{P_0}{P_1} \quad (3)$$

(2)-tenglamadan:

$$\frac{V_1}{V_0} = \frac{P_2}{P_1} \quad (4)$$

(3) va (4) formulalarga asosan:

$$\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^\gamma = \frac{P_0}{P_1} \quad (5)$$

bu yerda, $P_1=P_0+h_1$ $P_2=P_0+h_2$ (6) bundagi P-tashqaridagi havoning 0°C dagi bosimi. Endi (5) tenglamani logarifmlaymiz:

$$\gamma(\lg P_2 - \lg P_1) = \lg P_0 - \lg P_1 \text{ yoki } \gamma = \frac{\lg P_0 - \lg P_1}{\lg P_2 - \lg P_1} \quad (7)$$

Logarifmik ayirmalar juda kichik bo'lgani uchun belgilarni tashlasak ham bo'ladi. Ya'ni:

$$\gamma = \frac{P_1 - P_0}{P_1 - P_2} \quad (8)$$

(6) ni e'tiborga olib, (8) ni tubandagicha yoza olamiz:

$$\gamma = \frac{(P_0 + h_1) - P_0}{(P_0 + h_1) - (P_0 + h_2)}$$

Yoki

$$\gamma = \frac{h_1}{h_1 - h_2} \quad (9)$$

Eslatma: Agar (7) –tenglamadagi logarifmlar ayirmasi katta bo'lsa, (9) –tenglama o'rniغا (7) –tenglamadan foydalanish kerak.

γ - ni (7) – tenglamaga qarab topish uchun, qiymatlarini manometrdagi suyuqlik ustuniga qarab emas, balki hisoblash yo'li bilan ularni simob ustuniga aylantirib olish kerak. Simob ustuniga aylantirish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$h_{12} = \frac{h_1 d_1}{d_2}$$

$$h_{21} = \frac{h_2 d_1}{d_2}$$

d_1 -manometrdagi suyuqlikning solishtirma og'irligi, d_2 -simobning solishtirma og'irligi, h -manometrdagi suyuqlikning simob ustuniga aylantiradigan balandligi.

Ishning bajarish tartibi

1. n_1 va n_2 jo'mrak ochiladi, manometrdagi ustunlar farqi bir xil bo'ladi.

2. n_1 jo'mrak yopiq holda, nasos bilan manometrdagi ustunlar farqi 20-25 sm bo'lganga qadar havo damlanadi.

3. n_2 jo'mrak yopiladi va manometrdagi suyuqlik ustuni bir oz pasayib, naychalardagi suyuqlik farqi h_1 o'lchanadi.

4. n_1 jo'mrakni tezda ochib va idishdag'i havoni tashqariga chiqaramiz havo butunlay chiqib bo'lmasdan n_1 jo'mrakni yopamiz. Manometr naychalaridagi suyuqlik ustuning farqi h_2 o'lchanadi.

Tajribani 5 marta takrorlab, chiqqan natijalarni o'rtacha qiymati olinadi, γ-ni aniqlashdagi nisbiy xato kattaligi hisoblanadi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

<i>Nº</i>	<i>h₁</i>	<i>h₂</i>	<i>γ</i>	<i>Δγ</i>	$\varepsilon = \frac{\Delta\gamma}{\gamma} \cdot 100\%$
1					
2					
3					
4					
5					
o'rt.					

Sinov savollari

1. Solishtirma issiqlik sig'imi nima?
2. Gaz adiabadik kengayganda uning ichki energiyasi qanday o'zgaradi?
3. C_p va C_v ni tushuntiring va nima uchun C_p>C_v ekanini aytинг?
4. Adiabadik jarayon nima va tenglamasini yozing.
5. Adiabatik jarayonda ish bajariladimi?
6. Ishning bajarilish tartibini tushuntiring.
7. Nima uchun qurilmada simobli emas, balki suvli manometrdan foydalilanadi.
8. Ishga xulosa yasang.

III BO'LIM ELEKTROMAGNETIZM

1-FRONTAL LABORATORIYA ISHI

Ishning maqsadi: Elektr o'lchov asboblari bilan tanishish va ularning ishlash prinsipini o'rganish.

Qisqacha nazariy ma'lumot

Elektr o'lchov asboblari deb, elektr kattaliklarni o'lchovchi qurilmalarga aytildi. Elektr o'lchov asboblari quyidagilarga ko'ra klassifikatsiyalanadi:

- a) Qanday kattalikni o'lchashiga qarab, ampermetr (A), voltmetr (V), vattmetr (W), ommetr (Ω) va boshqalar.
- b) Tokning turiga ko'ra: o'zgarmas tok asboblari, o'zgaruvchan tok asboblari, o'zgaruvchan va o'zgarmas tok asboblari.
- c) Ishlash prinsipiغا ko'ra: magnitoelektrik, elektromagnitik, elektrodinamik, induksion elektr o'lchov asboblari va boshqalar.
- d) Aniqlik darajasiga qarab: masalan, aniqlik daroji 0,1; 0,5; 1 va boshqalar.

Elektr o'lchov asboblari quyidagi asosiy texnik xarakteristikalarga ega: ishlash prinsipi, aniqlik daroji, o'lchov chegarasi va h.k. Ular odatda asbob shkalasiga shartli belgilari bilan ko'rsatilgan bo'ladi.

Asboblarning ishlash prinsipiغا ko'ra klassifikatsiyasi

a) Magnitoelektrik o'lchov asboblari:

Bu sistemadagi asbolar o'zgarmas tok zanjiridagi tok kuchi va kuchlanishga mo'ljallangandir.

Ularning ishlash prinsipini doimiy magnit va tok o'tayotgan g'altak maydonlarining o'zaro ta'siriga asoslangan.

Kuchli po'lat magnitning N va S qutb uchliklari bilan temir silindr orasida yengilgina alyuminiy ramka joylashtirilgan. Bu ramkaga izolyatsiya qilingan ingichka simdan g'altak o'ralsan. Ramka ikkita mahkamlangan oldingi yarim o'q ramka aylangan vaqtida shkala bo'ylab yuradigan strelka bilan bog'langan. G'altakli ramkani ma'lum vaziyatda ikkita spiral prujina tutib turadi. O'lchanadigan tok g'altakka prujinalar va yarim o'q orqali berilgan.

G'altakdan tok o'tayotganida g'altak magnit maydonida buriladi, ramkaning burilishi uchun uni buradigan juft kuchning momenti buradigan ramkaning prujinalarning elastikligidan vujudga keladigan aks ta'sir bo'lsa ramkaning burilish burchagi ham shuncha katta bo'ladi. Bu sistemadagi galvonometrlar juda sezgir, juda aniq va shkalasining burilmalari orasi bir-biriga teng bo'ladi.

Bu asbob bilan kuchlanishlarni o'Ihash mumkni bo'lishi uchun galvanometrning g'altagiga katta qarshilik ketma-ket qilib ulanadi. Katta qo'shimcha qarshilik ulangan galvanometr voltmetrdir.

Galvanometrga shunt ulansa, ancha kuchli toklarni o'Ihash uchun ishlatalidigan asbob-ampermetr hosil bo'ladi.

b) Elektromagnit o'Ichov asboblari:

Elektromagnitik sistema asboblari o'zgarmas tok va o'zgaruvchan tok zanjirlaridan bajariladigan ulchamlar uchun ishlataladi. Elektromagnit asbobning tuzilishi g'altakning magnit maydoni bilan shu g'altakning magnitlangan temir bo'lagi magnit maydoni o'zaro ta'siriga asoslangan. Temir plastinka g'altak yaqiniga joylashtirilgan. G'altakdan tok o'tkazilsa, plastinka g'altakning ichiga tortilib, strelkani buradi, ichida porshen yuradigan silindr strelkaning tebranishini tinchitadi.

Plastinkaning o'qiga bog'langan prujina buralib, aks ta'sir etuvchi moment hosil qiladi.

Bu asboblarning shkalasidagi bo'limlari bir-biriga teng bo'lmaydi, ularning tuzilishi magnitoelektrik sistemadagi asboblarga nisbatan sodda.

c) Elektrodinamik o'Ichov asboblari:

Elektrodinamik o'Ichov asboblari o'zgaruvchan va o'zgarmas tok kuchini, kuchlanishni o'Ihashga mo'ljallangan. Ularning ishlash prinsipi quyidagicha:

Bu o'Ichov asboblari ikki g'altakdan o'tuvchi toklarning o'zaro ta'sirlariga asoslanib yasaladi. G'altakning biri harakatlanuvchan ikkinchisi esa qo'zg'almas bo'ladi. Qo'zg'almas g'altak ikki bo'lak halqadan iborat. Bular orasida o'q o'tkazilgan bo'lib, uning ichiga harakatlanuvchan g'altak mahkamlangan, strelka va havo ta'sirida strelkani tebranishdan saqlovchi regulyator joylashtirilgan.

Harakatlanuvchi g'altakkta tok strelkaning teskari ta'sir qilish maqsadida spiral prujina orqali yuboriladi.

Asbobga kiruvchi tok har ikka-la g'altakdan o'tadi, harakatlanuvchi g'altak tok magnit maydonlari ta'sirida buralib harakatga keladi.

Harakatlanuvchi g'altakning magnit maydon kuch chiziqlari yo'nalishi bilan mos tushishiga intiladi. Shunday qilib, ikki g'altakdan tok o'tganda paydo bo'lgan maydonlarning o'zaro ta'siri natijasida harakatlanuvchi g'altak kelayotgan tokka proportsional ravishda buriladi.

Elektrodinamik sistema asboblari juda sezgir bo'lib, mo'ljallangandan ortiq tok tushishiga chidamaydi.

Asboblarning texnik xarakteristikasi

Sezgirligi: asbob ko'rsatgichning yoki burchakli o'zgarishi kattaligining bu o'zgarishiga sabab bo'lgan o'lchanayotgan kattalik o'zgarishiga nisbati asbobning sezgirligi deyiladi:

$$S = \Delta n / \Delta x \quad (1)$$

Bu yerda S – asbobning sezgirligi, Δn – ko'rsatgichning chiziqli yoki burchakli o'zgarishi, Δx – o'lchanayotgan kattalikning o'zgarishi.

Asbobning sezgirligi teskari bo'lgan kattalik asbobning daraja qiymati deyiladi:

$$C = I / S \quad (2)$$

Asbobning daraja qiymati ko'rsatgichni bir bo'limga ko'chirishni o'lchovchi kattalikka teng.

$$C = \Delta x / \Delta n \quad (3)$$

Masalan, 2,5 A tokni o'lchanayotgan kattalikni hisoblashga mo'ljallangan. Shkaladagi yozuv ko'pincha o'lchanayotgan kattalikni bildiradi. Ba'zan u shkala boshidan olingan bo'limlar sonini bildiradi. Teng bo'limli chiziqli-tekis shkalada asbobning daraja qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$C = A_{max} / N \quad (4)$$

A_{max} -asbobning strelkasi eng katta qiyatiga og'ganda o'lchanadigan kattalik miqdori. N -asbobning shkalasidagi bo'limlarning umumiy soni. Asbob ulanganda uning strelkasi ko'rsatayotgan, o'lchanayotgan kattalik miqdori $x = Cn$ (5) formula bilan aniqlanadi.

Bu yerda x -qidirilayotgan kattalik. n -shkalasidagi strelka ko'rsatayotgan bo'limlar soni.

Tekis bo'limagan shkala bo'limlarning darajalanishi har xil bo'ladi. Bu holda asbobning darajasi (3) ga asosan topiladi.

Elektr o'lhash asbobida bir necha o'lhash chegarasi bo'lishi mumkin, bunday asboblarga ko'p chegarali asboblar deyiladi.

Axbobni kuydirib qo'ymaslik maqsadida eng katta chegarasiga qo'yib zanjirga ulanadi. Ko'p chegarali asboblarni ishlatishda har bir chegara uchun alohida-alohida daraja qiymati aniqlangani ma'qul.

Masalan: voltmeter 0 V dan 15 V gacha va 0 V dan 30 V gacha o'lhash chegarasiga ega bo'lsin. Umumiy xonalar soni 150 bo'lsa, daraja qiymati. Birinchi holda

$$C = 15V / 150 \text{ bo}'lim = 0,1 \text{ V}/\text{bo}'lim$$

Agar asbob 0-30 chegara ulanganda strelka 120 bo'limga og'sa, o'lchanayotgan kattalik

$$X = Cn = 0,2 \text{ V}/\text{bo}'lim \cdot 120 \text{ bo}'lim = 24 \text{ V}$$

Asbobning aniqlash sinfi va elektr o'lchovlarining xatosini hisoblash

Agar asbob pasportida keltirilgan qoidalariga asosan ishlatilsa, uning aniqligini ko'rsatilgan darajasiga keladi.

O'lhashdagi absolyut xatolik asbobning aniqlik darajasidan foydalanib topiladi.

Aniqlik sinfi, asbobning maksimal ko'rsatuviga nisbatan olingan eng katta yo'l qo'yiladigan xatoga aytildi.

$$\gamma = A/A_{\max} \cdot 100\% \quad (6)$$

bu yerda γ – aniqlik sinfi

ΔA – maksimal absolyut xatolik

A_{\max} – asbobning o'lchov chegarasi.

Aniqlik sinfiga qarab, asbobning o'lhashlardagi absolyut xatosini topish mumkin. Absolyut xatolik asbobning butun shkalasi bo'yicha bir xil deb hisoblanadi.

(6) ga asosan

$$\Delta A = \gamma A_{\max} / 100\% \quad (7)$$

agar $0,5 \text{ C} < A$ bo'lsa,

a) nisbiy xatolik

$$\varepsilon = \Delta A / A_{\max}$$

yoki

$$\varepsilon = \Delta A / A \cdot 100 \quad (8)$$

A_x o'lchanayotgan $A_x = A_{\max}$ kattalik $A_x = A_{\max}$ bo'lsa, (7) ga asosan (8) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\varepsilon = \gamma A_{\max} / A_x \cdot 100$$

yoki

$$\varepsilon = \gamma A_{\max}/A_x \quad (9)$$

Agar $0,5c > A$ bo'lsa, nisbiy xatolik

$$\varepsilon = 0,5c/A; \quad \varepsilon = 0,5/A_x \cdot 100 \quad (10)$$

Biror kattalikni o'lhashda ikkinchi yarim shkaladan foydalanilsa xatolik kam bo'ladi. Bu holatda xatolik asbobning aniqligiga yaqin bo'ladi. O'lhashlarda asbobning maksimal ko'rsatishning taxminan 70-80% ni tashkil etadigan kattaliklarni o'lhash maqsadga muvofiqdir, chunki xatolik bu holda kam bo'ladi. Shuning uchun amalda ko'p chegarali asboblardan foydalaniladi. Bunday asboblар ishlatalidigan asbobning o'lhash chegarasi o'lchanayotgan kattalikka yaqin holatga qo'yiladi.

O'lhash paytida asbobning ko'rinishini tadqiq qiluvchi namunaning chiqishi bilan moslashtirish katta ahamiyatga ega.

Ishning bajarilishi va topshiriqlar

1. Bu asboblarning ish prinsipini aniqlash darajasini, bo'lim bahosini sezgirligini, absolyut va nisbiy xatoliklarini aniqlang.

<i>N</i>	<i>I</i>	<i>V</i>		<i>R_x, Om</i>	<i>ΔR, Om</i>	<i>ΔR/R 100%</i>
	<i>Bo'lim</i>	<i>A</i>	<i>Bo'lim</i>			
1						
2						
3						

Texnika xavfsizligi qoidalari

- Zanjir o'qituvchi ruxsatи bilangina manbag'a ulanadi.
- Kuchlanish ostida turgan ochiq simlarga tegmaslik lozim.
- Zanjirni tuzish elektr toki manbai uzilgan holda amalga oshiriladi.
- Zanjir yig'ilayotganda o'tkazgichlar kesishmasligi lozim.
- Izolyatsiyasi bo'lмаган simldan foydalanmang.
- Transformator birinchi g'altak tokka ulangan holda ikkinchi g'altagini uzish va ulash mumkin emas.
- Izolyatsiyalangan ushlagichlari bo'lмаган asboblardan foydalanmang.
- Ehtiyyot saqlagichlarni zanjir ulanmagan holda almashtirish lozim.

9. Qo'l bilan elektr o'tkazgichlarga, rubilnik kabellarga tegmang.
10. Elektr tarmog'idagi yong'inni zanjirni uzmasdan o'chirish taqiqlanadi.

Sinov savollari

1. Magnitoelektrik, elektromagnitik va elektrodinamik sistemadagi asboblarining ishlash prinsipini gapirib bering.
2. Elektr o'lchov asboblarining shkalasiga qanday shartli belgilarni qo'yiladi?
3. Asbobning sezgirligi, daraja qiymati nima va ular qanday o'zaro bog'langan?
4. Elektr o'lchov asboblarining absolut xatoligi qanday topiladi va u daraja qiymati bilan qanday bog'langan?
5. Texnika xavfsizligi qoidalarini aytib bering.
6. Ko'p chegarali elektr asboblari nima va ulardan qanday foydalanish lozim?
7. Ampermetr va voltmetr zanjirga qanday ulanadi?
8. Elektr o'lchov asboblarining o'lhash chegarasini oshirish mumkinmi?
9. Qo'shimcha qarshilik nima va u qanday tanlanadi?
10. Qo'shimcha qarshilik manbaga qanday ulanadi?

2-LABORATORIYA ISHI

ELEKTROSTATIK MAYDONNI O'RGANISH

Ishning maqsadi: ekvipotensial chiziqlarni tajribada aniqlash, ulardan turli shakldagi zaryadlangan jismlarning elektr maydon kuch chiziqlarini hosil qilishda foydalanish va elektr maydon kuchlanganligini hisoblash.

Kerakli asbob va qurilmalar: maxsus qurilma, galvanometr, elektrodlar to'plami, voltmetr.

Nazariy qism

Jismlar o'rtaсидаги о'заро та'sир ularning о'з maydonlari orqali amalgaga oshadi.

Qo'zg'almas elektr zaryadlari tomonidan vujudga kelgan va ularning о'заро та'siri kuzatilgan fazoning sohasiga elektrostatik maydon

deyiladi. Bu maydonni istalgan nuqtasiga kiritilgan "sinov zaryadi" q ga u F kuch bilan ta'sir qiladi.

Elektrostatik maydonning kuch xarakteristikasi \vec{E} -elektr maydon kuchlanganligidir.

\vec{E} -vektor kattalik bo'lib, $\vec{E} = \frac{\vec{F}}{q}$ kuchning yo'nalishi bilan aniqlanadi. Bu yerda

$$\vec{F} = q\vec{E} \quad (1)$$

Elektrostatik maydonni energiyaviy xarakterlash uchun potensial skalyar kattalik φ kiritiladi. U son jihatdan sinov zaryadini maydonning ma'lum bir nuqtasidan cheksizlikka ko'chirishda elektr maydon kuchlarining bajargan ishini, ko'rsatadi va zaryad miqdoriga bo'lgan nisbatiga teng bo'ladi:

$$\varphi = \frac{A}{q} \quad (2)$$

$$A = q\varphi \quad (2)$$

Potensiallari teng bo'lgan elektrostatik maydon nuqtalarining geometrik o'rnidan iborat sirtga ekvipotensial sirt deyiladi.

Ekvopotensial sirlar sistemasi orqali elektrostatik maydonni tasvirlash qulay, chunki ularga nisbatan kuchlanganlik vektori E ning kuch chiziqlari quriladi.

Maydonning qaraladigan nuqtasida E vektor hamma vaqt ekvipotensial sirtlarga perpendikulyar bo'ladi (1-rasm).

Agar zaryadni ekvipotensial sirt bo'ylab Δr masofaga ko'chirsak, unda bajarilgan ish $\Delta A = q(\varphi_2 - \varphi_1)$ nolga teng bo'ladi, chunki $\varphi_1 = \varphi_2$

Bundan,

$$\Delta A = F\Delta l \cos\varphi = qE\Delta l \cos(\vec{E}\Delta l) \quad (3)$$

Demak, $\cos\varphi = 0$ E vektori bilan / yo'nalish orasidagi burchak 90° ga teng ekan.

Maydonning kuchlanganligi E va potensiali φ orasidagi


$$E = -q\text{grad}\varphi$$

yoki


$$E = \frac{\Delta\varphi}{\Delta n} = -\frac{\varphi_2 - \varphi_1}{X_2 - X_1} \quad (4)$$

munosabatga asosan ekvipotensial chiziqlar bo'ylab kuchlanganlik E ni topish mumkin.

2-rasmdan ko'rindiki, \vec{E} hamma vaqt potensialning kamayish tomoniga yo'nalan ekan.



1-rasm




2-rasm

Asbobning tuzilishi

Zaryadlangan jismning elektrostatik maydonini bevosita o'rganish birmuncha qiyin. Ammo shuni esda tutish kerakki, elektrostatik maydon elektr maydonining xususiy holidir, u ham \bar{E}, φ kattaliklar bilan xarakterlanadi. Bu ishda zaryadlangan jismning maydoni o'zgarmas tokning bir jinsli muhitdagi elektr maydoni bilan o'zgartiriladi. Bu esa ancha oddiylikka olib keladi, bu usul elektron mikroskopda elektrodlarni tanlashda, kondensatorlarda juda qo'l keladi.

Yaxshi izolyatsion materialdan yasalgan vannaga oralaridagi maydoni o'rganiladigan elektrodlar M va N tushiriladi (3-rasmda vanna konturi punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan).



3 – rasm

Vanna o'tkazuvchanligi metallnikidan juda kichik bo'lgan elektrolit (suv) bilan to'ldiriladi. Sxemada Z zond, G-nol galvanometr, B-tok manbasi, K-kalit, R-reostat orqali elektrodlarga istalgan potensialni berish mumkin. Agar Z zonddagi potensial R dagi potensialga teng bo'lsa, galvanometrdagi tok nolga teng bo'ladi. Kuchlanish taqsimlagichning ma'lum bir holatida zonddagi tokning qiymati nolga teng bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rni **ekvipotensial sirtni** tashkil qiladi. Bu sirtning potensiali voltmetr orqali o'chanadi.

Turli ko'rinishdagi maydonni vujudga keltirish uchun har xil shakldagi elektrodlar ishlatiladi. Elektrod sirtlari konturini chizish uchun zondni ularning atrofida aylantirish kerak.

Ishni bajarish tartibi

1. Qurilmani 3-rasmda ko'rsatilganidek qilib yig'ing.
2. Elektrodnii suvli vannaga tushiring.
3. Pontografning ushlagichiga qog'ozni mahkamlang.
4. Elektr zanjirini ulang.
5. Qog'ozga har bir elektrodnning holatini belgilang. Buning uchun zond elektrodlar atrofida aylantiriladi.
6. Reostat R ni o'rtacha holatga qo'yib K kalitni ulang va M va N elektrodlarga tegmasdan voltmetrning ko'rsatishi (elektrod N ga nisbatan) potensial ϕ yozib olinadi.
7. Z zondni vertikal holatda taxminan M va N elektrodlarning o'rtasiga tushiring.
8. Zondni siljtitib galvanometrning ko'rsatishi nol bo'lgan nuqtalarni toping. Topilgan har bir nuqta pontograf yordamida qog'ozga belgilanadi va jadvalga yoziladi.

1-jadval

N	$\Phi_I = \dots V$							
	X	Y	X	Y	x	y	X	Y
1								
2								
3								
4								
5								
O'rt								

9. Reostat R yordamida boshqa kuchlanish φ_2 qo'yiladi 8 qismdagi o'lchashlar davom ettiriladi. O'lchashni potensialning 4 qiymati uchun $\varphi_v, \varphi_2, \varphi_3, \varphi_4$ lar uchun o'tkazish zarur.

10. Pontografdan qog'ozni olib teng potensialli nuqtalar tekis chiziq bilan tutashtiriladi. Har bir chiziq qarshiga tegishli potensial φ yoziladi.

11. Tajriba natijalariga asosan kuchlanganlik chiziqlarini chizing. Bir nechta nuqtadagi maydon kuchlanganliklarini hisoblang.

Sinov savollari

1. Elektr maydoni nima uni xarakterlovchi kattaliklar va ularning birliklarini aytинг.

2. Ostrogradskiy-Gauss teoremasi va Kulon qonunini ta'riflang.

3. Nuqtaviy zaryad deganda nimani tushunasiz?

4. Nuqtaviy zaryadning kuchlanganligi va potensiali formulalarini yozing.

5. Kuchlanganlik E bilan potensial φ orasidagi munosabat keltiring va kuchlanganlik chiziqlarining ekvipotentsial sirtlarga perpendikulyar ekanligini isbotlang.

6. grad φ ning fizik ma'nosi. Agar potensial koordinata funksiyasi sifatida ma'lum bo'lsa, kuchlanganlik E qanday aniqlanadi?

3-LABORATORIYA ISHI

O'TKAZGICHLARNI KETMA-KET VA PARALLEL ULAsh

Ishning maqsadi: 1. O'tkazgichlarning turlarini o'rganish. 2. O'tkazgichlarni ulash usullarini va ularning umumiyligini qarshiliginini aniqlashni o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Qarshiliklar yoki qarshiliklar magazine, voltmetr, ampermetr yoki testor, tok manbai va yordamchi aslahalar.

Nazariy qism

O'zidan elektr toki o'tkazadigan qattiq suyuq va gazsimon modda va materiallar o'tkagichlar deyiladi. O'tkazgichlar elektr zanjirga ketma-ket, parallel va aralash ulanadi. O'tkazgichlarni ulash usuliga qarab ularning umumiyligi o'zgaradi. Natijada elektr zanjirning

qismlaridagi tok kuchi va kuchlanish o'zgaradi. Qarshiliklar quyidagicha ulanadi.

Qarshiliklar ketma-ket ulanganida ularning umumiy qarshiligi qarshiliklar yig'indisiga teng bo'ladi. undagi kuchlanish R_1 va R_2 qarshiliklardagi kuchlanishlar yig'indisiga teng. Ya'ni $U=U_1+U_2$; $R=R_1+R_2$

O'tkazgichlar parallel ulanganida umumiy qarshilik va tok quyidagicha ifodalilanadi:

$$\frac{1}{R} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \text{ yoki } R = \frac{R_1 \cdot R_2}{R_1 + R_2}$$

$$I = I_1 + I_2$$


Qarshiliklar elektr sxemalarida quvvatiga qarab quyidagicha ifodalilanadi.



Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Mazkur ishni bajarishda o'qituvchi bergen qarshiliklar asosida elektr zanjiri tuziladi. Ma'lumki, voltmetr va ampermetr zanjirga mos ravishda parallel va ketma-ket ulanadi.

Elektr zanjirdan tok o'tganda qarshiliklarda issiqlik ajraladi. Bu issiqliknинг ajralishiga o'tkazgichning qarshiligi sabab bo'ladi. Qarshilik qancha katta bo'lsa, undan shuncha kam tok o'tadi.



Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'rghaning va o'qituvchi savollariga javob berib ishni bajarishga ruxsat oling.
2. Ishni bajarishning texnika xavfsizligini o'rganib chiqing.
3. Rasmarda keltirilgan sxemalar asosida elektr zanjir yig'ing va har bir zanjir uchun tok kuchi va kuchlanishlarni o'chlab 1- 2 jadvalga kirititing.

Qarshiliklarni ketma- ket ulash

N	I_1	U	U_1	U_2	R_1	R_2	R	$\pm \Delta R$
1								
2								
3								
4								
5								

Qarshiliklarni parallel ulash

N	I_1	I_2	U_2	U	R_1	R_2	R	$\pm \Delta R$
1								
2								
3								
4								
5								

Eslatma: O'tkazgich (qarshilik) larning har biridan o'tgan tok va zanjirdagi kuchlanishni o'lchab R_1 , R_2 va h.k. qiymatlari topiladi.

4. O'lhashlar xatoligini hisoblash
5. Bajarilgan ishdan xulosa chiqaring.

Sinov savollari

1. Qarshilik deb nimaga aytiladi va unung umumiy ko'rinishdagi formulasini yozing.
2. Ketma-ket va parallel ulashlarni tushuntiring va ularning afzallik tomonlarini isbotlang.
3. Qarshiliklarni parallel ulaganda qarshilik qanchaga kichik bo'ladi?
4. Ketma-ket ulashda kuchlanish va qarshilik orasidagi munosabat qanday?
5. Parallel ulashda tok kuchi va qarshilik orasidagi munosabat qanday?
6. O'tkazgich, yarim o'tkazgich va dielektrik orasidagi farqlarni tushuntiring.

4-LABORATORIYA ISHI***O'TKAZGICHNING SOLISHTIRMA QARSHILIGINI
O'LCHASH***

Ishning maqsadi: 1. O'tkazgichlar qarshiligining materiallarga bog'liqligini o'rganish 2. O'tkazgichlarning qarshiliqi materialning uzunligiga, ko'ndalang kesim yuziga bog'liqligini o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: O'zgarmas elektr tok manbai, o'zgarmas tok ampermetri va voltmetri, o'rganilayotgan o'tkazgich namunalari va boshqa yordamchi aslahalar.

Nazariy qism

O'tkazgichning qarshiliqi uning materialiga va geometrik o'lchamlariga bog'liq. Ko'ndalang kesim yuzi S va l uzunlikdagi o'tkazgichning qarshiligini hisoblash formulasini qyidagicha yozish mumkin.

$$R = \rho \frac{l}{S} \quad (1)$$

Bunda ρ o'tkazgich moddasining turi va holatiga (avvalo temperaturasiga) bog'liq bo'lgan kattalik bo'lib, uni o'tkazgichning solishtirma qarshiliqi deyiladi. Solishtirma qarshilikning son qiymati qirrasi 1 m bo'lgan kub shaklidagi o'tkazgichning o'zaro parallel va qarama-qarshi tomonlari bo'ylab 1 A tok o'tkazilgan holatidagi qarshiligiga teng.

O'tkazgich qarshiligining birligi SI sistemasida Om qonuni asosida aniqlanadi. Potensiallar ayirmasi 1 V bo'lganda o'tkazgichdan 1 A tok o'tsa, bu o'tkazgichning qarshiliqi 1 Om bo'ladi. Solishtirma qarshilik birligi 1 Om metallarning solishtirma qarshiliqi juda kichik bo'ladi. Quyidagi jadvalda ba'zi qarshiliklarning qiymatlari beriladi:

O'tkazgichning yuzi $s = \frac{\pi d^2}{4}$ ifodadn topiladi va uni (1) formulaga qo'yib, ρ ni hisoblab topiladigan formula hosil qilinadi:

$$\rho = \frac{\pi R d^2}{4 I} \quad (2)$$

Om qonuni formulasidan o'tkazgich qarshiligini topib uning qiymatini (2) formulaga qo'yilsa, u holda o'tkazgichning solishtirma qarshiligi ifodasini zanjirdagi elektr toki va kuchlanishi orqali quyidagicha yozish mumkin.

$$\rho = \frac{\pi U d^2}{4 I I} \quad (3)$$


Bu yerda d simning diametri I va U elektr zanjiridagi tok kuchi va kuchlanish, I -o'tkazgich uzunligi.

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Qurilmaning asosini voltmetr va ampermetr tashkil etadi. O'zgarmas tok manbai sifatida istalgan past kuchlanishli o'zgarmas tok bera oladigan elektr asboblaridan foydalanish mumkin.

O'r ganiladigan o'tkazgichlar sifatida maxsus o'tkazgichlar namunalardan yoki istalgan 0,5-1 m uzunlikdagi metalldan yoki qotishmalaridan tayyorlangan simlarni olish mumkin.

Qurilmani ishgaga tushirish uchun K kalit ulanadi. Shunda R qarshilikli o'tkazgichdan tok o'tishi natijasida unda tok sarfi bo'ladi. Bu tokning kattaligini ampermetr ko'rsatadi. Tarmoqdagi ishchi kuchlanishni voltmetr ko'rsatadi. Bu qiymatlarni o'chab hamda boshqa kattaliklar asosida o'r ganilayotgan o'tkazgichning ρ solishtirma qarshiliginini hisoblab topish mumkin.



I-rasm

Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'rganing.
2. O'tkazgichning uzunligini va diametrini chizg'ich va mikrometr bilan o'lchang.
3. Tanlangan uzunlik va diametrdagi o'tkazgichni maxsus qisqichlar oraliq'ida mahkamlang.
4. Kalit K ni ulang va o'tkazgichdagi tok kuchi Hamda tok o'tkazgich uchlari oraliq'idagi kuchlanishni o'lchang.
5. Tajribada aniqlangan qiymatlardan foydalanim o'tkazgichning solishtirma qarshiliginini hisoblang.
6. O'lchov asboblarining xatoliklarini va o'lhashlar xatoligini toping.
7. U, d, I, l kattaliklarni o'lhashdagi maksimal absolyut va nisbiy xatoliklarni hisoblab toping.
8. O'tkazgich solishtirma qarshiligining o'lhash natijasini $\rho = \rho_{o,n} \pm \Delta \rho$, $E = \dots\%$ ko'rinishda yozing.
9. Adabiyotlarda keltirilgan jadvallardagi aniq qiymatlar bilan tajribada topilgan natijalarni taqqoslang va o'lhash o'tkazilgan namuna materialini aniqlang.
10. Topilgan natijalarni quyidagi jadvalga kriting.

<i>N</i>	<i>D</i>	<i>l</i>	<i>I</i>	<i>U</i>	ρ	ρ	$\Delta \rho$	$\Delta \rho$	ε
1									
2									
3									
4									
5									
O'rt									

Sinov savollari

1. Qarshilik deb nimaga aytildi va unnung umumiy ko'rinishdagi formulasini yozing.
2. Solishtirma qarshilik formulasini yozing va uning birligini keltirib chiqaring.
3. Om qonuning differensial ko'rinishini keltirib chiqaring.
4. Ketma-ket va parallel ulashlarni tushuntiring va ularning afzallik tomonlarini isbotlang.

5. Qarshiliklarni parallel ulaganda qarshilik qanchaga kichik bo'ladi?
6. Ketma-ket ulashda kuchlanish va qarshilik orasidagi munosabat qanday?
7. Paralel ulashda tok kuchi va qarshilik orasidagi munosabat qanday?

5-LABORATORIYA ISHI

MISNING ELEKTROKIMYOVİY EKVİVALENTINI HISOBЛАSH

Ishning maqsadi: 1. Elektroliz hodisasini o'rganish. 2. Faradeyning I qonuni o'rganish. 3. Misning elektrokimyoviy ekvivalentini aniqlashni o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: O'zgarmas tok manbai, elektron tarozi va sekundomer, reostat, elektrolitik vanna, distillangan suv, mis kuparosining eritmasi, elektrodlar, o'zgarmas tok ampermetri va voltmetri, ulovchi simlar va boshqa yordamchi aslahalar.

Nazariy qism

Suvda kislota, ishqor va tuz eriganda ularning molekulalari ionlarga ajraladi. Bu jarayon elektrolitik dissotsiya deyiladi.

Molekulalari ionlarga dissotsiyalangan eritma elektrolit deyiladi. Faradeyning I qonuniga ko'ra elektrolitdan elektr toki o'tganda elektrodda ajralib chiqqan moddaning m massasi I tok kuchiga va tokning o'tish vaqtiga proporsionaldir:

$$M = kIt = kq$$

Demak, (1) formulaga ko'ra $q = It = KI$ bo'lganda $m = k$ bo'ladi. Bu koefitsient moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti deyiladi.

Tenglama (1) ga asosan elektrokimyoviy ekvivalent koefitsiyenti SI o'lchov sistemasida kg/KI da o'lchanadi.


Agar elektrolitdan o'tgan I tok kuchi va tokning o'tish vaqtiga hamda elektroliz jarayonida ajralib chiqgan moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti quyidagicha aniqlanadi.

$$k = m/It$$

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Qurilma elektrolitik vanna mis kuporosining distillangan suvdagi eritmasi, elektrodlar, elektrolitdan o'tayotgan tokni rostlaydigan R reostat, o'zgarmas tok manbai zanjirdagi tok va kuchlanishni o'chaydigan o'zgarmas tok ampermetri va voltmetri hamda kalitdan tashkil topgan. Qurilmani ishga tushirish uchun to'g'irlagich o'zgaruvchan elektr tarmog'iga ulanadi. So'ngra kalit berkitiladi. Shunda elektroddan tok o'ta boshlaydi.

Elektrolitdan o'tayotgan tok kattaligi ampermetr ko'rsatishidan olinadi. Tokning kattaligi R reostat bilan rostlab turiladi.



Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'rqnomasini o'qib o'rganing. Va o'qituvchi savollariga javob berib ishni bajarishga ruxsat oling.
2. Katod vazifasini o'taydigan mis elektrodning m_1 massasini $JW-1$ rusumli elektron tarozida tortib aniqlang. **Eslatma:** Elektrod tortilishidan oldin quritilishi shart.
3. Mis kuporosi eritmasiga mis elektrodlarini tushirib ularni qo'zg'almaydigan qilib mahkamlang.
4. Mis kuporosi m massasini tarozida tortib oling va uni distillangan suvda eritma tayyorlang.
5. Tajriba boshlangan t vaqtini belgilang va shu zahotiyoy qalitni ulang va reostat yordamida tok kuchi kattaligini I, A qiymatda o'zgartirmay saqlang. Ampermetr ko'rsatgan I tokni belgilang. Va uni yozib oling. Tajribada aniqlangan natijalarini jadvalga kiriting.

N	Tok kuchi I, A	Kuchlanish U, V	Elektrod massalar farqi $m_2 - m_1 = \Delta m$	$k, kg/Kl$	Δk
1					
2					
3					

4				
5				
O'rt				

6. 15-20 minut vaqt davomida elektrolitdan tok o'tayotgandan keyin kalitni uzing va t_2 vaqtini belgilab qo'ying. Elektrolitdan tok o'tgan vaqtini hisoblang.

7. Katodni eitmadan chiqaring va uni quriting. Katodda ajralib chiqqan mis massasini aniqlash uchun mis o'tirib qolgan elektrodnini $JW-1$ elektron tarozida torting va $\Delta m = m_2 - m_1$ ifodadan, ya'ni jarayonda elektrodda ajralib chiqqan misning Δm massasini hisoblang.

8. Tajriba natijalari asosida (2) tenglamadan foydalanib, misning k elektrokimyoviy ekvivalentini hisoblab toping.

9. Tajribani takrorlang va xatoliklarini hisoblang.

10. Natijani $k \pm \Delta k$ ko'rinishda yozing.

11. Faradeyning II qonunidan foydalanib, elementar zaryad qiymatini toping.

Sinov savollari

1. Elektrolit deb nimaga aytildi?
2. Elktroliz deb nimaga aytildi?
3. Elektrolitik dissotsiatsiya deganda nimani tushunasiz?
4. Elektrolitik dissotsiatsiya darajasi deganda nimani tushunasiz?
5. Elektroliz uchun I va II-qonunlarni tushuntiring.
6. Umumlashgan elektroliz qonunini tushuntiring.
7. Faradey soni nechaga teng va qanday topiladi?
8. Ishni bajarish tartibani tushuntirin.
9. Ishga xulosa qiling.

6-LABORATORIYA ISHI

O'TKAZGICH QARSHILIGINING TEMPERATURAGA BOG'LIGLIGINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: 1. O'tkazgichlar solishtirma qarshiliginining temperaturaga bog'lagini o'rganish. 2. O'tkazgich qarshiliginining temperaturaga bog'lanish grafigini chizishni o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Quvur shaklidagi qizdirgich (katta quvvatdaggi PEV turidagi simli qarshilik), termopara (termometr),

ampermetr va voltmetr. O'tkazgichlar: nixrom, volframdan yasalgan spirallar, o'zgarmas tok manbai.

Nazariy qism

Metall o'tkazgichlarda elektr tokini o'tkazuvchi zaryadli zarrachalar, ya'ni elektronlar mavjud (konsentrasiyasi- 10^{28} m^{-3}) bo'lib, ular maydon ta'sirida o'rtacha 10^4 m/s tezlikda harakatlanadi. Suyuqliklarda elektr tokni musbat va manfiy ionlar, gazlarda esa musbat va manfiy ionlar hamda elektronlar o'tkazadi. Bu o'tkazgichlardagi o'tkazuvchanlik xossasi tashqi ta'sir, ya'ni issiqlik, nurlanish ta'sirida o'zgaradi: metallarda o'tkazgich qarshiligi ortadi; siyuqlik va gazlarda, aksincha, kamayadi.

Metall o'tkazgichning qarshiligi uning materiali turiga, uzunligiga ko'ndalang qismga bog'liq bo'ladi:

$$R = p \frac{l}{S} \quad (1)$$

Bunda R -o'tkazgich qarshiligi, p -o'tkazgichning solishtirma qarshiligi, l va S -o'tkazgichning uzunligi va ko'ndalang kesim yuzi.

O'tkazgichning $T=273,15 \text{ K}$ (0°C) va ixtiyoriy biror T temperaturadagi qarshiligi quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$R_0 = p_0 \frac{l}{S} \text{ yoki } R_i = p_i \frac{l}{S} \quad (2)$$

U holda o'tkazgich qarshiligining temperaturaga nisbatan o'zgarishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{R_T - R_0}{R_0} = \alpha T \quad (3)$$

bunda α -qarshilikning termik koeffisiyenti.

Metallar uchun $\alpha=0$, suyuqliklar uchun $\alpha=0$. Toza metallar uchun $=1/273 \text{ K}^{-1}$, ayrim eritmalar uchun $\alpha=-2 \times 10^{-2} \text{ K}^{-1}$.

Eslatma! Temperatura Selsiy shkalasida o'lchangan (3) formula boshqacha ko'rinishda ifodalanadi.

Demak, (2) va (3) ga qo'yib, undan solishtirma qarshilik bilan temperaturaviy koeffisiyent orasidagi bog'lanishni quyidagicha yozish mumkin:

$$p = p_0(1 + \alpha T) = p_0 \alpha T$$

O'tkazgich solishtirma qarshiligining temperaturaga bog'liqligi $p_0=f(T)$ grafik (1-rasm) orqali ifodalanadi. Demak, temperatura ortgan sayin o'tkazgichning solishtirma qarshiligi ortib boradi.

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Issiqlik manbai sifatida katta quvvatdagi simli qarshilik PEV olinadi va undan 36-42 V kuchlanishli tok o'tkaziladi. Simli qarshilik qiziydi va o'zidan issiqlik chiqaradi. Simli qarshilik naysimon chinni izolyator va uning ichida joylashgan o'rama simlar tashkil topganligi uchun nay chekkalariga ularash simlarini joylashtirish mumkin. Shunda bu qarshilik qiziydi, uning temperaturasini o'lhash mumkin.

Tajribada tashqi tok manbaiga simli qarshilik ulanadi. Undagi kuchlanish voltmetr bilan o'lchanadi. Kuchlanish reostat yordamida rostlanadi.

Simli qarshilik qiziganda uning o'qida joylashtirilgan qarshiligi o'lchanishi zarur bo'lgan o'tkazgich ham qiziydi. Natijada bu qarshilikning ikki uchida joylashtirilgan idishchalardagi transformator moyiga tushirilgan termometr ham qiziydi.

Temperaturaning ortganligini transformator moyiga (suyuqlikka) tushirilgan termometrlar ko'rsatadi. Termometrlar simli qarshilik tarqatgan issiqlikdan termoelekranlar yordamida himoyalanadi. Ikkita termometr o'rniqa bitta termopara qo'llanilsa ham bo'ladi. Tashqi tok manbaidan har xil qiymatdagi tokni simli qarshilikda o'tkazib, uning quvuri ichida turli xil temperaturalar hosil qilinadi.

Ishini bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'rganining va ishga kerakli asbob-uskunalarining mavjudligini tekshiring. O'qitvchilarning savollariga javob berib, ishni bajarishga ruxsat oling.

2. Simobli termometrlarni ishlatish texnikasi xafsizligini o'rganining va unga qat'iy rioya qiling.

3. R_0 qarshilikli o'tkazgichni qizdirishdan avval avometr bilan uning qarshiligini aniq o'lchang. R_0 ni aniqlashda Uitston ko'pigidan foydalanilsa ham bo'ladi.

4. Simobli termometrlar o'rnatiladigan idishchalarga transformator moyidan quying va termometrlarni moyli idishchaga tushiring.

5. Qarshilikning elektr zanjiriga voltmeter va ampermestr ulang.

6. Termometrlarni himoyalovchi 10 mm qalinlikdagi issiqlik izolyatorlari ekranlarni joylashtiring.

7. Qarshilikni 4,5 V kuchlanishli o'zgarmas tok manbaiga ulang va tezgina ampermestr va voltmetrning ko'rsatishlarini yozib oling. Natijjalarni quyidagi jadvalga kriting.

<i>N</i>	<i>Temperatura</i>	<i>I, A</i>	<i>U₆V</i>	<i>R₀</i>	<i>R_t</i>	<i>R_{t±ΔR_t}</i>	<i>P₀</i>	<i>P_t</i>	<i>P_{t±Δp}</i>	<i>Ug</i>	<i>I₁₀</i>
1	T ₀		0								
2	T ₁		4,5								
3											
4											
5											
O't _t											

1. Asosiy tok manbaiga simli qarshilikni ulang va 5 munutdan so'ng ampermetrning, voltmetrning va termometrning ko'rsatishi T₁ ni yozib oling hamda shu holatga mos keluvchi o'lchanadigan qarshilik zangiridagi ampermetr va voltmetrlar ko'rsatishlarini yozib oling.

2. Simli qarshilik (qizdirgich) zanjirdagi reostat yordamida kuchlanishni 5 V ga oshiring va 8 banddag'i o'lhashlarni qaytadan bajaring.

3. Har safar qizdirgichga beriladigan kuchlanishni 10-15 V dan oshirib borgan holda hamma holatlар uchun (ya'ni T₂, T₃, ..., T₇ ga mos keluvchi) ampermetr va voltmetrlar hamda termometr ko'rsatishlarni yozib oling va jadvalga kiriting.

4. Aniqlangan natijalar asosida R=f(T) grafigini millimetrlar qo'ziga chizing.

5. Topilgan va o'lchanan natijalar asosida R_T va P_{PT} larni hisoblang hamda ularning o'rtachasini toping.

6. Tarjibaning absolut va nisbiy xatoliklarni hisoblang va ishdan xulosa chiqaring.

Sinov savollari

1. O'tkazgichning qarshiligi issiqlik ta'sirida nima sababdan o'zgaradi?
2. O'tkazgichning qarshiligi hamma metallarda nima uchun bir xil emas?
3. O'tkazgich solishtirma qarshiligining temperaturaga bog'liqlik formulasini yozing.
4. O'tkazgich qarshiligi qachon nolga teng bo'ladi?
5. Qarshilikning termik koeffitsiyenti nimaga teng?
6. O'tkazgich solishtirma qarshiligining fizik ma'nosi qanday?
7. Bunday hodisadan qayerda foydalilanadi?
8. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.

7-LABORATORIYA ISHI**TOKLAR REZONANSINI O'RGANISH**

Ishning maqsadi: 1. Chiziqli tarmoqlangan elektr zanjirini o'rghanish, 2. Tajriba asosida toklar rezonansining asosiy xususiyatlarini tekshirish.

Nazariy qism

Aktiv R, induktivlik L va sig'imi C qarshiliklar umumiy kuchlanish ostida deb faraz qilaylik. Zanjirning qismlaridagi kuchlanish sinusoidal bo'lgani sababli birinchi tarmoqdagi tok

$$I_L = \frac{U}{Z_L} = \frac{U}{\sqrt{R_L^2 + X_L^2}}$$

Tok kuchlanishdan faza bo'yicha ϕ , burchakka orqada qoladi (1-rasm), bu burchak tangensi


$$\operatorname{tg}\phi_L = \frac{X_L}{Z_L}$$

G'altakdagagi tokning aktiv tashkil etuvchisi $I_{al} = I_L \cos\phi$, reaktiv tashkil etuvchisi esa $I_{pl} = I_L \sin\phi$, bo'ladi.

Ikkinchi parallel tarmoqdagi tok

$$I_d = \frac{U}{X_C} = \frac{U}{X\omega C} = U\omega C = Ic$$

Bu tok faza bo'yicha kuchlanishdan 90° ilgari ketadi.



1-rasm

Umumiy tokning kuchlanishdan siljish burchagini uning tangensi orqali topish mumkin :

$$\operatorname{tg}\varphi = \frac{I_C}{I_a} = \frac{I_L - I_I}{I_a}$$

Tok $I_L > I_C$ bo'lganda kuchlanishdan φ_1 burchakka orqada qolishi yoki $I_L > I_C$ bo'lganda ilgari ketishi va nihoyat $I_L = L_C$ kuchlanish bilan bir fazada o'zgarishi mumkin (1-6 rasm).

$I_L > I_C$ hol bajarilgan elektr zanjirida toklar rezonansi sodir bo'ladi. Rezonans paytidagi umumiy tok:

$$I = \sqrt{\frac{2}{a} + I \frac{2}{R}} = I_a$$

Toklar rezonansi vaqtida zanjirning tarmoqlangan qismida tok minimal qiymatga erishgani uchun ulovchi simlarda quvvat isrof bo'lishi ham minimal bo'ladi.

Tarmoqni tok bilan ta'minlovchi o'zgaruvchan tok generatori uchun $\varphi=0$ yoki $\cos\varphi=1$ bo'lganda qulay sharoit yaratadfi.

Aktiv va induktiv qarshiliklarga ega bo'lgan zanjirga kondensator ulanishi $\cos\varphi$ ni oshiradi.

C sig'imi kondensatorning aktiv qarshiligi etiborga olinmaydigan darajada kichik bo'lgan induktivlik bilan parallel ulansa (RC), generatorning kuchlanishi butunlay induktivlik va C sig'imli tarmoqlariga uzatiladi. Induktivlik tarmog'idagi tok:

$$I_L = \frac{U_L}{\omega L}$$

Induktivlik L ni va sig'im C ni shunday tayyorlaymizki, bunda I_L va I_C toklar teng bo'lsin, ya'ni

$$\frac{U}{\omega C} = U \omega L$$

Bundan quyidagilarni aniqlaymiz:

$$\omega = \frac{1}{\sqrt{LC}} \quad f_a = \frac{1}{2\pi\sqrt{LC}}$$

Bu chastotalar xususiy yoki rezonans chastotalar deyiladi. Sig'im zanjirda I_C tok U kuchlanishdan fazasini jihatdan 90° oldida bo'ladi, induktivlik zanjirda esa I_L tok U kuchlanishdan fazasini jihatdan 90° orqada qoladi.

I_C va I_L toklarning qiymati teng va yo'nalish d qarama-qarshi bo'lgani uchun zanjirning tarmoqlangan qismida I tok nolga teng bo'ladi.

$$\omega = \frac{1}{\sqrt{LC}}$$

formuladan toklar rezonansining sharti kuchlar rezonansi shartiga o'xshashligi ko'rinish turibdi.

Zanjirning tarmoqlangan qismiga to‘la rezonans vaqtida tok nolga teng bo‘gani uchun parallel ulangan induktivlik va sig‘imi birgalidagi to‘la qarshiligi cheksiz katta qiymatga teng bo‘ladi.

Kerakli asbob va materiallar: 3 ta va 5 A li o‘zgaruvchan tok voltmetri, fazametr, 100 m kf sig‘imli kondensator, 20 m kF sig‘imli kondensatori, Drossel g‘altagi, bir qutbli rubilni o‘zgaruchan tok manbai (127V)

Ishni bajarish tartibi

1. Sxemani yig‘ing (2-rasm)
2. Konturning C sig‘imini o‘zgartirish bilan zanjirda toklar rezonansini hosil qiling.
3. Sig‘imini o‘zgartirish bilan C_{rez} ni kamaytirib va Cni ko‘paytirib o‘lchov asboblarining ko‘rsatishini yozib oling .
4. O‘lhash natijalarini quyidagi jadvalga yozing.

Kuzatish										
C	I_z	I_c	I	U	X_L	X_C	Z	$\cos\phi$	ϕ	$I_R=K$
1.										
2.										
3.										
4.										
5.										
O‘rt										

5. Tajribalar asosida bog‘lanishlarning vektorlar diagrammasini chizing.
6. Diagrammaning bir-biridan farqini asoslab bering va hisobot yozing.

Sinov savollari

1. Toklar rezonansi nima? va qachon vujudga keladi?
2. Tok kuchi amplitudasi nima? Amplituda qachon oshadi?
3. Kuchlanish amplitudasi nima?
4. Sig‘im qarshilik nima?
5. G‘altak qarshilik nima?

8-LABORATORIYA ISHI**TOK MANBAININNG ELEKTR YURITUVCHI KUCHI VA
ICHKI QARSHILIGINI ANIQLASH**

Ishning maqsadi: Berk zanjir uchun Om qonunini va Kirxgofning qoidasini tajribada tekshirish.

Kerakli jihozlar: O'zgarmas tok manbai-akkumulyator yoki batareya, voltmetr, ampermestr, reostat, kalit va ulovchi simlar.

Nazariy qism

Elektr zanjirida tok bo'lishi uchun, albatta, tashqi kuchlar (Kulon kuchi bundan mustasno) zaryadni ko'chirishda ish bajarishi zarur. Tashqi kuchlarga kimyoviy reaksiyada moddani musbat va manfiy ionlarga ajratuvchi, yarim o'tkazgichlarda teshiklar hosil qiluvchi va shu kabi kuchlar kiradi. Sodda qilib, tashqi kuchlarning hammasi elektr yurituvchi kuch deb ataladi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\varepsilon = \frac{A}{q} \quad (1)$$

Bunda ε -elektr yurituvchi kuch, A -tashqi kuch, q -zaryad.

To'liq zanjir uchun Om qonuni tashqi (E.Yu.K) kuch orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$I = \frac{\varepsilon}{R + r} \quad (2)$$

Ko'rinib turibdiki, butun zanjirdagi tok kuchi zanjirdagi E.YU.K ning shu zanjir to'liq qarshiligiga nisbatiga teng. Tok kuchi uch kattalikka, ya'ni E.Yu.K ga zanjirning ichki va tashqi qismlarining qarshiliklari r va R ga bog'liq. Agar tok manbaining ichki qarshiligi zanjirning tashqi qismining qarshilidan juda kichik ($R >> r$) bo'lsa, ichki qarshilik tok kuchini sezilarli kamaytirmaydi. U holda tok manbaining qisqichlaridagi kuchlanish E.Yu.K ga taxminan teng, ya'ni

$$U = IR = \varepsilon \quad (3)$$

Endi zanjirning qarshilagini quyidagicha yozish mumkin:

$$R = \frac{\varepsilon}{I} = \frac{U}{I} \quad (4)$$

Odatda tok manbaining ichki qarshiligi juda kichik bo'ladi, ya'ni $r >> R$. Bu holda ε ning U dan farqi foizning o'ndan bir ulushidan oshmaydi, shuning uchun E.Yu.K ni o'lhash xatoligi kuchlanishni o'lhash xatoligiga teng. Tok manbaining ichki qarshilagini bevosita

o'lchash mumkin. Buning uchun ampermetr va voltmetrning zanjir berk holatdagi ko'rsatishlari qayd qilinadi. E.Yu.K ni berk zanjir uchun Om qonuni ifodasidan topish mumkin.

$$I = \frac{\varepsilon}{R + r}$$

bu yerda

$$\varepsilon = U + Ir \quad (5)$$

Bu yerda $U=IR$ tashqi zanjirming kuchlanishi. U holda tok manbaining ichki qarshiligini qo'yidagicha yozish mumkin:


$$r = \frac{\varepsilon - U}{I} \quad (6)$$

Demak, berk zanjirga ulangan tok manbaining E.Yu.K va ichki qarshiligini tajribada aniqlangan natijalar asosida o'rghanish hamda aniqlash mumkin ekan.

Ishni bajarish tartibi

1. 1-rasmida elektr sxemani yig'ing.
2. Voltmetr yordamida tok manbaining E.Yu.K sini o'lchang (kalit ochiq holda).

3.



1-rasm

4. Kalit berk bo'lgan holda ampermetr va voltmetr ko'rsatishlarni 1-jadvalga yozib oling.

5. Reostat surgichini harakatlantirib ampermetr va voltmetrning bir nechta ko'rsatishlari yozib olinadi.

6. Tajribada topilgan natijalarga asosan r ni hisoblang.

7. O'lchov asboblarining anqlik sinfidan foydalanib, tok manbaining E.Yu.K va ichki qarshiligini o'lchashdagi nisbiy va absolyut xatoliklarini hisoblab toping.

8. Tok manbaining E.Yu.K va ichki qarshiligini o'lchash natijalarini jadvalga kiriting.

I-jadval

<i>Nº</i>	<i>ε</i>	<i>U</i>	<i>I</i>	<i>r</i>	<i>Δr</i>	<i>ε</i>
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
O'r						

Sinov savollari

1. Tok manbaining elektr yurituvchi kuchi deb nimaga aytildi?
2. Kuchlanish deb nimaga aytildi?
3. E.Yu.K. deb nimaga aytildi?
4. Elektr zaryadlarini tashishda nechta kuch ish bajaradi?
5. Kuchlanish qachon E.Yu.K ga teng bo'ladi? Ular orasida qanday farq bor?
6. Nima uchun kalit uzuq va berk bo'lgan hollarda voltmetrning ko'rsatishlari har xil bo'ladi?
7. Potensiallar farqi nima?
8. O'tkazgichda zaryadni tashishda Kulon kuchi ishi nolga teng, nimaga?
9. Qachon kuchlanish potensiallar farqiga teng bo'ladi.

*9-LABORATORIYA ISHI**UITSTON KO'PRIGI YORDAMIDA NOMA'LUM
QARSHILIKNI ANIQLASH*

Ishning maqsadi: Tarmoqlangan elektr zanjirlari qonuniyatlarini o'rganish va ular yordamida nomalum qarshiliklarni aniqlash.


Kerakli asbob va qurilmalar: Reoxord, galvanometr, qarshiliklar magazini, nomalum qarshiliklar to'plami, tok manbai, kaftan va ulovchi simlar.

Nazariy qism

Qarshilikni aniq o'lchash usullaridan biri tokning tarmoqlanish qonuniga asoslangan. Shu qonunga asoslanib ishlaydigan qurilma *Uitston ko'prigi* deb ataladi. Uitston ko'priq sxemasi nomalum qarshilik

R_X ni ma'lum qarshilik (qarshiliklar magazini) yordamida aniqlashga imkon beradigan sxema hisoblanadi.

Uitston ko'prigi B galvanik elementga ulangan zanjir A tugundan boshlab tarmoqlanadi (1-rasm)



1-rasm

Bu zanjirning bir qismini ketma-ket ulangan ikkita R_X va R_O qarshiliklar tashkil qiladi. Ikkinci qismi esa millimetrlarga bo'lingan, uzunligi 1 metr bo'lgan chizg'ichga tortilgan nikelin yoki solishtirma qarshiligi katta bo'lgan boshqa qotishmadan tayyorlangan bir jinsli AC – sim (reoxord) dan iborat. G galvanometrning bir uchi R_X va R_O qarshiliklar o'zaro ulangan B nuqtaga ikkinchi uchi reoxord bo'y lab sirpanuvchchi D nuqtaga ulangan bo'ladi, hamda AD va DC qismlarning R_1 va R_2 qarshiliklari nisbatini uzgartira oladi va shu tarzda ko'priki muvozanat holatiga keltira oladi.

$\phi_B = \phi_D$ bo'lganda galvanometr strelkasi nolni ko'rsatadi, ko'priki muvozanat holatida bo'ladi. Bu muvozanat holat uchun quyidagi munosabat o'rinnlidir.

$$\frac{R_X}{R_O} = \frac{R_1}{R_2} \quad (1)$$

Yuqoridagi (1) munosabatni isbotlash uchun Kirxgof qonunlaridan foydalanamiz

I. Tarmoqlangan zanjir tugunida uchrashuvchi toklarning algebraik yig'indisi nolga teng:

$$\sum_{i=1}^n I_i = 0 \quad (2)$$

Tugunga kiruvchi toklarni musbat, undan chiquvchi toklarni manfiy deb hisoblab, quyidagilarni hosil qilamiz.

B tugun uchun - $I_1 - I_3 - I_G = 0$

D tugun uchun - $I_G - I_2 - I_4 = 0$

II. Har qanday berk tarmoqda zanjirning tegishli qismlaridagi tok kuchi bilan qarshiligi ko'paytmasining algebraik yig'indisi shu konturda uchraydigan E.YU.K yig'indisiga teng.

Sxemadagi mustaqil

ABDA tarmoq uchun $I_1 R_X + I_G R_G - I_2 R_1 = 0$

BCDB tarmoq uchun $I_3 R_0 + I_4 R_2 - I_G R_G = 0 \quad (3)$

Muvozanat shartiga ko'ra

$$I_1 = I_3, \quad I_2 = I_4, \quad I_1 R_X = I_2 R_1, \quad I_3 R_0 = I_4 R_2 \quad (4)$$

(4) ifodadan

$$\frac{R_X}{R_0} = \frac{R_1}{R_2} \quad (5)$$

ni hosil o'ilamiz.

Zanjirning AD va DC qism qarshiliklari uning uzunligi l_1 va l_2 ga proporsional bo'lganligi uchun oxirgi (5) ifodadan R_X ni quyidagicha topish mumkin.

$$R_X = R_0 \frac{l_1}{l_2} \quad (6)$$

Ishni bajarish tartibi

- 1-rasmagi sxemani o'rganing va yig'ing.
- Qo'zg'aluvchan tugun D ni reoxord yelkalarning o'rtasiga qo'yib, ma'lum qarshilik R_0 shunday tanlab olinadiki, natijada galvanometrda deyarli tok bo'lmasin.
- Tugun D ni chap yoki o'ng tomonga surib, galvanometr strelkasi „0“ ga keltiriladi. So'ngra reoxord yelkalarining l_1 va l_2 uzunliklari yoziladi.
- Ma'lum qarshilik R_0 ni o'zgartirib, tajriba uch marta takrorlanadi va natijalar 1-jadvalga yozib olinadi.

5. Noma'lum qarshilik R_X (6) formulaga qo'yib hisoblanadi. Absolyut va nisbiy xatoliklar topiladi.

6. Yuqorida bajarilgan ishlar qarshiliklar ketma-ket va parallel ulangan hollar uchun ham takrorlanadi. Ketma-ket va parallel holda hisoblanagan tajriba natijalari nazariy yo'l bilan hisoblangan natijalar

$$R_{KK} = R_{X1} + R_{X2} \quad \text{va} \quad R_{PK} = \frac{R_{X1} \cdot R_{X2}}{R_{X1} + R_{X2}}$$

bilan solishtiriladi.

7. Olingan natijalar va hisoblashlar 2-jadvalga kiritiladi.

1-jadval

N	O'lchashlar			Hisoblashlar		
	P_θ	L_1	L_2	R_x	ΔR_x	ε
	Om	mm	mm	Om	%	%
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
O'rt						

2-jadval

O'lchash tartibi	N	O'lchashlar			Hisoblashlar		
		R_θ	l_v	L_2	R_x	ΔR_x	ε
		Om	mm	mm	Om	%	%
Ketma-ket	1.						
	2.						
	3.						
	4.						
	5.						
	O'r						
Parallel	1.						
	2.						
	3.						
	4.						
	O'r						

Sinov savollari

1. Kirxgof qonunlaridan foydalanib ko‘prikning muvozanat tenglamasini keltirib chiqaring?
2. Kirxgof qoidasining amaldagi tadbiqini aiting.
3. O‘tkazgichning qarshilik, uning birligi va solishtirma qarshilik haqida ma’lumot bering.
4. O‘tkazgichlar parallel va ketma-ket ulanganda umumiyligini qarshilik qanday topiladi?
5. Tok manbalari va ularni tasniflovchi kattaliklar haqida ma’lumot bering.
6. O‘tkazuvchanlik va solishtirma o‘tkazuvchanlik haqida ma’lumot bering.
7. Qisqa tutashuvda qarshilik qanday bo‘ladi?
8. Ishni bajarish tartibini aiting va ishga xulosa yasang.

10-LABORATORIYA ISHI

NOMA’LUM QARSHILIKNI AMPERMETR VA VOLTMETR YORDAMIDA ANIQLASH

Ishning maqsadi: Elektr qarshilikni o‘lchash. O‘tkazgichlarni parallel va ketma-ket ulashni o‘rganish.

Kerakli jihozlar: Voltmetr, ampermestr, reostat, o‘zgarmas tok manbai, kalit va ulovchi simlar.

Qisqacha nazariy ma’lumot

Zaryadli zarrachalarning yo‘nalgan (bir tomonlama)harakatiga *elektr toki* deb ataladi. Zaryadlangan zarrachalar metallarda elektronlar (manfiy zarralar), suyuqliklarda ionlar (manfiy va musbat zarralar) hisoblanadi.

Vaqt birligi ichida oqib o‘tayotgan zaryad miqdori va yo‘nalishi o‘zgarmaydigan elektr toki *o‘zgarmas tok* deyiladi va $I = \frac{q}{t}$ formula orqali ifodalanadi.

Tok kuchining birligi Amper hisoblanadi.

Amper shunday o‘zgarmas tok kuchiki, vakuumda bir-biridan 1 metr masofada joylashgan ikkita parallel cheksiz uzunlikdagi to‘g‘ri

o'tkazgichdan 1A tok o'tganda, ularning har bir metriga $2 \cdot 10^{-7} N$ ga teng kuch bilan ta'sir qiladi.

Tok kuchi 1 A bo'lganda o'tkazgichning ko'ndalang kesimi yuzasidan 1sekundda o'tgan zaryad miqdori 1 Kulon bo'ladi, ya'ni

$$1A = \frac{1C}{1\text{ sek}}$$

Ma'lum bir sharoitda tok kuchi

$$I = \frac{U}{R} \quad (1)$$

formula yordamida topiladi. Bu elektr zanjirining bir jinsli qismi uchun Om qonuni bo'lib, tok kuchining kuchlanishga to'g'ri proporsional ekanligini ko'rsatadi.

O'tkazgichdan elektr toki o'tganda elektronlarning o'zaro hamda o'tkazgich kristall panjaralari tugunlaridagi ionlar bilan to'qnashushlari oqibatida ularning tartibli harakati sekinlashadi, tok kuchi kamayadi o'tkazgich esa qiziydi. Natijada o'tkazgichning qarshiligi ortadi.


$$R_t = R_o (1 + \alpha t^\circ) \quad (2)$$

Tajribalarning ko'rsatishicha, o'tkazgichning qarshiligi, uning materialiga, uzunligiga va ko'ndalang kesim yuzasiga bog'liq, u quyidagicha ifodalanadi.

$$R = \rho \frac{l}{S} \quad (3)$$

ρ -har xil moddalar uchun turlicha bo'lib, *solishtirma qarshilik* deb yuritiladi. Masalan, mis uchun $\rho_{Cu} = 1.7 \cdot 10^{-6} \text{ OM} \cdot M$ alyuminiy uchun $\rho_{Al} = 2.8 \cdot 10^{-6} \text{ OM} \cdot M$. Amalda elektr zanjirlari har xil o'tkazgichlar bilan turli usullarda ulanishi mumkin:


a) ketma-ket ulangan zanjirning hamma qismlarida tok kuchi bir xil bo'ladi. (1-rasm) $I = I_1 = I_2 = I_3 = I$



qarshiliklar esa $R = R_1 + R_2 + R_3 + \dots + R_n$

b) parallel ulangan bo'lsa (2-rasm) zanjirdagi umumiyl tok kuchi ayrim tarmoqlardan o'tayotgan toklarning yig'indisiga teng.

$$I = I_1 + I_2 + I_3 + \dots + I_n$$




2-rasm

O'zgarmas tok zanjirida qarshilikni ampermetr va voltmetr yordamida o'lhash bilvosita o'lhash usuliga misol bo'la oladi. Buning uchun 3-rasmdagidek sxema yig'iladi. 3-rasmdagi sxemadan kichik qarshiliklarni b'dagi sxemadan o'rtacha va katta qarshiliklarni o'lhashda foydalilaniladi. Noma'lum qarshilik Om qonuniga asosan aniqlanadi.

$$R_x = \frac{U_V}{I_A} \quad (4)$$

Bunda U_V -voltmetr ko'rsatgan kuchlanish ; I_A -ampermetr ko'rsatgan tok.



3-rasm

(4) formula bilan hisoblangan qarshilik qiymati haqiqiy qiymatdan farq qiladi. Chunki, 3-rasmdagi sxemadan ko'rning turibdiki, ampermetrdan o'tayotgan tok I_A noma'lum qarshilikdagi tok I_X ga qaraganda voltmetrdan o'tayotgan tok I_V miqdoricha ortiqdir. Shuning uchun 3-rasmdagi sxema bo'yicha noma'lum qarshilikning haqiqiy qiymatini quyidagicha hisoblash mumkin: Buning uchun tarmoqlangan zanjirning voltmetr bilan parallel qismi qarshiligi hisoblanadi.

$$\frac{1}{R} = \frac{1}{R_V} + \frac{1}{R_X}$$

Bu yerda R_V voltmetrning qarshiligi


$$\text{Bundan } \frac{1}{R_V} = \frac{R_V - R}{R_V \cdot R} \quad \text{yoki} \quad R_X = \frac{R}{1 - \frac{R}{R_V}} \quad \text{ni hosil qilamiz.}$$

U holda noma'lum qarshilik

$$R_X = \frac{U_V}{I - \frac{U_V}{R_V}} \quad (5)$$

formula yordamida hisoblanadi.

Agar voltmetrning qarshiligi R_V o'lchanayotgan qarshilik R_x dan ko'p marta katta bo'lsa (masalan, yuz marta), u holda ampermetr ko'rsatgan tok rezistor qarshiligi R_V ga juda yaqin bo'ladi va qarshilikni (4) formula yordamida oson topish mumkin. Bu vaqtida o'lchashdagi R_V ta'siri tufayli hosil bo'lgan nisbiy xatolik 1% dan ortmaydi.



4-rasm


4-rasmdagi sxemada voltmetr ko'rsatayotgan kuchlanish U_V noma'lum qarshilik R_x ga qo'yilgan kuchlanish U_x dan ampermetrdagi kuchlanish tushishi $R_A \cdot I_A$ ga kattadir. Shuning uchun 4-rasmdagi sxema bo'yicha noma'lum qarshilikning haqiqiy qiymatini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$R_x = \frac{U_x}{I_A} = \frac{U_V + R_A I_A}{I_A} \quad (6)$$

Agar ampermetrning qarshiligi R_A o'lchanayotgan qarshilik R_x dan ko'p marta kichik bo'lsa (masalan yuz marta), u holda voltmetr ko'rsatgan kuchlanish noma'lum qarshilik uchlariidagi kuchlanish U_x ga juda yaqin bo'ladi va qarshilikni (4) formula yordamida topish mumkin. Bu vaqtida R_A ning ta'siri tufayli hosil bo'lgan nisbiy xatolik 1% dan kichik bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi

1. 5-rasmdagi sxema yig'iladi.



2. Ampermetr va voltmetrning bir nechta ko'rsatishlari 1-jadvalga yozib olinadi. Buning uchun reostat surgichini harakatlantirib kuchlanish qiymatini o'zgartirib boramiz.

1-jadval

	O'lchashlar			Hisoblashlar		
	U	I	R_V	R_X	ΔR_X	ε
	V	A	Om	Om		%
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
O'rt						

2-jadval


	O'lchashlar			Hisoblashlar		
	U	I	R_A	R_X	ΔR_X	ε
	V	A	Om	Om		%
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
O'rt						

3. 6-rasmdagi sxema yig'iladi.

4. Reostat surgichini harakatlantirib, ampermestr va voltmetrning har xil ko'rsatishlari 2-jadvalga yozib olinadi.

5. Noma'lum qarshilikni (5) va (6) formulalar yordamida hisoblang va natijalarni jadvallarga yozing.

6. Topilgan qarshilikning qiymatlarini taqqoslang.



Sinov savollari

1. Elektr tokining klassik elektron nazariyasini tushuntiring.
2. Kirxgof qoidalarini ta'riflang.
3. Zanjir E.Yu.K ga ega bo'limgan hol uchun Om qonunini yozing.
4. Noma'lum qarshilikni hisoblash formulalarini keltirib chiqaring.
5. Elektr yurituvchi kuch nima va uning birligi qanday.
6. Nima uchun voltmetr qarshiligi ampermetrnikiga nisbatan katta bo'ladi?
7. Qo'shimcha qarshilik voltmetr va ampermetrغا qanday ulanadi?
8. Tok zichligi nima? U qanday birlikkarda o'lchanadi?
9. Ishni bajarish tartibini tushuntiring va ishga xulosa qiling.

II-LABORATORIYA ISHI


CHO'G'LAMNA LAMPANING QUVVATI VA QARSHILIGINI VOLTMETR HAMDA AMPERMETR YORDAMIDA HISOBBLASH

Ishning maqsadi: Cho'g'lanma lampaning quvvatini va qarshiligini voltmetr hamda ampermestr yordamida o'lchab hisoblash, lampalarni parallel va ketma-ket ulashdagi o'zgarishini o'rGANISH.

Kerakli asbob va qurilmalar: ikkita har xil quvvatli elektr lampochkalar, voltmetr, ampermetr, o'zgaruvchan tok manbai, ulovchi simlar.

Nazariy qism

Zaryadlangan zarrachalarning yo'naltirilgan harakatiga elektr toki deyiladi. Agar shunday harakat o'tkazgichda mavjud bo'lsa, u holda bunday tokni ***o'tkazuvchanlik toki*** deyiladi. Zaryadlarning tartibli harakati vujudga kelishi uchun o'tkazgich ichida elektr maydoni mavjud bo'lishi kerak. Musbat zaryadlar maydonga qarshi harakatlanadi.



Zaryadlarning harakati o'tkazgichlarning hamma nuqtasida potensial bir xil bo'lguncha davom etadi.

Tok kuchi deb, o'tkazgichning ko'ndalang kesimidan birlik vaqt ichida oqib o'tgan zaryad miqdoriga son jihatdan teng bo'lgan kattalikka aytildi. Tok kuchi skalyar kattalikdir:

$$I = \frac{dq}{dt} \quad (1)$$

Agar tok kuchi va uning yo'nalishi o'zgarmas bo'lsa; tok kuchi

$$I = \frac{q}{t} \quad (2)$$

shakilda yoziladi.

„SI“ birliklar sistemasida tok kuchi birligi qilib Amper qabul qilingan. Bu biplik shunday tok kuchidirki, vakuumda bir – biridan 1 metr masofada turgan ikkita parallel cheksiz uzunlikdagi to'g'ri o'tkazgichdan o'tganida ularning har biri $2 \cdot 10^{-7}$ N kuch bilan o'zaro ta'sirlashadi.

Zanjir tarkibidagi har qanday o'tkazgich zaryad tashuvchilarning tartibli harakatiga qandaydir qarshilik ko'rsatadi. Agar o'tkazgich uzunligi ℓ , ko'ndalang kesimi S bo'lsa, uning qarshiligi

$$R = \rho \frac{\ell}{S} \quad (3)$$

ifoda bilan topiladi.

Bu erdag'i ρ -o'tkazgich materiali tabiatiga bog'liq bo'lib, uning solishtirma qarshiliqi deyiladi va solishtirma o'tkazuvshanlik bilan quyidagicha bog'langan bo'ladi:

$$\rho = \frac{1}{\sigma}$$

SI sistemasida qarshilik, birligi Om:

$$1 \text{ om} = \frac{1 \text{ V}}{1 \text{ A}}$$

ya'ni berilgan o'tkazgich uchlaridagi kuchlanish 1 Volt bo'lganda, o'tayotgan tok kuchi 1 Amperga teng bo'lsa, bunday o'tkazgich qarshiliqi 1 Om deb qabul qilingan.

Solishtirma qarshilik birligi esa Om-m larda olinadi.

Om tajribalari natijasiga asosan zanjirning bir qismidan o'tayotgan tok kuchlanishga to'g'ri proporsional va shu qismidagi o'tkazgich qarshiligidagi teskari proporsional ekanligini bilamiz.

$$I = \frac{U}{R}$$

$$R = \frac{U}{I} \quad (4)$$


O'tkazgich qarshiliqi temperaturaga ham bog'liq:

$$R = R_0(1 + \alpha t) \quad (5)$$


$R_0 - 0^{\circ}\text{C}$ dagi qarshilik, α -qarshilikning termik koefitsienti.

Zanjirda o'tkazgichlar ketma-ket va parallel ulanishi mumkin.


O'tkazgichlar ketma-ket ulanganda zanjirning barcha qismlarida tok kuchi bir xil, kuchlanish esa har xil bo'ladi.



Parallel ulanganida esa teskari hol sodir bo'ladi.



Zanjirning istalgan qismida elektr toki ma'lum ish bajaradi. Masalan, ixtiyoriy zanjir berilgan bo'lib, uning tekshiriladigan qismida kuchlanish mavjud bo'lsin. Elektr kuchlanishining ta'rifiga asosan, birlik zaryadni a va b nuqtalar orasida ko'chirishda bajarilgan ish U ga teng.



Agar zanjirda tok kuchi I bo'lib, undan vaqt oralig'ida $I t$ zaryad o'tayotgan bo'lsa, zanjirning bu qismida tok bajargan ish quyidagicha ifoda bilan topiladi:

$$A = U \cdot I t = (\varphi_2 - \varphi_1) I t \quad (6)$$

Bu ifoda har qanday o'zgarmas tok zanjiri uchun o'rinnlidir. Tokning quvvati, ya'ni vaqt birligida bajargan ishi esa:

$$P = \frac{A}{t} = \frac{U I t}{t} = UI \quad (7)$$


ifoda bilan aniqlanadi.

Elektr quvvati elektr energiyani boshqa turdag'i energiyaga qanday tezlik bilan aylanishini bildiradi.

O'tkazichich uchlariada 1 Volt potensial farqi hosil qilinganida 1 Amper tok o'tsa, ajralib chiqayotgan quvvat 1 Wattga teng bo'ladi.
 $1V \cdot 1A = 1W$



Ishni bajarish tartibi

1. 1-rasmdagi sxema yig'iladi.



2. Ampermetr va voltmetrnning bir nechta ko'rsatishlari 1-jadvalga yozib olinadi. Buning uchun avtotransformator surgichini harakatlantirib kuchlanish qiymatini o'zgartirib boramiz.

3. Berilgan kuchlanishlar uchun navbat bilan ketma-ket va parallel hollar uchun ampermetr hamda voltmetrning ko'rsatishlari jadvalga yozib qo'yiladi. Buning uchun 2- va 3-rasmlardagi sxemalar yig'iladi.



3-rasm

1-jadval

	U (V)	I (A)	R (Om)	P (Vatt)
Bitta lampa uchun	1			
	2			
	3			
	4			
	5			
Lampalar ketma-ket	1			
	2			
	3			
	4			
	5			
Lampalar parallel	1			
	2			
	3			
	4			
	5			

4. Jadval natijalariga asosan quyidagi grafiklar tuziladi:

$$\begin{array}{lll} a) R_1 = f(U_1) & R_2 = f(U_2) & R_2 = f(U_2) \\ b) P_1 = f(U_1) & P_2 = f(U_2) & P_3 = f(U_3) \end{array}$$

Yuqoridagi qator funksiyalari bir grafikda, pastdagilari esa ikkinchi grafikda aks ettirilishi kerak.

Grafiklar analiz qilinib, qarshilikning kuchlanishga bog'liqligi qaysi hollarda qandayligi ham baholansin.

Sinov savollari

1. Elektr toki va tok kuchi deganda nimani tushunasiz?
2. Qarshilikning temperaturaga bog'liqlik ifodasini keltiring.
3. Elektr tokining quvvati va uning fizik ma'nosi aytинг.
4. Nima uchun ketma-ket ulanganda lampalar har xil nur tarqatadilar?
5. Om qonunining differensial ko'rinishini keltirib chiqaring.
6. Elektr toki ishining birligini aytинг.
7. Bir kWt·soat necha Joulga teng.
8. Joul-Lens qonunining differensial ko'rinishini keltirib chiqaring
9. Elektr tokining ishi va quvvati uchun formulalarni yozing.
10. Nimaga asoslanib 1 ot kuchi 736 Wt ga teng qilib olingen.
11. Ishni bajarish tartibini tushuntiring va ishga xulosa qiling.

12-LABORATORIYA ISHI

ISSIQLIK ELEKTR YURITUVCHI KUCHNI ANIQLASH


Ishning maqsadi: tugunlarda kuzatiladigan termoelektr hodisalar bilan tanishish va termoparani darajalash usulini o'rGANISH.

Kerakli jihozlar: Termopara, isitgich, termometr, mikroampermetr, ulovchi simlar.

Qisqacha nazariy ma'lumot

Moddalar tuzilish nazariyasiga ko'ra, metallar kristall panjara tuzilishiga ega bo'lib, erkin elektronlar uning sirtidan bug'lanib turadi. Shuning uchun metall sirti qo'sh elektr qatlam bilan ($1 \div 10 \cdot 10^{-8}$ sm) o'ralgan bo'ladi (1-rasm). Bu qo'sh elektr qatlam elektronni metall sirtidan cheksizlikkacha chiqishga yo'l qo'ymaydigan potensial o'raning chuqurligi W_p -metall ichida va sirtida elektron ega bo'lishi mumkin

bo‘lgan energiyalar farqi qadar bo‘ladi. Agar energiyalar o‘qida elektron energiyasini energetik sath bilan belgilasak, yuqorida aytilganlarni quyidagi tarzda tasvirlash mumkin bo‘ladi:



1-rasm


2-rasm

Absolyut nol temperaturada elektron ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng yuqori energiya W_F Fermi sathi deyiladi. Elektron metall sirtidan cheksizlikkacha chiqib ketish uchun qo‘sh elektr qatlam kuchini yengishda ish bajara oladigan energiyaga ega bo‘lishi lozim. Ana shu energiyaga chiqish ishi deyiladi.

$$A_{CN} = W_{PO} - W_F$$

$$A_{CN} = e(\varphi_+ - \varphi_-)$$

1797-yilda italiya olimi Volta chiqish ishlari har xil bo‘lgan turli jinsli metallar bir-biriga tegizilganida ularning uchlarida potensiallar ayirmasi vujudga kelishini aniqladi. U shunday metallar qatorini tuzdiki, (Al, In, Sn, Cd, Pb, Sb, Bi, Hg, Fe, Cu) har bir metall o‘zidan oldingisiga nisbatan musbat zaryadlanib, tugun potensiallar ayirmasi yig‘indisi 0,1 - 10 V chamasiga etadi (3-rasm)




I. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ochiq zanjirdagi tugun potensiallar ayirmasi oraliq metallarni tabiatiga bog‘liq bo‘lmay, faqat chetki metallar kimyoviy tabiatiga, kontakt temperaturasiga bog‘liq.

$$\varphi_2 - \varphi_1 = \frac{A_2 - A_1}{\ell} + k t \ln \frac{n_{o2}}{n_{o1}} \quad (1)$$

II. Agar zanjir berk bo'lib, kontaktlar temperaturasi birday bo'lsa (4-rasm), potensial sakrashlarning algebraik yig'indisi nolga teng bo'ladi.

$$\sum_{i=1}^n \Delta \varphi = 0 \quad (2)$$

1821-yilda Zeebek har xil jinsli juft metallardan, berk zanjir tuzib, kontakt temperaturalari turlicha bo'lganda tok hosil bo'lishini kuzatadi (4-rasm).



4-rasm

Bu hodisa termoelektrik effekt deb, moslama esa termojuftlik (termopara) deb yuritiladi. Zanjirdagi tok kuchi kontaktlar temperaturasi ayirmasiga proporsional bo'lib, uni vujudga keltiruvchi sabab termoelektr yurituvchi kuch (T.E.Yu.K) dir.

Termoelektr yurituvchi kuch son jihatdan chiqish ishlaringin va elektronlar kondensatsiyasi farqi tufayli vujudga kelgan potensial sakrashlar yig'indisiga teng bo'lib, berilgan yo'nalish uchun quyidagicha ifodalanadi:

$$\varepsilon = \varphi_B - \varphi_A + \frac{kT_1^*}{\ell} \ln \frac{n_{oA}}{n_{ob}} + \varphi_A - \varphi_B + \frac{kT_2^*}{\ell} \ln \frac{n_{ob}}{n_{oa}} \quad (3)$$

Zanjir berkligi sababli chiqish ishlari farqiga tegishli potensial sakrashlar yig'indisi 0 (nol') ga teng.

$$\sum_{i,j} \varphi_i = 0 \quad i \neq j$$

u holda (3) ning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\varepsilon = \frac{\pi}{\ell} \ell m \frac{n_{ob}}{n_{oa}} (T_1^* - T_2^*) = \alpha (T_1^* - T_2^*) \quad (4)$$

bu yerda,

$$\alpha = \frac{k}{\ell} \ln \frac{n_{oi}}{n_{od}}$$


Kontakt temperaturasi T^* ga farq qilganda berilgan juft metall uchun qancha volt E.Yu.K hosil bo'lishini bildiradi va termo E.Yu.K doimiysi deyiladi.

U har bir juft o'tkazgich sistemasi uchun xarakterli bo'lgan o'zgarmas kattalikdir. Masalan, In, Ag jufti uchun ($(0^{\circ} - 100^{\circ}C)$) $\alpha = 0,5 \frac{mKB}{grad}$, chegarasida $\alpha = 4,6 \frac{mKB}{grad}$.

Termoparalarni ketma-ket ulab (100-1000) termoustuncha hosil qilinadi va undan kam quvvatlari tok manbai sifatida foydalaniladi, bundan tashqari o'ta yuqori va past temperaturalarni aniq ulchashda ishlataladi.

Ushbu tajriba ishida termoparani darajalash quyidagicha amalga oshiriladi.

Eksperimental qurilma M va N termopara va galvanometr dan tashkil topgan. Termoparaning A va B uchlari kavsharlangan bo'lib, A uchi K suvli idishga tushirilgan va bu idish I isitgich yordamida isitiladi.



5-rasm

B uch ham ikkinchi C idishga tushirilgan bo'lib, uning temperaturasi doimiy saqlab turiladi

Ishni bajarish tartibi

1. 5-rasmida ko'rsatilgan sxema yig'iladi.
2. Har ikkala idishdagji termometr ko'rsatishlari tengligiga ishonch hosil qilib, galvanometr strelkasi nolga turishi ta'minlanadi.
3. Isitgich I ni ulab, A kontakt qizdiriladi, bunda termoparada tok hosil bo'lishi bilan galvanometr strelkasi og'adi.

4. Temperatura har $5-10^0\text{ C}$ ga o‘zgarganda tok qiymati quyidagi jadvalga yoziladi:

1-jadval.

N	T_1	t_2	t_1-t_2	α	I	ε

5. Tajribadan olingan ma’lumotlarga ko‘ra grafik chiziladi.
 6. (4) formulaga asosan E.Yu.K. hisoblanadi.

Sinov savollari

1. Pelte va Zeebek hodisalarini tushuntiring.
2. Pelte koeffitsienti nima qanday birliliklarda o‘lchaniladi?
3. Termometr va termopara qanday maqsatlarda ishlatalidi?
4. Temperaturaning Kelvin, Selsiy va Farengeyt o‘lchov birliklari haqida ma’lumot berib, ularning farqini tushuntiring.
5. Ishchi formulani keltirib chiqaring.
6. Termoparalar yasash prinsipini tushuntiring.
7. Ishni bajarish tartibini tushuntirib, ishga xulosa qiling.

13-LABORATORIYA ISHI

G‘ALTAKNING INDUKSIYA KOEFFITSIENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: O‘zinduksiya hodisasi haqida tasavvurga ega bo‘lish, g‘altakning induktivligini o‘zakli va o‘zaksiz holda o‘lchab, natijalarini solishtirish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Voltmetr, ampermetr, ommetr, o‘rganilayotgan g‘altak, o‘zak, reostat, tok manbai, ulagich simlar. .

Nazariy qism

Har qanday berk o‘tkazuvchan tarmoqda ajratib olingan yuzadan o‘tayotgan magnit induksiyasi o‘zgarganda, tarmoqda elektr toki hosil bo‘ladi. Bu hodisa elektromagnit induksiyasi, tok esa induksion tok deyiladi. Induksion tokning kattaligi magnit induksiyasi oqimi Φ ning

o'zgartirish usuliga bog'liq bo'lmay, o'zgartirish suratiga ya'ni $\frac{d\phi}{dt}$ ga bog'liq. Masalan, tarmoqdan o'tayotgan elektr toki shu kontur o'rabi olgan yuzasidan o'tuvchi magnit oqimi hosil qiladi, Tok kuchi o'zgarganda magnit oqimi o'zgaradi, demak, bu o'zgarish ham konturda elektr toki hosil bo'lishiga sababchi E.YU.K. hosil qiladi. Bu hodisa o'zinduksiya deyiladi. Lens qonuniga ko'ra magnit maydon kuchlanganligi uni hosil qiluvchi tokka bogliq, bundan konturdagi tok yoki u hosil qiluvchi magnit oqimi o'zaro proporsional bo'ladi.

$$\phi = Li \quad (1)$$

L-proporsionallik koeffitsienti bo'lib, zanjirning induktivligi (o'zinduktivligi) deyiladi. Hosil bo'lgan E.Y.U.K.:

$$e = -L \frac{di}{dt} \quad (2)$$

ifoda bilan aniqlanadi. Manfiy ishora esa Lens qonunidan kelib chiqadi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, Φ bilan I orasidagi chiziqli bog'lanish atrof-muhitning magnit kirituvchanligiga bog'liq. Agar atrof-muhitda ferromagnit modda bo'lsa, yuqoridagi ifodalar murakkab ko'rinishga ega bo'ladi.

Agar $i = f$ bo'lsa, yuqoridagi formuladan ko'rindik, $\phi = L i$ bo'ladi. Yani kontur orqali o'tuvchi magnit oqimiga teng.

Induktivlik birligi Genri bo'lib, u zanjirda tok kuchi 1A bo'lganda 1Vb ga teng magnit oqimi hosil bo'ladigan tugunning induktivligidir:

$$IGn = \frac{1Vb}{1A}$$

O'zgaruvchan tok zanjirining bir qismi uchun Om qonuniga asosan:

$$I_{eff} = \frac{U_{eff}}{R} \quad (3)$$

Agar shu qismda induktivlik g'altagi va kondensator ham bo'lsa:

$$I_{eff} = \frac{U_{eff}}{\sqrt{R^2 + \left(\omega L - \frac{1}{\omega C}\right)^2}} \quad (4)$$

Faqat induktivlik bo'lganda, keyingi ifoda

$$I_{eff} = \frac{U_{eff}}{\sqrt{R^2 + \omega^2 L^2}} \quad (5)$$

ko'rinishni oladi. Bu yerdagi I_{eff} -tokning effektiv qiymati, R-o'tkazgichning faol (aktiv) qarshiligi, U_{eff} -kuchlanishning effektiv

qiymati, ω -burchak chastota, Z-zanjirning berilgan qismining to'liq qarshiligi bo'lib u quyidagiga teng.

$$Z = \sqrt{R^2 + \omega^2 L^2}$$

bu yerdan induktivlik uchun

$$L = \frac{Z^2 - R^2}{\omega} = \sqrt{\left(\frac{U_{eff}}{I_{eff}}\right)^2 - R^2} \quad (6)$$


ifodani topish mumkin, bu erda $\omega = 2\pi\nu$ ga teng $\nu = 50$ gers. U holda $\omega = 314$ sek $^{-1}$

Bu ishda g'altakni qarshiligi o'zakli va o'zaksiz holda ommetr, voltmetr va ampermetr yordamida o'lchab olinib, natijalar solishtiriladi. G'altakni o'zakli va o'zaksiz holdagi induktivligi natijalari keltiriladi.

Ishni bajarish tartibi

1. Ommetr yordamida doimiy tokka bo'lgan g'altakni qarshiligini o'lchab olinadi.

2. 1-rasmdagi zanjir yig'ilib, reostat orqali kuchlanishni har – xil qiymatlari uchun o'zakli, o'zaksiz holda tok kuchi o'lchanib, jadval to'ldiriladi.



1-rasm

3. Oxirgi formula orqali induktivlik hisoblanib, absolyut va nisbiy xatoliklar topilib, quyidagi jadval to'ldiriladi:

1-jadval

<i>O'zakli</i>						<i>O'zaksiz</i>					
<i>I</i>	<i>U</i>	<i>R</i>	<i>L</i>	ΔL	ε	<i>I</i>	<i>U</i>	<i>R</i>	<i>L</i>	ΔL	ε

4. Oxirgi formula orqali induktivlik hisoblanib, absolyut va nisbiy xatoliklar topilib, quyidagi jadval to'ldiriladi:

Sinov savollari

1. Induksiya qonunini ta'riflab bering.
2. O'zinduksiya hodisasini tushuntiring.
3. Induktivlik formulasi va uning birligini yozing.
4. Lens qonunini tushuntiring.
5. Bio-Savar-Laplas qonuni formulasini yozing.
6. Ishning bajarilish tartibini tushutiring.
7. O'zgaruvchan va o'zgarmas tok turlari uchun Om qonuni.
8. Induktivlikni hisoblash formulasini tushuntiring.
9. Ishga xulosa qiling.

14-LABORATORIYA ISHI

***YER MAGNIT MAYDON KUCHLANGANLIGINING
GORIZONTAL TASHKIL ETUVCHISINI ANIQLASH***

Ishning maqsadi: Yerni magnit parchasiga qiyos qilish va uning sirtida maydon kuchlanganligining meridian bo'y lab tashkil etuvchisini topish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Tangens galvanometr, ampermetr, reostat, doimiy tok manbai, ulovchi simlar, kalit.

Nazariy qism

Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisini aniqlash usullaridan biri quyidagichadir:

Agar Yer magnit meridiani tekisligi markaziga magnit strelkasi bo'lgan aylanma tokli o'tkazgich olib, undan doimiy elektr toki o'tkazsak, magnit strelkasi magnit meridianidan biror burchakka og'adi. Markazida magnit strelkasi bo'lgan va aylana halqa bo'y lab tok oqadigan asbob tangens-galvanometr deyiladi. Tangens-galvanometr shu hodisaga asoslangan bo'lib, quyidagicha tuzilgan: doiraviy yog'och asosga bir necha o'ram o'tkazgich sim o'ralgan bo'lib, markazida maxsus g'ilofda gorizontal tekislikda erkin aylana oladigan magnit ko'rsatkichi joylashgan (ko'rsatkich biror usul bilan osongina bo'shatilishi yoki to'xtalishi mumkin) bo'ladi.

Odatda, tangens-galvanometrining o'ramlar soni n va radiusi R berilgan bo'ladi.

Magnit strelkasiga Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisi H_0 va sim o'rami tekisligiga perpendikulyar yo'nalgan tokning magnit maydoni kuchlanganligi H ta'sir qiladi va biror burchakka buriladi.

Ma'lumki, ixtiyoriy ko'rinishdagi tokli o'tkazgich bo'lagi dl hosil qilgan biror C nuqtadagi magnit maydon kuchlanganligi o'tkazgichdan o'tayotgan tokka I va o'tkazgich bo'lagi dl ga to'g'ri proporsional hamda o'tkazgichdan C nuqtagacha bo'lgan masofa kvadratiga teskari proporsional. Bu ifodaning matematik ko'rinishi quyidagicha yoziladi:

$$dH = k \frac{Idl}{r^2} \sin \varphi$$

Bu erda φ dl o'tkazgich bo'lagi bilan r orasidagi burchak. k -tanlangan birliliklar sistemasiga bog'liq koefitsient.

Bio-Savar-Laplas qonunini xususiy holda tok uchun qo'llab, magnit maydon kuchlanganligi bir o'rami uchun $\frac{I}{2r}$ va nihoyat tangens galvanometr uchun

$$H = \frac{nI}{2r} \quad (1)$$

ekanligini isbotlash mumkin. Uning yo'nalishi aylanma tok yotgan tekislikka tik. Lekin Yerning magnit maydon ta'siri tufayli strelka 90° ga emas α burchakka og'adi (Bu burchakni kattaligi tok kuchiga ham bog'liq).


Rasmidan,

$$H = H_0 \operatorname{tg} \alpha \quad (2)$$


deb topish mumkin. (1) va (2) formuladan,

$$H_0 = \frac{nI}{2r \operatorname{tg} \alpha} \quad (3)$$

ifodani hosil qila olamiz.




1-rasm



Magnit maydon kuchlanganligi magnit strelkasining qutbiga ta'sir qiluvchi kuchni xarakterlaydi va SI sistemasida $\frac{A}{m}$ larda o'chanadi.

Ishni bajarish tartibi

- Quyidagi elektr zanjir yig'iladi:



2-rasm

TG-tangens galvanometri, QU-qayta ulagich, R- rheostat, A- ampermetr, B-o'zgarmas tok manbai, K-kalit.

2. Magnit yo'nalishini ko'rsatkich arretirdan bo'shatilib, tangens-galvanometr shunday o'rnatiladiki. u Yer magnit maydoni meridianida joylashsin (bunda strelka ko'rsatkichining bir uchi 0° ni, ikkinchi uchi 180° gradusni ko'rsatadi).

- Elektr zanjiri tekshirilib, tok manbaiga ulanadi.
- Reostat yordamida turli xil tok qiymatlari berilib, ko'rsatkich og'ishi yozib olinadi.
- Har bir o'lchaning uchun Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisi hisoblanadi.
- O'lchaning va hisoblangan kattaliklar quyidagi jadvalga kiritiladi.

1-jadval

N	I	α	$Tg\alpha$	H_{ver}	ΔH_{ver}	ε
1						
2						
3						
4						
5						
O'rt						

Sinov savollari

1. Magnit maydon deb nimaga aytildi va qachon paydo bo‘ladi?
2. Magnit maydon elektr tokini hosil qila oladimi?
3. Tangens–galvanometr qanday tuzilgan va nima maqsadlarda qo‘llaniladi?
3. Yer magnit maydon kuchlanganligining gorizontal tashkil etuvchisi deb nimaga aytildi?
4. Aylanma tok uchun Bio–Savar–Laplas qonunini yozing.
5. Magnit maydon kuchlanganligi o‘tkazgich shakliga bog‘liq bo‘ladimi?
6. Yerning magnit maydonini xarakterlab bering.
7. Magnit maydon kuchlanganligi va uning birliklari.
8. Elektromagnit induksiya qonunini tushuntiring.
9. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
10. Ishga xulosa qiling.

15-LABORATORIYA ISHI***YARIM O‘TKAZGICHLI DIODNING VOLT-AMPER XARAKTERISTIKASINI OLISH***

Ishning maqsadi: To‘g‘rilagichning volt-amper xarakteristikasini olish, uning qarshiligini va to‘g‘rilash koeffitsentini aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: To‘g‘rilagich, voltmetr, ampermetr, reostat, o‘zgarmas tok manbai, kalit va ulovchi simlar.

Nazariy qism


Elektr o‘tkazuvchanlik jihatidan metallardan keyin, dielektriklardan oldin turadigan moddalar qatori chala o‘tkazgichlar deb yuritiladi.

Chala o‘tkazgichlarga Mendeleyev davriy sistemasining IV guruh elementlari germaniy (Ge) kremlniy (Si) va shunga o‘xshash moddalar (B, C, Sn, P, As) va ularning birikmalari AlSi, Cu₂O kiradi. Chala o‘tkazgichlarda elektr o‘tkazuvchanlik moddaning tozaligiga aralashtirilgan moddaning miqdoriga, kimiyoviy tabiatiga va haroratiga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagicha ifodalanadi:


$$\sigma = \sigma_o e^{\frac{\Delta E}{2kT}} \quad (I)$$

ΔE-ta’qiqlovchi qatlam energetik kengligi.

Temperatura ortishi bilan chala o'tkazgichlarda elektr o'tkazuvchanlik ortib boradi, qarshilik esa kamayadi (1-rasm).



Elektr o'tkazuvchanlikning temperaturaga bog'liqligi



Solishtirma qarshilikning temperaturaga bog'liqligi

Bu yerda a-chala o'tkazgichlar, b-metallar. Chala o'tkazgichlarda elektr o'tkazuvchanlikni tahlil qilish uchun o'tkazuvchanlik zonalar nazariyasiga asoslanamiz.

Ma'lumki, hamma moddalar atomlardan tashkil topgan, atom musbat zaryadlangan yadro va uning atrofida ma'lum orbita bo'yicha harakatlanuvchi manfiy zaryadli elektronidan iborat zarrachalar sistemasidir.

Atomda elektron qobiqlarning to'ldirilishi Pauli (1925-yil) aniqlagan qoidaga assoslangan.


Har bir energetik holatda barcha kvant xossalari bir xil bo'lgan ikkita elektron bo'lishi mumkin emas. Agar 2 ta bo'sa, ular ham spin momentlarining yo'nalishi bilan farq qilishi (ya'ni antiparallel) lozim.

Shu tufayli atomda elektron qobiqlar bir-biridan kam energiya farqlariga ega bo'lgan qatlamlarga guruhlanadi. Bundan tashqari har xil qobiqlarga tegishli guruhlarga elektronlar bir-biridan katta energiya farqiga ega bo'ladi.

Agar energiya o'qida elektron energiyasiga tegishli qiymatlarni energetik sathlar bilan belgilasak, yuqorida aytilganlarni har qanday murakkab atom uchun ham quyidagicha tasvirlash mumkin (2-a-rasm).

Bu grafik shu bilan birga qattiq jism elektron xossalari ham izohlashga imkon beradi.

Kristall qattiq jismlar tarkibidagi elektron energetik holatlari atomdagi singari, lekin tig'izlashgan guruhlarga ajralgan bo'ladi. Energiyasi elektronning orbitadagi energiyasiga teng guruhlar (ABC ruxsat etilgan zonalar, ular oraligidagi energiya kengligi ΔE bo'lgan, α sohalar) ta'qiqlovchi zona deb yuritiladi (2b-rasm).



2-rasm

Agar quyi ruxsat etilgan zonalar elektronlar bilan to'ldirilgan bo'lsa, undan yuqori energetik zonalar ta'qiqlovchi ($\Delta E \gg kT$) qatlam bilan ajratilgan bo'lsa (3a-rasm), bunday qattiq jism dielektriklar deyiladi.

Agar yuqorigi ruxsat etilgan zonalar elektronlar bilan qisman to'ldirilgan bo'lsa yoki qisman to'ldirilgan zonalar bir-birini qoplagan bo'lsa ($\Delta E \ll kT$), bunday qattiq jismlar o'tkazgichlar deyiladi. Tabiiy holatda chala o'tkazgich atomlari kovalent bog'lanish strukturasiga ega bo'lib, taqiqlovchi qatlam energetik kengligi issiqlik harakati o'rtacha kinetik energiyasi ($E > kT$) qadar bo'ladi. Uy harorati sharoitida tez elektronlar o'tkazuvchanlik zonasiga o'tib, mushtarak holga aylanadi (ya'ni erkin bo'ladi), natijada valent zonada elektronidan bo'sh qolgan joyda „+, zaryadli teshik hosil bo'ladi.

Agar modda elektr maydonida bo'lsa, elektron maydonga qarshi, teshik esa elektr maydon bo'ylab ko'chib tok hosil qiladiki, bu xususiy o'tkazuvchanlik deyiladi.


Agar toza chala o'tkazgichga $10^{-7}\%$ miqdorda boshqa modda aralashtirilsa, elektr o'tkazuvchanlik $10^3\text{-}10^4$ marta ortadi. Ular aralashmali chala o'tkazgich deyiladi va ikki xil bo'ladi:

a) to'rt valentli Ge ga besh valentli surma, yoki mishyak aralashtirilsa, har bitta atomda bittadan elektron ortiqcha bo'lib, erkin holatga o'tadi (elektr maydonida tok hosil qiladi). Natijada o'tkazuvchanlik zonasini yaqinida qo'shimcha ruxsat etilgan zona hosil bo'ladi (3a-rasm).

Ortiqcha elektron berishga mayli bo'lgan aralashmali n-tip (donor) chala o'tkazgich deyiladi.


b) to'rt valentli Ge (germaniy) ga uch valentli In (indiy) aralashtirilsa kovalent bog' hosil qilish uchun har bir indiy atomida bittadan elektron yetishmaydi (teshik hosil bo'ladi). Buni to'ldirish uchun boshqa atomdan elektron qabul qilib olish natijasida valent zona qoshida qo'shimcha ruxsat etilgan zona hosil qilinadi. (3b-rasm).

Bunday teshikli o'tkazgichli aralashmalar p-tip (aktseptor) chala o'tkazuvchan deyiladi.



Shunisi qiziqarlikki, p-n tip chala o'tkazgich kontakti tokni faqat bir tomonlama o'tkazish xususiyatiga ega bo'lib, u chala o'tkazuvchanli diod (4-rasm) deb yuritiladi va o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka aylantiradigan qurilma diod sifatida ishlataladi. p-n kontaktida teshiklar,

elektronlar rekombinatsiyalashib chegara qatlami tok tashuvchilarga kambag'allashib qoladi va katta qarshilikka ega bo'ladi. Ichki potensial tushuvi (ko'p, elektron qatlam) hosil qiladi. (5a-rasm) Kristallarga tashqi (musbat qutb p sohaga, manfiy qutb n sohaga ulanib) kuchlanish berilsa, elektr maydoni zaryad tashuvchilarni chegaraga siqadi, o'tish qarshiliqi kamayadi, tok yaxshi o'tadi (to'g'ri o'tish). Agar aksincha ulansa, (musbat qutb n sohaga, manfiy qutb p sohaga ulanib) qarshilik ortadi, tok kuchi kam o'tadi (teskari o'tish). Tok kuchini kuchlanganlikka bunday bog'liq holda o'zgarishi diodning voltamper xarakteristikasi (VAX) deyiladi va quyidagicha tasvirlanadi:




4-rasm

Diodlar VAX dan tashqari birday kuchlanganlikdagi to'g'ri tokning teskari tokka nisbati $\alpha = \frac{I_{\text{to'g'ri}}}{I_{\text{teskari}}}$ to'g'rilarash koefitsiyenti bilan ham xarakterlanadi.

Ishni bajarish tartibi

1. 5-rasmda ko'rsatilgan sxema yig'iladi.




5-rasm

2. Kalit K ni qo'shing va potensiometr R yordamida diodga turli xil kuchlanishlar berib, unga mos keladigan toklarning qiymatlarini 1-jadvalga yozib boring.

1-jadval

<i>Nº</i>	<i>U</i> (V)	<i>I</i> (A)	<i>R</i> (Om)
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
O'rt			

6-rasmda ko'rsatilgan sxema yig'iladi:



6-rasm

3. Kalit K ni qo'shing va potensiometr R yordamida diodga turli xil kuchlanishlar berib, unga mos keladigan teskari toklarning qiymatlarini 2-jadvalga yozib oling.

2-jadval

<i>Nº</i>	<i>U</i> (V)	<i>I</i> (mkA)	<i>R</i> (Om)
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
O'rt			

4. Yozib olingen qiymatlarga asosan $I = f(U)$ grafik chiziladi.

Teskari va to'g'ri toklar uchun to'g'rash koeffitsiyenti hisoblanadi.

Sinov savollari

1. Qattiq jismlarning zonalar nazariyasini tushuntiring.
2. Fermi sathi va Fermi energiyasi haqida ma'lumot bering.
3. Zonalar nazariyasiga ko'ra metallar yarim o'tkazgichlardan qanday farq qiladi?
4. Qanday moddalar yarim o'tkazgich deyiladi va ularning o'tkazuvchanligi qanday.
5. Yarim o'tkazgichlarning p-n kontakti haqida gapiring. To'g'rilash koeffitsiyenti nima?
6. Aralashmali va chala o'tkazuvchanlik haqida gapiring.
7. Yarim o'tkazgichlarning ishlatalish sohalari haqida ma'lumot bering.
8. Nima uchu hozirgi vaqtda yarim o'tkazgich asboblar ko'p ishlataladi, uning afzalliklarini aytинг.
9. Ishni bajarish tartibini tushuntirib, ishga xulosa qiling.

16-LABORATORIYA ISHI

TRANSFORMATORNING FOYDALI ISH KOEFFITSIYENTINI (F.I.K.) ANIQLASH.

Ishning maqsadi: 1. Transformatorning tuzilishi va ishslash tartibini o'rGANISH. 2. Transformator F.I.K.ning ikkilamchi cho'lg'am zanjiridagi yuklanishga bog'liqligini aniqlash.


Kerakli asbob va qurilmalar: 42/4,5 voltli transformator, ampermetr, volmetr, reostat, kalit va o'tkazgichlar.

Nazariy qism

Transformator o'zaro induksiya hodisasiga asoslangan elektr asobi bo'lib, chastotasini o'zgartimasdan o'zgaruvchan tokni va uning kuchlanishini o'zgartirib beradi. Eng sodda transformator ikkita g'altakdan va elektromagnit o'zakdan iborat bo'ladi. Transformatroning tok manbaiga ulanadigan g'altagini birlamchi cho'g'am, iste'molchiga ulanadigan qismi ikkilamchi cho'lg'am deyiladi.

O'zgaruvchan tok transformatorning birlamchi cho'lg'amidan tok o'tganida shu g'altak atrofida o'zgaruvchan magnit maydon oqimi hosil bo'ladi va bu maydon o'z navbatida elektromagnitli o'zakda o'zgaruvchan magnit maydon oqimini hosil qiladi. Hosil bo'lgan bu

o'zgaruvchan magnit maydon oqimi transformatorning ikkilamchi o'ramlarini kesib o'tib unda induksiya E.Yu.K hosil bo'ladi. bu induksiya E.Yu.K esa ikkilamchi cho'lg'am g'altagida induksion tok hosil qiladi.



1-rasm

Transformatorning bir lamchi g'altagi tok manbaiga ulanib ikkilamchi g'altagi iste'molchiga ulanmasa transformatorning bunday ishalshiga transformatorning salt ishlashi yoki bo'sh yurishi deb ataladi. Transformator salt ishlagan vaqtida birlamchi g altakdan o'tgan juda ham kichkina tokka salt ishlash toki deyiladi.

Transformatorda magnit maydon oqimining sochilishini po'lat o'zakda bo'lувчи fuko toklarini g'altakdan tok o'tganda o'tkazgichning qizib energiyaning behuda sarf bo'lishlarini hisobga olish kerak. fuko toklari hisobiga energiyaning behuda sarf bo'lishi iste'molchilarning ortishi bilan deyarli o'zgarmaydi. G'altakda esa energiyaning behuda sarfi oshadi. Chunki tok oshgandan keyin o'tkazgichlar ko'proq qiziydi. Transformatorning quvvati oshishi bilan energiyaning behuda sarfi o'tkazilayotgan quvvatning juda oz qismiga teng bo'ladi. Shuning uchun iste'molchi ortishi bilan transformatorning F.I.K ham oshadi.

Umuman olganda transformator elektr toki kuchlanishini o'zgartiruvchi asboblardan biri bo'lib unda energiyaning behuda isrofi juda oz bo'ladi. Katta quvvatli takomillashgan transformatorning F.I.K 96-99% bo'ladi. agar transformatorning birlamchi g'altagidagi quvvat $N_1=I_1U_1$ ni 100% desak unda ikkinchi g'altakdagi iste'molchilarga uzata

oladigan quvvati $N_2=I_2U_2$ ga teng bo‘ladi. U holda transformatorning FIK ni hisoblash formulasini quyidagicha ifodalsh mumkin:

$$\eta = (N_2/N_1) 100\%$$


yoki

$$\eta = (I_2U_2/I_1U_1) 100\%$$

Qurilmaning tuzilishi va ishlashi

Qurilma birlamchi va ikkilamchi cho‘lg‘amlar o‘ragan elektromagnitli po‘lat o‘zak birlamchi va ikkilamchi cho‘lg‘amlardagi tok va kuchlanishlarni mos ravishda o‘lchaydigan ampermetr va voltmetrlar, iste’molchi vazifasini o‘taydigan reostat hamda boshqa yordamchi aslahalardan tuzilgan. Po‘lat o‘zak yupqa va tez magnitlanuvchan ferromagnit materiadadan iborat.

Yupqa po‘lat plastinkalarning usti maxsus lak bilan qoplanadi va ular bir-birga tegmaydi. Bunday usulda laklanishiga asosiy sabab uyurmaviy tokni kamaytirishdan iborat. Transformator konstruksiyasiga qarab uning plastinkalari P va Sh shaklida tayyorlanadi. Transformatorlar bir, ikki va uch fazali bo‘ladi.



2-rasm

Transformatrlar elektromagnit induksiya hodisasining xususiy holi ya’ni o‘zaro induksiya qonuniga muvofiq ishlaydi. Transformatorni birinchi marta 1878-yili P.N.Yablochkov tomonidan ixtiro etilgan bo‘lib uni I.F.Usagin takomillashtirgan.


Qurilmani ishga tushirish uchun kirishidagi kuchlanish 42 V va chiqishidagi kuchlanish 4,5 V bo‘lgan o‘zgaruvchan tok beruvchi asbobni laboratoriya xonasidagi 42 V elektr tarmog‘iga ulanadi va asbobdagi kalit qo‘shiladi. Shunda signal lampasi shulalanadi. Kalit ki qo‘shilgandan so‘ng transformatorning birinchi cho‘lg‘amidagi o‘lchov

asboblari tok va kuchlanishni ko'rsatadi. Ikkinci cho'lg'am zanjiridagi kalit K_2 qo'shilganida esa iste'molchi olayotgan quvvatini undagi o'lchov asboblari ko'rsatadi. Qurilmaning elektr sxemasi 2-rasmida ko'rsatilgan.

Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishining yo'riqnomasini o'qib o'rganing. Elektr toki bilan ishlashning texnika xavfsizligi talablarini o'rganing. O'qituvchining savollariga javob bering va ishning elektr sxemasini yig'ishga ruxsat oling.
2. Transformatoring tuzilishini o'rganing. Transformatoring pasporti bilan tanishib uning ikkala g'altagi uchun nominal kuchlanish va tokni aniqlang.
3. Yuqoridagilarga asosan transformatoring birlamchi va ikkilamchi g'altaklariga ulanadigan o'lchov asboblarini ajratib oling.
4. Rasmdagi sxemani yig'ing va uni o'qituvchiga tekshirtiring.
5. Transformatoring ikkilamchi g'altagini iste'molchiga ulamasdan birlamchi g'altagini tok manbaiga ulab ya'ni transformator salt ishlagan vaqtida o'lchov asboblarining ko'rsatishlarini yozib oling.
6. Reostat jilgichini eng katta qarshilikka surib quying.
7. Transformatoring ikkilamchi g'altagini iste'molchiga ulab tokni bir tekis 10 ampergacha oshirib boring va har safar ampermetr va voldmetrning ko'rsatganlarini yozib oling.
8. Tajribada olingen natijalarga asosan η ni hisoblab va η ning I_2 ga bog'lanish grafigini millimetrlı qog'ozga chizing.
9. Tajribada topilgan natijalarni quyidagi jadvalga kriting:

<i>Ikkilamchi g'altak</i>			<i>Birlamchi g'altak</i>			<i>FIK</i>
<i>Kuzatish</i>	<i>Hisoblash</i>		<i>Kuzatish</i>	<i>Hisoblash</i>		<i>Hisoblash</i>
$I_2(A)$	$U_2(B)$	$N_2=I_2 \cdot U_2$	$I_1(A)$	$U_1(B)$	N_1	η



3-rasm

Sinov savollari

1. Transformatorning tuzilishini aytib bering.
2. Transformator qanday maqsadlarda ishlataladi?
3. Transformatorlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Transformatsiya koefitsiyenti nima? Uning formulasini yozing.
5. Ishni bajarish tartibini tushuntirib, ishga xulosa qiling.

17-LABORATORIYA ISHI***KONDENSATORNING ELEKTR SIG'IMINI ANIQLASH***

Ishning maqsadi: Kondensatorning elektr sig'imini aniqlashni va kondensatorlarni turlicha ulash usullarini o'rGANISH.

Kerakli asbob va qurilmalar: 2 dona kondensator, milliampermetr, o'zgarmas tok manbai, ulash simlari, uzgich.

Nazariy qism

Agar o'zgarmas sig'imli kondensatorni manbagaga ulab zaryadlab, so'ngra milliampermetr orqali razryadlasak milliampermetr shkalasi har safar bir xil bo'limga chetlanadi.

Agar boshqa sig'imli kondensator ulansa milliampermetr strelkasi ko'rsatishi o'zgaradi.

Tajribalarda strelka „n“ kondensator sig'imiga to'g'ri proporsional ekanligini ko'rish mumkin:


$$C = k \cdot n$$

bu yerda C kondensator sig'imi, n strelka ko'rsatishi, k proporsionallik koeffitsiyenti. $[K] = \frac{mkF}{bo'l}$

Ishning bajarilishi

1-topshiriq. Proporsionallik koeffitsiyentini aniqlash


Elektr zanjiriga sig'imi ma'lum bo'lgan kondensator ulanadi va milliampermetr strelkasi chetlanishi „ n “ aniqlanadi. Proporsionallik koeffitsiyenti k quyidagi ifodadan aniqlanadi:



1-rasm

2-topshiriq. Noma'lum kondensator elektr sig'imini aniqlash


N	$N_1 (bo'l)$	$Cx = k \cdot n \text{ (mkF)}$
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
O'rta		



2-rasm

3-topshiriq. Kondensatorlarni parallel ulash


<i>N</i>	<i>N₁</i> (bo'l)	<i>C_x=k·n</i> (mKF)
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
O'rt		



3-rasm

4-topshiriq. Kondensatorlarni ketma-ket ulash

<i>N</i>	<i>N₁</i> (bo'l)	<i>C_x=k·n</i> (mKF)
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
O'rt		



4-rasm

Sinov savollari

1. Elektr sig‘im ta’rifini ayting va formulasini yozing.
2. Sig‘imning asosiy va hosilaviy birliklari haqida ma’lumot bering, ular orasidagi munosabat qanday?
3. Kondensator deb nimaga aytildi?
4. Kondensatorning qanday turlarini bilasiz va ularning sig‘imini topish formulalarini yozing.
5. Shar 1 F sig‘imga ega bo‘lishi uchun uning radiusi qancha bo‘lishi kerak?
6. Kondensator energiyasi uchun formulalarni yozing.
7. Kondensatorlarni parallel va ketma-ket ulaganda umumiyligini sig‘im qanday bo‘ladi?
8. O‘zgaruvchan sig‘imli kondensator va unung ishlatalishi haqida gapirib bering.
9. Ishni bajarish tartibini tushuntirib bering.
10. Ishga xulosa qiling.

18-LABORATORIYA ISHI

SOLENOID O‘QIDAGI MAGNIT MAYDONNI O‘RGANISH

Ishning maqsadi: Tokli solenoid hosil qilgan magnit maydonining induksiyasini uning o‘lchamligi va shakliga bog‘liqligini o‘rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: solenoid o‘qi bo‘ylab siljiy oladigan shkalalari sterjenga o‘rnatilgan „sinash g‘altagi“, galvanometr, o‘zgarmas tok manbai, reostat, kalit-kommutator, ularash simllari.

Nazariy qism

Solenoid bir xil radiusli umumiyligini o‘qqa o‘ralgan spiraldan iborat. Solenoidning induktivligi uning geometrik shakliga, o‘lchamligiga va muhitning magnit xususiyatiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$L = \mu \mu_0 n^2 I S \quad (1)$$

Bunda μ -muhitning nisbiy magnit sindiruvchanligi, μ_0 -magnit doimisi bo‘lib uning „SI“ sistemasidagi son qiymati quyidagiga teng.

$$\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} G n/m \quad (2)$$

$n = \frac{N}{l}$ solenoidning uzunlik birligiga mos kelgan o‘ramlar soni. S – solenoidning ko‘ndalang kesim yuzi.

Magnit maydonning induksiyasi B magnit maydon kuchlanganligi H bilan quyidagicha bog'langan:

$$B = \mu\mu_0 H \quad (3)$$

Uzunligi chegaralangan solenoid o'qidagi biror nuqtaning magnit maydonning induksiyasi quyidagi formulada keltirilgan.

$$B = \mu\mu_0 \frac{In}{2} (\cos\varphi_2 - \cos\varphi_1) \quad (4)$$

Bunda φ_1 va φ_2 solenoid o'qi bilan tekshirilayotgan nuqtadan solenoid uchlariga o'tkazilgan radius vektorlar orasidagi burchaklar (4) formula asosida I va n larni bilgan holda solenoid o'qidagi ixtiyoriy nuqtada magnit maydonning induksiyasi B ni hisoblash uning koordianata X o'qiga bog'lanish grafigi $B=f(x)$ ni chizish mumkin. Bu formuladan cheksiz uzun solenoid o'qining o'rtasidagi magnit maydonning induksiyasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$B = \mu\mu_0 In \quad (4a)$$


bir uchidagisi esa

$$B = \mu\mu_0 \frac{In}{2} \quad (4b)$$

ga teng bo'ladi.

Bu ishda ballistik galvanometrga ulangan sinash g'altagi yordamida solenoidning X o'qida yotgan nuqtalardagi magnit maydon induksiyasi B ni eksperimental ravishda aniqlab $B=f(x)$ grafigi chiziladi. Bunday usulga flyuksometrning induksion usuli deyiladi.

Qurilmaning sxemasi 1-rasmda keltilgan.



1-rasm

O'ramlarning kesim yuzi S_k bo'lgan sinash g'altagi solenoid o'qiga joylashtirilib solenoid tokka ulanganda yoki undan uzilganda sinash g'altagi bilan tutashgan magnit oqimining o'zgarishi

$$\Delta\Phi = BS_k \quad (5)$$

ga teng bo'lib, ballistik galvanometr zanjirida induksion tok hosil bo'ladi va galvanometrdan quyidagi elektr miqdori o'tadi.

$$q_k = \frac{\Delta\Phi}{R} \quad (6)$$

bu formulaga $\Delta\Phi$ ning (5) ifodasi qo'yilsa

$$q_k = \frac{BS_k}{R} \quad (6a)$$

Ikkinchini tomondan galvonometrdan o'tgan zaryad miqdori uning ko'rsatishi η ga proporsionaldir.

$$q_k = b\eta \quad (7)$$

bunda b proporsionallik koeffitsiyenti bo'lib, unga galvanometrning ballistik doimiysi deyiladi.

(6a) va (7) ifodalarning o'zaro tenglashtirib, undan solenoid o'qidagi magnit maydon induksiyasi B ning quyidagi hisoblash formulasi kelib chiqadi.

$$B = \frac{Rb}{S_k} \eta \quad (8)$$

Agar solenoiddagi tokning yo'nalishi pereklyuchatel yordamida qarama-qarshi tomonga o'zgartirilsa, sinash g'altagi bilan tutashgan magnit induksiya oqimining o'zgarishi ulash yoki uzish usildagidan ikki marta katta bo'ladi. ya'ni

$$\Delta\Phi = 2\Phi = 2BS_k \quad (9)$$

U vatqda (8) hisoblash formula quyidagiga teng bo'ladi.

$$B = \frac{Rb}{2S_k} \eta \quad (10)$$

Agar R , S_k va b berilgan qurilma uchun o'zgarmas bo'lgan kattaliklar berilmagan bo'lsa ularni o'zgarmas proporsionallik koeffitsienti orqali ifodalash mumkin, ya'ni

$$B = K\eta \quad (11)$$

Bunda

$$K = \frac{Rb}{2S_k} \quad (12)$$

ga teng bo'lib, u beirlgan qurilma uchun o'zgarmas kattalikdir. Unga qurilma doimiysi deyiladi. Shunday qilib, qurilma doimiysi K ni bilgan holda (11) formuladan magnit maydonning induksiyasini osongina hisoblash mumkin.

$$k = \frac{B_m}{\eta_m} \quad (13)$$

Solenoid markazdagi magnit maydonning induksiyasi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$B_m = \mu\mu_0 \frac{In}{2} (\cos\varphi_2 - \cos\varphi_1) = \mu\mu_0 In \cos\varphi_2 \quad (14)$$

bunda $n = \frac{N}{l}, \cos\varphi_2 = \frac{l}{\sqrt{l^2 - D^2}}$ va $\mu=1$ bo'lganligi uchun (14) formula quyidagi ko'rinishga keladi.

$$B = \mu_0 \frac{IN}{\sqrt{l^2 - D^2}} \quad (15)$$

Bunda N-solenoiddagi simning o'ramlar soni, l-solenoidning uzunligi va D-esa uning diametri.

Ishni bajarish tartibi

1. Qurilmada berilgan solenoidni xarakterlovchi D , l , N kattaliklarning qiymatlari jadvalga yoziladi.
2. Sinash g'altagiga ulangan G galvanometrning ko'rsatishi nol holatga keltriladi.
3. Sinash g'altagini solenoidning markaziga joylashtiriladi va P pereklyuchatel yordamida solenoid zanjiri tok manbaiga ulanadi.
4. R_c reostat yordamida solenoid zanjiridan tokning kuchi 0,3 A dan 0,5 A gacha o'zgartirilib tokning uch xil qiymatida bajariladi.
5. Solenoid zanjiridagi tok qiymatini A ampermetrning ko'rsatishidan yozib olinib, l-jadvalga kiritiladi va zanjirdan tok uziladi.
6. Sinash g'altagi solenoidning markazida turgan holda P pereklyuchatel yordamida tok manbaiga ulanadi. Tokning yo'nalishi shu onda qarama-qarshi tomonga o'zgartirilganda sinash g'altagida induksion tok hosil bo'lib, galvonometrdan elektr zaryadi o'tadi. Galvonometr ko'rsatishi η ning qiymati 1-jadvalga yoziladi.
7. Har bir tokning solenoid markazida hosil qilingan magnit maydonning induksiyasi $B_m(15)$ formula asosida hisoblanib birinchi jadvalga kiritiladi.
8. (13) formula bo'yicha qurilmaning K doimiy va uning „K“ o'rtacha qiymati hisoblanib jadvalga kiritiladi.
9. Solenoid zanjiridagi tokning qiymatining doimiysi saqlab sinash g'altagini solenoidning bir uchidan va har 5 sm ga surib, b punktdagidek tajribani bajariladi. Va galvonometrning ko'rsatishi η ning qiymatini bilgan holda $B = <K>\eta$ formula asosida solenoid o'qidagi har bir nuqta magnit maydonning induksiyasi hisoblanadi. Olingan natijalar 2-jadvalga yoziladi.
10. Tajriba uch xil tok uchun takrorlanadi. Topilgan solenoid o'qdagi magnit maydonni induksiyasi B ning masofa l ga bog'lanishi, ya'ni $B=f(l)$ grafigi chiziladi.

1-jadval

<i>N</i>	<i>D</i>	<i>l</i>	<i>N</i>	<i>H</i>	<i>I</i>	<i>B</i>	<i>K</i>	$\langle K \rangle$
	<i>M</i>	<i>M</i>		<i>Bo'lim</i>	<i>A</i>	<i>T_a</i>	<i>T bo'lim</i>	<i>T_a bo'lim</i>
1.								
2.								
3.								
4.								
5.								

2-jadval

<i>N</i>	$10^2 m$	<i>I₁....</i>		<i>I₂...</i>		<i>I₃...</i>		
		η	<i>B</i>	<i>H</i>	<i>B</i>	<i>H</i>	<i>B</i>	
		<i>Bo'lim</i>	<i>T_a</i>	<i>Bo'lim</i>	<i>T_a</i>	<i>Bo'lim</i>	<i>T_a</i>	
1.								
2.								
3.								
4.								
5.								

Sinov savollari

1. Magnit maydon induksiyasi deb nimaga aytildi?
2. Magnit maydon induksiyasi asosiy va hosilaviy birliklarini aytинг va ular orasidagi bog'lanishlarni yozing.
3. Maydonning superpozitsiya prinsipini ta'riflab, unung matematik ifodasini yozing.
4. Magnit induksiya oqimi deb nimaga aytildi va qanday birliklarda o'lchaniladi?
5. Magnit induksiya oqimi uchun formulalarni yozing.
6. Induktivlik deb nimaga aytildi va u nimalarga bog'liq bo'ladi?
7. G'altak, solenoid va toroid orasidagi bog'lanish va farqlarni aytинг.
8. Elektromagnit induksiya qonunini tushuntiring.
9. Galvanometr qanday fizik kattaliklarni o'lchaydi va manbaga qanday ulanadi?
10. Galvanometr doimiysi nima va u qanday aniqlanadi?
11. O'zinduksiya va o'zaro induksiya hodisasini tushuntirishg.

IV BO'LIM OPTIKA

1-LABORATORIYA ISHI

SHISHA PLASTINKANING SINDIRISH KO'RSATKICHINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Shishaning sindirish ko'rsatkichini aniqlash va bu kattalik berilgan shisha uchun o'zgarmas kattalik ekanligini tekshirish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Shisha plastinka, ingichka yorug'lik dastasi (lazer), millimetrali qog'oz.

Nazariy qism

Shisha optik, texnik va oddiy turlarga bo'linadi. Shuning uchun ularning yorug'lik nurini o'tkazish xossasi turlicha. Eng toza va yorug'likni yaxshi o'tkazadigan shishadan optik asboblar yasaladi. Shisha plastinka ichida nur o'z yo'nalishini o'zgartiradi, ya'ni „sinadi“. Yorug'lik nurining tushish burchagi sinusining sinish burchagi sinusiga nisbati bilan ifodalanadigan kattalik muhitning sindirish ko'rsatkichi deyiladi:


$$n = \frac{\sin \alpha}{\sin \gamma} \quad (1)$$

bunda α va γ mos holda tushish va sinish burchaklari.

Shishaning sindirish ko'rsatkichini 1-rasmda ko'rsatilgan qurilma yordamida aniqlash mumkin. Bunda millimetrali qog'ozga biror radiusli aylana chiziladi. Aylana ustiga o'r ganiladigan shisha plastinka joylashtiriladi. Aylananing biror A nuqtasidan shisha plastinkaga yorug'lik dastasi tushiriladi.

Millimetrali qog'ozdan AE va DC masofalar aniqlanadi, chunki

$$n = \frac{\sin \alpha}{\sin \beta} = \frac{AE}{DC}.$$



Ishni bajarish tartibi

1. Tajribada qurilmasini rasmda ko'rsatilgandek qilib yig'ing.
2. Shishanening havoga nisbatan sindirish ko'rsatkichinini biror tushish burchagida aniqlang.

3. Maksimal nisbiy xatolik ε quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$E = \frac{\Delta AE}{AE} + \frac{\Delta DC}{DC}. \quad (2)$$

4. Shishanening sindirish ko'rsatkichinini tushish burchagining boshqa qiymatida aniqlang. Nisbiy xatoligini (2) hisoblang.

5. Maksimal absolyut xatolik quyidagi formuladan topiladi:

$$\Delta n = n \cdot E.$$

1. Tajriba natijalarini jadvalga yozing.

1-jadval

T/r	AE ₁ (mm)	DC (mm)	n	ΔAE (mm)	ΔDC (mm)	E %	Δ n
1							
2							
3							
O'rt							

2-LABORATORIYA ISHI

SUYUQLIKLARDA YORUG'LIKNING YUTILISH KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Suyuqliklarda yorug'lukning yutilish koeffitsiyentini tajribada aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Lyuksmetr, parallel nur dastasini beruvchi yorug'lik manbai, tubi shaffof silindrik idish, tekshiriladigan suyuqlik.

Nazariy qism

Yorug'lik biror muhitdan o'tganda, unda qisman yutilishi ma'lum. Bunda elektromagnit to'lqin energiyasi boshqa turdag'i energiyaga aylanadi. Yorug'lik to'lqin bilan modda orasidagi uzaro ta'sir yoruglik to'lqinini modda atomi va molekulalariga ta'siri bilan xarakterlanadi. Bunda atom yoki molekulalar tarkibidagi elektronlar majburiy tebrana boshlaydilar. Natijada yutilgan nuring bir qismi issiklik energiyasiga, bir qismi ikkilamchi nur sifatida hamma tomoniga tarqaladi. Bu protsesslardan birinchisi haqiqiy energiya yutilishidan, ikkinchisi esa energiyani sochilishidan iborat.

Faraz qilaylik ℓ -qalinlikdagi suyuqlik sirtiga normal yorug'lik oqimi tushayotgan bo'lsin (1-rasm). $d\ell$ -qalinlikdagi yoruglik susayishi.

$$d\phi = m\phi_0 d\ell \quad (1)$$

bo'ladi. m -yutish koefitsiyenti bo'lib, suyuqlik tabiatiga va tushuvchi yoruglik nuri to'lqin uzunligiga bog'liq. Tenglikning ikkala tomonini φ ga bo'lib, 0 dan ℓ gacha oraliqda integrallasak, Buger-Lambert qonuni kelib chiqadi.

$$\ln \frac{\phi}{\phi_0} = -m\ell$$

Yoki


$$\frac{\phi}{\phi_0} = e^{-m\ell} \quad (2)$$

o'nli logarifmlarda

$$\lg \frac{\phi}{\phi_0} = -\kappa\ell$$

Yoki

$$\frac{\phi}{\phi_0} = 10^{-\kappa\ell} \quad (3)$$



(2) va (3) dan $10^{-kt} = \ell^{-mt}$

K-ham yutishni xarakterlab, m bilan quyidagicha bog'langan.
 $K=mlge$

$$K=0,4343 \text{ m}$$

Bu ishdan maqsad berilgan suyuqlik uchun oq yorug'likni yutilish koeffitsiyentini aniqlashdir. Umuman aytganda, yorug'likni suyuklik tomonidan yutilishidan tashqari suyuqlik havo chegarasidan qaytish: suyuqlik shisha chegarasidan qaytish: idish tubidan o'tishda yutilish protsesslari ham mavjud. Bularni hisobga olish uchun (3) formulani quyidagicha yozish mumkin :

$$\begin{aligned} \ell g &= \frac{\phi}{\phi_o} = -\kappa \ell + \gamma \\ \frac{\phi}{\phi_o} &= 10^{-Kt+\gamma} \end{aligned} \quad (4)$$

(4) yana quyidagicha yezish mumkin:

$$\begin{aligned} \lg \frac{\phi}{\phi_o} &= \kappa \ell + \gamma \\ \frac{\phi_o}{\phi} &= 10^{K\ell+\gamma} \end{aligned} \quad (5)$$

Agar $x = \ell$, $y = \lg \frac{\phi_o}{\phi}$ deb belgilasak, $y = \kappa x + \gamma$ bo'ladi. Demak, uning grafigidagi chiziqning qiyalik burchagi tangensi yutilish koeffitsiyentini beradi. Shunday grafikni chizish uchun x va y ni bir necha qiyamatiga ega bo'lish kerak.

Ishning bajarilish tartibi

1. Sxemani 220 V kuchlanishli o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulang.
2. Yorug'lik manbaini idish tubidan parallel nurlar o'tadigan qilib sozlang. Bunda yorug'lik idish devoriga tegmasdan, fotoelementga tushishi kerak.
3. Lyuksmetr yordamida idish tubida suyuqlik bo'lmagandagi yoruglik oqimini aniqlang. (Masalan, lyuksmetri ko'rsatishini yoritgich elektr manba'i yoki yoritgich diafragmasi orqali 100 lk qilib oling).
4. Idishga qalinligi 1 sm dan suyuqlik quyib lyuksmetr ko'rsatishini yozib olamiz.
5. Shunday yo'l bilan har santimetrdan o'lchab, (7 sm gacha) $E_2, E_3, E_4, E_5, E_6, E_7$ qiyatlarni olamiz. Ma'lumki, $E = \frac{\phi}{S}$ bundan $\phi = ES$,

$S=\text{const}$ bo'lgani uchun $\frac{\phi_o}{\phi_i} = \frac{E_o S}{E_i S} = \frac{E_o}{E_i}$ bo'ladi.

6. Ma'lum bo'lganlardan quyidagi jadvalni to'ldiramiz.
7. Tablitsadan foydalanib, $y = \kappa x + \gamma$ grafigini chizing. Hosil bo'lgan chiziqni qiyalik burchagi tangensi son jihatdan suyuqliknii yutish koefitsiyentiga teng bo'ladi.

1-rasm

<i>N</i>	<i>Suyuqlik qalinligi (sm)</i>	<i>Lyuksmetr ko'rsatishi f_i</i>	$\frac{\phi_i}{\phi_0} = \frac{E_0}{E_i}$	<i>Yutish koefitsiyenti k=0,4343 m</i>
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
O'rt				

Sinov savollari

1. Ishning maqsadi va bajarilish tartibini aytib bering.
2. Moddalarning yoruglikni yutish mexanizmini tushuntiring.
3. Buger-Lambert qonunini tushuntiring.
4. K bilan $k = \lg \alpha / m$ orasidagi bog'lanishni keltirib chiqaring.

3-LABORATORIYA ISHI***YORITILGANLIK QONUNLARINI O'RGANISH***

Ishning maqsadi: Fizikaning yoruglik bo'limiga tegishli asosiy tushunchalarini o'lcov birliklarini o'rganish va yoritilganlik qonunlarini tajribada tekshirish.

Kerakli asbob va qurilmalar: PZF asbobi, mikroampermetr, reostat, yoritgich va tok manbai (6,3 V).

Nazariy qism

Yorug'lik manbalarini xarakterlovchi kattaliklar va ular orasidagi o'zaro bog'liqlik qonunlarini o'rganadigan optikaning qismi fotometriya deb yuritiladi.

Yorug'lik to'lqin uzunligi chekli ($\lambda = 4 \cdot 10^{-7} \text{m} + 7,6 \cdot 10^{-7} \text{m}$) sohasida o'zgaradigan elektromagnit to'lqinlardir. Elektromagnit to'lqinlar energiyasi to'lqin uzunligiga bog'liq bo'lib, bu bog'lanish taqsimot

funksiyasi orqali ifodalanadi. Spektrni birlik kengligiga mos keladigan energiyaga son jihatdan teng kattalik taqsimot funksiyasi deb yuritiladi.


$$\varphi(\lambda) = \frac{d\phi}{d\lambda} \quad (1)$$

Taqsimot funksiyasiga asosan, yorug'lik energiyasi oqimini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\Phi_s = \int_{\lambda_1}^{\lambda_2} \varphi(\lambda) d\lambda \quad (2)$$

Yorug'likni qayd qiluvchi asboblar asosan ko'z, fotoelement, barometr va shunga uxshash asboblar bo'lib, ular bir-biridan nurga nisbatan sezgirligi bilan farq qiladi.

Agar yashil rangli ($\lambda=5,5 \cdot 10^{-7}$ m) nurga nisbatan sezgirligini bir birlik deb qabul qilsak, boshqa nurlarning nisbiy sezgirligini to'lqin uzunligiga bog'likligini quyidagi grafik bilan tasvirlash mumkin bo'лади ва у ко'rish funksiyasi deb yuritiladi (1-a-rasm).



1-rasm

Yorug'lik intensivligini, ko'rish sezgirligini hisobga olgan holda xarakterlash uchun yorug'lik oqimi tushunchasi kiritilgan va u $d\lambda$ ga mos energiya oqimini ko'rish funksiyasiga ko'paytmasi bilan aniqlanadi.

$$d\phi = V(\lambda) d\lambda \quad (3)$$

u holda yorug'likning to'la oqimi:

$$\phi = \int_0^\infty V(\lambda) \varphi(\lambda) d\lambda \quad (4)$$

Yorug'lik to'lqinlari uzunligini biror sohasiga to'g'ri keluvchi va ko'rish sezgisi bilan baholanadigan energiya oqimiga son jihatdan teng kattalik yorug'lik oqimi deb yuritiladi. (SI sistemasida VT bilan o'lchanadi).

Yorug'lik manbai, yoruglik kuchi deb ataladigan birlik, fazoviy burchak ichida tarqalayotgan yorug'lik oqimiga son jihatidan teng kattalik bilan xarakterlanadi va u Vt / steradian bilan o'lchanadi:

$$I = \frac{d\phi}{dw} \quad (5)$$

$d\omega$ -fazoviy burchak bo'lib, SI sistemada steradiantlarda o'lchanadi.

R-radiusli sferik sirt ichiga uchi Ω nuqtada bo'lgan konus sirti bilan chegaralangan fazoning qismiga fazoviy burchak deyiladi (1b-rasm).

Agar konusni sferadan ajratgan dS , sirti son jihatidan R^2 ga teng bo'lsa, unga tiralgan fazoviy burchak bir steradian deb qabul qilingan.

$$dw = \frac{dS}{R^2} = \frac{dS \cos\alpha}{R^2} \quad (6)$$

(4) ifodadan foydalanib nuqtaviy yorug'lik manbaining to'la yorug'lik oqimini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Phi_{\omega} = \int_0^{4\pi} I dw = 4\pi I \quad (7)$$

Yorug'lik texnikasida energetik birlik bilan birga ko'rish sezgisini hisobga olgan birlik kandela (Kd) ham ishlataladi. Bu birlik xalqaro kelishuvga binoan yorug'lik kuchiga nisbatan qabul qilingan bo'lib, platinaning qotish temperaturasida (2046,6 K) har bir sm^2 yuzadan perpendikulyar yo'nalishda chiqadigan nurlanish quvvatining 1/60 qismiga teng. yorug'lik oqimining bu o'lchovdagi birligi, kuchi 1 Kd bo'lgan nuktaviy yorug'lik manbaidan 1 steradian burchak ichida tarqalayotgan energiya oqimini izohlaydi va lyumen. (Lm) deb yuritiladi.

$$I Lm = I Kd \cdot sterad$$

Fotometrik kattaliklarni energetik birligi ko'rish sezgisini hisobga olgan birligiga biror miqdorda ekvivalent bo'lib, u yorug'likni mexanik ekvivalenti deyiladi.

$$A = 0,0016 Vt/Lm$$

Biror o'lchamga ega yorug'lik manbalarining tanlangan yo'nalishdagi intensivligi, ravshanlik bilan xarakterlanadi. Ravshanlik berilgan yo'nalishdan ko'rish sirti birligiga mos keladigan yorug'lik kuchini ifodalaydi.

$$B_p = \frac{I}{S \cdot \cos\alpha} (Vt/m^2 \text{ steradian}) \quad (8)$$

Ko'rish sezgisini hisobga olgan holdagi birligi esa

$$I nit = IKd/m^2$$

bo'ladi.

Sirtning yoritilishi darajasi birlik yuzaga tushayotgan yorug'lik oqimi bilan aniqlanadi va u yoritilganlik deb ataladi:

$$E = \frac{d\phi}{ds} \quad (Vt/m^2) \quad (9)$$

(5) va (6) ga asosan,

$$E = \frac{Id\psi}{ds} = \frac{I}{R^2} \cos\alpha \quad (10)$$

Sirtning yoritilganligi, manbani yorug'lik kuchiga, nurni tushish burchagi kosinusiga to'g'ri proporsional bo'lib, manbadan sirtgacha bo'lgan masofa (R) kvadratiga esa teskari proporsionaldir.

Ushbu ko'rيلayotgan ishda yoritilganlikni yorug'lik manbaidan fotoelement sirtigacha bo'lgan masofaga, yorug'likni fotoelement sirtiga tushish burchagiga va fototokni fotoelement sirtini yoritilgan qismiga bog'likligi tekshiriladi.

1-topshiriq. Yoritilganlikning manbagacha bo'lgan masofagu bog'likligini tekshirish

1. Kerakli asboblardan quyidagi qurilma yig'iladi. (2-rasm)
2. Asbob burchak ko'rsatgichi shkalaning nolinch bo'limiga o'rnatiladi.
3. Yorug'lik manbai fotoelementdan 10 sm uzoqlikka (10 – bo'lim) o'rnatiladi.
4. Reostat yordamida lampaga shunday kuchlanish beriladiki natijada galvonometr strelkasi eng katta og'ishga erishsin.
5. Kuchlanishni o'zgartirmasdan lampani fotoelementga nisbatan har xil uzoqlikka o'rnatib, (10 dan katta bo'limga) bir necha bor galvanometr ko'rsatishlarini va masofani o'lchab quyidagi jadvalga yoziladi.

1-jadval

N	$R (m)$	$\frac{1}{R^2} \left(\frac{1}{M^2} \right)$	$I_\phi (A)$
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
O't			

6. Olingan natijalardan foydalanib $i_\phi = f\left(\frac{1}{R^2}\right)$ funksiya grafigi chiziladi va qiya burchak tangensi orqali yorug'lik kuchi hisoblanadi:


$$I = \operatorname{tg} \alpha = \frac{\Delta y}{\Delta x}$$

2-topshiriq. Yoritilganlikning nurni tushish burchagiga bog'liqligini o'rGANISH

1. a) mashqdagi 2, 3, 4 bandlar sharti takrorlanadi.
2. Burchak ko'rsatkichini graduslarda, tok kuchini mkA da aniqlab quyidagi jadvalga yoziladi:
3. Lampadagi U kuchlanishni o'zgartirmasdan fotoelementni nurga nisbatan har xil burchaklarga burab, ularga mos toklar aniqlanib jadvalga kiritiladi.
4. Olingan natijalardan foydalanib, tokning tushish burchagiga bog'lanish grafigi ya'ni $i_\phi = f(\phi)$ chiziladi.

2-jadval

N	ϕ°	$I_f (\text{mkA})$
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
O'rт		



G-galvanometr, F-fotoelement, D-diafragma, L-chizg'ich.

3-topshiriq Fototokni fotoelement yuzasini yoritilgan qismiga bog'likligini o'rghanish

1. Oldingi ishdagi 2, 3, 4 bandlar sharti takrorlanadi.
2. Fotoelement oldidagi maxsus joyga yuzasi 6 sm^2 va 3 sm^2 bo'lgan diafragmalarni o'rnatib, fototok qiymatlari yozib olinadi.
3. Olingan natijalardan chiqadigan xulosa yozma yoki grafik usulda aks ettiriladi.

Sinov savollari

1. Asosiy fotometrik kattaliklar va ularning birliklarini yozib tushuntiring.
2. Ko'rish funksiyasi va uning grafigi ifodasini yozing.
3. Yorug'likning mexanik ekvivalenti nima?
4. Ushbu ishda yorug'lik kuchi qanday aniqlanadi?
5. Nima sababdan biday quyoshli kunda, qishda sovuq, yozda esa issiq bo'ladi?

4-LABORATORIYA ISHI

DIFRAKSION PANJARA YORDAMIDA YORUG'LIKNING TO'LQIN UZUNLIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: yorug'likni to'lqin xossalarni o'rghanish.

Kerakli asboblar: optik taglik, yorug'lik manbai, difraksion panjara, rangli filtlar, teshikli ekran.

Nazariy qism

Yorug'lik to'lqinining juda kichik tirqishdan o'tayotganida to'g'ri chiziqli tarqalishidan chetga chinqishi yoki bir jinsli optik muhitdagi kichik tiniqmas ekran tusiqliidan aylanib o'tish xodisasiiga yoruglik difraksiyasi deyiladi. yoruglik difraksiyasi Frangoufer va Frenel difraksiyalari bo'linadi. Frangoufer difraksiyalari optik shishalar yordamida parallel nurlar xosil qilinib, bir yoki bir necha tirqishlardan o'tganida, frenel difraksiyasi esa parallel bo'limgan nurlar, juda kichik doiraviy teshik yoki dumaloq disk va boshqa to'siqlardan chetlab o'tganida kuzatiladi.


Difraksion hodisalarni tekshirish, ya'ni yorug'lik tirqish yoki to'siqli dan o'tganidan keyin yorug'lik intensivligining taqsimlanishini

aniqlash uchun Gyugens-Frenel prinsipidan foydalanamiz. Bu prinsip ko'ra, yorug'lik to'lqini frontining har bir nuqtasi ikkilamchi to'linlarning mustaqil maydonidir, ulardan chiqqan nurlar bir nuqtaga kelib tushsa interferensiyanadi.

Bu hodisani o'lchami yorug'lik to'lqin uzunligiga yaqin bo'lgan teshikdan o'tganda juda oson kuzatish mumkin. Ko'pincha Fraunhofer difraksiyasi laboratoriya sharoitida o'rganiladi va difraksion panjara yordamida yorug'lik tulkin uzunligi aniqlanadi.

Difraksion panjara bir-biriga yaqin joylashtirilgan juda ko'p parallel tirqishlar sistemasiidan iboratdir. Oddiy difraksion panjara shisha plastinkasidan iborat bo'lib, uning yuziga olmos bilan bir qator parallel chiziqlar qizilgan bo'ladi. Hozirgi zamon difraksion panjarada millimetriga 1000 tacha chizilgan bo'ladi. Chizilgan joylar yo'rug'likni deyarli o'tkazmaydi chizilgandan keyin sirt notekis bo'lishi sababli, yo'rug'likni qaytaradi, natijada yorug'likni o'tkazmaydi. Panjaraga tushgan yorug'lik faqat chiziqlar orasidan o'tadi. Tiralgan joylar to'siq ular orasidagi joylar tirqish vazifasini bajaradi.

Faraz etaylik, difraksion panjaraga 1-rasmda ko'rsatilgandek, monoxromatik paralel nurlar tushsin, to'lqin uzunligi bir xil bo'lgan nurga monoxromatik nur deyiladi (Masalan, qizil, sariq) Gyugens prinsipiiga asosan, to'lqin frontining har bir nuqtasi ikkilamchi tebranishlar markazi deb qaralgani uchun A, A₁ A₂ va V V₁ V₂ nuqtalardan hamma yo'naliishda yorug'lik tarqaladi.



1-rasm

Agar bu nurlarning yo'liga yig'uvchi linza qo'yilsa, uning fokal tekisligidagi D ekranda to'g'ri ko'rinishdagi almashinib keluvchi yorug' va qo'ra yo'llar manzarasini ko'ramiz. Bu kuzatilgan hodisani tushuntirish uchun tarqalayotgan nurlardan ikkitasini ajratib olamiz.

Bulardan biri boshlang'ich yo'nalishda, ikkinchisi esa boshlang'ich yo'nalish bilan (φ) burchak tashkil qilingan. Rasmida ko'rinishicha φ , burchak 0 dan $\frac{\pi}{2}$ gacha o'zgarishi mumkin. Boshlang'ich yo'nalishdagi nurlar linza L dan o'tib ekranning F_0 nuqtasida kesishadi. Tebranish fazalari bir xil va bir xil optik yulni o'tganligi uchun interferensiya natijasida bu nurlar bir-birini kuchaytiradi va yorug' yo'llarning nolinchi maksimummini beradi.

Boshlang'ich nurlarga nisbatan φ burchak qiyalikka yo'nalgan nurlar F_1 nuqtada to'planadi, ammo ular har xil optik yo'lni bosib o'tadi.

Agar fazalar bir xil bo'lsa, interferensiyalanib bir-birini kuchaytiradi, fazalari qarama-qarshi bo'lsa, ular bir-birini susaytiradi.

Shunday qilib, difraksion panjarani monoxromatik nur bilan yoritilganda ekranda nolinchi maksimumning chap va o'ng tomonlarida almashinib keluvchi ko'ra va yorug' yo'llarni kuzatamiz. Agar difraksion panjaraga oq yorug'lik nuri tushirilsa, hosil bo'lgan har bir difraksion yo'llar rangli spektrallardan iborat bo'ladi.

Difraksion panjaradan foydalanan yorug'likning to'lqin uzunligi va davriy formulasini chiqarish uchun ikki tirkishdan hosil bo'lgan difraksion hodisasini qarab chiqamiz.

Chetga chiquvchi tebranish fazalari bir xil bo'lgan nurlar ekranga yetganda A va A_1 nurlarga tegishli yo'l farqi AS yorug'likning to'lqin uzunligi λ karrali sonlarga teng, ya'ni $AC = k\lambda$ bo'lganda yorug'likning maksimummini beradi. Uchburchak ACA_1 dan $AC = A_1 A \cdot \sin \varphi$ ekanligini topamiz.

Agar masofa $A_1 A$ ni b bilan va AC ni uning qiymati bilan almashtirsak, quyidagini olamiz:

$$k\lambda = b \sin \varphi$$

Bundan

$$\lambda = \frac{b \sin \varphi}{k} \quad (1)$$

Bunda λ -yorug'lik to'lqin uzunligi, k -difraksion maksimumni tartib nomeri, b -panjara doimiysi. Agar $k = 0$ bo'lsa ekranning F_0 -nuqtasida nolinchi maksimum hosil bo'ladi, $k = 1, 2, 3, \dots$ bo'lganda esa maksimumning o'ng va chap tomonida F_1, F_2, F_3, \dots nuqtalarda 1, 2, 3, ...

maksimumlar kuzatiladi. Yuqoridagi mulohazalar difrakcion panjarada tirkishlar soni har qancha bo'lsa ham to'g'ridir. Umuman AC oraliq nurlarning yo'l farqi deyiladi. Agar nurlarning yul farqi bitta to'lqin uzunligiga teng bo'lsa $AC = k\lambda$ difrakcionning maksimum sharti, agar AC yarim to'lqin uzunligiga teng bo'lsa $AC = \frac{\lambda(2k+1)}{2}$ difrakcionning minimum sharti deyiladi.

Ikki tirkishdan tarqalayotgan tebranishlar amplitudasi qo'shilishdan hosil bo'lgan to'lqin maksimumi bir tirkishdan bo'ladigan tebranish amplitudasiga qaraganda ikki marta ko'proq, uch tirkishdan esa uch marta ko'proqdir.

Maksimumning intensivligi ham 4,9 marta ortadi. Bundan tashqari tirkishlar soni ko'paya borishi bilan difrakcion manzaraning aniq ko'rinishi darajasi ham ortadi.

Difrakcion panjaraning davri (doimiysi) deb AA_1 yoki BB_1 masofalar, ya'ni tirkish kengligi bilan tirkishlar orasidagi masofalar yig'indisiga aytildi.


Standart panjaraning davri $b = \frac{1}{25}$ ni, $b = \frac{1}{50}$ ni, $b = \frac{1}{100}$ ni va hokazoga tengdir.

Kasrning suratidagi va kuzatilayotgan maksimumini tartib nomeri k ma'lum bo'lsa, shu maksimumni xosil kiluvchi burchak ϕ ni ulchab (1) formuladan monoxromatik yorug'lik to'lqin uzunligini topish mumkin.

Asboblar va ularni o'rGANISH

Optik taglikka tugri burchakli ikki yoniga kengligi o'zgarib suriladigan teshikli A ekran o'rnatiladi. Ekrandagi teshikning yuqori qismida millimetrlarga bo'lingan shkala bor.

Teshikning orqasiga 2-3 sm masofada elektr lampochkadan iborat bo'lgan yorug'lik manbai M o'rnatilgan. Optik taglikning suriluvchi tirkovchiga difrakcion panjara V o'rnatiladi.



Yorug'lik bilan yoritilgan tirkishga qaralsa, ekranda tirkishning chap va o'ng tomonlarida difraksion spektrlar kuzatiladi.

Monoxromatik, ya'ni rangli filtirdan o'tgannurlar bilan yoritilgan tirkish gaqaralsa, ekranda bir qancha yorug' yo'llar, ya'nimaksimumlar kuzatiladi.

Ekran shkalasidagi tirkishning markazidan kuzatilayotgan maksimumgacha bo'lgan masofa a optik taglikdagi shkaladan esa, tirkishdan difraksion panjaragacha bo'lgan masofa. b o'chanadi.

Kuzatilayotgan maksimum ko'rinishayotgan burchak tangensi $\tg\varphi$ esa quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} \tg\varphi &= \frac{a}{b} \\ \lambda &= \frac{da}{kb} \end{aligned} \quad (2)$$

Lekin burchak juda kichik bo'lGANI uchun $\sin\varphi = \tg\varphi$ ga taxminan teng bo'ladi. Shuning uchun ham formula (1) dagi o'rniga $\frac{a}{b}$ qiymatini qo'yish mumkin.

Ishni bajarish tartibi

1. Difraksion panjara tirkishdan 50-60 sm uzoqlikda optik taglikka o'rnatiladi.

2. Yorug'lik manbai tok manbaiga ulanadi va filtrsiz difraksion panjara orqali difraksion manzara kuzatiladi.

3. Yorug'lik manbai oldiga filtirlardan biri kiritiladi, va shkalaning chap o'ngidan nolinchı maksimumga nisbatan 1, 2, 3 Maksimumlarning holati ℓ_1 va ℓ_2 o'chanadi. Yorug' yo'llarning kengligi tirkishning kengligini tartibga solish bilan o'zgartiriladi.

4. Difraksion maksimumning birinchi tartibigacha bo'lgan o'rtacha masofa $\frac{d_1 + d_2}{2}$ ni, tirkishdan difraksion panjaragacha bo'lgan masofa b ga bo'linsa, $\tg\varphi = \frac{a}{b}$ kelib chiqadi.

5. Yorug'likning to'lqin uzunligini (1) formuladan 3 ta maksimum uchun topilib, ularning o'rtacha qiymati olinadi. Kichik burchaklar uchun $\tg\varphi = \sin\varphi$ teng deb olish mumkin. Shuning uchun (1) formuladagi $\sin\varphi$ o'rniga $\tg\varphi$ ning qiymatini qo'ysak bo'ladi.

6. O'rtacha va absolyut, nisbiy xatolar hisoblanadi.

7. Yuqorida o'chanashlar boshqa filtrlar uchun qaytariladi.

O'lchash va hisoblash natijalari quyidagi jadvalga yoziladi

1-jadval

<i>N</i>	<i>Spektr turlari</i>	<i>Spektr tartibi</i>	<i>Panjara doimiysi</i>	<i>Chap</i>	<i>O'ng</i>	<i>Tirqish panjaraga cha b bo'lgan masofa</i>	λ	$\Delta\lambda$	ϵ
1.									
2.									
3.									
4.									
5.									
O'rt									

Sinov savollari

1. Difraksiya hodisasini tushuntiring va u kanday sharoitda kuzatiladi. Guyugens prinsipi nima?
2. Difraksion panjara deb nimaga aytildi?
3. Difraksiya formulasini chiqaring. Maksimum-minimum shartlarini yozing.
4. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
5. Frenel difraksiyasi Fraunhofer difraksiyasiidan nima bilan farq qiladi?

5-LABORATORIYA ISHI

QAND ERITMASI KONSENTRATSIYASINI SAXARIMETR YORDAMIDA ANIQLASH

Ishning maqsadi: yorug'likni qutblanishi va qutblangan yo'rug'lik xossalarni o'rGANISH.


Kerakli asbob va qurilmalar: Saxarimetr, SU, SM, konsentratsiyasi ma'lum va noma'lum bo'lgan qand eritmasi bo'lgan naychalar.

Nazariy qism

Tebranishlarning fazoda tarqalishiga to'lqin deyiladi. To'lqin ko'ndalang va bo'ylama to'lqinlarga bo'linadi. Tebranish to'lqin

tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar tekislikda sodir bo'layotgan bo'lqa, ko'ndalang, tebranish to'lqin yo'nalishida bo'lqa bo'ylama to'lqin deyiladi.

Guyugens ta'limotiga ko'ra, yorug'lik ham to'lqin ko'rinishida muhitga katta tezlik bilan tarqaladi. Yorug'lik elektromagnit to'lqin tabiatiga ega. Elektromagnit to'lqin o'zgaruvchi magnit H va elektr E maydonidan iborat. Magnit va elektr maydon kuchlanganligi to'lqin tarqalish tekisligiga o'zaro perpendikulyar tebranadi. Shuning uchun ham yorug'lik to'lqini ko'ndalang to'lqindan iborat (1-rasm). Bunda yorug'likning qutblanishi ustida o'tkazilgan tajriba ham tasdiqlaydi.




1-rasm

Jismalar qizdirilsa, o'zidan yorug'lik chiqaradi. Har bir atom magnit \vec{H} va elektr \vec{E} tebranish vektori aniq bir yo'nalishda tebranayotgan to'lqin tarqatadi. Lekin jism cheksiz atomlar yig'indisidan iborat. U holda yorug'lik nuri to'lqin tarqalish yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan barcha yo'nalishlarda tebrana oladigan \vec{H} va \vec{E} vektorlarning yig'indisidan iborat bo'ladi.

Agar yorug'lik nurida barcha yo'nalishlarda magnit \vec{H} va \vec{E} vektorining tebranishlari to'lqin tarqalishiga perpendikulyar tekislikda kuzatilayotgan bo'lqa, bunday yo'rug'lik tabiiy yorug'lik deyiladi (2a-rasm).

Yorug'lik biror muhitga kelib tushsa, yorug'likning \vec{E} vektori muhitga ko'proq tasir ko'rsatadi (masalan, biologik, fiziologik va h.k.).

Shuning uchun ham bundan buyon faqat elektr vektori to'g'risida gapiriladi, lekin magnit vektori \vec{H} ham doim mavjud deb tushunmoq kerak. Biror yo'l bilan elektr vektorini faqat bir tekislikda tebranadigan nur ajratib olsak, bunday nurni qutblangan nur deyiladi (2b-rasm).



2-rasm


Elektr maydon kuchlanganligi vektori \vec{E} tebranayotgan tekislik, tebranish tekisligi, \vec{H} vektori tebranayotgan tekislik qutblanish tekisligi deyiladi (shartli ravishda qabul qilingan).

Ichki muhit chegarasiga yorug'lik tushsa, qaytgan nur ham qutblangan bo'ladi. Agar yorug'lik tushishi burchagini tangensi shu muhit sindirish ko'rsatkichiga teng bo'lsa, bunday qutblanish to'la qutblanish deyiladi. Bu Bryuster qonuni ham deb yuritiladi:

$$\operatorname{tg}\alpha = n \quad (1)$$

bunda n -muhitning sindirish ko'rsatgichi, α -yorug'likning tushish burchagi.

Qutblangan yorug'lik amalda nurlarning anizotrop (har xil yo'nalishda xususiyati har xil bo'lgan moddalar) muxitda o'tayotganda ikkilanib sinishi tufayli va Nikol prizmasi yordamida hosil qilinadi. Shunday anizotrop moddalar mavjudki (masalan, turmalin), bunday moddalarga tushayotgan bitta yorug'lik moddadan ikkita bo'lib chiqadi. Har ikkala yorug'lik ham qutblangan bo'lib, o'zaro perpendikulyar tekisliklarda tebranadi. Bunday hodisa nurlarning ikkilanib sinishi deyiladi. Nurlarning bittasi yorug'lik qonunlariga to'la bo'yasinadi va oddiy nur deyilib „o“ harfi bilan belgilanadi. Ikkinchisi nur esa, yorug'lik qonunlariga bo'ysimmaydi va oddiy bo'lmagan (g'ayriy) nur deyilib, „e“ harfi bilan belgilanadi




3-rasm

Mexanik, elektr va magnit maydonlari ta'sirida, ya'ni sun'iy yo'l bilan ham izotrop moddalarni anizotrop moddalarga aylantirish mumkin.

Polyaroid deb, juda kichik bo'lakchalarga bo'lingan turmalin kristalli surtilgan sellyuloid pardasiga(plenka)aytiladi.

Nikol prizmasi va polyaroid to'la yassi qutblangan yorug'lik hosil qiladi. Shuning uchun ham bunday asboblar polyarizator (qutblovchi asbob) deb ataladi.

Qutblangan nurni tekshirish uchun analizator ko'llaniladi. Qutblangan nur analizator orqali o'tayotganida tebranish tekisligining yo'naliishi va tebranish amplitudasi o'zgarishi mumkin. Tebranish amplituda qiymati a_0 ni, „OR“ ifodalaydi deb qarab, polyarizator „RR₁“ tekislikda yetuvchi tebranishni o'tkazadi deb faraz qilaylik(4-rasm).



4-rasm

Polyarizator bilan φ burchak hosil qilgan holda analizatorni joylashtiramiz. Analizator AA_1 tekislikda tebranishlarni o'tkazadi. O'z-o'zidan ko'rindan, analizatordan amplitudasi a ga teng bo'lgan qutblangan nurning faqat bir qismi o'tadi. Vektor „ a “, AA_1 yo'naliishdagi a_0 vektorning proyeksiyasidir:

$$a = a_0 \cos \varphi \quad (2)$$

To'lqin energiyasi tebranish amplituda kvadratiga proporsional, u holda, polyarizatordan o'tgan qutblangan yorug'likning intensivligi quyidagiga teng bo'ladi.

$$I_0 = k \cdot a_0^2 \quad (3)$$

bu yerda k – proporsionallik koefitsiyenti.

Analizatordan o'tgan yorug'likning intensivligi mos ravishda quyidagicha:

$$I = ka^2 \quad (4)$$

ifoda (4) ni (3) ga bo'lib, I ning o'rniiga (2) dagi qiymatini qo'yamiz:

$$\frac{I}{I_0} = \frac{ka^2}{ka_0^2} = \frac{a^2}{a_0^2} = \frac{a_0^2 \cos^2 \varphi}{a_0^2} = \cos^2 \varphi \quad I = I_0 \cos^2 \varphi \quad (5)$$

formula (5) Malyus qonunu deyiladi.

Analizatordan o'tgan qutblangan yorug'likning intensivligi polyarizator va analizator tekisliklari orasidagi φ burchak kosinusining kvadratiga proporsional. Malyus qonunidan $\varphi = 0$ bo'lganda o'tgan yorug'lik maksimal, $\varphi = 90^\circ$ da esa analizatorдан yorug'lik min holati kuzatiladi va undan yorug'lik o'tmasligi kelib chiqadi.

Ba'zi kristall va organik birikmalarning suvdagi eritmalari o'zidan o'tuvchi yassi qutblangan nurning qutblanish tekisligini aylantirish xossasiga ega. Bunday moddalar optik aktiv moddalar deyiladi. Optik aktiv moddalarga qattiq jismlardan kvars, qandning suvdagi eritmasi va organik birikma eritmalari misol bo'la oladi.

Agar qutblanish tekisligi soat strelkasi yo'nalishida aylansa, optik aktiv modda unnga aylantiruvchi („O'naqay“) qutblanish tekisligi soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalishda aylansa chapga aylantiruvchi („Chapaqay“) moddalar deyiladi.

Qutblanish tekisligining aylanishini Nikol prizmalari (polyarizator va analizator) orasiga tiniq optiq aktiv moddalarni joylashtirib kuzatish mumkin.

Nikol prizmalarini o'zaro shunday joylashtiramizki, ulardan monoxromatik nur o'tmasin. U vaqtida saxarimetning ko'rish maydoni qorong'u bo'ladi. (Malyus qonuniga qarang. Bunda polyarizator R va analizator A o'qlari kesishgan ($\varphi = \frac{\pi}{2}$) deyiladi.

Agar Nikol prizmalari o'rtaasiga qand eritmasi solingen nay joylashtirilsa, eritmadan o'tayotgan nurning qutblanish tekisligining aylanishi natijasida ko'rish maydoni yerishib ketadi.

Ko'rish maydonini yana korongi xolga keltirish uchun analizatorni kandaydir φ burchakka burish kerak. Bu burchak o'z navbatida, yorug'lik nurining kand eritmasidan o'tganida qutblanish tekisligining berilgan burchagiga teng bo'ladi.


Qand eritmasida tebranish tekisligining burligan burchagi qandning eritmadagi konsentratsiyasiga va eritma qatlamining qalinligiga proporsional:

$$\varphi = \alpha c \quad (6)$$

bunda ℓ - naychadagi eritma qatlamining qalinligi /dm da o'lchanadi/, s - eritmaning konsentratsiyasi bo'lib, 100 sm^3 eritmadiagi eritilgan moddaning gramlar xisobida olingan miqdori, α - proporsionallik koefitsiyenti bo'lib, 100 sm^3 disterlangan suvda 1 gr qand eritilganda eritmaning 1 dm qalinligidan yorug'lik o'tganda qutblanish tekisligini aylantirish burchagiga son jixatdan teng bo'lgan kattalik.

Solishtirma aylanish burchagini kattaligi yo'rug'likning to'lqin uzunligiga bog'liq bo'ladi.

Yorug'lik qutblanish tekisligining aylanish xodisasi amalda eritmadiagi qand konsentratsiyasini o'lashda qo'llaniladi. Bunday o'lashlar qand ishlab chiqarish sanoatida saxarimetr deb atalgan maxsus asboblar yordamida bajariladi. Eng sodda saxarimetr sxemasi 5 - rasmida ko'rsatilgan. Ikkita N_1 va N_2 (nikol) orasiga yassi parallel plastinkali shaffof darcha bilan biriktirilgan kyuveta o'rnatilgan. Eritma to'ldirilmaganda Nikollar korongilik vaziyatiga qo'yiladi, ya'ni ularning bosh qismlari /o'qlari/ o'zaro perpendikulyar bo'ladi. Kyuvetani eritma bilan to'ldirilganda maydon yerishadi. Yana qaytadan qorong'ilatish uchun N_2 nikolni ma'lum miqdorda burish kerak bo'ladi.



Ko'pincha nikollarni qorongulik vaziyatiga aniq qo'yish mumkin bo'limganligidan yarim soat analizatorlar deb atalgan asboblar ishlataladi. Yarim soya analizatorlar Nikol prizmasidan xosil qilinadi. Buning uchun nikol prizmasi OR bosh kesim tekisligiga simmetrik bo'lgan ikki o'zaro β burchak xosil qiluvchi VR va tekisliklar bilan qirkib olinadi. Bu tekisliklar orasidagi jon olib tashlanadi va xosil bo'lgan bo'laklar VR va SR tomonlari bo'yicha yopishtiriladi. Bu yangi yasama prizmaning ko'ndalang kesimi noto'g'ri rom tarzida ko'rindi. Bularning har biri mustaqil analizatordan iborat bo'lib, agar tushuvchi yerug'likning AA, tebranish tekisligi yarim prizmalarning yopishtirish tekisligiga OR perpendikulyar bo'lsa, undagi bo'laklarning har ikkalasi bir xil yoritiladi. Tebranish tekisligining har qanday vaziyatlarida

bo'laklarning biri ikkinchidan yorqinroq bo'ladi. Masalan , analizatordan o'tayetgan yorug'likning AA₁ tebranish tekisligi (eritma bo'limganda) OR₁ tekislikka perpendikulyar bo'lsa, ko'rish maydonining chap kismi qorong'i, o'ng qismi esa yorug' holda , agar tebranish tekisligi OR₂ tekislikka perpendikulyar bo'lsa, ko'rish maydonining chap kismi yorug', o'ng qismi esa qorong'i holda ko'rindi.


Analizator shunday tuzilgan bo'lgandagina uning biroz o'zgarishi, ko'rish maydonining ikkala sohasi yoritilganini keskin o'zgartiradi.

Odatda, saxarimetrdan analizatorni aylantirish o'rniga, kompensator deb nom olgan alohida moslamadan foydalaniadi. Soleyl kompensatori qo'yidagicha tuzilgan.

Kompensator o'ng va chap kvars plastinkalaridan tashkil topgan. O'ng kvars plastinkasining qalnligi o'zgarmasdir; chap kvars plastinka esa o'tkir uchli ponalaridan tashkil topgan bo'lib, ular bir- birining ustida siljib, o'zgaruvchi qalnlikka ega bo'lgan plastinka hosil qiladi.

Shunday qilib, kvars plastinkalari to'plamida o'ng va chap yoki nol aylanishlarini hosil kilish mumkin. Agar saxarimetrdan aylantiruvchi moddalar bo'lmasa, kompensator „a“-holatga keltiriladi.


Tekshiriladigan modda o'ngga aylantirish xususiyatiga ega bo'lsa, kompensator „b“ holatga, modda chapga aylantirish xususiyatiga ega bo'lsa, kompensator „v“ holatga keltiriladi.



6-rasm

Kompensator ponalarini chap kvars bilan birlashtirilgan“ saxarimetr gardishidagi vintni burish bilan siljiltiladi va uning holati shu gardishdagi noniusli shkala bo'yicha o'lchanadi. Ponalarning siljishidan, analizatordan o'tayetgan yorug'lik qutblanish tekisligining aylanish burchagi graduslarda hisoblanadi. Konpensatori bo'lgan saxarometrlarda oq yorug'lik manbalaridan foydalinish mumkin, chunki kvars va qand eritmasi tebranish tekisligining proporsional burchaklarga buradi.

Nay ichidagi noma'lum eritmaning konsentratsiyasini aniqlashda qo'llaniladigan Soleyl saxarimetring umumiy tuzilishi rasmida tasvirlangan.



Bunda S-yorug'lik manbai, ϵ -yig'uvchi linza, R-polyarizator, D-qand eritmasi qo'yilgan nayni joylashtirish uchun mo'ljallangan kyuveta /kanal/ k-Soleyl kompensatori, A-analizator, S-nonius shkalasi bo'lgan ko'rish trubasi.

Ishni bajarish tartibi

1. Saxarimetrga tokka ulanadi
2. Saxarimetrga ichida eritmali nay bo'lмаган holda kompensator shunday vaziyatga qo'yiladiki, ko'rinish maydonining har ikki tomoni bir xil yoritilgan bo'lsin. Kompensator qurilmasini burab, ko'rish maydoni bir jinsli bo'lgan holga 3 marta keltiriladi va har bir hol uchun noniusdan hisob olinadi. Nonius shkalada nolni ko'rsatishi kerak. Agar nolni ko'rsatmasi shkaladagi son belgilab olinadi va bu son qutblanish tekisligining aylanishiga qarab, hisob olinayotganda ye qo'shiladi, ye ajratiladi. Ana shu holat nol deb olina boshlaydi.
3. Saxarimetrga konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan bitta naycha qo'yiladi va yoritilganlik bir xil holga keltiriladi. Bu ham uch marta takrorlanib, noniusdan har bir o'lhash hisobi olinadi. Keyin ularning o'rtacha qiymati olinib, (6) formula yordamida solishtirma aylanish burchagi α_1 topiladi.
4. Shundan so'ng birinchi naycha chiqarilib, konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan (protsenti boshqa) ikkinchi naycha qo'yiladi va 3 – punkt takrorlanib α_2 topiladi.
5. Aylanish burchaklari α_1 va α_2 larning $\alpha = \frac{\alpha_1 + \alpha_2}{2}$ o'rtacha qiymati aniqlanib, bu saxarimetring doimiysi qilib olinadi.
6. Saxarimetrga noma'lum konsentratsiyali naycha solinadi va 3-punkt yana takrorlanadi. Formula (6) yordamida noma'lum konsentratsiya „S“ hisoblab topiladi. Bo'ham uch marta takrorlanadi.

Kompensator shkalasining har bir bo'lim qiymati $i=0,346^0$ ga teng. O'lhash va hisoblash natijalari quyidagi jadvalga yoziladi.

1-jadval

<i>N</i>	<i>Naysiz</i> φ_1	<i>Nay</i> $Li \varphi_o^1$	<i>Aylanish</i> <i>burchagi</i> $\varphi_1 = \varphi_2 \pm \varphi_o$	<i>C₁</i>	α_1	<i>S</i>	<i>Nayli</i> φ^{11}	<i>Aylanish</i> <i>burchagi</i> $\varphi_2 = \varphi_o \pm \varphi_o$	α_2	<i>S</i> x
1.										
2.										
3.										
4.										
5.										
O'rt										

Sinov savollari

1. Tabiiy va qutblangan yorug'liklarga ta'rif bering va ularning farqini tushuntiring?
2. Bryuster va Malyus qonunlarini ta'riflang?
3. Yorug'likning tebranish va qutblanish tekisligi deb nimaga aytiladi?
4. Nurlarning ikkilanib sinish hodisasini va optiq aktiv moddalarni tushuntirib bering?
5. Qutblanish tekisligining aylanish burchagi qanday kattaliklarga bog'lik?
6. Yarim soyali saxarimetning tuzilishini va Soleyl kompensatorining ishlash prinsipini tushuntiring?
7. Qanday usul bilan qandning eritmadiji konsentratsiyasi topiladi?

6-LABORATORIYA ISHI

FOTOELEMENTNING SEZGIRLIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Fotoeffekt qonunlarini o'rganish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Optik taglik, etalon lampa, yarim o'tkazgichli fotoelement, mikroampermetr, o'lovchi simlar.


Nazariy qism

Yorug'lik ta'sirida moddalardan elektronlarning uchib chiqish hodisasiga fotoelektrik effekt yoki *fotoeffekt* deyiladi. Fotoeffekt hodisasi asosan ikki hilga bo'linadi: tashqi va ichki fotoeffekt. Tashqi fotoeffekt metallarda kuzatiladi, undagi erkin elektronlar fotonni yutib metall sirtiga uchib chiqadi. Ichki fotoeffekt xodisasi yarim o'tkazgichlarda kuzatiladi. Bunda elektronlar fotonni yutib erkin holga o'tadi, ammo ular metall sirtiga chiqmaydi, natijada elektronlar ichki qismida qolib, ular yarim o'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligini oshiradi.

Fotoeffekt hodisasi asosida ishlaydigan asbobga fotoelement deyiladi. Fotoelement hozirgi zamon texnikasida (ovozli kino, tele ko'rish, signallashtirilgan va uzoqdan boshqarish sxemalarida) keng qo'llaniladi.

Bu ishda tashqi fotoeffektning xossalari tekshiriladi. Fotoeffekt hodisasining birinchi marta 1888-yil rus fizigi A.T. Stoletov tomonidan tekshirilgan (1-rasm). Tok manbaining manfiy qutbiga ulangan K-metall plastinkani yorug'lik nuri bilan yoritsa, metalldan elektron uchib chiqadi. Chiqqan elektronlar tur shaklidagi musbat elektron (A) ga tortilib zanjirda tokni vujudga keltiradi.

Tok zanjirdagi g-galvanometr yordamida kuzatiladi.



1-rasm

Fotoeffekt hodisasi hozirgi zamon fizikasining kvant nazariyasini bilan tushuntiriladi. Kvant nazariyasiga asosan Yorug'lik qizdirilgan metal (gaz, suyuklik) dan chiqqanida yoki metall (gaz, suyuqlik) ga yutilganida porsiya-porsiya shaklida tarqaladi yoki yutiladi. 1-rasm Yorug'likning porsiya-porsiya shaklida tarqalishiga yorug'lik kvanti deyiladi. Har bir kvant energiyasi Plank formulasi quyidagi ko'rinishida ifodalananadi:

$$\varepsilon = h\nu \quad (1)$$

bu yerda ε -har bir kvant energiyasi, h -Plank doimiysi, ν -yorug'lik chastotasi. Yorug'lik kvanti foton ham deyiladi. Demak, foton energiyasi metallarda elektronlarning chiqish ishiga A va elektronlarga kinetik energiya berishga sarf bo'ladi. Bu xulosani Plank ta'limotini rivojlantirib, Eynshteyn chiqargan:

$$h\nu = A + \frac{m\vartheta^2}{2} \quad (2)$$

bu yerda m-elektronning massasi, ϑ -elektronning tezligi, $\frac{m\vartheta^2}{2}$ -elektronning kinetik energiyasi. Bo' fotoeffekt hodisasi uchun Eynshteyn formulasi ham deyiladi.

Stoletov fotoeffekt hodisasini tekshirib, uchta asosiy qonunni yaratadi.

1. Fotoelektronlarning tezligi chastota funksiyasidir.

Yorug'lik chastotasi ortsa, fotoelektronlarning tezligi ortadi, chastota kamaysa tezligi kamayadi. Agar $h\nu \leq A$ shart bajarilsa, metalldan elektronlar chiqmaydi va bo' xodisa fotoeffektning qizil chegarasi deyiladi. Chunki, bunda chastota eng kichik qiymatda bo'lib, yorug'lik o'ulqin uzunligi ($v = \frac{c}{\lambda}$) katta qiymatda bo'ladi. Bo' esa yorug'lik spektrining qizil nuriga mos keladi.

2. Fotoelektronlarning energiyasi yorug'likning intensivligiga bog'liq emas.

3. Katoddan chiqqan fotoelektronlarning soni, yorug'lik oqimining intensivligiga proporsional. Demak, fototok ham yorug'lik intensivligiga proporsional bo'ladi:

$$i_\phi = j\phi \dots \quad (3)$$

bu yerda i_ϕ -fototok, j -fotoelementning integral sezgirligi (j-mkA/lyumen/ o'lchanadi), F-yorug'lik oqimi. Laboratoriya fotoelementning sezgirligini aniqlash mumkin. Buning uchun yorug'lik oqimi topiladi:

$$\Phi = \frac{IS}{\ell^2} \dots \quad (4)$$

bunda I -(shamlarda o'lchanagan) manba yorug'lik kuchi, ℓ -yorug'lik manbaidan katodgacha bo'lgan masofa, S- katod yuzasi (sm^2).

Ifoda (4) ni (3) ga qo'yamiz va j aniqlab olamiz:


$$j = \frac{\ell^2 i_\phi}{IS} \quad (5)$$

Tajriba o'tkazilayotganda I va S larning qiymati berilgan bo'ladi.

Qizil chegara ko'pchilik metallar uchun spektrning infraqizil qismida joylashgan. Ishqoriy metallar uchun yorug'lik ko'rindigan qismida joylashgan. Shuning uchun, fotoelementlarning katodlari ishqoriy metalдан tayyorlanadi. Vakuumli fotoelement havosi surib olingan shisha balondan iborat. Fotoelementda katod vazifasini shisha balonning ichki sirtiga surkalgan ishqoriy metall (odatda seziy) katlamni bajaradi.

Fotoelement o'rtaida anod xizmatini bajaruvchi halqa joylashtirilgan. Yorug'lik ta'sirida katod sirtida chiqqan elektronlarni elektr maydoni anodga yo'naltiradi. Anod va katod orasidagi potensiallar ayirmasi orttirilganda (yorug'lik oqimi o'zgarmagan holda) fototok ham ortib boradi. Kuchlanishni yana oshirsak tok oshib boraveradi. Shunday bir kuchlanish topiladiki, fototok o'zgarmasdan qoladi. Bu to'yinish fototoki deyiladi. To'yinish fototoki qo'yidagicha tushuntiriladi: bunda katoddan birlik vaqt ichida uchib chiqqan elektronlarning hammasi o'sha ondayoq elektr maydoni ta'sirida anodga kelib tushadi.

Fotoelementning sezgirligini oshirish uchun ballonni bosimi millimetr simob ustunining yuzdan biriga teng bo'lgan inert gazi bilan to'ldiriladi. Fotoelektronlar inert gaz atomlarini ionlashtirilishi natijasida tok ortadi. Bunday gaz to'ldirilgan elementlarda elektr maydoni (potensiallar ayirmasi) ma'lum qiymatdan ortmasligi kerak, aks xolda gazda mustaqil razryad hosil bo'lib, fotoelementni ishdan chiqaradi, bu xolda to'yinish fototoki kuzatilmaydi. Fotoelement xossalalarini o'rganishda ko'rsatilgan elektr sxemasidan foydalanamiz (2-rasm).



2-rasm

Bunda I-yorug'lik manbai (12 V nakal kuchlanishda ishlaydigan elektr lampochkasi), OS-optik tenglik, F-surma seziyli vakuumli fotoelement, V-kenatronli to'g'rilaqich, g-fototokni o'lchovchi mikroampermetr, R-fotoelement katodga beriladigan kuchlanishni oshirish uchun qo'llaniladigan reostat, V anod kuchlanishini o'lchaydigan voltmetr

Ishni bajarish tartibi

O'zgarmas yo'rug'lik oqimida fotoelement anod kuchlanishi U bilan fototok i_ϕ orasidagi bog'lanishni aniqlash. Bu bog'lanish fotoelementning volt-amper xarakteristikasi ham deyiladi

1. Optik taglikda lampadan 15 sm uzoqlikda fotoelement o'rnatiladi.

2. Reostat yordamida lampaning nakal kuchlanishi 12 V qilib olinadi va tajriba davomida o'zgarmas qilib saqlanadi.

3. O'qituvchi sxemani tekshirib ko'rgandan so'ng, to'g'rilikch voltmetr ulanadi va potensiometr yordamida U kuchlanishi 0 dan 150 V gacha, to fototok to'yinguncha oshirilib boriladi va har 10 V da anod kuchlanishining qiymatiga mos kelgan

i_ϕ fototok o'lchanadi. Undan keyin kuchlanishni 150 V dan gacha kamaytiriladi va teskari yo'nalishda tajriba kaytarilib, i_ϕ fototok aniqlanadi. Natijaviy fototok uchun to'g'ri va teskari toklarning o'rtacha qiymati olinadi.

Olingan natijalar 1-jadvalga yozib boriladi.

1-jadval

N	<i>U anod kuchlanishi (volt)</i>	$\ell = sm$	$i_\phi (mkA) to 'gri$	$(mkA) teskari$	i_{vp}
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
O'rt					

G) tajribadan olingan natijalar asosida fototok bilan anod kuchlanishi orasidagi grafik chiziladi. Absissa o'qiga anod kuchlanishi, koordinata o'qiga esa fototokning qiymati qo'yiladi, ya'ni volt-amper xarakteristika olinadi.

Sinov savollari

1. Fotoelektrik hodisasini tushuntiring?
2. Fotoeffekt qonunlarini ta'riflang?
3. Fotoeffekt uchun Eynshteyn formulasini yozing va uning fizik ma'nosini tushuntiring?
4. Fotoeffektni qizil chegarasi nima va u qanday aniqlanadi?

5. Fotoeffektning sezgirligi deb nimaga aytildi va qanday birlikda o'lchanadi?

6. Gaz to'ldirilgan fotoelement vakuumli fotoelementlardan nima bilan farq qiladi?

7-LABORATORIYA ISHI

TASHQI FOTOEFFEKT HODISASINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: Fotoelement xarakteristikalarini aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Mikroampermetr, yorug'lik manbai, optik taglik, chizgich va kerakli aslahalar.

Nazariy qism

Kuzatishlar tajriba va nazariyalar asosida yorug'likning kvant hamda zarra tabiatiga ega ekanligiga ishonch hosil qilindi. Kvant tabiatiga asoslanib yorug'likni „elementar zarra“ fotonlar oqimi sifatida tasavvur etiladi. Fotonning energiyasi $E_\phi = hv$, massasi $m_\phi = \frac{hv}{c^2}$, impulsi $P_\phi = \frac{hv}{c}$ ifodalar yordamida aniqlanadi bu yerda $h=6,62 \cdot 10^{-34}$ J·s Plank doimisi v yorug'lik chastotasi $c=3 \cdot 10^8$ m/s yorug'likning vakuumdagi tezligi. Fotonning tinch holatdagi massasi nolga teng. U harakatdagina mavjud bo'lib to'xtasa yo'qoladi ya'ni moddalar tomonidan yutiladi.


Yorug'lik ta'sirida moddalardan erkin elektronning ajralib chiqishi yoki elektronlarga energrtk sathining o'zgarishi fotoeffekt deyiladi. Ikki xil foteffektini kuzatish mumkin, tashqi fotoeffekt yorug'lik ta'sirida metall sirtidan elektronlarning uchib chiqishi ichki fotoeffekt yorug'lik ta'sirida yarim o'tkazgich va dielektriklarda elektronlarning energetik sathlari bo'yicha qayta taqsimlanish hodisasi.

Tashqi fotoeffekt hodisasi

$$hv = A + \frac{mv_{\max}^2}{2}$$

ifoda bilan tushuntiriladi. Bu yerda A – elektronning metall sirtidan chiqishi uchun sarflanadigan ish, m – elektron massasi, v_{\max} – uchib chiqqan elektronlarning maksimal tezligi. Tashqi fotoeffekt hodisasi 1-rasmda keltirilgan sxema yordamida o'rjaniladi. K katod yoritilganda undan fotoelektronlar deb ataluivchi elektronlar uchib chiqadi va katod hamda amod orasidagi maydon ta'sirida harakatlana boshlaydi. Va

fototok bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu yerda I_T to'yinish fototoki bo'lib mazkur holatda katoddan chiqayotgan elektronlar soniga xarakterlanadi. Anod va katod orasidagi kuchlanish nolga teng. Bo'lganda ham hatto $n < 0$ da ham fototok hosil bo'ladi. Bunda fotoelektronlar kinetik energiyalari hisobiga maydon kuchlariga qarshi ish bajaradi. Agar manfiy elektr maydoni yetarlicha kuchli bo'lsa elektronlar aniodga ytday energiyalarini yo'qotadi. U holda fototok nol bo'ladi. Shunga mos keluvchi U_{to^*} to'xtatuvchi kuchlanish deb yuritiladi.



1-rasm

Yuqorida bayon etilganlar asosida tashqi fotoeffekt hodisasining qonunlari kelib chiqadi.

1. Nurlanishning ma'lum to'lqun uzunligida vaqt birgligida sirt birelgidan uchib chiqadigan elektronlar soni nurlanish intensivligi to'g'ri proporsional boshqacha aytganda to'yinish fototki yotug'liq oqimiga to'g'ri proporsionaldir.

2. Intensivlik o'zgarmas bo'lganda vaqt birligida birlik yuz uchib chiqayotgan fotoelektronlar soni chastota ortishi bilan ortadi. Bibnarin bir vaqtning o'zida elektronning ikkita foton yuritish ehtimolligi kichik chunibg uchun uchib chiqqan bir electron bir fotonдан enegit oladi. Lekin hamma yutilgan hamma elektronni urib chiqara olamydi. Chastota ortishi bilan foton energiyasi ortadi. Shuning uchun fotoelektronlar soni ham ortadi.

3. Fotoelektronlarning tezligi yorug'lik intensivligiga bog'liq. Bo'lmay uning chastotasining funsiyasidir. Yorug'lik chastotasi ortishi bilan fotoelektronlar tezligi orta boradi.

Agar v chastoat $h\nu < A$ shartga bo'yusunsa elektronlar metallardan chiqsa olmaydi. Foroelektronlarning chiqishi to'xtaydigan chegara fotoeffektning qizil chegarasi deyiladi.

Tashqi fotoeffekt hodisasi asoslangan asboblar fotoelementlar deyiladi. Ular ikki xil bo'ladi vakuuuli fotoelementlkar gaz to'ldirilga fotoelementlar vakuumli fotoelementlarning tuzilishi quydagicha havosi so'rib olingan ballon ichli qismining yarmi metal qblanqoplangan bo'lib bu katod vazifasini o'taydi.

Anodda hala ko'rinishida yasaladi. Katod va anod orasida tashqi batareya elektr maydon hosil qiladi. Bunday fotoelementlarning ajoyib xususiyati uning inertsiyasizligidir. Yoritilganda fototok hosil bo'lguncha 10^{-9} sm gina vaqt o'tadi.

Ichki fotoeffekt hosidadi yorug'lik kvanti ta'sirida elektronlarning valent zonalridan o'tkazuvchanlik zonalariga yoki aralashma sathlariga o'tish hodisasigir.

Ichki fotoeffekt hodisasiga asoslangan fotoelementlar fotoqarshiliklar deyiladi.

Ishni bajarish tartibi

1. Sxemasi 2-rasmda keltirigan elektr zanjiri tuziladi.

2. L yoritgich ulanib, tipidagi fotoelementdan I_1 masofaga joylashtiriladi. Kuchlanishni 5 V dan oshirib unga mos fototok qiymat galvanometrdan yozib olinadi.


3. I_2, I_3, I_4, I_5 masofalar uchun 2- punkt takrorlanadi.

4. Jadval tuzib o'lchanan kattaliklar yozib qo'yiladi. Va millimetrli qog'ozga har xil masofa uchun $i_\phi = f(u)$ grafigi chiziladi. Ular bir-birlari bilan taqqoslanadi. (yoritgich va fotoelement orasidagi masofa o'zgarishi fotoelementga tushayotgan yorug'lik oqimi o'zgarishiga proporsionaldir)

5. $r = \frac{d^2}{IS}$ ifodali fotoelementning integral sezgirligi aniqlaniladi i-fototok, I-masofa. I-manbaning yorug'lik kuchi, S-katod sirti. I va S ning qiymati laboratoriya stolida keltirilgan.

6. kuchlanishni o'zgartimagan holda masofani 5 sm dan o'zgartirib ularga mos bo'lgan fototoklar o'chanadi. Fototokning masofaga bog'liq

bo‘lgan grafigi chiziladi. Masofa ortishi bilan yorug‘lik intensivligi kamayishi kuzatiladi.



Sinov savollari

1. Fotoelement deb nimaga aytildi?
2. Fotoqarshilik deb nimaga aytildi?
3. Tashqi fotoeffekt deb ninaga aytildi?
4. Fotoeffektning qizil chegarasi deb nimaga aytildi?
5. Ishni bajarish tartibini tushuntirib, ishga xulosa qiling.

8-LABORATORIYA ISHI

PLANK DOIMIYSINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Tashqi fotoeffekt hodisasidan foydalanib, Plank doimiysini aniqlash.

Ishni bajarish tartibi

1. Sxemasi 7-laboratoriya ishidagi 2-rasmda keltrilgan elektr zanjiri yig‘iladi.
2. Yorug‘lik manbai ulanmasdan $U=0$ bo‘lgan kuchlanish tekshiriladi.
3. Yorug‘lik manbai ulanib R potensiometr yordami bilan mikroampermestr shkalasi 60-70 bo‘limga og‘diriladi.
4. Turli chastotali yorug‘liklar uchun fotoelementning volt- amper xarakteristikasi olinadi. Yorug‘lik chastotasi filtrlar yordami bilan o‘zgartiriladi.
5. Volt-amper xarakteristikasining to‘g‘ri chiziqli qismidan foydalanib, har bir chastota uchun $U_{to'x}$ aniqlanadi.

6. $u_{lo,x} = f(v)$ egrilik chiziladi, φ burchak topiladi, $u_{w,x} = \frac{h}{e}v - \frac{A}{e}$
 bog'lanishga asosan $\lg \varphi = \frac{h}{v}$ munosabatdan h aniqlanadi

Sinov savollari

1. Plank formulasini yozing va fizik ma'nosini tushuntiring?
2. Ishni bajarish tartibini tushuntiring.
3. Ishga xulosa qiling.

9-LABORATORIYA ISHI

REFRAKTOMETR YORDAMIDA SUYUQLIKLARNING SINDIRISH KO'RSATKICHINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: yorug'likni sinish qonunlarini o'rghanish va ulardan amalda foydalanish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Abbe refraktometri, tekshiriladigan suyuqliklar to'plami.


Nazariy qism

Muhitning sindirish ko'rsatgichini o'chash uchun xizmat qiladigan asboblarga refraktometr deyiladi. Bu ishda Abbe refraktometridan foydalanamiz.

Abbe refraktometri miqdorlari uncha ko'p bo'limgan suyuqliklarning sindirish ko'rsatgichlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Refraktometrning ishlash usuli tiniq suyuqliklarda sinish burchagini chegaraviy kiyamatidan foydalanishga asoslangan.

Agar yorug'lik optik zinch muhitdan optik kam zinch muhitga o'tayotgan bo'lsa, normalga nisbatan tushuvchi nur hosil qilgan nurlar dastasining burchagi ma'lum kiyamatga yetganida, yorug'lik dastasining butunlay zinch muhit ichiga qaytishi to'la ichki qaytish xodisisi deyiladi. Shu paytdagi tushish burchagiga chegaraviy yoki limit burchagi deyiladi. Refraktometrning asosiy qismi o'zaro oshiq-moshiq (sharnir) bilan birlashtirilgan ikkita to'g'ri burchakli prizma kameradan iborat (1-rasm). Prizmalar sindirish ko'rsatgichi katta (1,72) bo'lgan shishadan tayorlangan. Yuqori prizmani yorituvchi, pastdagini esa o'chov prizmasi deyiladi. Prizmalar orasiga tekshiriladigan suyuqlikdan 1-2 tomchi

tomizilib, yuqori prizma tushirilsa suyuqlik yupqa qatlam hosil qilib yoyilib ketadi. yorituvchi prizmaning AC sirti xira qilib yasalgan.



Tiniq suyuqlikning sindirish ko'rsatgichini aniqlash uchun yorug'lik nuri yorituvchi prizmaning AB qirrasiga yo'naltiriladi. Bu nur prizmadan o'tib, hiralashtirilgan AC prizmaga tushadi va hamma tomonga sochiladi. Natijada prizmalar orasidagi suyuq qatlamdan sochilgan nur o'tadi DF sirtiga nur turli burchak hosil qilib tushadi. Ular ichida 90° burchak bilan tushuvchi nur bulishi mumkin, u esa DF sirtga sirpanuvchan bo'ladi.

Suyuqlikning sindirish ko'rsatgichi prizmanikidan kichik bo'lgani uchun suyuqlikdan prizmaga o'tgan nurlarning burchagi sinish burchagi β tushish burchagi α dan kichik bo'ladi. Tushish burchagi 90° lik nurning prizmadagi sinish burchagi ϕ eng katta bo'lib, unga sinish burchagini chegaraviy qiymati deyiladi. Agar ulchov prizmasining FE kirrasidan o'tuvchi nur yo'liga ko'rish trubasi yoki ekran quyilsa kurish maydonida 2 soha kuriladi: ularning biri yorug' ikkinchisi qorong'u soha bo'ladi. Bu ikki sohani chegaraviy sinish burchagiga ega bo'lgan nur ajratib turadi (1 – rasm). Nurning suyuqlikdan shishadan yasalgan ulchov prizmasiga o'tishida sinish qonuni quyidagicha bajariladi.

$$\frac{\sin \alpha}{\sin \beta} = \frac{n_1}{n_2} \dots \quad (1)$$

Bunda n_1 -shishaning havoga nisbatan sindirish ko'rsatgichi, n_2 -suyuqlikning havoga nisbatan sindirish ko'rsatgichi, α -suyuqlikda nurning tushish burchagi, β -shisha prizmada nurning sinish burchagi.

Tushish burchagi $\alpha=90^{\circ}$ bo'lganda $\beta=\phi$ (chegaraviy burchak) bo'lib, (1) formula quyidagi ko'rinishga keladi.

$$\frac{1}{\sin \varphi} = \frac{n_1}{n_2}$$


bundan

$$n_2 = n_1 \sin \varphi \dots \quad (2)$$

Shishaning sindirish ko'rsatgichi n_1 o'zgarmas son bo'lib, (2) dan suyuqlikning sindirish ko'rsatgichi n_2 chegaraviy burchak φ ga bog'lik bo'lar ekan. Suyuqlikning sindirish ko'rsatgichi n_2 qancha katta bo'lsa, chegaraviy burchak φ shuncha katta bo'ladi. Natijada yorug' va qorong'u soha chegarasi ancha balandda bo'ladi. Prizmaning sindirish ko'rsatgichi n_1 ni bilgan holda, tajribadan chegaraviy burchak φ ni aniqlab, formula (2) dan suyuqlikning sindirish ko'rsatkichi n_2 ni hisoblash mumkin. Lekin tajribada φ ni o'lhash qiyin bo'lib, bu esa (2) formuladan foydalanishda qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun refraktometr asbobida sindirish ko'rsatkichlar buyicha darajalangan shkala o'rnatilgan. Shkalada qorong' va yorug' sohani ajratuvchi chegaraga to'g'ri kelgan son qiymati olingan suyuqlikning sindirish ko'rsatgichiga teng bo'ladi.

Asbobning tuzilishi

Refraktometr „IRF-22“ sindirish ko'rsatgichlari 1,3 dan 1,7 gacha bo'lgan suyuqliklarning o'rtacha sindirish ko'rsatkichini 10^{-3} gacha aniqlikda o'lhash uchun xizmat qiladi. Asbobning tuzilishi 2-rasmda uning optik sxemasi esa 3-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm

3-rasm

A-o'lchov qopqog'i (golovka), V-yorituvchi ko'zgu, K-ko'rish trubasi, S-yuqoriga yarim shardagi oyna (teshik), M-kompensatorni

aylantirish va fokuslash uchun moslama (maxovik), I-ikkita prizmadan tashkil topgan kompensator.

Kompensator prizmalar shunday joylashtiriladi, ularning dispersiyasi suyuqlik va refraktometr hosil qilgan dispersiyani kompensatsiyalaydi.

2-linzalar sistemasi bo'lib, yorug'lik kompensator orqali o'tganda u parallel oqim hosil qiladi.

3-yorug'lik nurini 90° ga burib, to'la ichki qaytishni hosil qiluvchi prizma.

4-sindirish ko'rsatkichlari bo'yicha darajalangan shkala.

5-Ko'rish trubasining okulyari bo'lib, uning fokal tekisligida vizir chizig'i beriladi.

Ishni bajarish tartibi

1. O'lchov qopqogi A ning yuqori yarim shari ko'tariladi.
2. O'lchov prizmasining sirtiga (silliqlashtirilgan sirtiga) shisha tayoqcha yoki tomizgich (pipetka) yerdamida tekshiriladigan suyuqlikdan bir necha tomchi tomizilib, ehtiyyotlik bilan qopqoq yopiladi.
3. Refraktometrning yorituvchi ko'zgusi shunday o'rnatiladiki, o'lchov qopqogining yuqori kismida manbadan chiqib, oyna S orqali o'tuvchi nur yoritiluvchi prizmaga tushsin va kurish maydonini bir tekis yoritsin.
4. Ko'rish trubasi K ning okulyaridan kuzatib, asbobning chap tomonida joylashgan maxovikni burash bilan yerug' va soya chegarasi aniqlanadi.
5. O'ng tomonda joylashgan M maxovikni aylantirish bilan kurish maydonidagi chegara kismidagi rang yuqotiladi.
6. Keyin yana chap maxovik yordamida bo'lingan joy chegarasi bilan turning krest chizig'i aniq bir-biriga moslashtiriladi va sindirish ko'rsatkichi uchun shkaladagi son olinadi.
7. Har bir suyuqlik uchun yuqoridagi o'lchash tartiblari amalga oshirilib, uchta o'lchashning o'rtacha qiymati olinadi.
8. Ikkinci suyuqlikni tekshirayotganda birinchi suyuqlik yumshok latta bilan artiladi.

Ishni bajarib bo'lgandan so'ng ham prizmalar yaxshilab artiladi.

Olingan natijalar jadvalga yoziladi:

1-jadval

N	Suyuqlik nomi					
	N	Δn	N	Δn	n	Δn
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
O'rt						

Sinov savollari

1. Abbe refraktometrining tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntiring?
2. To‘la ichki qaytish deb nimaga aytildi va φ qanday holatlarda kuzatiladi?
3. Formula (2) ni keltirib chiqaring?
4. Ishda oq yorug‘likdan foydalilanadi; bunda qanday sindirish ko‘rsatkichi aniqlanadi?
5. Suyuqliklar sindirish ko‘rsatkichining fizik ma’nosini tushuntiring?

10-LABORATORIYA ISHI***MIKROSKOP YORDAMIDA SHISHANING SINDIRISH KO‘RSATKICHINI VA JISMLARNING O‘LCHAMLARINI ANIQLASH***

Ishning maqsadi: Mikroskopni tuzilishi va ishlashi prinsipi bilan tanishish.



Kerakli asbob va qurilmalar: Mikroskop, shaffof shisha plastinka.

Nazariy qism

Optik asboblarning asosiy qismi bo‘lib linzalar xizmat qiladi. Linza deb sferik yoki boshqa sirtlar bilan ajratilgan shaffof jismga aytildi. Linzaning asosiy elementlari bo‘lib uning bosh optik o‘ki, fokuslari (F, F), fokus masofalari (f), fokal tekistlik F, linza markazi (0) va qo‘sishimcha o‘qlar xizmat qiladi. Linzani xarakterlovchi kattaliklar bo‘lib, optik kuchlar yoki fokus masofalar ishlatiladi.

$$D = \frac{1}{f} = (n_{\text{muc}} - 1) \left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right)$$

Bu yerdagi D-linzaning optik kuchi bo'lib, dioptriyalarda o'lchanadi. F-linzaning fokus masofasi. N_{nis} -linza materialini nisbiy ko'rsatgichi. R_1 va R_2 linzaning chegaralovchi sirtlar egrilik radiuslari.



1-rasm

2-rasm

Optik asboblardan biri mikroskop bo'lib, o'lchamlari kichik predmetlarni ko'rish va ularni tekshirish uchun ishlataladi. Mikroskop ikki qismdan iborat: mexanika qismi va optika qismi.

Birinchisiga tubus asosi va predmet qo'yiladigan stolcha kiradi. Optik qismiga esa qisqa fokusli linza (obyektiv) va okulyar (lupa) joylashtirilgan tubus kiradi.

Tekshirilayotgan predmet obyektivning fokusdan uzoqroqda joylashtiriladi. Obyektivda xosil bo'layotgan okulyardan karaladi. Bunda okulyar siljilib buyum tasvir mikroskop kattalashtirishi va ajrata olish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Mikroskopni kattalashtirishi obyektiv va okulyarni kattalashlarini ko'paytmasiga teng.

$$F = \frac{g}{g} = F_{\text{ob}} \cdot F_{\text{OK}}$$

$$F_{\text{ob}} = \frac{l}{\Phi_{\text{ob}}}$$

$$F_{\text{OK}} = \frac{\Delta}{\Phi_{\text{OK}}}$$

$$F = \frac{l}{\Phi_{\text{ob}}} \cdot \frac{\Delta}{\Phi_{\text{OK}}}$$

$$\Phi_{\text{MOSH}} = l \cdot \Delta D_{\text{ob}} \cdot D_{\text{OK}}$$

Bu yerda ρ -tubus uzunligi, Δ -eng yaxshi ko'rish masofasi. $F_{ob}F_{ok}$ -obyektiv va okulyar fokus masofasi.

Odatda mikroskopni kattalashtirish $G_m = 50 \div 350$ oraliqda bo'ladi. Optik sistemada, difraksiya hodisasi tufayli, buyumning har bir nuqtasi aylana bo'lib ko'rindi. (Bu hodisa linzalarni o'lchamlariga bog'liq). Shunga ko'ra, ba'zan, yaqin joylashgan ikkita nuqta qo'shilib ketishi mumkin. Agar birinchi minimumni ko'rish burchagi ikki nuqtani orasidagi masofaga mos tushsa ular alohida-alohida ko'rindi. Shu burchakka teskari kattalik mikroskopni ajratishlik qobiliyati deyiladi.

$$\delta = \frac{1}{\varphi} = \frac{R}{0,6\lambda}$$

Bu yerda R-linza radiusi, λ -yorug'likning to'lkin uzunligi.

Mikroskoplar ikkita ob'ektlar orasidagi minimal masofani aniqlay olishi quydagicha xarakterlanadi.

$$\eta = \frac{\lambda_0}{2n \sin \varphi} \quad \delta = \frac{1}{r_{min}}$$

λ_0 – yorug'likni vakuumdagi to'lqin uzunligi.

n – buyum va obyektiv orasidagi muhit sindirish ko'rsatkichi.

1-topshiriq. Ingichka sim diametrini o'lchash tartibi

1. Mikroskopni okulyardagi shkalasini bo'lakchasini qiyamatini aniqlash kerak. Buni uchun mikroskopni predmet stolchasiga m millimetrlı shkala (eki maxsus okulyar mikrometr) qo'yiladi va uning aniq tasviri olinadi. Kuzatish yo'li bilan 1 mm ga 3mm, 5 mm, 10 mm ga okulyardagi shkalani ishlashni bitta bo'lagi qiymati:

$$C = \frac{1}{n} = \frac{3}{n} = \dots (\text{MM})$$

2. Sim predmet stoliga qo'yilib, uni ustida okulyar shkalasini qancha bo'lagi joylashishi sanab olinadi (N)

$$d = c \cdot N = \frac{N}{n} (\text{MM})$$

3. Natijalar qo'yidagi tablitsaga qo'yilib absolyut va nisbiy xatoliklar topiladi.

1-jadval

N	n	C (mm)	Nayl	d (mm)	Δd (mm)	ε %
1.						
2.						
3.						
4.						

5.						
O'rt						

2-topshiriq. Mikroskop yordamida sharcha diametrini aniqlash

Buning uchun mikroskopning mikrometrik vinti boshlangich holatga qo'yiladi (nolga). Diametri o'lchanishi kerak bo'lgan sharcha predmet stolchasiga shisha ustiga qo'yiladi. Stolchadagi shishani yuqori sirtini aniq tasviri olingach, mikrometrik vint orqali sharchani gardishi (perimetri) aniq ko'ringan xolatga olib kelinadi va bir vaqt ni o'zida necha to'la aylanish (N) va xalqalar soni (n) sanab olinadi. Sharcha radiusi $r=(NZ+0,002n)\text{mm}$.

Bundagi 0,002 barabandagi bir bo'lakcha qiymati $Z=0,002\times 50=0,1\text{ mm}$, 50 barabandagi bo'laklar soni. O'lchovlar kamida uch marta bajarilib, qo'yidagi tablitsa to'ldiriladi.

2-jadval

N	N_{ayl}	$n_{chala ayl.}$	$r (\text{mm})$	$\Delta r (\text{mm})$	$\varepsilon \%$
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
O'rt					

3-topshiriq. Shishani sindirish ko'rsatgichini aniqlash

Moddalarni sindirish ko'rsatgichini aniqlash usullaridan biri mikroskopdan foydalanish bo'lib uning asosida quyidagi fikr yetadi.

Analitik yassi parallel plastinkaga nur tushayotgan bo'lsin ulardan biri (1) plastinkaga tik tushib, sinmay o'tadi, ikkinchisi plastinkadan sinib 0 nuqtadan chiqib D yo'nalish bo'ylab ketadi. OD normal bilan tushish burchagidan kattaroq burchak yasaydi (3-rasmga qarang)

Agar D nuqtadan DO yo'nalish bo'ylab qarasak, A nuqta E nuqtada ko'ringan bo'lib tuyiladi. Shuning uchun ES tuyilma qalinlik deyiladi va u haqiqiy qalinlik SA dan kichik bo'ladi. Normalga nisbatan kichik burchak bilan tushayotgan yorug'lik uchun sinish qonuni $r > r'$

$$n_{IIIIC} = \frac{n_{X_{\text{shisha}}}}{n_{\text{unnen}}} = \frac{1}{n}; \quad \frac{1}{n} = \frac{\sin r}{\sin r^*} = \frac{\operatorname{tg} r'}{\operatorname{tg} r^*}; \quad \text{EOS dan } \operatorname{tg} r' = \frac{OC}{n}; \quad \Delta$$

AOS dan esa $\operatorname{tg} r = \frac{C}{H}$;

va niyoyat muhitni sindirish ko'rsatgichi uchun quyidagi olinadi
 $n = \frac{H}{h}$; Shunday qilib, haqiqiy N va tuyulma qalinligi o'lchanadi va
 maqsadga erishish mumkin.

1. Mikrometr orqali 4-5 joydan shisha qalinligi o'lchanadi va
 o'rtachasi topiladi.

2. 2 – tajribadagi usul bilan shishani tuyulma qalinligi o'lchanadi.


3. Natijalar tablitsaga quyilib absolyut va nisbiy xatoliklar topiladi.

3-jadval

N	$N (mm)$	N	n	H	n_{shisha}	Δn	$\varepsilon \%$
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
O'r							

Sinov savollari

1. Har bir tajribani bajarish yo'li va kutilgan maqsad nima?
2. Mikroskop va uni xarakterlovchi kattaliklarni tushuntiring?
3. Mikroskopda nurlar yo'li chizib ko'rsating?
4. Yorug'likni qaytish va sinishni chizib ko'rsating?
5. Sindirish ko'rsatkichini fizik ma'nosini (absolyut va nisbiy)aytib
 bering?
6. Sindirish ko'rsatkichini aniqlashdagi hisoblash formulasini
 chiqarib bering?



3-rasm

11-LABORATORIYA ISHI

YORUG'LIK INTERFERENSIYASINI HOSIL BO'LISHINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: yorug'lilik interferensiyasini o'rganish va eritmaning konsentratsiyasini aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Interferometr, har xil eritmalar.

Nazariy qism

Bir xil chastotali ikkita to'lqin qo'shilganda fazoning biror nuqtasida bir xil yo'nalgan

$$A_1 \cos(\omega t + \alpha_1)$$

$$A_2 \cos(\omega t + \alpha_2)$$

tebranishlar o'yg'otayapti deb faraz qilaylik.

Ma'lumki, berilgan nuqtadagi natijaviy tebranishlar amplitudasi qo'yidagi formulada topiladi.

$$\bar{A}^2 = A_1^2 + A_2^2 + 2A_1A_2 \cos(\alpha_2 - \alpha_1)$$

Agar to'lqinlar o'yg'otayotgan tebranishlarning fazalari farqi $\alpha_2 - \alpha_1$ vaqt bo'yicha o'zgarmasa, kogerent to'lqinlar deyiladi. Bunday to'lqinlarning manbalari ham kogerent manbalar deb ataladi.

To'lqinlar kogerent bo'lganda $\alpha_2 - \alpha_1$ uzlusiz ravishda o'zgaradi va har qanday qiymatni bir xil ehtimoli bilan qabul qila oladi. Shu sababli $\cos(\alpha_2 - \alpha_1)$ ning vaqt bo'yicha o'rtacha qiymati nolga teng. Bu holda

$$\bar{A}^2 = \bar{A}_1^2 + \bar{A}_2^2$$

Bundan, nokogerent to'lqinlar ustma – ust tushgandagi intensivlik har bir to'lqin alohida hosil qiladigan intensivliklarni yig'indisiga teng bo'ladi, degan xulosaga kelamiz:


$$I = I_1 + I_2 \quad (1)$$

To'lqinlar kogerent bo'lganda $\cos(\alpha_2 - \alpha_1)$ ning qiymati vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi (lekin har bir nuqtasida o'z qiymati bo'ladi), ya'ni

$$I = I_1 + I_2 + 2\sqrt{I_1 I_2} \cos(\alpha_2 - \alpha_1) \quad (2)$$

Fazoning qaysi nuqtalari uchun $\cos(\alpha_2 - \alpha_1) > 0$, bo'lsa, u usha joylarda $I_1 + I_2$ dan katta bo'ladi; qaysi nuqtalarda $\cos(\alpha_2 - \alpha_1) < 0$ bo'lsa, I o'sha joylarda $I_1 + I_2$ dan kichik bo'ladi. Shunday qilib kogerent yorug'lilik to'lqinlari ustma – ust tushganda yorug'lilik oqimining fazada qayta taqsimlanishi ro'y beradi, natijada fazoning ba'zi joylarida

intensivlikning maksimumlari, boshqa joylarda – minimumlari vujudga keladi. Bu hodisa to'lqinlarning interferensiysi deb ataladi. Masalan: ikki kogerent to'lqiniga ajralish 0 nuqtada amalga oshayotgan bo'lsin (rasm1). Z nuqtaga kelguncha birinchi to'lqin sindirish ko'rsatkichi bo'lgan muhitda yo'lni bosib o'tadi, ikkinchi to'lqin esa, sindirish ko'rsatkichi n_2 bulgan muxitda S_2 yo'lni bosib o'tadi. Agar 0 nuqtada tebranish fazasi ot bo'lsa, birinchi to'lqin R nuqtada



Tebranish uyg'otadi: ikkinchi to'lqin esa, $A_2 \cos \omega(t - \frac{S_2}{g_2})$ tebranishni

uyg'otadi; bu yerda $\theta = s/n_1$ va $\theta_2 = s/n_2$ – birinchi va ikkinchi to'lqinlarning fazaviy tezligi. Demak; to'lqinlar R nuktada uygotgan tebranishlarning faza farqi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\delta = \omega \left(\frac{S_2}{g_2} - \frac{S_1}{g_1} \right) = \frac{\omega}{C} (n_2 S_2 - n_1 S_1)$$

ω/s urniga $2\pi\nu/s = 2\pi/\lambda_0$ ni ko'yib (λ_0 – vakuumdagi to'lqin uzunligi) fazalar farqi ifodasini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\delta = \frac{2\pi}{\lambda} \Delta \quad (3)$$

bu yerda

$$\Delta = n_2 S_2 - n_1 S_1 = L_2 - L_1 \quad (4)$$

To'lqinlar bosib o'tadigan yo'llar optikaviy uzunliklarning farqiga teng kattalik bo'lib, optikaviy yo'llar farqi deb ataladi. (3) formuladan ko'rindaniki, agar optikaviy yo'llar farqi Δ vakuumdagi to'lqin uzunliklarining butun soni marta olinganiga teng bo'lsa, ya'ni

$$\Delta = \pm R \lambda_0 \quad (R = 0, 1, 2, \dots) \quad (5)$$

bo'lsa, fazalar farqi 2π ga karrali bo'ladi va har ikki to'lqin R nuqtada uyg'otayotgan tebranishlarning fazasi bir xil bo'ladi. Demak, (5) shart interferension maksimumlar shartidir.

Agar Δ vakuumdagi to'lqin uzunliklarining yarmi butun soniga teng bo'lsa, ya'ni


$$\Delta = \pm \left(R + \frac{1}{2} \right) \lambda_0 \quad (R=0, 1, 2\dots)$$

bo'lsa, $\delta = \pm(R2\pi + \pi)$ bo'ladi va R nuqtadagi tebranishlar qarama-qarshi fazali bo'ladi. Shunday qilib, (6) shart interferension maksimumlar shartidir.

Interferometr optik yo'l farqini hisoblashga moslashtirilgan (2-rasm), S_1 , S_2 tirkishdan chiqgan nurlar, sindirish ko'rsatgichi har xil bo'lgan birday (1) qalinlikdagi qatlamdan o'tib


$$\Delta = n_2 l - n_1 l = (n_2 - n_1)l \quad (7)$$

optik yo'l farqi hosil bo'ladi.



2-rasm

Kuzatishni soddalashtirish uchun S_1 , S_2 dan chiqqan nurlar ikkiga bo'linadi. Bir qismi kyuveta orqali o'tadi, ikkinchisi uni chetlab o'tib, ko'rish maydonida ikki qator interferension polosa hosil qiladi. (3 – rasm)



3-rasm

Kyuveta orqali o'tgan nurlar interferensiyon manzarani optik yo'lga proporsional siljitadi (3b-rasm).

Manzarani rostlash uchun mikrometr vintli moslamadan foydalanadi. Moslama shkalasini bir bo'limi optik yo'l qadar o'zgartiradi.

U holda optik yo'l farqini

$$\Delta = \frac{N\lambda}{30} \quad (8)$$

formuladan hisoblash mumkin bo'ladi.

Sindirish ko'rsatkichining farqi esa:

$$n_2 - n_1 = \frac{N\lambda}{30l} \quad (9)$$

Agar sindirish kursatkichi farqini konsentratsiyaga bog'lanish grafigi $\Delta n=f(c)$ ma'lum bo'lsa, grafikdan foydalanib konsentratsiyani aniqlash mumkin bo'ladi.

Ishning bajarilish tartibi

1. Namuna suyuqlik (distirlangan suv solingan idish joyiga quyilib interferensiyon manzara rostlanadi va baraban ko'rsatgichi N_0 yozib olinadi.
2. Idish (kyuveta) ni chap qismi spirt bilan tozalanib unga tekshiriladigan eritmadan, o'ng qismiga esa etalon suyuqlikdan quyib interferensiyon manzara qayta rostlanadi. (3,v-rasm).
3. Mikrovint ko'rsatgichi N_1 yozib olinadi. $N=N_1 \pm N_0$. (+) vint yuqoriga siljisa, (-) vint pastga siljisa.
4. (9) formuladan foydalanib sindirish ko'rsatgichlari farqi nisoblanadi.
5. Grafikdan foydalanib eritma konsentratsiyasi aniqlanadi.

Sinov savollari

1. Yorug'lik interferensiyasi, fazalar va optik yo'l farqini tushuntiring?
2. Interferensiyani kuzatish usullarini chizib ko'rsating?
3. Interferensiyani max va min shartlarini yozing?
4. Kogerent nurlar nima?
5. Nima uchun odatdag'i sharoitda interferensiya kuzatilmaydi?
6. Interferometr sxemasini chizing?
7. Ishning bajarish tartibini aytинг?

12-LABORATORIYA ISHI**STEFAN-BOLSMAN DOIMIYSINI ANIQLASH**

Ishning maqsadi: Issiqlik nurlanish qonunlarini amalda qo'llashni o'rGANISH.

Kerakli asbob va qurilmalar: Pirometr, ampermetr, voltmetr, cho'g'lanma tolali lampa.

Nazariy qism

Tiniq bo'limgan jismga tushgan yorug'lik oqimining bir qismi qaytadi bir qismi qisman shu jism tomonidan yutiladi va jismlar qiziydi. O'zini o'rab turgan muhitga nisbatan yuqori temperaturagacha qizdirilgan jismlar energiya chiqara boshlaydilar. Chiqarilgan energiya elektromagnit to'lqinlar shaklida muhitda tarqaladi. Bu xildagi nurlanishga (energiya chiqarishga) issiqlik yoki temperaturali nurlanish deyiladi.

Issiqlik nurlanishning asosiy xarakteristikasi

Issiqlik nurlanishni asosan ikki kattalik bilan xarakterlash mumkin.

I. Integral nurlanish energetik yoritishlik bo'lib, birlik yuzasidan vaqt ichida barcha to'lqin uzunligi sohasiga chiqarilgan energiyaga teng bo'lgan kattalikdir.

$$I = \frac{E_{\text{нр}}}{s} \quad (1)$$

yorug'lik nurlanish energiyasi.

II. Nurlanishni monoxromatik intensivligi bo'lib, birlik to'lqin uzunligi oralig'ida chiqarilgan energiyaga teng bo'lgan kattalikni bildiradi.

$$I_\lambda = \frac{dE_{\text{нр}}}{d\lambda}$$

$$I_\lambda = \frac{dE_u}{d\lambda}$$

Bu kattalikga nur chiqarish qobiliyati ham deb ataladi. Ta'rifga ko'ra nur chiqarish qobiliyati bilan energetik yoritishlik orasida

$$I = \int I_\lambda \hat{} d\lambda \quad (2)$$

bog'lanish bor.

Agar jismga tushayotgan yorug'lik energiyasini E , to'lqin uzunligini biror ($\lambda, \lambda + d\lambda$) sohasidagi jism E_k qaytayotgan va ye_{yū} yutish qismi E yutilayotgan bo'lsa, energiyani saqlanish qonuniga asosan,

$$E_{kuy} + E_{yu} = E_0 \quad (4)$$

yozish mumkin. (4) ni o'ng tomoni E_{0tush} ga bo'lib,

$$\frac{E_k}{E_0} + \frac{E_{yu}}{E_0} = 1 \quad (5)$$

ni hosil qilamizki, $E_{yu}/E_0 - r_1$ nur yutish qobiliyati deb ataladi. Nur yutish kobiliyati ulchamsiz kattalik bo'lib, tushayotgan yorug'likni ($\lambda, \lambda + d\lambda$) oraliqda qanday ulushi yutilayotganligini bildiradi. O'ziga tushayotgan yorug'lik energiyasini barcha to'lqin uzunligi sohasida to'la yuta oladigan jism absolyut qora jism deb ataladi. Absolyut qora jism uchun

$$a = \left(\frac{E_{yu}}{E_0} \right) = 1$$

Issiqlik nurlanish qonunlari

1. Nurlanish chiqarish qobiliyatini nur yutish qobiliyatiga nisbati, jism tabiatiga bog'lik bo'lmay, hamma moddalar uchun o'zgarmas miqdor bo'lib, to'lqin uzunligini va temperaturani funksiyasidir.

$$\frac{r_i(\lambda T)}{a(\lambda T)} = f(\lambda, T) \quad (6)$$

Kirxgof qonuni

Demak, jism qanday uzunlikdagi to'lqinni yutsa, shunday to'lqin uzunlikdagi nurni chiqaradi. Ma'lumki, absolyut qora jism uchun $a(\lambda T) = 1$. (6) dan $f_i(\lambda, T) = e(\lambda, T)$, $e(\lambda, T)$ absolyut qora jismni nur chiqarish qobiliyati.

Absolyut qora bo'limgan jismlar uchun

$$\begin{aligned} d &> 1 \\ r_i &= a(\lambda, T) \\ &e(\lambda, T) \end{aligned}$$

2. Integral energetik yoritishlik jism aabsolyut temperaturasini to'rtinch darajasiga proporsional ravishda oshadi. (Stefan –Bolsman qonuni)

$$I(T) = \sigma T^4 \quad (7)$$

Stefan Bolsman doimiysi bo'lib, tajriba orqali aniqlanadi. SI sistemasida $\frac{bm}{m^2 \cdot pa \cdot \text{deg}^4}$ larda o'lchanadi. Bu qonun yordamida

temperaturasi T bo'lgan absolyut qora jismni birlik yuzasi orqali borayetgan issiqlik miqdorining quyidagicha qisoblash mumkin:

$$I = I_1 - I_2 = \sigma(T_1^4 - T_2^4) \quad (8)$$

T atrof muhit temperaturasi Absolyut qora bo'limgan jismlar nurlanishi har bir to'lqin uzunligiga $A(\lambda, t)$ marta absolyut qora jismnikidan kichik bo'lganligi sababli tula nurlanish $I = A\sigma T^4$

(9) bilan hisoblanadi. A moddaga xos o'zgarmas kattalik.

3. Nurlanish qobiliyatining maksimumiga to'g'ri kelgan to'lqin uzunligi absolyut temperaturaga teskari proporsional holda o'zgaradi.

$$\begin{aligned} b &= \lambda \cdot T^4 \\ E_{AT} &= \sigma T^4, \\ I_{AT} &= \sigma_s T^5 \end{aligned} \quad (10)$$

b-Vin doimiysi bo'lib, 2886 mk grad ga teng. Stefan-Bolsman va Vin qonunlari grafik ravishda birinchi rasmida tasvirlangan.

Ishni bajarish tartibi


Ishning sxemasi 1-rasmda keltirilgan. 1 m^2 yuzani nurlantirish uchun zarur bo'lgan energiya

$$E = \frac{IU}{2A} \quad (11)$$

I-tok kuchi, U-plastinka uchlaridagi kuchlanish. (3) va (11) ni tenglashtirib,


$$\sigma = \frac{IU}{2AS(T_1^4 - T_2^4)} \quad (12)$$

hosil qilamiz. $A=0,85$, $S=0,5 \text{ mm}^2$, T_1 -nurlanayotgan jismni temperaturasi, T_2 -atrof muhit temperaturasi, A -nikel oksidi uchun temperaturani 800^0 - 1400^0 S intervalida $A=0,85$ ga teng. Nurlanayotgan jismning temperaturasi optik metod, bilan o'lchanadi. Bu metodda qizdirilgan qattiq jismni rangi va intensivligi bilan tenglashtiradi.



1-rasm

Pirometrni rasmi 2-rasmda keltirilgan. Linza uni kattalashtirib ko'rsatadi. Pirometr chegaralangan spektral sohada intensivlikni tenglashtirishga ega. Monoxromatik nurlardan foydalanish uchun pirometrni okulyarga svetofiltr o'rnatilgan. Temperaturani $700-750^{\circ}\text{S}$ chegarasida svetofiltr foydalanimaydi. $800-1200^{\circ}\text{S}$ chegarasida qizil svetofiltrdan $1400-2000^{\circ}\text{S}$ chegarasida ko'kish svetofiltrdan foydalanimiz. Galvanometr temperaturani Selziy shkalasida absolyut qora jismni nurlanish qonuni asosida darajalangan b'lib, qizil svetofiltrdan foydalanganda yuqoridagi shkaladan temperaturani qaraymiz.



2-rasm

Ishni bajarish tartibi

1. Reostatdagagi oy belgini korpusdagi xuddi o'zidek beljni to'grisiga qo'yamiz, perometrni strelkasi bu vaqtida nol shkalani ko'rsatadi (4-rasm).

2. 4-rasmdagi 2 kalitni ulaymiz va reostatni soat strelkasi bo'yicha burab lampani chug'lantiramiz (1200°S)

3. Okulyardan qarab kuzatish yo'li bilan etalon ipni tasvirini hosil qilamiz va 2 kalitni ulaymiz.

4. 4 kalitni burab ko'rish maydoniga svetofiltirni kiritamiz.

5. Avtotransformatorni richagini nolga to'g'rileyimiz. Qizdirilayotgan jismni mahkam o'rnatib, zanjirni ulaymiz. Avtotransformatorni richagini burash yo'li bilan cho'g'lanish holatiga olib kelamiz.

6. 2 kalitni ulab, reostat halqasini shunday buraymizki, etalon ikki o'rta qismi qizdirilgan jism orasida ketsin.

7. Pirometr, ampermetr va voltmetr ko'rsatishlarini jadvalga yozamiz.

8. 2 kalitni o'chirib, reostat halqasini. Chap tomonga burab qo'yamiz.

9. Jismni qiziganlik darajasini oshirib 5, 6, 7 punktlarni takrorlaymiz.

10. Yuqori temperaturada o'lchanganda ko'k svetofiltrdan foydalanamiz.

11. 5, 6, 7, 9 punktlarni takrorlab, yuqori temperaturalarda 2 marta o'lhash o'tkazamiz va hamma tajribada olingen natijalarni jadvalga yozamiz.

1-jadval

N	$T_2 \ell^0 S$	$T_1 \ell^0 S$	IA	σ	$\Delta\sigma$	$\frac{\Delta\sigma_{yprmu}}{\sigma_{rinf}}$	$U(B)$
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
O'rt							

Sinov savollar

1. Nurlanishni asosiy xarakteristikasini ta'riflang?
2. Optik pirometrni tuzilishi va ishlash prinsipi tushuntiring?
3. Temperaturali nurlanish qonunlari aytib bering?
4. Plank doimiyisini fizik ma'nosini tushuntiring?
5. Optik perometrni o'lhash chegarasini chegaralanganligini sababi.
6. Eksperimental qismini sxemasini chizib ko'rsating.
7. Haqiqiy temperatura bilan yorqinlik temperaturasi orasidagi bog'lanishni yozing va ma'nosini tushuntiring?

13-LABORATORIYA ISHI


SPEKTROSKOPNI DARAJALASH

Ishning maqsadi: Spekral seriyalar qonunlarini o'rganish

Kerakli asbob va qurilmalar: Spektroskop, kvars yoki neon lampa.


Nazariy qism

Spektrning ko‘rinadigan qismini sifat jihatidan tekshirishda turli tipdagi spektroskoplar ishlataladi: ularning eng sodda tiplaridan biri S tirkish va O₁ obyektivli K kollimator truba. P prizma O₂ obyektivli Zt-ko‘rish trubasi va mikrovint MK dan tashkil topgan.



1a-rasm

Kollimatorning vazifasi spektroskopning prizmaga tushuvchi parallel yorug‘lik dastasi hosil qilishdan iborat. Buning uchun S-tirkish O₁ obyektivning fokal tekisligida prizmaning sindiruvchi qirrasiga parallel vaziyatda o‘rnatalidi.



1b-rasm

Spektroskopning prizmasi odatda eng kam burilish burchagi ostida o‘rnataladi, ya’ni prizma uning sindiruvchi qirrasiga perpendikulyar tekislikda (bosh kesim tekisligida) yotgan nurlar yo‘li simmetrik bo‘ladigan (nurlar) vaziyatda o‘rnataladi. Singan nurlar prizma ichida uning asosida parallel yo‘nalgan bo‘ladi.

Yorug‘lik dastasi O₁ obyektivdan chiqqandan so‘ng, P prizmaning oldingi yog‘iga tushadi (1a-rasm) va unda spektrlarga ajralib yorug‘likning to‘lqin uzunligiga bog‘liq ravishda har xil rangli va har xil yo‘nalishdagi parallel nurlar dastasi tarzida chiqadi.

Nurlar prizmadan o'tib. O₂ obyektiv orqali optikaviy ko'rish trubasiga tushib faqal tekisligida spektr hosil qiladi.

Spektroskop shkalasini darajalashda chiziqlari ko'p bo'lgan neon lampasining spektridan foydalaniadi. Neon lampasi biqsima razryadli lampa bo'lib, unda razryadning asosan ikkita parallel disk shkaladagi elektrodlar orasidagi fazoda yig'ilgan yorug'lanishdan foydalaniadi. Bu tipdagi lampalarda tokning normal zichligi 2,5 mA/sm ga teng. Lampadan o'tuvchi tok kuchi lampa bilan ketma – ket ulangan qarshilik vositasida tartibga solinib turiladi.

Ishni bajarilish tartibi

I-topshiriq. Spektroskop mikrometr vintini darajalash

Spektroskopni darajalash yorug'likni to'lqin uzunligini ifodalashdan iborat.

1. Lampani kollimator tirqish qarhisiga o'rnatish (lampani 220 V ulang).

2. Mikrometr barabanini sekin optik okulyar trubasidagi ko'rsatkichini neon spektri. Masalan, Optik qizil spektr ustiga to'xtatib baraban ko'rsatkichini yozib olamiz va h.

O'lchashlar

Har bir ranglarda bajarilib jadvalga yozilgan neon spektrini to'lqin uzunligi 1-jadvalda berilgan.

1. Barabanni ko'rsatishini absitsa o'kiga to'lqin uzunligini ordinata o'qiga qo'yib, darajalash grafigini chizamiz. Bu grafikdan foydalaniib har qanday rangni to'lqin uzunligini topish mumkin. Agar spektroskopda baraban ko'rsatkichi aniq bo'lsa vintning millimetrli shkalasi 50 ta bo'linmadan iborat bo'lib, vintning daraja kiymati 0,02 bo'lsa u holda vintning to'la aylanishi 1 mm ga teng buladi. n=5 xona, n=0,02, N=0,02 50=1 mm.

1-jadval

<i>N</i>	<i>Chiziqlarning rangi va vaziyati</i>	<i>Nisbiy ravshan</i>	<i>To'lqin uzunligi (nm larda)</i>	<i>Barabon ko'r-satishi</i>
1.	Ravshanlik qizil	10	640, 2	
2.	Qirmizi qizil bir-biriga yaqin ikki chiziqning chapdagisi Qirmizi 4-dan chapda	11	614, 3	
3.	ko'rinib turgan birinchi qizil Sariq Ravshan yashil, 4-dan ungda	5	594, 5	
4.	ko'rinib turgan 1-chiziq	20	585, 2	
5.	Yashil ikkita chiziqning chapdagisi Yashil ikkita yolg'iz	4	576, 0	
6.	chiziqning o'ngdagisi Yashil, bir xil yoruqlikdagi	6	540, 0	
7.	beshta chiziqning o'ngdagisi Ko'k-yashil yakka	8	533, 01	
8.		5	503, 1	
9.		8	434, 9	

2-topshiriq. Neon spektrini tekshirish

Neon spektrini sariq chizigini to'lqin uzunligini aniqlash.

1. Neon lampanning 220 V li zanjirga ulaymiz. Spektroskopda spektrni kuzatamiz.

2. Okulyarga qarab spektroskopni barabanini siljitim sariq rang ustiga sanoq chizigini keltirib baraban kursatkichini yezib olamiz.

3. Baraban ko'rsatgichini X o'qiga to'lqin uzunliklarini U o'qiga qo'yib, spektroskopni darajalash chizigidan foydalanim sariq rang to'lqin uzunligini topamiz.

2-jadval

<i>N</i>	<i>Baraban ko'rsatishi</i>	λA^{θ}
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
O'rt		

Sinov savollari

1. Dispersiya hodisasi nimadan iborat?
2. Spektral apparatning tuzilishini tushuntiring?
3. Bor postulatalarini aytib bering va mazmunini tushuntiring?
4. Spektr turlarini ayting?
5. Atom tuzilishi chiziqli spektr hosil bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Yutilish spektri nima?

1. Mexanika va molekulyar fizika bo'yicha

1. Jism vaziyatining vaqt o'tishi bilan uzlusiz o'zgarishiga deyiladi.

<i>A. Harakat</i>	<i>B. Ilgarilanma harakat</i>
<i>C. Mexanik harakat</i>	<i>D. Aylanma harakat.</i>
2. Jism vaziyatining vaqt o'tishi bilan boshqa jismlarga nisbatan o'zgarishiga..... deyiladi.

<i>A. Mexanik harakat.</i>	<i>B. Ilgarilanma harakat.</i>
<i>C. Aylanma harakat.</i>	<i>D. Harakat.</i>
3. Jism harakati davomida o'z ortida qoldirgan izga deyiladi.

<i>A. Trayektoriya.</i>	<i>B. Yo'l</i>	<i>C. Siljish.</i>	<i>D Ko'chish.</i>
-------------------------	----------------	--------------------	--------------------
4. Jism harakat trayektoriyasining uzunligiga deyiladi.

<i>A. Yo'l</i>	<i>B. Siljish.</i>	<i>C. Ko'chish.</i>	<i>D. Trayektoriya.</i>
----------------	--------------------	---------------------	-------------------------
5. Jismni harakatga keltiruvchi vositaga yoki jism harakat yo'nalishini o'zgarishiga sabab bo'luvchi fizik kattalikga deyiladi.

<i>A. Kuch</i>	<i>B. Og'irlilik.</i>	<i>C. Massa</i>	<i>D. Zichlik.</i>
----------------	-----------------------	-----------------	--------------------
6. Jismning birlik vaqt ichida bosib o'tgan masofasiga deyiladi

<i>A. Tezlik.</i>	<i>B. Tezlanish</i>	<i>C. Kuch</i>	<i>D . Harakat.</i>
-------------------	---------------------	----------------	---------------------
7. Birlik vatq ichida jism tezligining o'zgarishiga deyiladi.

<i>A. Tezlanish.</i>	<i>B. Tezlik</i>	<i>C. Kuch</i>	<i>D. Massa</i>
----------------------	------------------	----------------	-----------------
8. Jismning ish bajarish qobiliyatini xarakterlovchi fizik kattalikga deyiladi.

<i>A. Energiya</i>	<i>B. Quvvat</i>	<i>C. Ish</i>	<i>D. Kuch momenti.</i>
--------------------	------------------	---------------	-------------------------
9. Jismning o'z harakati tufayli olgan energiyasiga deyiladi.

<i>A. Kinetik energiya</i>	<i>B. Potensial energiya</i>
<i>C. Ichki energiya</i>	<i>D. Quvvat</i>
10. Jismlarning o'zaro ta'sir energiyasiga deyiladi.

<i>A. Potensial energiya</i>	<i>B. Kinetik energiya</i>
<i>C. Ichki energiya</i>	<i>D. Quvvat.</i>
11. Kinetik energiya uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

<i>A. $mv^2/2$</i>	<i>B. mgh</i>	<i>C. Fs</i>	<i>D. ma</i>
-------------------------------	---------------	--------------	--------------
12. Potensial energiya uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

<i>A. mgh</i>	<i>B. $mv^2/2$</i>	<i>C. Fs</i>	<i>D. ma</i>
---------------	-------------------------------	--------------	--------------

13. Mexanik ish uchun to‘g‘ri yozilgan ifodani ko‘rsating.
- A. *Fs* B. *mgh* C. *Fv* D. *ma*
14. Quvvat uchun to‘g‘ri yozilgan ifodani ko‘rsating.
- A. *Fv* B. *mgh* C. *Fs* D. $mv^2/2$
15. Tekis to‘g‘ri chiziqli harakatda jismga ega bo‘lmaydi.
- A. *Tezlanish* B. *Tezlik* C. *Ish* D. *Massa*
16. jism harakatlanayotgan vaqtida uni tashkil etgan nuqtalar bir xil ko‘chsa (o‘ziga parallel) bunday harakat harakat deyiladi.
- A. *Ilgarilanma* B. *Aylanma* C. *Tekis* D. *Notekis*
17. Jismni yerga tortuvchi kuchga deyiladi.
- A. *O‘g‘irlilik kuchi* B. *Elastiklik kuchi*
C. *Ishqalanish kuchi* D. *Harakat kuchi*.
18. Jism deformatsiyalanganda hosil bo‘ladigan kuychga kuch deb aytiladi.
- A. *Elastiklik*. B. *Og‘irlilik* C. *Ishqalanish* D. *Arximed*.
19. Bir jism sirtiga ikkinchi jism harakatlanganda hosil bo‘ladigan va harakatga teskari yo‘nalgan kuchga kuchi deyiladi.
- A. *Ishqalanish* B. *Elastiklik*. C. *Og‘irlilik* D. *Arximed*
20. Jismlar orasida hosil bo‘ladigan ishqalanishga ishqalanish deyiladi.
- A. *Tashqi* B. *Ichki* C. *Tinch* D. *Sirpanish*.
21. Jismni tashkil etgan atom yoki molekulalar orasida hosil bo‘ladigan ishqalanish..... ishqalanish deyiladi.
- A. *Ichki* B. *Tashqi* C. *Tinch* D. *Dumalanish*.
22. Elastiklik kuchi uchun to‘g‘ri yozilgan ifodani ko‘rsating.
- A. $-kx$ B. kN C. *ma* D. *mg*
23. Ishqalanish kuchi uchun to‘g‘ri yozilgan ifodani ko‘rsating.
- A. *kN* B. $-kx$ C. *mg* D. *ma*
24. Jismning inertligini xarakterlovchi fizik kattalikka yoki jismda bor bo‘lgan modda miqdoriga deyiladi.
- A. *Massa* B. *Og‘irlilik* C. *Vaznsizlik* D. *Zichlik*
25. Jism massasi bilan uning tezligining ko‘paytmasisiga deyiladi.
- A. *Impuls*. B. *Massa* C. *Og‘irlilik*. D. *Zichlik*.
26. jism harakatini o‘rganuvchi, lekin jism harakati davomida unga ta’sir etuvchi kuchlarni e’tiborga olmaydigan fizika bo‘limi.
- A. *Kinematika* B. *Dinamika* C. *Statika* D. *Mexanika*.

27. jism harakatini o'rganuvchi hamda jism harakati davomida unga ta'sir etuvchi kuchlarni e'tiborga olib o'rganuvchi fizika bo'limi

A. Dinamika. B. Kinematika. C. Statika D. Mexanika.

28. shunday sanoq sistemalari mavjudki, ilgarilanma harakat qiluvchi jismga boshqa jism ta'sir etmasa, u holda jism o'z harakat yo'nalishini o'zgartirmaydi, yoki tinch turadi. Bunga Nyutonning qonuni deyiladi.

A. 1 B. 3 C. 2 D. 4

29. Jismga ta'sir etuvchi kuch jism massasi bilan shu kuch ta'sirida olgan tezlanishining ko'paytmasiga teng. Bunga Nyutonning qonuni deyiladi.

A. 2 B. 4 C. 3 D. 1

30. Jismga ta'sir etuvchi kuchlar miqdor jihatdan bir-birlariga teng va yo'nalishlari esa har xil . bunga Nyutonning qonuni deyiladi.

A. 3 B. 2 C. 4 D. 1

31. Ikki jismlar orasidagi o'zaro ta'sir kuch, shu jism massalari ko'paytmasiga to'g'ri propotsional va ular orasidagi masofa kvadratiga teskari proporsional. Bunga Nyutonning qonuni deyiladi.

A. 4 B. 3 C. 2 D. 1

32. Nyuton qonunlari bajariladigan sanoq sistemasiga sanoq sislemasi deyiladi.

A. Inersial B. Noinersial C. Galiley D. Lorens.

33. Jism massasi bilan uning aylanish o'qigacha bo'lgan masofa kvadratining ko'paytmasiga deyiladi.,

A. Inersiya momenti B. Kuch momenti

C. Impuls momenti D. Dipol momenti.

34. Jismlarning inersiya momentlari jism ga bog'liq bo'ladi.

A. Shakli B. Yuzi C. Hajmi D. O'lchami

35. Shar uchun inersiya momenti to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

A. $2/5 mR^2$ B. $1/12 ml^2$ C. mR^2 D. mR

36. Sterjen uchun inersiya momenti to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

A. $1/12 ml^2$ B. $2/5 mR^2$ C. mR^2 D. mR

37. Arximed kuchi uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

A. pgV B. pg C. pgH D. pgF

38. Agar Arximed kuchi og'irlik kuchidan katta bo'lsa, u holda jism suyuqlikda

A. Suzadi B. Cho'kadi

C. Muvozanatda turadi. D. Befarq bo'ladi.

39. Agar Arximed kuchi og'irlik kuchidan kichik bo'lsa, u holda jism suyuqlikda

A. Cho'kadi. B. Suzadi.

C. Muvozanatni yo'qotadi. D. befarq bo'ladi.

40. Suyuqlikning harakatdagi bosimi bosim deyiladi.

A. Dinamik B. Statik C. Gidrostatik D. Osmotik

41. Suyuqliklarning turli chuqurliklardagi bosimi bosimi deyiladi.

A. Statik B. Dinamik C. Gidrostatik D. Osmotik.

42. Suyuqlik harakatida uning qatlamlari aralashmasdan harakatlansa, u holda bunga oqim deyiladi.

A. Laminar. B. Turbulent C. Nostatsionar

43. Suyuqlik harakatida uning qatlamlari aralashsa, u holda bunga oqim deyiladi.

A. Turbulent B. Laminar C. Statsionar

44. Bir sekund ichidagi to'la tebranishlar soniga tebranish si deyiladi.

A. Chastota B. Davr C. Faza D. Amplituda

45. O'zining muvozanat vaziyatidan eng chekka nuqtaga og'ish tebranish si deyiladi.

A. Amplituda B. Chastota C. Davr D. Faza

46. Birlik vaqt ichidagi to'la tebranishlar soniga tebranish i deyiladi

A. Davr B. Chastota C. Faza D. Amplituda

47. Cho'zilmas, vaznsiz ipga osilgan sharchaga deyiladi.

A. Mayatnik B. Matematik mayatnik

C. Fizik mayatnik D. Prujinali mayatnik

48. Cho'zilmas, vaznsiz ipga osilgan moddiy nuqtaga deyiladi.

A. Matematik mayatnik B. Fizik mayatnik

C. Prujinali mayatnik D. Mayatnik

49. Tebranish amplitudasini birligi uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

A. metr B. Gers C. sekund D. gramm

50. Tebranish davri birligi uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

- A. sekund B. Gers C. metr D. gramm

51. Tebranish chastotasi birligi uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

- A. Gers B. metr C. gramm D. sekund

52. Tashqi kuch ta'sirida jism shaklining o'zgarishiga deyiladi.

- A. Deformatsiya B. Sinqikish

- C. Cho'zilish D. Harakat.

53. Jism quyidagi qaysi harakatda tezlanishga ega bo'ladi?

- A. Aylanma tekis B. Tekis

- C. To'g'ri chiziqli tekis D. Egri chiziqli

54. Birlik yuzaga tik ta'sir etuvchi kuchga son jihatdan teng bo'lgan kattalikga deyiladi.

- A. Bosim B. Zichlik C. Massa D. Hajm

55. Bosim birligi uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

- A. Paskal B. Dina C. Vatt D. Joule

56. 1mm simob ustuni necha Pa ga teng?

- A. 133,3 B. 101325 C. 98000 D. 760

57. 1 atmosfera bosimi necha Pa ga teng?

- A. 101325 B. 133,3 C. 9800000 D. 760

58. 1 atmosfera bosimi necha mm simob ustuniga teng?

- A. 760 B. 98 C. 1 D. 133

59. Atmosferaning yer sirtiga beradigan bosimini kim aniqlagan?

- A. Torrichelli B. Paskal C. Arximed D. Aristotel

60. Suyuqlik yoki gazga berilgan bosim shu suyuqlik yoki gazning barcha nuqtalariga o'zgarishsiz uzatiladi. Bunga Qonuni deyiladi

- A. Paskal B. Arximed C. Nyuton D. Galilei.

61. Molekulyar- kinetik nazariyada qanday gaz o'rganiladi?

- A. Ideal B. Real C. Ionlashgan D. Suyuq

62. Molekulalari o'zaro to'qnashmaydigan gazlar gaz deyiladi.

- A. Ideal B. Real C. Ionlashgan D. Suyuq

63. Ideal gazlarning Energiyasi nolga teng.

- A. Potensial B. Kinetik C. Ichki D. To'la

64. Molekulyar kinetic nazariyaning nechta qoidasi mavjud?
- A. 3ta B. 4ta C. 2ta D. Ita
65. O'zida kimyoviy elementning barcha xususiyatlarini saqlagan zarrachaga deyiladi.
- A. Molekula B. Atom C. Proton D. Neytron
66. Har qanday moddaning 1 molida $6,023 \cdot 10^{23}$ ta molekula bo'ladi. Bu son qanday nomlanadi?
- A. Avogadro B. Loshmidt C. Reynolds D. Faraday.
67. Og'rilik kuchi ta'siri bo'limganda zarrachaning suyuqlik yoki gaz ichidagi tartibsiz harakatiga harakati deyiladi.
- A. Broun B. Keplercha C. Xaotik D. Parabolik
68. Jismning issiqlik darajasini xarakterlovchi fizik kattalikka deyiladi.
- A. Harorat B. Qaynash C. Bug'lanish D. Ionlanish
69. Gaz massasi va hajmi o'zgarmas bo'lganda kechadigan jarayonlar jarayon deyiladi
- A. Izoxorik B. Izobarik C. Izotermik D. Adiabatik
70. Gaz massasi va bosimi o'zgarmas bo'lganda kechadigan jarayonlar jarayon deyiladi.
- A. Izobarik B. Izotermik C. Izoxorik D. Adiabatik.
71. Gaz massasi va harorati o'zgarmas bo'lganda kechadigan jarayonlar ... jarayon deyiladi.
- A. Izotermik B. Adiabatik C. Izoxorik D. Izobarik
72. Universal gaz doimiyining qiymati nechaga teng?
- A. 8,31 B. 1,38 C. 6,62 D. 4,19
73. Molekulyar kinetik nazariyasining asosiy tenglamasini toping.
- A. $P=2/3nE$ B. $P=1/3nE$ C. $P=2nE$ D. $P=mv/3$
74. Moddadagi barcha molekulalar sonini topish formulasini toping.
- A. $N=m/\mu$ B. $N=N_A m_0$ C. $N=N_A m/\mu$ D. $N=N_A/\mu$
75. Uglerod atomining massasini toping .
- A. $12 \cdot 10^{-23}$ B. $2 \cdot 10^{-26}$ C. $2 \cdot 10^{-23}$ D. $12 \cdot 10^{-26}$
76. Izoxorik jarayonda gazning bosimi 5 marta kamaygan bo'lsa , uning harorati qanchaga o'zgaradi .
- A. 5marta kamayadi B. 5marta ortadi
- C. O'zgarmaydi D. 2,5 marta ortadi
77. Bolsman doimiyining son qiymatini toping.
- A. $k=1,38 \cdot 10^{-20} \text{ J/K}$ B. $k=13,8 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$
- C. $k=1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$ D. $k=138 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$

78..Mendeleyev –Klapeyron tenglamasini toping.

- A. $PV = m/\mu RT$ B. $PV = RT/\mu$ C. $PV = \rho RT/\mu$ D. $P = vRT$

79.1atomli gazning hajmi 3 marta kamaytirilganda va molekulalarining o'rtacha kinetik energiyasi 2 marta oshirilganda shu gazning bosimi necha marta o'zgaradi?

- A. 6marta kamayadi B. 6marta ortadi
C. 3 marta ortadi D. 3marta kamayadi.

80. Jism 50m/s tezlik bilan yerga tushmoqda. Jism 1 sekunddan keyin qayerda bo'ladi?

- A. 45 B.40. C.55 D.50

81. Burgut o'z o'ljasiga tik holda shong'ib, 100m/s tezlikka erishdi.Burgut qanday masofani bosib o'tdi?.

- A.500 B.100 C. 400 D.200

82. Erkin tushayotgan jism tushishning oxirgi sekundida 50 m yo'l bossa,u qanday balandlikdan tushgan bo'ladi?

- A.150m B.200m C.100m D.250m

83. Jism 245m balandlikdan tushdi.Jism tushishning oxirgi sekundida qancha yo'l bosgan?

- A.64m B.62m C.66m D.68m

84.Jism qanday boshlang'ich tezlik bilan yuqoriga tik otilganda, u 10sek. o'tgach 20m/s bilan pastga harakat qiladi?

- A.78 B.80 C.75 D.87

85.Otilgan o'q va uning tovushi bir vaqtida 660m balandlikka yetadi.O'qning boshlang'ich tezligini toping.Tovushning tezligi 330m/s.

- A.340 B.459 C.345 D.465

86.Yerning o'z o'qi atrofida aylanishida ekvator nuqtalari qanday chiziqiy tezlik bilan harakat qiladi? Yerning radiusi 6380km.

- A.464 B.456 C.467 D.465

87.Agar orbita radiusi $1,5 \times 10^8$ km bo'lsa, Yer Quyosh atrofida qanday chiziqiy tezlik bialn harakat qiladi?

- A.30 B.40 C.50 D.60

88.Shamol dvigatelining g'ildiragi 2 minutda 50 marta aylansa, uning aylanish chastotasi qanday bo'ladi?

- A.0,42 B.0,45 C.0,56 D.0,43

89.Soat minut strelkasining burchak tezligi soat strelkasining burchak tezligidan necha marta katta?

- A.12 B.13 C.14 D.11

90.Tokarlik stanogida yo‘nilayotgan, diametri 88mm.li val 600 ayl/min chastota bilan aylanmoqda.Kesish tezligini aniqlang.

A.2,5 B.3,5 C.2,6 D.5,5

91.Massasi 5g bo‘lgan jismga 200 dina kuch ta’sir etmoqda. Jism qanday tezlanish bilan harakatlanadi?

A.40 B.50 C.60 D.30

92.5000dina kuch ta’sirida $0,2 \text{ m/s}^2$ tezlanish oladigan jism massasini aniqlang.

A.0,25 B.0,35 C.0,28 D.0,38

93.Og‘irligi 120 k N bo‘lgan beton plita yer sirtida tekis harakatlanmoqda.Tortish kuchi 54 k N. Ishqalanish koefitsiyentini toping.

A.0,45 B.0,56 C.0,40 D.0,50

94.Po‘lat oyoqli chana muz ustida 2N gorizontal kuch ta’siri ostida tekis siljimoqda.Chananing og‘irligi qancha?

A.100 N B.200 N. C.300N D.340N

95.Ishlayotgan elektr dvigatelda ko‘mir shyotka mis kollektorga 5 N kuch bilan siqiladi.Ishqalanish kuchini toping.

A.1,3 B.1,4 C.1,5 D.1,6

96.Har birining massasi 3,87 tonna bo‘lgan Yerning ikkita sun’iy yo‘ldoshi bir-biriga 100 m masofagacha yaqinlashsa ,ular orasidagi tortishish kuchi qancha bo‘ladi?

A. 10^{-7} B. 10^{-6} C. 10^{-8} D. 10^{-5}

97.Oyning massasi Yerning massasidan 100 marta, diametri esa 4 marta kam.oydagisi erkin tushish tezlanishini toping.

A.1,6 B.1,8 C.1,9 D.1,7

98.Shaxta qafasining og‘irligi tinch holda 2500N.Qafasning og‘irligi 2000Ngacha kamaygan bo‘lsa, u qanday tezlanish bilan pastga tushadi?

A.2 B.5 C.3. D.6

99.Jism ekvatorda og‘irlikka ega bo‘imasligi uchun Yer o‘z aylanishidan necha marta tezroq aylanishi kerak?

A.17 B.18 C.16 D.19

100.Massasi 60 kg yuk 720 N kuch bilan yuqoriga tik ko‘tarildi. Ko‘tarilishning uchinchi sekundida yuk qancha balandlikka ko‘tariladi?

A.5 B.6 C.7 D.8

101.Yerdan 2 m balandlikda gorizontal otilgan to‘p 7 m uzoqlikka borib tushdi. To‘pning boshlang‘ich tezligini toping.

A.11 B.13 C.17 D.15

102.Oy Yer atrofida 1 km/sek tezlik bilan harakat qiladi.Uning orbita radiusi 384000 km.Yerning massasi qancha?

A. 6×10^{24} B. 6×10^{27} C. 6×10^{29} D. 6×10^{27}

103.Planetaning massa va radiusi Yernikiga qaraganda 2 marta katta. Bu planeta uchun birinchi kosmik tezlik qanday bo‘ladi?

A.8000 B.8900 C.6000 D.7000

104.Silindrda porshen ostidagi 10 litr gazning harorati 323 dan 273K gacha izobarik sovitiladi.Sovigan gazning hajmi qancha?

A.8,5 B.8,9 C.9 D.9,5

105. Hajmi 20000 litr bo‘lgan xonada havoning harorati 293 dan 273Kgacha pasaygan. Atmosfera bosimi normal,xonadagi havo massasi qanchaga ortgan?

A.1,7 B.1,8 C.1,9 D.1,6

106. 12°S haroratda velosiped shinasidagi havoning bosimi 150000 Pa 42°S haroratda bu bosim qanday bo‘ladi?

A.170000 B.180000 C.160000 D.190000

107.Elektr lampochka yonganda undagi gazning harorati 15 dan 300° Sgacha ortsa, lampochka balonidagi gazning bosimi necha marta ortadi?

A.2 B.4 C.3 D.7

108. Ballonga $1,65 \times 10^7$ Pa bosimgacha gaz to‘ldirilganda gazning harorati 50°S gacha ortgan.Ballonning 20°S gacha sovigandan keyingi gazning bosimini toping:

A. $1,5 \times 10^7$ B. 5×10^8 C. $2,5 \times 10^9$ D. $3,5 \times 10^7$

109. 100000 Pa bosim ostidagi va harorati 100°S bo‘lgan kislород 150000 Pa bosimgacha izoxorik siqilgan. Bu gazning bosimini 100000 Pa gacha pasaytirish uchun uni qanday haroratgacha izoxorik sovitish kerak?

A.- 24°S B.- 34°S C.- 25°S D.- 35°S

110.Havo 0°S harorat va 100000 Pa bosim ostida 1 litr hajjni egallaydi.Qanday haroratda 200000 Pa bosim ostida havoning hajmi 2 litr bo‘ladi?

A.820 B.850 C.830 D.720

2.Elektrromagnetizm bo'yicha

1. Birining zaryadi $6 \cdot 10^{-9} \text{ KI}$, ikkinchisini $-3 \cdot 10^{-9} \text{ KI}$ teng bo'lgan kichik sharchalar vakuumda qanday o'zaro kuch bilan ta'sirlashadi. Sharchalar orasidagi masofa 5 sm teng.

- A. $6,6 \times 10^5$ B. $6,6 \times 10^4$ C. $6,6 \times 10^6$ D. $6,6 \times 10^7$

2. Kulon qonuni uchun to'g'ri yozilgan formulani ko'rsating.

$$A. F = \frac{q_1 \cdot q_2}{4\pi\epsilon_0 R^2} \quad B. F = \frac{1}{4\pi\epsilon_0 R^2} \quad C. F = \frac{q_1}{4\pi\epsilon_0 R^2} \quad D. F = \frac{q_1 \cdot q_2}{4\pi\epsilon_0 R}$$

3. Diametri $0,1 \text{ mm}$ bo'lgan suv tomchisi, elektr maydon kuchlanganligi 10^4 N/KI teng bo'lgan moyda muallaq turibdi. Bir jinsli elektr maydon kuchlanganligi vertikal yuqoriga yo'nalgan. Bu suv tomchisida nechta elementar zaryadi bor? Moyning zichligi $\rho_m = 8 \cdot 10^2 \text{ kg/m}^3$.

- A. 6×10^5 B. 6×10^4 C. 6×10^3 D. 6×10^2

4. SGS sistema uchun Kulon qonuni to'g'ri yozilgan formulani ko'rsating.

$$A. F = \frac{q_1 \cdot q_2}{\epsilon_0 R^2} \quad B. F = \frac{1}{\epsilon_0 R^2} \quad C. F = \frac{q_1}{\epsilon_0 R^2} \quad D. F = \frac{q_1 \cdot q_2}{\epsilon_0 R}$$

5. Gorizontal joylashgan yassi kondensatorning elektr maydonida, ikkita elektron zaryadiga ega bo'lgan moy tomchisi muvozanatda bo'lсин. Kondensatorga berilgan kuchlanish $U=820 \text{ V}$ teng. Moy tomchisining radiusi $r=1 \text{ mk}$. Kondensator plastinkalari orasidagi masofa $d=8 \text{ mm}$. Moyning zichligi $\rho=0.8 \text{ g/sm}^3$. Elektron zaryadi nimaga teng bo'ladi?

- A. $1,6 \times 10^{-19} \text{ KI}$ B. $1,6 \times 10^{-18} \text{ KI}$ C. $1,6 \times 10^{-17} \text{ KI}$ D. $1,6 \times 10^{-16} \text{ KI}$

6. Elektr maydon kuchlanganligi uchun to'g'ri yozilgan ifodani ko'rsating.

$$A. E = \frac{F}{q} \quad B. E = \frac{F}{A} \quad C. E = \frac{F}{\varphi} \quad D. E = \frac{F}{D}$$

7. Ikkita har xil ishorali ($5 \cdot 10^{-9} \text{ KI}$) nuqtaviy zaryadlar bilan elektr maydon hosil qilingan. Bu zaryadlar orasidagi masofa 10 sm teng. Elektr maydon kuchlanganligini aniqlang:

A. $3,6 \times 10^4 V/m$ B. $3,6 \times 10^5 V/m$ C. $3,6 \times 10^6 V/m$ D. $3,6 \times 10^7 V/m$

8. Vakuumning dielektrik singdiruvchanligi nechaga teng?

A. $8,85 \times 10^{12} F/m$ B. $8,5 \times 10^{12} F/m$ C. $8,8 \times 10^{12} F/m$ D. $8,6 \times 10^{12} F/m$

9. Elektr maydonda joylashgan zaryadga ta'sir etuvchi kuch nimaga teng?

A. $F=Ed$ B. $F=Eq$ C. $F=Eg$ D. $F=Aq$

10. Zaryadlangan cheksiz uzun ipdan $r_1 = 4sm$ masofada ($q = 0,7 \cdot 10^{-9} Kl$) nuqtaviy zaryad joylashtirilgan. Elektr maydon ta'sirida nuqtaviy zaryad r_2 sm gacha siljigan. Bunda $A = 50$ erg.ga teng ish bajarilgan. I_p zaryadini chiziqli zichligini aniqlang.

A. $6 \times 10^{-7} Kl/m$ B. $6 \times 10^{-6} Kl/m$ C. $6 \times 10^{-5} Kl/m$ D. $6 \times 10^{-4} Kl/m$

11. Nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi nimaga teng?

A. $E = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 R^2}$ B. $E = \frac{1}{4\pi\epsilon_0 R^2}$ C. $E = \frac{q_1}{4\pi\epsilon_0 R^2}$ D. $E = \frac{q_1 \cdot q_2}{4\pi\epsilon_0 R}$

12. SGS sistema uchun nuqtaviy zaryadning maydon kuchlanganligi nimaga teng?

A. $E = \frac{q}{\epsilon_0 R^2}$ B. $E = \frac{1}{\epsilon_0 R^2}$ C. $E = \frac{q_1}{\epsilon_0 R^2}$ D. $E = \frac{q_1 \cdot q_2}{\epsilon_0 R}$

13. Tekis zaryadlangan sharning sirt zichligi $\delta = 6,4 \cdot 10^{-8} \frac{K_7}{m^2}$ teng.

Shar markazidan $r = 6R$ masofada joylashgan nuqtada elektr maydon kuchlanganligini aniqlang.

A. $2 \times 10^2 V/m$ B. $2 \times 10^3 V/m$ C. $2 \times 10^4 V/m$ D. $2 \times 10^5 V/m$

14. Elektr maydon kuchlanganligi qanday birliklarda o'chaniladi?

A. V/m B. J/m C. s/m D. A/m

15. Tekis zaryadlangan tekislikning elektr maydoniga kiritilgan $0,1 \cdot 10^9 Kl$ zaryadga qanday kuch ta'sir qiladi. Tekislik zaryadining sirt zichligi $10^3 Kl/m^2$ teng. Muhitning dielektrik singdiruvchanligi $\epsilon = 5$

A. $1,1 \times 10^5 N$ B. $1,1 \times 10^6 N$ C. $1,1 \times 10^7 N$ D. $1,1 \times 10^8 N$

16. Zaryadning sirt zichligi uchun to‘g‘ri yozilgan formulani ko‘rsating.

- A. q/S** **B. S/q** **C. A/q** **D. Q/S**

17. Tekis zaryadlangan, radiusi 2 sm teng bo‘lgan shar olaylik, uning zaryadini sirt zichligi $\delta=5 \cdot 10^{-7}\text{ Kl/m}^2$ teng. Shar markazidan $0,5\text{ m}$ masofada joylashgan nuqtada maydon potensialini aniqlang.

- A. $50V$** **B. $100V$** **C. $150V$** **D. $200V$**

18. Elektr dipol momenti uchun to‘g‘ri yozilgan formulani ko‘rsating.

- A. qxI** **B. QxI** **C. AxS** **D. Ixq**

19. Nuqtaviy zaryad potensiali uchun to‘g‘ri yozilgan formulani ko‘rsating.

$$\text{A. } \varphi = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 R} \quad \text{B. } \varphi = \frac{1}{4\pi\epsilon_0 R^2} \quad \text{C. } \varphi = \frac{q_1}{4\pi\epsilon_0 R^2} \quad \text{D. } \varphi = \frac{q_1 \cdot q_2}{4\pi\epsilon_0 R}$$

20. Elektrostatik maydon potensiali uchun to‘g‘ri yozilgan ifodani ko‘rsating.

- A. $\varphi=\Pi/q$** **B. $\varphi=Axq$** **C. $\varphi=A/q$** **D. $\varphi=\Pi xq$**

21. $2 \cdot 10^{-9}\text{ Kl}$ teng nuqtaviy zaryaddan $0,4\text{ m}$ va 1 m masofada joylashgan nuqtalar orasidagi potensial farqni aniqlang.

- A. $300V$** **B. $200V$** **C. $100V$** **D. $0V$**

22. $2 \cdot 10^{-9}\text{ Kl}$ zaryadga ega bo‘lgan zarracha tezlashtiruvchi elektr maydonda 10 MeV kinetik energiyaga ega bo‘ladi. Shu maydonda zarracha harakat yo‘lining boshlang‘ich va oxirgi nuqtalarining potensiallar farqini toping. Zarrachani boshlang‘ich kinetik energiyasi nolga teng deb olinsin.

- A. $0,8 \cdot 10^{-3}V$** **B. $0,7 \cdot 10^{-3}V$** **C. $0,61 \cdot 10^{-3}V$** **D. $0,5 \cdot 10^{-3}V$**

23. Elektr sig‘im uchun to‘g‘ri yozilgan formulani ko‘rsating.

- A. $C=q/\varphi$** **B. $C=qx\varphi$** **C. $C=\varphi/q$** **D. $S=U/\varphi$**

24. Kondensatorlarni parallel ulaganda umumiy sig‘imni topish formulasini ko‘rsating.

A. $C = C_1 + C_2 + \dots + C_n$
 C. $C = C_1 \cdot C_2 \cdot \dots \cdot C_n$

B. $C = C_1 - C_2 - \dots - C_n$
 D. $S = S_1 + S_2 + \dots + S_n$

25. Elektr sig‘im qanday birliklarda o‘lchaniladi?

A. F B. V C. A D. J

26. Elektr maydon energiyasi qanday birliklarda o‘lchaniladi?

A. J B. F C. V D. A

27. $2 \cdot 10^{-9} KJ$ zaryadni cheksizlikdan zaryadlangan shar sirtidan 1sm masofada joylashgan nuqtaga ko‘chirishda bajarilgan ishni hisoblang.
 Shar zaryadning sirt zichligi $\delta = 10^{-9} KJ$ radiusi esa 1 sm ga teng.

A. $1,13 \times 10^4 J$ B. 13×10^5 C. $1 \times 10^4 J$ D. $13 \times 10^4 J$

28. Kondensatorlar necha xil bo‘ladi?

A. 3 B. 4 C. 5 D. 6

29. Kondensator plastinkalari bir-biridan qanday muhit bilan ajratilgan bo‘ladi?

A. dielektrik B. o‘tkazuvchan
